

Ulug‘bek HAMDAMOV

**JAHON ADABIYOTI: MODERNIZM VA POSTMODERNIZM
(O‘quv qo‘llanma)**

Toshkent – 2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy kengashining ... qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Kitob ikki bo‘limdan iborat. Birinchi – asosiy bo‘limda «Modernizm», «Modernizm va o‘zbek adabiyoti», «Postmodernizm» hamda «Hozirgi zamon jahon adabiyoti muammolari» kabi tadqiqotlar, ikkinchi – ilova qismida mavzuga aloqador suhbatlar, maqolalar o‘rin olgan. Yangilanayotgan badiiy tafakkurning mahsuli sifatida jahon va o‘zbek adabiyotida o‘zini yetarlicha namoyon etib kelayotgan yangi adabiy oqimlar – modernizm, postmodernizm hamda ularning o‘ziga xos muammolarini yoritishga bag‘ishlangan, yurtimizda ilk marotaba nashr yuzini ko‘rayotgan mazkur o‘quv qo‘llanma ijtimoiy-gumanitar sohalarda, jumladan, tarjima nazariyasi va amaliyoti, o‘zbek filologiyasi, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish kabi qator ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar, o‘qituvchi-mutaxassislar uchun zarur manba bo‘lib xizmat qiladi.

KIRISH

Modernizm XX asr tongotarida dastlab jamiyatning kayfiyat-dunyoqarashida, so‘ng tasviriy san’at va adabiyotda Yevropada paydo bo‘lgan adabiy oqim hisoblanadi. Olimlar modernizmning paydo bo‘lish vaqtini har xil ko‘rsatishadi. Ayniqsa, uning ijodkor badiiy tafakkuriga ta’siri Birinchi va Ikkinchchi jahon urushlaridan keyin keskin kuchayib borgan. Porloq kelajak qurish orzusi bilan yashayotgan insoniyat urushlar vaqtida million-million begunoh turdoshining yostig‘i quriganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Natijada u *bu dunyoni tadbirlar bilan tuzatib bo‘lmaydi deb butun e’tiborni botingga qaratadi. Inson real hayotda emas, balki xayolidagina baxtli bo‘la oladi* degan qarash modernizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi deyiladi ayrim fundamental manbalarda¹. Realizm borliqni haqqoniy aks ettirishni da’vo qilsa, modernizm yangi reallik yarataman dedi. Chunki u mavjud reallikni tuzatib bo‘lmaydi deb hisobladi. Modernizm olamni xaos deb bildi va undan qochdi. Tashqi dunyoda go‘zallik yo‘q, uni botindan qidirish kerak deb o‘yladi. Shu bilan birga, antroposentrik gumanizmni, ya’ni insonga muhabbatni yoqlab chiqdi. Demak, modernizm atayin o‘ylab topilgan metod bo‘lmay, bashariyatning uzun taraqqiyot yo‘lida tarixiy-siyosiy va psixologik evrilishlar natijasida inson ko‘nglida paydo bo‘lgan ruhiy-ma’naviy inqiroz bilan bog‘liq hol – kayfiyatdir. Ma’lumki, kayfiyat o‘zgarib turadi. Binobarin, modernizmni ko‘klarga ko‘tarib, uni voqelikni aks ettirishning bundan keyingi birdan bir usuli deyish ham, modernizmni tanqid qilib, «Sharqqa yet hodisa» deya uni tadqiq etishdan yuz o‘girish ham birdek xato yo‘ldir. Zero, rivojlangan mamlakatlarda modernizmdan so‘ng postmodernizm ham o‘zini namoyon qilib bo‘lgani haqida bahslar bo‘lmoqda. Hatto san’at-u adabiyot modernizm va postmodernizmni bosib o‘tib, metarealizm, metamodernizm, astro davriga qadam bosdi degan fikrlar o‘rtaga tashlanmoqda. E’tibor qilish kerakki, tarixiy-ijtimoiy formatsiyalar turli geografik mintaqalarda turlicha kechadi. Demak, Yer sharining qaysi bir mamlakatida modern, ikkinchisida postmodern,

¹ Модернизм. Сборник. – М.: Искусство, 1987.

boshqasida metamodernizm, yana birida realizm yoki romantizm kayfiyatini ustuvor bo‘lishi g‘oyat tabiiy hol ekanligini tushunish masalaga to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi. Ko‘rinadiki, «izm»lar jamiyatlarning o‘zgarib-almashib turuvchi kayfiyatlaridan paydo bo‘lib, san’at-u adabiyotda o‘ziga xos ma’no-mazmunni ifodalovchi usullar, badiiy priyomlar tarzida o‘zini namoyon qiladi.

Postmodernizm – modernizmdan keyin paydo bo‘lgan adabiy hodisa, metod. Uning ham tug‘ilish vaqtini olimlar har xil belgilashadi. Birlari XX asrning 70-yillarida, boshqalari sal avvalroqdan boshlanganini isbotlashga urinishadi. Postmodernizmning paydo bo‘lishi ham dunyo jamiyatlarida yuz bergan ko‘plab jiddiy sabablarga borib taqaladi. Ayrim olimlarning uqtirishicha, bashariyat psixologik jihatdan termoyadro urushini boshidan kechirdi, lekin uning o‘zi tirik qoldi. Shuning uchun ham inson «yonga qolgan» hayotining zavq-u shavqqa, o‘yinga boy o‘tishini istab postmodernizmni yaratdi: endi u dunyodagi hamma narsani, jumladan, san’at-u adabiyotni ham o‘yinga aylantirmoqchi bo‘ladi va h.k.

Aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, modernizm va postmodernizm kabi san’at va adabiyot yo‘nalishlari o‘ta serqirra, murakkab hodisalardir. Ayni paytda, ular bugungi dunyo kayfiyatini ko‘proq aks ettirganligi bois zamonaviy inson e’tiboridagi oqimlar ekanidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bu borada, ayniqsa, jahon va o‘zbek yoshlarining avangard oqimlarga bo‘lgan alohida qiziqishini yodda tutish kerak. Demak, modernizm va postmodernizmning o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklarini nazarda tutgan holda ular bilan bog‘liq butun boshli qarashlar tizimini, bu tizimlar vujudga keltirgan san’at va adabiyotni o‘rganish davr taqozosidir.

Muhtaram o‘quvchi! Qo‘lingizdagi kitob ikki bo‘limdan iborat. Birinchi – asosiy bo‘limda «Modernizm», «O‘zbek adabiyoti va modernizm», «Postmodernizm» hamda «Hozirgi zamon jahon adabiyoti muammolari» kabi tadqiqotlar, ilova qismida esa mavzuga aloqador suhbatlar, maqolalar, so‘zlik va foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati o‘rin olgan. Modernistik adabiyotga bo‘lgan turlicha munosabatlarni tushunish-tushuntirish maqsadida ustoz mualliflar (yozuvchi Pirimqul Qodirov va professor Ozod Sharafiddinov)ning maqolalari

ham sizning e'tiboringizga havola etildi. O'ylaymizki, yangilanayotgan badiiy tafakkurning mahsuli sifatida bugun dunyo adabiyotida o'zini yetarlicha namoyon etib kelayotgan yangi adabiy oqimlar – modernizm, postmodernizm hamda ularning o'ziga xos muammolarini yoritishga bag'ishlangan mazkur o'quv qo'llanma ijtimoiy-gumanitar sohalarda, jumladan, tarjima nazariyasi va amaliyoti, o'zbek filologiyasi, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish kabi qator ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar, mutaxassis-o'qituvchilar uchun zarur manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ilk tajriba ekanligi bois o'quv qo'llanmaning o'ziga yarasha xato va kamchiliklari bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda mutaxassis olimlar, o'qituvchilar, talabalar va mavzuga qiziquvchi barcha o'quvchilarimizdan tadqiqotni takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalarni kutib qolamiz hamda keyingi nashrlarda ularni albatta e'tiborga olamiz.

1-mavzu: MODERNIZM

REJA:

- 1. Modernizm va dekadans.**
- 2. Modernizmning paydo bo‘lishi va tarixi.**
- 3. Modernizmning o‘ziga xos xususiyatlari, yo‘nalishlari.**
- 4. Modernizm haqida g‘arb va o‘zbek olimlarining qarashlari.**
- 5. Modernizm namoyandalari: Joys, Kafka, Kamyu.**
- 6. Modernizm va o‘zbek adabiyoti.**

Tayanch so‘z va iboralar: modernizm, dekadans, XX asrning yetakchi oqimi, elitar (xos) san’at, «san’at san’at uchun» g‘oyasi, modernizm ildizlari, modernizm yo‘nalishlari, antiroman, antidrama, modernizm va yangi o‘zbek adabiyoti.

Modernizm g‘oyat rang-barang va murakkab falsafiy-estetik hodisa bo‘lib, u inson (jumladan, ijodkor) ijtimoiy, siyosiy, psixologik, falsafiy, badiiy-estetik tafakkur tarzidagi jiddiy o‘zgarishlar negizida maydonga kelgan. Mazkur o‘zgarishlarning salmog‘i g‘oyat zalvorli. U badiiy tafakkur shaklidagi o‘zigacha mavjud bo‘lgan an’anaviy qarashlarning barchasini inkor qiladi va o‘z realligini ilgari suradi.

Modernizm haqida prof. D. Quronov (va boshq.) tayyorlagan lug‘atda shunday deyiladi: «MODERNIZM (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san’at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiyligi nomi sifatida tushuniladi... M. o‘tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy mifik va yo‘nalishlar (*ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm* va b.) o‘ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi. M. doirasidagi mifik va oqimlar nechog‘lik turfa bo‘lmisin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki asrlar davomida shakllangan an’anaviy xristian dunyoqarashidan ham deyarli uzilib, F. Nitshe, Z. Freyd, A. Bergson, U. Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan

oziqlanadi. Shunga mos tarzda M. yo‘nalishidagi maktab va oqimlarning aksariyati adabiy-madaniy an’analarni ham turli darajada inkor qiladi va yangi davrga mos yangi adabiyot yaratish da’vosini olg‘a suradi... M.ga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o‘rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya’ni bu o‘rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o‘z-o‘zini ifodalashi (*ekspressionizm*) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda subyektivlikning oldingi o‘ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intuitiv bilishning yuqori qo‘yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayricha e’tibor berilishi (*ong oqimi*), ijodkor shaxs ijodiy taxayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o‘z o‘y-hislarini hech qanday (ma’naviy, axloqiy, siyosiy va b.) cheklovlsiz ifodalash huquqining e’tirof etilishi ham M.ga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat g‘oyaviy-mazmuniy, balki shakliy izlanishlarda ham mutlaqo daxlsiz. M. asrlar davomida shakllangan adabiy kanonlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi (*futurizm*) turadi. Bu hol M.dagi badiiy obraz strukturasi, asarning subyektiv va obyektiv tashkillanishi, bayon tarzi, syujet-kompozitsion qurilishi, til xususiyatlari – xullas, adabiy asarning barcha sathlarida shakliy o‘ziga xosliklarni yuzaga keltiradi»².

Manbalar (masalan, «Madaniyatshunoslik» o‘quv qo‘llanmasi) aytadiki, modern istilohining paydo bo‘lganiga 1000 (ming) yildan ko‘proq vaqt bo‘lgan. Modern so‘zi «...ilk bor milodiy V asrda qo‘llanilgan bo‘lib, rasmiy maqom egallab borayotgan zamonaviy masihiylikni o‘tmishdagi majusiy Rimdan ajratish uchun qo‘llana boshlagan. Zotan, masihiylik oqimi Rim uchun tamomila yangilik edi, chunki Yahudiya uzoq yillar garchi Rim imperiyasi tarkibida bo‘lsa ham, masihiylikka ashaddiy qarshilik qilib keldi. Ammo masihiylik majusiylikka nisbatan ilg‘or, o‘z davridagi progressiv oqim bo‘lgani uchun barcha qarshiliklar behuda bo‘lib qoldi»³.

² Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.

³ Йўлдош К., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б.377.

Modernizmning asosiy darakchilari deya Dostoyevskiy («Jinoyat va jazo»), «Aka-uka Karamazovlar»), Uitmen («Maysalar yaproqlari»), Bodler («Yovuzlik chechaklari»), Rembo («Dil yorishishi») va Stringberg (so‘nggi pyesalari) kabi yozuvchi, shoir va dramaturglar esga olinadi. Ijodkorlarga kuchli ta’sir qilgan faylasuf va ruhshunoslardan Fridrix Nitshe, Anri Bergson, Zigmund Freyd, Uilyam Jeyms va boshqalar nomini sanash mumkin.

Sho‘ro davrida modernizmga taqiq qo‘yildi. Bu ishning o‘ziga yarasha arzigulik sabablari bo‘lsa-da (chunonchi, modernizm individualizmni yoqlaydi, axloqiy chegarani tan olmaydi, har qanday an’anani inkor qiladi, Yevropa madaniyatini boshqa madaniyatlardan ustun qo‘yadi va h.k.), oqimning dunyo tan olgan, jahon adabiyotida alohida mavqega ega vakillari borki, ularning asarlarini man qilish insonni yaxshi bilmaslik, uning badiiy tafakkur tadrijini mensimaslik bilan teng. Zero, modernizmni bilishga intilish insonni bilishga, uning botinidagi puchmoqlarga bo‘ylashga, ichkaridagi ziddiyatlardan boxabar bo‘lishga intilishdir, buning mahliyolik yoki g‘arbparastlik bilan aslo aloqasi yo‘q. Insonning san’at-u adabiyotdagi har bir hodisaning tub ildizlariga sog‘lom nazar sola bilishi alaloqibat uning dunyoqarashi butunligini ta’minlabgina qolmay, ma’naviy immunitetini ham chiniqtiradi.

«Modernizm nima?» degan savolga dunyo va o‘zbek olimlari ko‘pdan beri javob berib kelishadi, aytish joizki, haligacha bu masala ustida bahslar yakunlangani yo‘q. Zero, modernizm o‘zbek olimi, professor Ozod Sharafiddinov ta’kidlab aytganidek, «jo‘n hodisa» emas. O‘zbek adabiyotshunoslida, ayniqsa, istiqlol yillarida modernizm atrofida qizg‘in bahslar bo‘ldi. Bahslarda modernizmni o‘zbek mentalitetiga butunlay yot mafkura yoki, aksincha, modernizm insoniyat badiiy-tafakkur tadrijining bir bosqichi, uni o‘qib-o‘rganishning hech bir zarari yo‘q degan turli qarashlar aytildi. Chunonchi, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov «Absurd ma’niszilikdir»⁴ maqolasida modernizm oqimlaridan biri – absurdni keskin tanqid ostiga oladi, uni «inqiroz», ekzistensializm oqimini esa «subutsiz» deb ataydi. Bu qarashga javoban

⁴ ЎзАС. 2002 й. 28 июнь.

filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov o‘z nuqtayi nazarini ilgari surib, absurd va ekzistensializm yo‘nalishidagi asarlarga san’at hodisasi sifatida qarash kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi: «B. Sarimsoqovning absurd va ekzistensializmga bergan bahosi o‘ta munozarali. San’at hodisasi sifatida absurd tushunchasi bu so‘zning lug‘aviy ma’nosidan o‘zgacharoqdir. Absurd, B. Sarimsoqov da’vo qilganidek, aslo ma’niszilik emas, balki, aksincha, teran ma’noga ega. Absurd adabiyot, san’atda adashgan, aldangan, behuda, samarasiz mehnat-faoliyatga, ma’nisz qismatga mutbalo etilgan shaxsning fojiasini ochib berish, kutilmagan tomonlardan o‘ziga xos tarzda badiiy tahlil etishdan iborat»⁵. Ko‘rinib turganidek, qarashlar har xil, ziddiyatli. Bahs-u munozaralar hali-hanuz davom etmoqda. Talaba-yoshlar bu bahsda qaysi fikr jo‘yaliroq ekanini bilish uchun modernizm va uning yo‘nalishlari mohiyatini teranroq o‘rganib chiqishlari lozim bo‘ladi. Demak, yana o‘sha savol: modernizm nima?

Modernizm XX asr tongotarida (XIX asrning so‘nggi choragida degan qarashlar ham mavjud) dastlab kayfiyat-u dunyoqarashda, so‘ng tasviriy san’atda, keyinchalik adabiyotda paydo bo‘lgan san’at yo‘nalishi hisoblanadi. Modernizmning yana bir nomi «dekadans» bo‘lib (ayrim olimlar uni modernizmdan burunroq maydonga kelgan deyishadi), bo‘hron, inqiroz ma’nolarini anglatadi. Bu narsa burjua tuzumining ich-ichidan bo‘hronga yuz tutishi bilan bog‘liq. Ya’ni avval burjua jamiyatida inqiroz yuz berdi, so‘ngra san’at-u adabiyotda modernistik oqim tug‘ildi. Modernizmning aniq paydo bo‘lish vaqtini turlicha ko‘rsatishadi. Ayniqsa, uning ijodkor badiiy tafakkuriga ta’siri ikkita jahon urushidan keyin keskin kuchayib borgan. Chunki inson nomi va sha’niga munosib keljak qurish orzusi bilan yashayotgan odamzod jahon urushlari vaqtida million-million begunoh turdoshining yostig‘i quriganini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radi. Natijada, u *bu dunyoni tadbirlar bilan tuzatib bo‘lmaydi deb butun e’tiborni botinga qaratadi. Inson real hayotda emas, balki xayolidagina baxtli bo‘la oladi* degan qarash modernizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga katta

⁵ Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент, “Фан”, 2007. Б.117-171.

turtki bo‘ldi deyiladi⁶. Ispan esteti va faylasufi **O.Gasset** yangi san’at, ya’ni modern san’ati odamlarni ikkiga bo‘lib tashladi: uni tushunadiganlar va tushunmaydiganlarga, tushunadiganlar kamchilikni tashkil qiladi, tushunmaydiganlar esa yangi san’atni yomon ko‘radi deydi. Uning fikricha, bu san’atning mohiyati inson e’tiborni tashqaridan olib, 180 gradusga burib, o‘z ichki olamiga qaratganligidadir⁷. Ilgari adabiyot tashqari (real voqelikni)ni erinmay ta’riflab chiqardi, bugun esa u qiziq bo‘lmay qoldi, inson uchun uning o‘z ko‘ngli qiziq.

Realizm borliqni aks ettirsa, modernizm yangi reallik yarataman deydi. Chunki mavjud reallikni tuzatib bo‘lmaydi deb hisoblaydi. Modernizm olamni xaos deb bildi va undan qochdi. Tashqi dunyoda go‘zallik yo‘q, uni botindan qidirish kerak deb o‘yladi. Shu bilan birga, antroposentrik gumanizmni, ya’ni insonga muhabbatni yoqlab chiqdi. Demak, modernizm deganimiz to‘qlikka sho‘xlikdan atayin o‘ylab topilgan ijodiy metod bo‘lmay, bashariyatning uzun taraqqiyot yo‘lida tarixiy-siyosiy evrilibishlar natijasida inson ko‘nglida paydo bo‘lgan ruhiy-ma’naviy inqiroz bilan bog‘liq hol – kayfiyatdir. Hol o‘zgaruvchan. Binobarin, modernizmni ko‘klarga ko‘tarishning, unga mubtalo bo‘lishning ham hech bir ma’nosi yo‘q. Zero, bugungi kun insoni ko‘nglida ertaga tamomila o‘zgacha hollar paydo bo‘lishi tabiiy. Masalan, modernizmdan so‘ng maydonga postmodernizm tushdi. Boz ustiga, postmodernizmning ham umri sob bo‘lgani haqida dunyo olimlari jiddiy mulohaza yuritishmoqda⁸. Hatto san’at-u adabiyot allaqachon «metamodernizm» (ayrimlar «astro», boshqalari «metarealizm») davriga qadam bosgan dunyoda yangi yo‘l qidiryapti degan fikrlar o‘rtaga tashlanmoqda. Rus olimi, akademik Yu. Borev esa insoniyat birinchi marta yo‘lsiz, paradigmasisiz qoldi⁹ degan fikrni o‘rtaga tashladi. Endi bu vaqt masalasidir. Voqelikni hamma joyda bir xil idrok etish mumkin emas. Chunki tarixiy-ijtimoiy formatsiyalar hamma joyda har xil kechadi. Davri ham, sifat darajasi ham farqlanadi. Shu ma’noda dunyoda hech bir olim modernizmni «insoniyatning doimiy va mutlaq

⁶ Модернизм. Сборник. – М.: Искусство, 1987.

⁷ Гассет Х.О. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991.

⁸ Rossiyyadagi «Литературная газета» 2012-yilda bu haqida qator bahslar uyushtirdi – U.H.

⁹ Борев Ю. Инсон ва инсоният ҳаётининг олий мақсади ва маъноси // ШЮ. 2001. №4. – Б.158 – 163.

кайфиятидир» деган иddao bilan chiqa olmaydi. Modernizm ham tug‘ildi va hamma oqimlar kabi o‘z o‘rnini insoniyatning navbatdagi dunyoqarashi-yu kayfiyatini ifodalovchi yo‘nalishga bo‘shatib ber(a)di. Ko‘rinadiki, «izm»lar jamiyatlarning o‘zgarib-al mashib turuvchi kayfiyatlarining san’at-u adabiyotga aksi ekan.

Modernizm haqida gap ketganda ta’kidlash joizki, u nafaqat adabiy hodisa, ayni paytda, inson faoliyatining juda ko‘p qirralarini qamrab olgan bo‘lib, rassomchilik, haykaltaroshlik, arxitektura, dizayn kabi sohalarda ham o‘zini namoyish etdi, etmoqda. Hatto modernizmning san’atdagi ilk qadamlari tasviriy san’at bilan bog‘liq. Rus olimi Aleksandr Genisning «XX asrning yetakchi uslubi»¹⁰ nomli maqolasi va ulkan ruhiyatshunos olim Karl Gustav Yungning «Pikasso»¹¹ deb atalgan essesidan modernizm haqidagi savollarning ayrimlariga javob topish mumkin. Genis yozadi: «Tarix vaqt bilan hisoblashmaydi, biroq bizlar solnomaga nazar solmay ish yurita olmaymiz. Ortga nazar tashlar ekanmiz, modernizm tarixning qaysi pallasidan boshlanganini bilib olamiz. Londondagi mashhur ikki badiiy muzey jamoasi yaqinda ana shunday muammoga duch keldi. Ular o‘z xazinalaridagi san’at asarlarini o‘zaro taqsimlab olishlariga to‘g‘ri keldi: natijada Milliy galereyaga mumtoz tasviriy san’at asarlari, Teyt galereyasiga esa zamonaviy ijodkorlarning asarlari nasib etdi. Bu borada 1900-yil chegara chizig‘i vazifasini o‘tadi. Bu chegara chizig‘i har qancha bahsli va shartli bo‘lmisin, nafaqat taqvimiyl, balki mantiqiy haqiqatga yaqinligi bilan ham e’tiborni tortadi. Biz modernizmni o‘tgan asr bilan tengdosh hisoblab ham tarixan, ham badiiy jihatdan adolatli ish tutgan bo‘lamiz»¹².

Modernizmning mohiyati haqida fikr yuritarkan olim modernizmgacha san’atda vositalargina o‘zgartirib kelingani, modernizm «tadqiq qilinayotgan obyektning o‘zini tamomila yangilagani»ni ta’kidlaydi. «Nitshening «hech qanday faktlar mavjud emas, balki ularning talqini, in’ikosigina bor» degan aqidasini dastak qilib olgan modernizm muallifning tasavvuridagina mavjud voqelikning

¹⁰ XX асрнинг етакчи услуби // Жаҳон адабиёти. 2001 йил ноябрь.

¹¹ O’sha joyda.

¹² Генис А. XX асрнинг етакчи услуби // Жаҳон адабиёти.

turli talqinlari, dunyoni turli subyektivizmlarning kurash maydoni sifatida aks ettira boshladi», – deb yozadi yana A. Genis.

Yung esa modernistik san'at mohiyatida ruhiy xastalikni ko'radi. U bunday xastalikka chalingan kishilarni ikki guruhga ajratadi: «Bular nevrotiklar va shizofreniklar. Birinchi guruhga mansub (kishilar) sintetik xarakterdagi kuchli va yaxlit tuyg'uga yo'g'rilgan suratlar chizishadi... Ikkinci guruh, aksincha, shunday suratlar chizadiki, bu suratlar ularning mualliflariga hissiyat begona ekanini ko'rsatib turadi. Ular har handay holda yaxlit uyg'un tuyg'uni emas, balki, aksincha, qarama-qarshi kechinmalarni yoki ularning umuman yo'qligini ifodalaydi. Bu suratlarning badiiy shaklida esa siniq chiziqlarda aks etgan tanazzul, inqiroz kayfiyati ustuvorlik qiladi. Bu o'z navbatida, ijodkorning ruhan bo'linganini, ya'ni o'zini boshqa odam deb fahmlashini bildiradi. Suratlar tomashabinga yoqmaydi yoki aqlga to'g'ri kelmaydi, tajovuzkor ruhdaligi va beo'xshov nosamimiyligi bilan unda qo'rinchli taassurot qoldiradi. Picasso ana shu ruhiy (psixologik) tipga mansub»¹³.

Bunday qarash modernizmning kelib chiqishida ijtimoiy-psixologik faktorning dominant mohiyatiga urg'u beradi. Chindan ham, XX asrga kelib insonning turmush tarzi sivilizatsiya natijasida misli ko'rilmagan darajada o'zgardi, murakkablashdi, odamlarning o'zaro ruhiy-ma'naviy muloqotiga putur yetdi – kamaydi, natijada ruhiy muloqot ehtiyoji insonning ichiga hibs etildi. Tashqaridan kutilgan baxt, najot ikkita jahon urushi oqibatida sarobga aylandi va inson o'z ehtiyojlari bilan yolg'iz qoldi. Modernizmning ruhiy-psixologik asosi shu nuqtadan boshlanadi.

Darhaqiqat, insoniyat hayotiga modern ruhning kirib kelishi asrlar davomida shakllanib-turg'unlashib qolgan dunyoqarashni ostin-ustin qilib yubordi. Modernizm shunday mohiyatga ega ediki, u eng an'anaviy, eng mumtoz shakllar, tushunchalar bag'riga ham hech tortinmay, ikkilanmay yorib kirdi. Ularni inkor etib, o'zining yangi qadriyatlarini ilgari surdi. Modernizm bu – XX asrga kelib insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'naviy sohadagi

¹³ Юнг К.Г. Пикассо / Аҳмад Отабой таржимаси // Жаҳон адабиёти. 2001 йил ноябрь.

yalpi taraqqiyoti tufayli onglarda sodir bo‘lgan ulkan o‘zgarish – tafakkur tarzidagi yangi bosqich. U ma’lum muddat davrning umumiyligi, universal kayfiyati darajasiga chiqdi. U realizmga qarshi emas, balki realizm zaminida (materialida) barpo etilgan zamonaviylikning yangi qasri bo‘lib dunyoga keldi, yashadi, yashamoqda.

Modernizm haqida so‘z borganda uning o‘zak muammolarini qamrab olgan quyidagi masalalar mazmun-mohiyatini tushunib olish lozim bo‘ladi. Modernizm va mifologiya munosabatlari, modernizm yo‘nalishlari: ekspressionizm, dadaizm, kubizm, futurizm, abstraksionizm, syurrealizm kabi oqimlar, elitar (xos) san’at, «san’at san’at uchun» tamoyili, Joys, Kafka, Prust, Bekket kabi g‘arb yozuvchi va dramaturglarining ijodi, Sartr ekzistensializmi, Kamyu absurd falsafasi, modernizm va XX asr Sharq adabiyoti kabi masalalar mohiyatini anglash modernizm haqidagi tushunchalarimizni ancha tiniqlashtiradi. Quyida ana shu masalalarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz:

Elitar (xos) san’at tushunchasining mohiyati shundan iboratki, modern adabiyot hamma uchun, ayniqsa, omma uchun mo‘ljallangan bo‘lmay, uni tushunishga qodir oz sonli o‘quvchilar darjasini hisobga olinib yaratiladi. Chunonchi, asarlari modernchilarining falsafiy poydevorlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan olmon faylasufi F. Nitshe o‘zining «Zardusht tavallosi» kitobiga «Hamma uchun mo‘ljallanmagan kitob» deb yozib qo‘ygan edi.

«San’at san’at uchun». Bu ibora ilk bor 1933-yilda Fransiyada paydo bo‘ldi. «San’at san’at uchun» konsepsiysi asarning mazmuniga emas, shakliga e’tibor qaratdi, estetik jihatdan go‘zal bo‘lishini yoqlab chiqdi. Realizm va uning prinsiplarini inkor qildi, sof san’at g‘oyasini ilohiyashtirdi. Go‘zallikni reallikdan tashqarida deb bildi. XIX asr oxiriga kelib bu konsepsiya inqirozga yuz tutdi. Lekin uning estetizm prinsiplari formal muktabning rivojiga ta’sir qildi.

Ekspressionizm (fr. ifodalash). XX asr birinchi choragida nemis adabiyotida shakllanib, so‘ng boshqa milliy adabiyotlarga tarqalgan adabiy yo‘nalish bo‘lib, u adabiyot va san’atda obyektiv voqelik emas, balki ijodkor meni ustuvor bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi. U voqelikni tasvirlash emas, ijodkor menini,

qalbini ifodalash muhim deb biladi. Yo‘nalish nomi ham shu yerdan kelib chiqqan. Ifodani tasvirdan, intuitsiyani mantiqdan ustun deb qaraydi.

Dadaizm (fr. «dada» – yog‘ochdan ishlangan o‘yinchoq ot, ko‘chma ma’noda – bolalarga xos betartib nutq, ya’ni bolaning og‘zidan chiqqan «da-da-da» degan, hech qanday ma’noni anglatmaydigan tovushga taqlid) – Birinchi jahon urushi vaqtida urushga qarshi isyon kayfiyatidan Yevropada paydo bo‘lgan avangardlik oqimi. Dadaizm mavjud tartibotni absurd deb bildi va hamma narsani inkor qildi. An’analarga nihilistik munosabatda bo‘lib, isyonkorlikni bayroq qilib olganlar. Adabiyotda ma’nosiz so‘z va tovushlarni ishlatish, tasviriy san’atda esa narsalarni ma’nosiz tarzda birga chizish kabilar bo‘lgan. Haqiqiy adabiyot ijtimoiylikdan xoli bo‘ladi degan aqidani ilgari surganlar. Urushdagagi shafqatsizlik inson hayotini ma’nosiz qilib qo‘yganligi dadaistlar dasturini ham «hech narsa» bilan «bezadi»; «Dadaistlar ilgari surgan g‘oya hech narsa, hech narsa, hech narsadir, bas, qo‘lga kiritiladigan natija ham hech narsa, hech narsa va hech narsadir», deyishdi o‘z yo‘nalishlari haqida. Ratsionalizm va mantiqni urushlar-u konfliktlarning sabablaridan biri deb hisoblaganlari uchun ham dadaistlar har qanday estetikani izchil ravishda buzish yo‘lidan bordilar.

Antiroman (fr. *antiroman*) – shartli istiloh bo‘lib, «yangi roman» istilohi bilan bir qatorda ishlatiladi. XX asr o‘rtalaridagi fransuz modernizmi nasriga nisbatan ham qo‘llaniladi. Ilk bor termin 1633-yilda Shard Sorelning «Ekstravagant Berger» romani qo‘sishimcha nomi sifatida ishlatilgan. 1948-yilda J.P. Sartr tomonidan qayta iste’molga kiritilgan.

Bunda roman janrining klassik elementlaridan voz kechiladi. Masalan, izchil syujetdan, qahramonlar obrazlaridagi butunlikdan. Konformizm va begonalashuv bilan bog‘liq alohida situatsiyalar tahlil etiladi. Vaqt me’yorlariga rioya qilinmaydi, tilda yangilikka e’tibor qaratiladi, chunonchi, punktuatsiya, grammatika va b.da erkin harakat qilinadi. Aloqasi bo‘lmagan rasmlar matnga kirib qoladi, sahifalar bo‘sh tashlab ketiladi va h.k.

Antiromanga misol sifatida V.V.Nabokovning «Rangsiz olov» deb nomlangan 999 misradan iborat dostonini keltirish mumkin. Doston ko‘plab adabiy

allyuziyalar bilan to‘ldirilgan. Yoki Xulio Kortasarning «Mumtozlik o‘yini» romani alohida strukturasi bilan ajralib turadi. Muallif so‘zboshisida kitobda «ko‘p kitob» borligi bayon qilinadi. Ya’ni kamida ikki xil o‘qish kerakligi uqtiriladi. Birinchisi oddiy o‘qish bo‘lib, bunga romanning dastlabki ikki qismi kiradi: «U tomondan» va «Bu tomondan». Ikkinchisi maxsus o‘qish hisoblanib, bunda yana qo‘srimcha ravishda romanning «Narigi tomonlardan» deyilgan qismlarini o‘qish tavsiya etiladi.

Antidrama. Absurd teatri. 1950-yildan, E. Ioneskoning «Taqirbosh qo‘sishchi ayol» pyesasi sahnaga qo‘yilgan vaqtidan boshlangan. E. Ionesko va S. Bekket dramaturgiyasini har xil baholash bor: absurd dramasi, paradoks dramasi va antidrama. Chunki aynan shularga kelib dramaning an’anaviy ko‘rinishi buzildi: janr, syujet, voqeaning psixologik rivojida tamoman boshqa o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Antidrama hayotni mantiqsiz deb biladi. Lekin ekzistensialistlar, Sartr va Kamyudan farqli o‘laroq, Bekket va Ionesko falsafa va mafkurani inkor qilishadi. Ular o‘z teatrlarini mavzuga qarshi, mafkuraga qarshi, reallikka qarshi deb bilishadi. Inson tushgan holatlarni bema’ni deb atashadi: masalan, «Godoni kutish»da asar personajlari Vladimir va Estrogen qandaydir Godoni kutaverishadi. Ioneskoda esa odamlar to‘ng‘izga aylanib qolishadi («To‘ng‘izlar» asarida). Antidrama tushuntirmaydi, tahlil qilmaydi, balki tamoshabinni umidsiz va bema’ni kayfiyatga tortqilab ketadigan tarzda faqat ko‘rsatadi. Dunyo ko‘pdan ko‘p versiyalar makoni sifatida talqin etiladi. Unga san’atni o‘yinga **aylantrish** xos. Pyesadagi dialoglar bir-biri bilan uzviy bog‘lanmagan (modernizmdan ko‘ra postmodernizmga yaqin holatlar). Hech kim hech kimni eshitmaydi, hamma o‘zi haqida gapiradi. Hayotda ko‘p qaytariladigan, siyqasi chiqqan iboralarni qolip sifatida takrorlash orqali turmushning bir xilligiga urg‘u beriladi.

Nima uchun roman va drama so‘zlari oldiga «anti» affiksi qo‘silgan degan savol tug‘iladi. Chunki Anri Bergson, Shopengauer, Nitshe hayotni aql bilan tushunib bo‘lmaydi, uni faqat his qilish mumkin, haqiqatga his orqali yetiladi, reallikdan voz kechib, irratsionallikka e’tibor berish kerak, aql bu yo‘lda faqat xalaqit beradi deb bilishgan. Shu bois ham aql bilan yaratilgan hamma janriy

kanonlarni buzib tashlash kerak deb o‘ylashgan. «Anti» affiksi shu sababli paydo bo‘lgan. Bu falsafa Ikkinchi jahon urushidan keyin tug‘ilgani uchun ham tushkun kayfiyat ufurib turadi.

Modernizmning ko‘plab oqimlari bo‘lib, ularning aksari uzoq yashamagan, aksincha, jamiyat kayfiyatining u yoki bu qirrasini ifoda qilib, bir necha o‘n, hatto bir necha yil yashab, so‘ng o‘rmini boshqa yo‘nalishga bo‘shatib beravergan. Shulardan syurrealizm tush va voqelik uyg‘unligini, impressionizm lahzalik taassurotni, futurizm insonning kelajak bilan bog‘liq qarashlarini ifoda qilgan. Avangardizm esa modernizmdagi o‘ta radikal oqimlarning (syurrealizm, dadaizm, futurizm kabi) umumiy nomi sifatida tushuniladi. Avangardizm adabiyotning reallik bilan aloqasini inkor qiladi, an’anani tan olmaydi, butunlay yangi shakllarni yaratish g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Avangardizm ba’zan modernizm ma’nosida ham ishlatiladi.

Modernizmning Joys, Kafka, Kamyu, Bekket, Prust, Vulf, Folkner, Eliot kabi yirik namoyandalari bor bo‘lib, ijodkor sifatida ularning har biri alohida-alohida qiyofaga ega. Chunonchi, irland yozuvchisi Jeyms Joys (1882–1941)ning «Uliss», «Musavvirning yoshlikdagi suvrati» kabi romanlari, qator hikoyalari mashhur. Badiiy adabiyotdagi ong oqimi degan tushuncha yozuvchining hikoya qilish uslubida ko‘rinadi. Ong oqimi tushunchasi dastlab amerikalik ruhshunos Uilyam Jeyms (1842–1910)ning «Psixologiya asoslari»¹⁴ nomli tadqiqotida ko‘tarilgan. Ong oqimi Jeyms Joysning «Uliss» nomli ko‘pdan ko‘p bahs-u munozaralarga sabab bo‘lgan romanida yaqqol aks etgan. Roman katta hajmga ega bo‘lib, qahramonlar o‘z ongi oqimiga o‘zligini topshiradi: o‘tmishi, buguni, ertasi, hayoti, odamlar, umuman, hamma narsa haqidagi o‘y-fikrlari birin-sirin tasvirlanaveradi. Bu yerda ketma-ketlik, izchillik yo‘q. Asar voqealari (aslida, so‘zlab berish mumkin bo‘lgan tuzukroq voqeanning o‘zi yo‘q) ana shu oqimdan bino bo‘ladi, ularda xronologik tartib, ko‘nikilgan mantiq intizomi buzilgan. Chunonchi, qahramonlardan birining xayoli 45 bet sahifani egallagan bo‘lib, nuqta, vergulsiz davom etadi. Yozuvchi bu o‘rinda ong oqimining naturalistik tasvirini beradi.

¹⁴ Джеймс У. Поток сознания // Психология. – М.: Педагогика, 1991. – С.54 – 80.

Ya’ni qahramon xayollari modelini so‘z bilan chizadi. Qisqasi, mazkur modernistik romanning mazmun-mohiyati qahramonlar ruhiy kechinmalari, o‘y va xayollari tasviri orqali ochiladi.

Chexiyada tug‘ilgan, yahudiy millatiga mansub, olmon tilida ijod qilgan Frans Kafka (1883–1924) o‘zining qisqa hayoti mobaynida «Jarayon» degan roman, «Evrilish», «Jazo koloniyasi» kabi bir qancha hikoyalar hamda «Otamga maktublar», «Milenaga maktublar» kabi epistolyar janrdagi xatlari bilan adabiyot tarixida mustahkam o‘rin egallagan. Uning badiiy asarlari dunyoni bosib kelayotgan fashizm xavfidan ramziy yo‘sinda ogohlantiradi. U bu xavf qarshisida qo‘rquvga tushadi. Qo‘rquvni adabiyotga olib kiradi. Mavjud voqelik oldida oddiy insonning nihoyatda ojiz va haqir holini juda yorqin obrazlar yordamida tasvirlaydi. Chunonchi, «Jazo koloniyasi» hikoyasida bir zabit jazo mashinasini yaratadi. Bu mashina, aslida, qahramonni o‘rab turgan muhitdir. Vaqt kelib yaratuvchisining o‘zi ham shu mashinaga yem bo‘ladi.

Nobel mukofoti sohibi, fransuz yozuvchisi Alber Kamyu (1913–1960) o‘zining «Begona», «Vabo» kabi romanlari, «Kaligula»dek dramatik asarlari, «Sizif haqida afsona», «Isyon qilayotgan inson» singari esselari bilan mashhur. Asarlarida ilgari surib, himoya qilgan g‘oyalari tufayli Kamyuni «Yevropaning vijdoni» deyishadi. «Begona» romani orqali Kamyu jamiyat va inson o‘rtasidagi murakkab munosabatni, ularning o‘zaro begonalashuvini aks ettiradi.

Shu o‘rinda asar tahliliga chuqurroq kirishga ehtiyoj sezamiz.

«Begona» romani tahliliga doir. «Inson o‘z fikr va o‘ylarini maksimal darajada tashqariga, jamiyatga olib chiqsa, oqibati nima bo‘ladi? Aslida, shunday, ya’ni inson samimiy bo‘lishi kerak emasmi?» degan savol tug‘iladi. Bir Amerika kinosida nimadir bo‘ladi-yu erkak qahramon ayollarning botinidagi orzu-istik va o‘ylarini o‘qiy boshlaydi. Natijada, u hamma ayollarga, jumladan, o‘zi ishlaydigan kattagina korxona rahbariga yoqib qoladi. Axir, qahramon ro‘parasida turgan ayolning ichidagini o‘qib, uqib, shunga yarasha harakatlar qilib turgandan keyin natijaning boshqacha bo‘lishi mumkin emas-da. Endi o‘ylab ko‘raylik, buning tamomila tersi yuz berib, kishi botinidagi o‘y-kechinmalar boshqalarga oshkor

bo‘lib tursa-chi? Unda nima bo‘ladi? Masalan, ishxonaga bordingiz, eshikdagi qorovuldan tortib lift yoki koridorda uchraydigan hamkasblaringiz bilan yuzmay yuz kelarkansiz, ular haqidagi butun fikrlaringiz, o‘ylaringiz shundoq – ochiq qarta misol ularga ayon bo‘lib boraversa! Albatta, qiyomat qo‘pmaydi, uchinchi jahon urushi ham boshlanmaydi, ammo ishxonada sizga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgarishiga shubha yo‘q. Hatto, ishingizdan mahrum bo‘lishingiz hech gap emas. Xo‘s, nega? Chunki siz ovoz chiqarib fikr yuritdingiz. Siyratingizni suvratingizga aylantirdingiz...

Kamyuning mashhur «Begona»¹⁵ qissasi qahramoni Merso ham ana shunday qilgan edi («Begona» – xos o‘quvchi hazm qilishi mumkin bo‘lgan asar. «Xos o‘quvchilik» esa alohida bir maqomdir. Lekin istasa, ter to‘ksa, tizimli mutolaa qilsa va, albatta, tabiat badiiy zavq, uquv, fahm-u farosat degan ne’matlardan, bag‘rikenglikdan qismagan bo‘lsa, ko‘pchilik bunday maqomga ko‘tarilishi mumkin). Biroq taqdir unga yanada qattiqroq jazo tayinladi: yo‘q, u ishdan haydalmadi, boshliqdan dashnom eshitmadni, hamkasblari bilan gap ham talashmadni. «Bor-yo‘g‘i» o‘limga hukm etildi. Samimiyyati uchun to‘lanishi mumkin bo‘lgan eng «arzimas» tovon bu, to‘g‘rimi?

«Begona» oson o‘qiladigan asar emas. Chunki Mersoning dosh berish o‘ta mushkul bo‘lgan samimiyyati hassos qalbli o‘quvchini muvozanatdan chiqaradi. Ayrimlar uni dahriylikda ayplashni xush ko‘rishadi. Ayniqsa, ming yillar davomida e’tiqodni mustahkam ushlab kelgan ona Sharq farzandlari uchun Mersoning din-u e’tiqod borasidagi qarashlari juda og‘riqli. «Boshiga tushgan barcha ko‘rgilikkari Mersoning e’tiqodsizligi tufaylidir», deb o‘laydiganlar bor. Lekin buning uchun «Mersoni ayplashga, boshiga mag‘zava ag‘darishga ma’naviy haqqim bormi?» deb so‘raydigan kam. Axir, ishonch-u e’tiqod masalasi har kimning o‘zi va Yaratgan o‘rtasidagi g‘oyat ichkin, g‘oyat shaxsiy, g‘oyat intim masaladir. Qolaversa, XX asr psixoanaliz ilmi aytadiki, ba’zida eng ashaddiy dindor ko‘nglining tub-tubida tuzalmas dahriy yashirinib yotadi. Ya’ni mutaassib zot dahriylik botqog‘iga botib ketmaslik chorasini izlab o‘zini g‘oyat dindor qilib

¹⁵ Камю А. Посторонний. – М.: Правда, 1989.

ko‘rsatadi, asl holi xuruj qilganda esa jazavaga tushib, mavridi bo‘lsa-bo‘lmasa, tinmay Xudo haqida gapiradi deyiladi. Endi mana shu nazariyani butunlay ters o‘girib ko‘raylik: Mersoning oshkora dahriyligi ostida nima bor? Umuman, odamlar dindor va dahriyga qanday ajratiladi, buning kriteriyalari nimalardan iborat? (Albatta, bu borada har bitta dinning muayyan shakliy talablari bor. Lekin u mazmun bilan birlashmasa, quruq shakldan foyda bo‘lmaydi. Zohirni bekam-u ko‘st ado etib, mazmunda nomuvofiq ishlar qilguvchilar hayotda ko‘p). Yo‘q, Mersodan dindor yasash kerak emas. Aslo. U qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish, tushunish kerak bo‘ladi. Zero, adabiyot tushunish san’atidir.

Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, Merso bir firma xodimi esa-da, aslida, ma’naviy-ruhiy darajasi va kayfiyatiga ko‘ra murosasiz faylasufdir. Uni tushunish uchun masalaga, avvalo, shu nuqtayi nazardan yondashmoq kerak. Merso o‘zining kayfiyati va yashash tarzi bilan, o‘y, xayol va amallari bilan, nazarimda, kasbi koridan qat‘i nazar, XX asr Ovrupasi ziyolisini, umuman, fikrlovchi inson ma’naviy qiyofasini yodga soladi. Mersoning zohirida aks etib turgan sovuqqonlikka sira aldanib qolish kerak emas, meningcha. U aslida, dunyoga kelib ketish, tiriklik, inson hayoti mazmun-mohiyatini tit-pitini chiqarib o‘ylaydigan kamyob odamlarning o‘ziga xos obrazi. Muttasil fikrlash orqali o‘zining – insonning chegaralarini teran anglagan, his qilgan, ayni chog‘da, odamlar undan kutgan, talab qilgan turmush haqidagi jaydari falsafa-yu muomaladagi zohiriy mulozamatga ko‘nmagan va ko‘nikmagan, qaytaga, ularga nisbatan yuragida bitmas-tuganmas Isyon olovi bilan yashashga mahkum etilgan Jabrdiyda inson obrazidir. «Xo‘sh, u nimadan iztirob chekadi?» deb so‘rasangiz, aytish lozimki, insonlik qismatidan, uning, muqaddas kitobda aytilganidek, tog‘lar-u farishtalar ham bosh tortgan og‘ir yukidan...

Merso haqida so‘zlasharkan (yoki yozisharkan), o‘zbek olimlari negadir axloq posboni va diniy qadriyatlarning «tolmas himoyachisi»ga aylanib qolishadi. Bunday martabaning «o‘q o‘tmas va qilich chopmas» chophonlariga burkanib olar ekan, adabityoshunos hech qachon yalang‘ochning asl holini anglab yetmaydi. Chunki Merso – har qanday jamiyat a’zosi kiyib yuradigan, masalan, madaniy,

axloqiy va diniy liboslardan xoli kishi. Shuning uchun ham Mersoning ziddiyatlari qalbini tushunish uchun egnimizdagi qavat-qavat «chopon»lardan xalos bo‘lishimiz kerakka o‘xshaydi. Savol tug‘iladi: madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarsiz inson insonmi? Gap bu haqda emas, gap shundaki, inson taqdiri, ayniqsa, uning hayot-mamot masalasi hal etilayotgan damlarda yuqoridagi qadriyatlarning birortasini mutlaq mezon qilib olmaslik kerak. Axir, barchasidan murod inson emasmidi?! Ayrim qadriyatlar zamonlar o‘tishi bilan tahrirtalab bo‘lishi va yoxud butunlay yaroqsiz holga kelishi mumkinligini e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. Bas, inson qalbining tub-tubida yotgan doimiy haqiqatlarga yaqinlashar ekanmiz, erta-indin o‘zgarib ketishga mahkum mezonlarga suyanmog‘imiz qanchalik o‘zini oqlaydi? Mana shu ma’noda Merso har qanday libosdan tozadir. U turli-tuman kiyim kiyib turlanmaydi. Uning qalbi yalang‘och. Aksariyat tadqiqotchilar asar qahramonini mana shuning uchun tanqid qilishadi, hatto yomon ko‘rishadi. Aslida, Merso bugun bor, ertaga esa (masalan, 500 yoki 1000 yildan keyin) o‘zgarib ketishi mumkin bo‘lgan urf-odatlar, an’analar ortiga yashirinishni, ularni bayroq qilishni istamaydi. Natijada, u nimani o‘ylasa va his qilsa, shuni gapiradi, ko‘zbo‘yamachilikni o‘ziga – insonga ep ko‘rmaydi. Biroq kutilmaganda bu dunyoda – odamlar orasida samimi bo‘lish behad tahlikali bo‘lib chiqadi. Merso o‘z samimiyati uchun dorga osilishga hukm etiladi. Samimiyati uchun jamiyat ichra begona deb topiladi. Shunda kishi xayoliga bir narsa keladi: xo‘sh, begona kim o‘zi? Nahotki, o‘z vijdoni oldida buqalamundek turlanmagan Merso bo‘lsa? (Nahotki, ichingdagini tashingga chiqarish boshingdan judo bo‘lish darajasida xatarli ish esa?) Yoki u dili boshqa-yu, tili boshqalarmi – atrofdagi odamlarmi, jamiyatmi?

Kamyu o‘quvchini ana shunday dilemmaning chiqish mushkul bo‘lgan chohiga uloqtirib yuboradi.

Xullas, jamiyat o‘ziga o‘xshamagani uchun, hamma rioya qilib kelgan axloq va etiket normalariga uyg‘un harakatlar qilmagani uchun Mersoni begona deb biladi. Ajab, uning ikkita arabni affekt holatida otib o‘ldirgani uchun emas, balki onasining o‘limi kuni yig‘lamagani, o‘sha kunlarning birida eski tanish qizi – Mari

bilan cho‘milgani, u bilan birga vaqt o‘tkazgani uchun sud qilinayotgandek ko‘rinadi. Sudda uning qalbi jinoyatchi deb topiladi. Shuning uchun ham jazo g‘oyat og‘ir ko‘rinish oladi: o‘lim! Agar Merso tergovchi bilan bo‘lgan savol-javoblarda, umuman, atrof-muhitga nisbatan bo‘lgan munosabatida odamlarga o‘xshagan «odam bo‘lgani»da sud unga rahm-shafqat qilinardi. Biroq Mersoning qo‘lidan kelmaydigan bitta ish bo‘lsa, u ham nosamimiylilik edi. Shuning uchun ham u onasining jasadi ustiga kelib o‘tiradi-yu, ichidan kelmagani uchun yig‘lamaydi.

«Begona»da umrning bebaqoligi, har qanday inson qismatining omonatligi haqidagi shafqatsiz haqiqat qabariq shaklda aks ettirilgan. Yana mana shu «fazilati» uchun ba’zilar uni yoqtirmaydi. Ular hayotni bayram deb atab, unga har qancha zeb berib, jilolantirishga urinishmasin, barchasi ma’lum yergacha va hisobli vaqtgacha ekani ayon. Zero, har qanday saodatmand kishining ham taqdirini kaftingizga olib boshdan oyoq mushohada etib ko‘rsangiz, hech shubhasiz, tragik mohiyatda ekani anglashiladi. U ham Mersoning qismatidan ko‘p-da farq qilmaydigan darajada fojialarga to‘la chiqadi. Faqat buni qabul qilish uchun ko‘pchilikka Mersoning samimiyati, Mersoning darjasи yetishmaydi. Mersoni metafiziklikda, badbinlikda, mehrsizlikda ayblast mumkin, biroq uni yolg‘onda, ko‘zbo‘yamachilikda, firibda, nosamimiylidka ayblab bo‘lmaydi. Agar u ham yer yuzini to‘ldirib yurgan odamlar kabi o‘zini, qilmishini oqlashga uringanda edi, jamiyat va sud unga xayrixoh ko‘z bilan qarab, jazosini yengillatardi. Lekin u nosamimiy bo‘lishni istamaydi. Boshiga o‘lim xavf solib turganiga qaramay, to‘g‘risini aytadi. Nazarimda, «Begona» qissasining o‘zak mohiyati shu yerda mujassam: har qanday vaziyatda ham o‘z tabiatiga sodiq qolish, samimiy bo‘lish, odamlarga rostini gapirish. Buyuk Navoiyning shunday bayti bor:

Xiradmand chin so‘zdin o‘zgani demas,

Vale har chin ham degulik emas.

Agar Merso mana shu baytning ikkinchi misrasiga amal qilganda edi, boshi omon qolardi. Yo‘q, u birinchi misra etagini qo‘ymadi, uning ortidan ergashdi,

ayrilmadi, odamlarga yoqadimi-yo‘qmi, oxirigacha «chin so‘zdin o‘zgani» demadi. Ikkinchi misrada esa Navoiy bobomiz Merso uchun xalos bo‘lish yo‘lini ko‘rsatib qo‘ygan edi. Biroq Merso istaydimi buni? Unda Merso Merso bo‘larmidi? Qolaversa, badiiy adabiyotda e’tiborga molik har qanday qahramon boshqalarga o‘xshamaydigan o‘z qiyofasiga ega bo‘ladi-ku! U mana shu qiyofasi bilan ming yilliklar yaratgan tasavvurlar qoliplarini parchalab yashaydi. Chunki shunday qilgandagina u o‘z yuzini – «men»ligini saqlab qola oladi. Aftidan, Merso ana shunday – hech bir madaniyat, hech qaysi tafakkur tarziga to‘la mos kelmaydigan adabiy qahramondir. Uni sharqlik inson qabul qilmaydi. Chunki sharqlik, avvalo, o‘z diniy va dunyoviy tushunchalaridan kelib chiqib yondashadi va Merso tutumini inkor etadi. Mersoni g‘arblik kishi ham tushunmaydi. Chunki G‘arb jamiyatining ham o‘z qonun-qoidalari mavjudki, bir odim chetga chiqqan kishi muhokama qilinadi. Lekin madaniyatlar, ularning normalari, jamiyatlardagi qonun-qoidalari degani nima ma’nolarni anglatadi o‘zi? Ular turg‘unmi? Abadiymi? Sharq-u G‘arbda ikki xil madaniyat borligini e’tirof etganimizga ko‘ra ham ular o‘zgarib turishga moyilmikan? Demak, u yoki bu madaniyat deganimiz insoniyatning uzun hayot yo‘li tarixidagi bekatlar, xolos. Endi birgina bekatning ob-havosi, kayfiyati va tushunchalari bilan adabiy asar, undagi obrazlar ustidan uzil-kesil hukm chiqarish haqida mulohaza yuritaylik. Mumkinmi shunday qilish? (O‘sha madaniyatning umri davomida olsak, mumkin va zarurdir. Lekin umuman olganchi? Kattaroq vaqt miqyosida tekshirganimizda-chi? Adabiyot insonni mana shunday haqiqatlar ustida chuqur va atroficha fikr yuritishga undaydi, aslida.) Sudni eslaymiz: undagi hakamdan tortib guvohlargacha – hamma-hamma o‘z dunyoqarashidan – muayyan madaniyat, ta’lim-tarbiya va an’analar quchog‘ida olgan darajasidan turibgina Mersoni shafqatsiz muhokama qiladi. Hech kimning aqliga islom dini nazariyasidagi «juz’iy iroda» va «kulliy iroda» degan tushunchalar kelmaydi. Yo‘q, gap iboralarda emas, balki dunyoqarashda. Ibolar mag‘zi inson dunyoqarashi qatiga shimilib ketgan bo‘lishi lozim. Mersoning dunyoqarashi shunday – u onasining o‘limiga hech bir tadbir bilan o‘zgartirib bo‘lmaydigan taqdir, kulliy irodaning xohish-istagi deb qaraydi. Shunday qaragani

uchun ham jasad ustida boshqalar kutgandek ayyuhannos solmaydi. Lekin shunday o‘ylay olmaydigan olomon kayfiyati uni sud jarayonida ayovsiz «qamchilaydi». Ko‘rinadiki, «Begona» qissasi, ayni chog‘da, xoslar va omma dunyoqarashi o‘rtasidagi jang ham bo‘lib chiqmoqda. Shu xususiyati bilan asar o‘quvchilarni ham bir necha taraflarga bo‘lib tashlaydi: dunyoqarashlar bahsi davom etadi. Natijada Mersoning qismati kishini o‘ylatadi: u ja’zoga mustahiqmi yoki afvga loyiq?

– Albatta, jazoga! – deydi ichkaridagi ovoz. Chunki u ikkita begunoh odamni he yo‘q, be yo‘q otib o‘ldirdi (bu yerda maqtulning qaysi millatdan ekani ahamiyatsiz: u Mersoning millatdoshi – fransuz yoki buyuk tasodif tufayli o‘zbek ham bo‘lishi mumkin edi). Ushbu mudhish jinoyatni diniy va dunyoviy qonun-qoidalarni nari surib qo‘yganda ham sira oqlab bo‘lmaydi. Bunga madaniyat va inson rangining qandayligi oqlov bo‘lolmaydi: qotillik qotillikdir! U tiriklik, hayot qonuniga zid! Hech qanday insonning o‘ziga o‘xshagan yoki o‘xshamagan boshqa bir odamni o‘ldirishga haqqi yo‘q! Hatto atayin bir chumoli yo maysaga zarar berish ham katta jinoyat! Gap tamom – vassalom! Demak, jazo yuz foizadolatli!

– Yo‘q, – deya e’tiroz bildiradi xuddi o‘sha ichkaridan yana boshqa bir ovoz (e’tibor bering, asar nafaqat odamlarni, balki har bir yakka o‘quvchining o‘zini ham botinan taraflarga bo‘lib tashlayapti ekan!), – jazo adolatsiz! Chunki Mersoni qilgan jinoyati uchun emas, balki samimiyati uchun sud qilishdi. Jamiyat o‘ziga o‘xshamagani uchun uni o‘limga hukm etdi. Bu esaadolatli hukm emas. Qolaversa, Merso qotillikni kuchli affekt holatida amalga oshirdi. Bu hol qanday paydo bo‘ldi? Quyoshning jaziramasidan. Xo‘s, bu nimaga ishora? Insonning koinot jismlari ta’sirida yurishigami? Har holda, yozuvchi shu yerga qandaydir sirni yashirganki, alohida o‘ylab ko‘rish taqozo etiladi. Xullas, affekt holati deb ilmda kishining o‘zini o‘zi idora qilolmaydigan kuchli ruhiy bosinqirashi – jazava holiga aytildi. Sud Mersoning onasi jasadi ustida yig‘lab-yig‘lamaganini emas, balki ayni mana shunday holatlarini hisobga olib qotilligi uchun hukm chiqarishi lozim edi. Sud, uning ishtirokchilari Mersoni o‘ziga, jamiyatga begona deb topadi. Aslida-chi? Aslida, kim kimga begona? Jamiyatning o‘zidan qidirmoq kerakmasmi

bu illatni? Shunday bo'lsa, «Jamiyatning har bir a'zosi o'z-o'ziga, o'z tabiiyligiga, bolaligidagi samimiyatiga begona bo'lib bormayaptimi? Asl begonalar o'z vijdoniga xilof ish tutuvchi kishilar, dili boshqa-yu tili boshqalar emasmi? degan juda achchiq savollar bilan yuzma-yuz bo'lamiz. Merso turlanmaydi, u nimani o'ylasa va his qilsa, shuni gapiradi, ko'zbo'yamachilikni o'ziga – insonga ep ko'rmaydi. Biroq bu dunyoda – odamlar orasida samimiy bo'lish behad tahlikali bo'lib chiqadi. Merso o'z samimiyati uchun dorga osilishga hukm etiladi. Samimiyati uchun jamiyat ichra begona deb topiladi.

Ko'rindiki, Kamyuning «Begona» qissasi o'quvchini chinakamiga fikr yuritishga, dunyo, hayot, jamiyat va uning tartib-intizomlariga nisbatan o'z yondashuvini qayta tahlil qilib chiqishga undaydigan asarlar sirasidan. Sudning Merso ustidan chiqargan hukmi so'nggi hukm emas. Haqiqiy hukmni har bir o'quvchining o'zi – uning vijdoni beradi.

Xullas, modernizm garchi «dunyo madaniyati markazida Yevropa madaniyati (yevroposentrizm) turadi» desa-da, u bilan bog'liq butun boshli qarashlar tizimi, bu tizim vujudga keltirgan san'at-u adabiyot o'rganilishi lozim. Chunki u bashariyat ming yillar mobaynida bosib o'tib kelayotgan falsafiy, badiiy-estetik tafakkur yo'lining bitta bosqichi sifatida o'z o'rni va ahamiyatiga ega.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Modernizm nima? Uning mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering.
2. Modernizm nima uchun an'anaviy adabiyot prinsiplarini inkor qildi?
3. Modernizm yo'nalishlari to'g'risida tushuncha bering.
4. Xorijiy va o'zbek olimlarining modernizm haqidagi qarashlariga munosabatingiz.
5. Juhon va o'zbek adabiyotidagi ayrim modernistik asarlar haqida so'zlab bering.
6. «Antiroman», «antidrama» atamalari mohiyatini ochib bering.
7. Kamyuning «Begona» asarini tahlil qiling.

Asosiy adabiyotlar:

1. Модернизм. Сборник. – М.: Искусство, 1987.
2. Гассет Х.О. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991.
3. Борев. Эстетика. – М.: Политическая литература, 1981.
4. Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.
6. Йўлдош Ў., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016.
7. Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
8. Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент, “Фан”, 2007.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Долгов К.М. От Киркегора до Камю. – М.: Искусство, 1990.
2. Самосознание Европейской культуры XX века. Сборник. – М.: Политическая литература, 1991.
3. Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992.
4. Ницце Ф. и др. Сумерки богов. – М.: Политическая литература, 1990.
5. Эшонқул Н. «Мен»дан менгача. – Тошкент: Академнашр, 2014.

2-mavzu: MODERNIZM VA O'ZBEK ADABIYOTI

REJA:

- 1. Istiqlol davri va modernizm.**
- 2. Modernizm: kecha va bugun.**
- 3. O'zbek modern adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.**
- 4. O'zbek modern adabiyoti namoyandalari.**
- 5. Ayrim asarlar tahliliga doir.**

Tayanch so'z va iboralar: modernizm, istiqlol davri dunyoqarashiga doir, modernizmga yondashuv: kecha va bugun, o'zbek modern adabiyoti namoyandalari.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti yangilangan adabiyotdir. Zero, u ozod tafakkur mevasi o'larоq maydonga tusha boshladi. Ammo u yo'q yerdan paydo bo'lmadi. Cho'lpon XX asr avvalida «bir xil, bir xil... ko'ngil yangilik qidiradir» deganidayoq yangilikka intilish tug'ilib bo'lgandi. Shu ma'noda muayyan an'ana, tajriba bor edi. Demak, istiqlol davri yangi o'zbek asarlarining asosiyлari, albatta, an'anadan uzilgan g'uddalar emas, aksincha, o'sha silsilaning davomi o'larоq dunyoga keldi, kelmoqda. Shu bilan birga, erkin badiiy tafakkur mahsuli sifatida o'zini (olam ichra olam, ya'ni bir butun tizim o'larоq) namoyon qilayotgani kishini behad quvontiradi. *Bugun yurtimiz ijodkori o'z nuqtayi nazarini qadim Sharq adabiyotida bo'lgani kabi olami sug'ro – mukarram Insonga, uning qalbiga qaratgan. Hamda botindagi murakkab jarayonlarni bayonchilik yo'li bilangina emas (chunki bunday usul bor, bo'ladi va bu tabiiydir), ayni paytda, umuminsoniy va umumzamoniy mezonlarga suyangan holda Majoz vositasida ham qog'ozga tushirmoqdalar, san'atga aylantirmoqdalar.*

Biroq yo'naliшlar haqida gap ketganda masalaning nazariy jihatiga oid bir gapni alohida ta'kidlab qo'yishga ehtiyoj tug'iladi. U ham bo'lsa, adabiyot, ayrim avangard oqimlar da'vo qilayotganidek, boshqotirma o'yinlardangina iborat emas.

To‘g‘ri, unda o‘yinlik xususiyati bor, lekin «o‘yin» adabiyotning o‘nlab sifatlaridan bittasi, xolos. Chinakam adabiyot hamisha odamlar bilan birga bo‘ladi, ularning quvonch-u tashvishini tarannum etadi va shu tarzda ularga yelkadosh, taqdirdosh, dildosh bo‘ladi, bo‘lishi kerak. Insonga, jamiyatga eng ko‘p asqotadigan adabiyot shunday adabiyotdir.

Kecha – sho‘rolar zamonida adabiyotda shakl mazmun (g‘oya)ga qurbon qilinayozgan edi. Modernizmda esa ko‘pincha buning teskarisiga duch kelamiz: shakl ketidan quvilib, mazmun boy beriladi (yoki shunchalar chuqur berkitiladiki, natijada mualifning o‘zi ham asari mohiyatiga yetib borolmasligi mumkin). Aslida, har ikkovi o‘rtasidagi zargarona mutanosiblik hamda buning oqibatida kelib chiqadigan buzilmas muvozanat badiiy asarning yaroqliligi va zavq ila o‘qishlilagini ta’minlaydi. Bunday asarlarga davrlar va ulardagи o‘zgarishlar juda kam ta’sir qiladi. Mumtoz adabiyot namunalarini u yoki bu davr chegaralarini oshib o‘tib, barcha davrlarga xizmat qiladi. Shuning uchun ham u mumtoz hisoblanadi. Tafakkur erkinligi bois istiqlol davri o‘zbek ijodkorini ham xuddi shunday asarlar yozish imkoniyatiga ega bo‘lib turibdi. Endi ijodkorning ijod maydoni ikki daryo oralig‘i emas, balki ikki qutbdir. Bas, qutblar aro «ot choptirish»ga yaroqli bo‘lmak lozim.

Mo‘tadil iqlim, uyg‘un muhit bo‘lmasa, ko‘chirib keltirganingiz bilan ko‘chat tomir otmaydi. Shu ma’noda bugungi o‘zbek adabiyotidagi yangi izlanishlarni o‘tgan asming birinchi yarmida Yevropada tug‘ilgan modernistik oqimning g‘arib taqlidi deb bo‘lmaydi. Bir-biriga monand ijtimoiy-tarixiy davrlar o‘xshash kayfiyatli adabiyotlarni vujudga keltiradi. Chunonchi, dunyo folklorida qanchadan qancha bir-biriga mengzaydigan qahramonlar mavjud. Lekin bu ular bir-biridan ko‘chirib olishgan degan ma’noga kelmaydi. Ijodiy ta’sirlanishning yonida o‘sha millatlar o‘tmishidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik muhit o‘xshashligi omilini aslo yoddan chiqarmaslik kerak. Zero, o‘xshash muhitlar o‘xshash adabiy qahramonlar-u ularning bir-biriga monand kayfiyatlarini dunyoga keltiradi. Demak, Yevropaning modernistik adabiyoti Yevropanikidir va bu adabiyot o‘z davrida o‘z vazifasini o‘tab, asosan o‘sha yerda qoldi. O‘zbek adabiyotidagi yangi

(modernnoma) adabiyot kayfiyatiga Yevropa modern adabiyotining oz-moz ijodiy ta'siri (ko'proq shakliy ma'noda) bor, albatta, lekin u mohiyat-e'tibori bilan Sharq, xususan, o'zbek insoni dunyoqarashidagi ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar negizida tug'ildi. Shunga ko'ra, yangi (modern) o'zbek adabiyoti milliy zaminda ildiz otgan bo'lib, u Yevropa modern adabiyotidan ko'chirilgan nusxa yoki unga taqlid emas deyish mumkin. XX asr tongidan boshlangan o'zbek adabiyoti «Yangi o'zbek adabiyoti» deb nomlangan. Chunki ham nasr, ham nazmda tubdan o'zgarishlar yuz bergen, ilk dramatik asarlar vujudga kelgan va bu chinakamiga yangi hodisa, yangi adabiyot bo'lgan edi. Adabiy shakllar asosan tashqaridan – o'zga xalqlar adabiyotlaridan qabul qilingani ham haqiqat: roman, drama va yangicha she'r shakllari shular jumlasidan. XX asr adog'i va XXI asr boshi o'zbek ijodkori badiiy-estetik tafakkur tarzidagi yangilanishlar esa bir qadar boshqacha tabiatga ega. Bunda shakl va mohiyatning o'zi ichkaridan yorib chiqdi. Demak, tashqaridagi adabiyotga ergashishning hissasi o'ta salmoqli bo'limgan. Shunga ko'ra, uni tom ma'noda o'zbek modern adabiyoti va yoxud G'arb modernizmiga taqlidan yaratilgan adabiyot deyish anchayin bahstalab bo'lib, bu boradagi izlanishlarning asosiysi hali oldinda. Hozir anglanib turgan haqiqat shuki, o'zbek modern adabiyoti G'arbning muayyan modernistik shakllaridan ta'sirlanib, ayni paytda, o'z hayoti ma'nolarini tushunishga, talqin qilishga urinayotgan adabiy hodisadir.

Xullas, istiqlol davrida yangilangan badiiy tafakkur Erkin A'zamning «Stupka», Xurshid Do'stmuhammadning «Qichqiriq», Nurulloh Muhammad Raufxonning «Etakdagi kulba», Nazar Eshonqulning «Bahouddinning iti», Rahimjon Rahmatning «Adashvoy», Isajon Sultonning «Suvdag'i kosa», Ulug'bek Hamdamning «Bir piyola suv» kabi hikoyalarini berdi. Nomlari zikr etilgan va yana Omon Muxtor, Ahmad A'zam, Olim Otaxon, Murod Karim kabi nosirlar, Bahrom Ro'zimuhammad, Tursun Ali, Faxriyor, Aziz Said, Shermurod Subhon, Go'zal Begim singari shoirlarning izlanishlari yangi (modern) o'zbek nasri va nazmining o'ziga xos namunalari hisoblanadi. Shu o'rinda modernist shoira Go'zal

Begimning «Bulutlar kesishuvi» nomli to‘plami haqidagi mulohazalarimiz yordamida o‘zbek modern izlanishlariga biroz kengroq to‘xtalamiz.

Qo‘llanmaning keyingi qismlarida Tursun Ali, Bahrom Ro‘zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said kabi avangard shoirlarimizning ijodlari haqida ozmi-ko‘pmi fikr yuritganimiz bois quyida boshqa modernchilarning ayrim bitiklari to‘g‘risida so‘z yuritamiz. Faqat boshqa modernchilarga o‘tishdan oldin Faxriyoring talaba-yoshlar o‘rtasida mashhur bo‘lib ketgan, modernistik adabiyot deganda ilk xayollariga keladigan misra – «Oy – bolta»ga qisqacha to‘xtalsak. Bu misra katta bir she’rdan olingan chiroyli va kuchli ma’noga ega tashbehdire. Zero, bunday tashbehlarni klassisizm, romantizm, realizm kabi yo‘nalishlar ruhida bitilgan she’riyatdan ham istagancha topish mumkin. Sharq mumtoz poeziyasida gul – ma’shuqa, bulbul – oshiq va tikon – ag‘yor deganidek, bu xil tashbehlarni zamonaviy she’riyatdan ham ko‘plab keltirsa bo‘ladi. Demak, modernistik she’riyat haqida gap ketganda, avvalo, butun boshli she’rni olib, chuqur tahlil qilish kerak bo‘ladi. Keyin uning komponentlari tahliliga o‘tish tizimlilik nuqtayi nazaridan o‘zini oqlaydi. Shu bois, Faxriyor yoki Bahrom Ro‘zimuhammad kabi yangicha dunyoqarashga ega shoirlar ijodidagi eng xarakterli she’rlarni tanlab, ham shaklan, ham mazmunan tadqiq va tahlil qilish o‘quvchini modern she’r tabiatini tushunishga, his qilishga yanada yaqinlashtiradi.

Sh.Subhon esa qisqa satrlarda voqelikni ramzlashtirishga harakat qiladi:

Hamma shoir emas,

shoir – hamma.

Demak, biz ko‘rib-bilib yurgan odamlarning hammasi ham shoir bo‘lavermaydi, lekin shoir hamma bo‘la oladi. Bu nima degani? Shoir katta ketmayaptimi? Yo‘q, aslo. Bu yerda boshqa, kutilmagan ma’no yashirilgan. Taqdir zimmasiga yuklagan vazifaga ko‘ra shoir hammaning dardini, qismatini tushunishga, his qilishga mahkum degan fikr bor bo‘lib, u beshtagina so‘zdan iborat she’riyatning mo‘jaz «qasri»ga berkitilgan. Demak, haqiqiy shoir kim degan savolga o‘ziga xos va eng muhimi, ijodkorning qanday bo‘lishi kerakligiga mos javob berilgan. Endi manavi she’rni o‘qing:

Ketishingni kutmagan edim,

Kelishingni kutganim-kutgan.

Ifoda juda sodda, lekin shu sodda ifoda zamirida oshiq va ma'shuqaning ziddiyatli, shu bilan birga, olovli muhabbat, nozik munosabati aks ettirilgan. Qarshilantirilgan go'zal so'z o'yinlari (tazod) mavjud: ketishing-kelishing, kutmagandim-kutgandim (kutaman). Shuning uchun ham auditoriyada she'rni o'qishingiz bilan talabalar harakatga kelishadi: qog'oz-u qalamni topib «qitir-qitir» qilib yozib olishadi.

Yana bir modern bitiklar muallifi Go'zal Begimning «Bulutlar kesishuvi» she'riy to'plamidan joy olgan she'rlarni ham yangilanib borayotgan adabiyotimizning totli mevalari deb ayta olamiz. Buni hech tortinmay, xijolat ham bo'lmay, eng muhimi, ikkilanmay aytish mumkin va joiz. Ammo har qanday yangi hodisaning qulog'idan tortib olib borib «modernizm» deb atalgan mamlakatning vatandoshi aylashga urinish kerak emas. «Modernizm» deganimiz judayam shartli bir tushuncha. Ya'ni san'at-u adabiyotdagi har qanday yangilikni insoniyatning badiiy tafakkur yo'lidagi bitta bosqichga – modernizmga tirkashni maqbul yo'l deb bo'lmaydi. Yangilanish bu – azal-abad, hayot-voqelik taqozosi. Voqelik har doim yangilanib boradi. «Izm»lar shu voqelikning turli-tuman kayfiyati, aslida.

Go'zal Begim she'riyatida obrazlar tizimidan tortib ifoda tarzi-yu eng mayda nazmiy detalgacha yangi, ohorli. «Hammayog'im yurak», deydi shoira bir she'rda. Shu she'rmi? Ha, she'r. Ikkita so'zdan iborat she'r. Bo'lgandayam judayam teran ma'noga ega bo'lgan katta she'r! Xo'sh, nega? Buning uchun, avvalo, adabiyotdagi yurak degan alohida obraz mohiyatini (odam anatomiyasi fanida yurakka boshqa funksiya yuklatilgan) yodga olmoq kerak. Unga ko'ra, yurak bu – odam va olam dardini his qiluvchi inson a'zosi. Buni esladik. Endi «hammayog'im yurak» degan misraga qaytaylik, bu so'zlar nimani anglatadi? Odam va olam dardini bittagina a'zo bilan emas, balki butun borlig'im bilan tuyaman degan ma'noni emasmi? Tasavvurga erk beramiz: boshdan oyog'i yurakka do'ngan kishi juda-juda hassos zot bo'lib, u o'zining har bir hujayrasi bilan atrof-javonibga qalb qulog'ini soladi, uni eshitadi, dardini oladi. Demak, u boshqa odamlarga ko'ra yuz

chandon, balki ming chandon ko‘proq his qiladi. Chunki qolganlar faqat yuragi bilan his etsa, shoira butun vujudi yurakka aylanib, olamga ko‘ngil ko‘zini qaratadi.

Adabiyotda chinakam iste’dod egasi, baribir, o‘z original so‘zini aytadi, aytishi kerak. Nafaqat adabiyotda, hamma sohada shunday. Eslang, tasavvuf olamiga kirayotgan solik, avvalo, bu yo‘lning sir-u sinoatlarini o‘zigacha o‘tganlar hayoti va amallaridan o‘qib-o‘rganadi. Ma’lum bir darajotga borgandan keyin esa o‘qib-o‘rgangan kitoblarini «daryoga uloqtiradi», ya’ni «unutadi». Shundan keyingina u o‘z so‘zini aytishga chog‘lanadi... Kuzatishlarga ko‘ra, Go‘zal ham she’riyatda yurilgan yo‘llardan yurmeydi, balki o‘z yo‘lini, o‘z ohangini, o‘z uslubini topishga bel bog‘laydi. Albatta, Go‘zal Begim o‘zi tanlagan nazm maydonida tanho emas. Uning yonida yana boshqa shoirlar bor. Lekin, baribir, Go‘zal she’rlarining ichki mazmunini ilg‘ay bilgan omadli o‘quvchi anglaydiki, u o‘z qiyofasiga ega zabardast ijodkordir.

«Alla» she’rida shoira «ranglarni tebratayapman, alla, bolam, alla» deb yozadi. E’tibor bersangiz, Go‘zalning butun she’riy ijodiga ishora misra bu. Chunki u yurakka aylangan butun borlig‘i bilan chindan ham ranglarni tebratib kelayotgan, ularning aql olmas, idrok o‘tmas mazmunini ilg‘ashga urinayotgan hassos shoiradir. Hatto farzandiga alla aytarkan, boshqa millionlab onalar kabi «Katta bo‘lgin, qo‘zim, alla. Mening shirin so‘zim, alla», demaydi, balki: «Tongni tebratayapman, alla. Quyoshni tebratayapman, alla, Yurakni tebratayapman, alla», deydi va shu tarzda biz yuqorida aytganimiz o‘z qiyofasini hatto allasi bilan ham yaratadi, yarata oladi.

Go‘zal Begimning butun ijodi mazmun-mohiyatini o‘nlab she’rlaridan qidirishning hojati yo‘q. Chunki biz izlagan, bizning she’rparast ruhimiz ehtiyoj sezgan mazmun uning birgina misrasida jimirlab oqib yotishi mumkin. «Yana azongacha ko‘zim oq yaproq», deb yozadi u bir she’rida. Go‘zalgacha ko‘zni daryoga, dengizga, ummonga, osmonga, yulduzga xo‘p o‘xshatishgan. Lekin oq yaproqqa mengzash... Bu Go‘zalga, uning olamni badiiy-estetik qabul qilish uslubiga xos. Nima uchun yaproq yashil emas, oq? Bu ko‘z oqiga ishora. Demak, u

ochiq, bedor. Azonning, tongning oq rangiga monandligida ham bir boshqa ma’no yashirin... Shu ma’noda Go‘zalning har bir muvaffaqiyatli chiqqan misrasi bir yaxshi she’rdir. Shunga ko‘ra, Go‘zal Begim singari shoirlarni misrama-misra o‘qimoq kerak, she’rma-she’r emas. Uni she’rma-she’r o‘qib uqmoqqa, zavqlanmoqqa bel bog‘lagan o‘quvchi «tiqilib qolishi» mumkin (Albatta, u «hazm qilish» qudratiga ega bo‘lsa).

Go‘zal Begim biz ko‘nikkan bir butun voqelikni parchalab tashlaydi va o‘sha parchalardan boshqa, yangi voqelik barpo etadi. Shunda biz ko‘zlarimizni kattakkatta ochib qaraymiz: bir qarasang – tanish, bir qarasang – notanish. Shu yerda o‘quvchilar, Gasset aytmoqchi, ikkiga ayrilib ketadi: uni taniganlar va tanimaganlar.

Demak, mana shu tarzda yangi adabiyot ayrim o‘quvchini o‘ziga oshno etib, boshqalarini esa o‘zidan uzoqlashtirib boradi. Hamma gap shundaki, yangi adabiyotdan yuz o‘girib ketayotganlar tafakkurida yalqovlik bor bo‘lib, ular, odatda, ong-u qalblarini zo‘riqtirishni xohlashmaydi. Ular tap-tayyor mahsulga ko‘nikishgan, shuni kutishadi. Yangilanib borayotgan adabiyot esa badiiy asarga yashirilgan ma’noning yuzaga chiqishi uchun, kerak bo‘lsa, o‘quvchining muallif qadar ishtirok etishini talab etadi. Zero, bu adabiyot bilagigina emas, avvalo, aqli, tafakkuri, xayoloti va yuragi baquvvat o‘quvchilar uchun ayni muddaodir.

Go‘zal Begim she’rlarining maromini topmagan jihatlari ham yo‘q emas. Chunonchi, shoira o‘z badiiy ummoniga shunchalar teran sho‘ng‘ib ketadiki, ortidan izma-iz kelayotgan o‘quvchi unga «yetolmay», yo‘lini «yo‘qotadi». Natijada shoiraning o‘zidan boshqalarga anchagina mavhum bo‘lgan satrlari qog‘oz yuziga sizib chiqadi. Ehtimol, qachonlardir bunday tizmalar ham osongina tushunilib tahlil etilar, lekin bugun... Bugun shoira o‘z zamondoshlari tomonidan anglanib, his qilinishni, ularning yuraklariga kirib borishni istasa, she’rlarida ularni o‘z ortidan qadam-baqadam yetib kelishini ta’minlaydigan belgilarni o‘rni-o‘rniga qo‘yib ketishi kerak bo‘ladi. Ularning orasini uzaytirib yubormasin, shunda abstraksiyadan qochiladi, qisqartirib ham yubormasin, chaynab berish illatidan xalos bo‘ladi (zotan, keyingisi G. Begim she’rlarida ko‘zga tashlanmaydi).

Badiiy tafakkurda olamshumul evrilishlar yuz bergani va hamon ushbu jarayonning davom etayotganini keyingi qator yillar mobaynida yaratilayotgan turli janrlardagi asarlardan ham bilsa bo‘ladi. Natijada san’at-u adabiyotimiz maydonlarida avvalgilarga o‘xshagan-u o‘xshamagan asarlar paydo bo‘la boshladi. Albatta, ularning barchasini birdek durdona deb hisoblab bo‘lmaydi. Ular hali vaqtning, davrlarning, shu davrlar tarbiyalab yetishtiradigan o‘quvchilarining sinov-u ehtiyojlariga, yangilikka chanqoq nigohlariga bardosh berishi kerak. Durdonalik maqomi shundagina nasib etishi mumkin. Hozir gap bunda emas. Gap dunyoni badiiy-estetik qabul qilish mezonlarimizning juda tez o‘zgargani va xuddi shunday shitob ila o‘zgarayotganida.

Ha, yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsullari mohiyatining ochilishi uchun o‘quvchi tayyorgarligi va ishtiroki judayam zarur bo‘lib borayotir. Endi o‘quvchining kitobxonlik darajasi asarga ayricha bir mazmun bag‘ishlaydi. Yangi san’at namunasi har bir o‘quvchi bilan yuzlashganda o‘zgacha tovlanadi. Ya’ni o‘quvchining badiiy-estetik darajasiga qarab turlanadi u. Albatta, bu o‘rinda muallif darajasi ham muhim. Har bir mazmun shu darajadan ibtido oladi, aslida. Muallif darajasi (asar olamida) parvozlar yuksakligini (pastligini ham, demak, umuman, parvozlar hadisini) belgilaydi. (Aslida, hamma davrlarda, hamma san’atlar uchun hol shunday edi, faqat yangi san’at asarlari misolida ana shu jihatlar g‘oyat bo‘rtib ko‘rina boshladi. Misol uchun, ilgari badiiy asarning xususiyatlaridan biri bo‘lgan u yoki bu qirrasi bugunga kelib uning o‘zak-mohiyatiga aylanmoqda va h.k.)

Bahor (Gulbahor Tavakkalova)ning «Shamol hikmati» hikoyasi ham o‘zbek modern nasrining yaxshi namunasi hisoblanadi. Keyingi yillarda adabiyotimizga jiddiy qadamlar bilan bir necha ayol yozuvchilar kirib kelishdi: Bahor, Nafisa Toshtemirova, Bibi Robiya degan nomlar kichik janrdagi baquvvat asarlari orqali adabiy jamoatchilik e’tiboriga tushdi. Chunonchi, Bahorning «Ilon muhabbati», «Ibodat» kabi hikoyalari o‘zining yangicha tabiatini bilan bilan o‘quvchi e’tiborini tortadi. Yozuvchining «Shamol hikmati» hikoyasi ma’nosи kuchli ramzlar qatiga o‘ralgan. Bunday hikoyalalar professional yozuvchi tomonidan ham, kutilmaganda

hali hech kim tan olib ulgurmagan noma'lum havaskor tarafidan ham yozilib qolishi mumkin. Shuningdek, chinakam adabiyot uchun ijodkor jinsi ham, ijtimoiy mavqeyi ham ahamiyat kasb etmaydi: uning qarshisida erkak-u ayol, yosh-u qari, boy-u kambag‘al – barcha bir xil imtiyozga ega.

Xalqimiz dunyoni bozor deydi. Yana «otang – bozor, onang – bozor» qabilidagi ming yil yashab, bir bor aytilgan hikmatli gaplari ko‘p uning. Bozorboy, Bozorbuvi, Bozorvush degan erkak-u ayol ismlari ham bor. Darhaqiqat, bozor inson hayotining hamma jabhalariga kirib borgan. Bozorsiz kishilik jamiyatni taraqqiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bozor, bir so‘z bilan aytganda, inson ehtiyojlarini me’yor-u tartibga solib turadigan oldi-berdi maydoni. Bu bozorning to‘g‘ri va o‘z ma’nosidagi mazmun-mohiyatidir. Bozorga to‘g‘ri munosabatda bo‘lingandagina u o‘zining ana shu mazmunida, to‘g‘ri ma’nosida yuz ochadi. Lekin noto‘g‘ri munosabatda bo‘linsa-chi? Me’yor buziladi. Insonning dunyoga kelib ketishidan maqsad-muddaosi bozordangina iborat bo‘lib qoladi. Natijada bozorda yelib-yugurib yurgan jism bosimi ostida qolib, ruh ozor chekadi. Insonning ruhiy tarafi zaiflashganda esa o‘z-o‘zidan uning hayvoniy sifati gurillab o‘sadi. Hikoya shu haqda. Peshtoqiga omonatgina «Bozor» so‘zi ilingan oshyonga tashna mo‘ysafid tashrif buyuradi. Lekin uni nigohlari qattiq olomon qarshi oladi. Shamol turadi va «Bozor» degan yozuvning bosh harfi uchib ketadi. (Biz hikoyaning asosan shu motivi, ya’ni shamol va harf o‘yinlari zimmasiga yuklatilgan ramziy ma’no chizig‘i haqida mulohaza yuritamiz.) Qarshimizga «ozor» degan yozuv chiqadi. Darvoqe, bozor ozorsiz bo‘lmaydi. Bozor bani odamning insoniyligiga ozor yetkazadi. Bozor deganimiz qaysidir damlarda faqat va faqat ozordangina iborat bo‘lib qoladi. Ayniqsa, musofir mo‘ysafid yanglig‘ qidirgan narsasini topolmasa. U «Qadr» izlab yuradi hikoyada. Dam o‘tmay shamol yana bir harfni uchiradi va peshtoqda «zor» degan yozuv qoladi. Hamma bozorga nimagadir zor bo‘lib keladi. Mo‘ysafid esa «qadr»ga. Yana bir harf uchadi va ro‘paramizda «or» degan yozuv paydo bo‘ladi. U nimani anglatadi? Balkim, bozordagi insonning xorligidan, o‘zining esa shu yerda xo‘rlanganidan mo‘ysafid qalbida paydo bo‘lgan tuyg‘uning nomidir bu. Keyin... keyin «o» harfi ham qulab

tushadi, faqat «r» qoladi. O‘zbek tilida bu harf o‘z holicha hech qanday leksik ma’no anglatmaydi. Lekin inson «r» tovushini uzluksiz ravishda talaffuz qilsa, og‘zidan itning irillashini yodga soladigan ovoz chiqadi. Demak, bozorga noto‘g‘ri munosabatda bo‘linsa, odamning insoniy tarafi ojizlanib, hayvoniyligi kuchayadi. Albatta, hikoyada bunga ishora yo‘q. Unda birin-ketin barcha harflarning yerga uchib tushgani haqida badiiy informatsiya beriladi, xolos. Lekin adabiyot hamma gapning ma’nosini og‘zimizga chaynab solib qo‘ymaydi. Bir o‘quvchi sifatida badiiy asar yo‘naltirgan tomonga qarab yurish va bu yo‘lda tinmay mushohada yuritishga barchaning haqqi bor. Umuman, ramzlar va timsollar asosiga qurilgan adabiyot o‘quvchini mana shu tarzda fikrlashga undaydi, yo‘naltiradi, aslo tayyor xulosalar taqdim etmaydi, manzilgacha kuzatib qo‘ymaydi. Manzilga borish ko‘pincha o‘quvchining o‘z zakosi-yu zahmati evaziga bo‘ladi. Ba’zan esa omad ham unga yordam beradi. Bugungi o‘zbek modern adabiyoti o‘zini shu tarzda ham namoyon qilmoqda.

Hikoyaga qaytamiz. Ertasi kuni shamol uchirgan harflar «g‘alati tasodif tufayli» yerda yana bir safga tizilib qolishadi. Aslida, bu tasodif emas, balki ayni ilohiy ishora, hikmat bo‘lsa ne ajab! Tizilib qolgan harflarning boshidagi «B» boshqa peshtoqdan xuddi shu tarzda uchib tushgan, shamoyili uchayotgan qushni eslatadigan harf bilan alishib qoladi. Xo‘s, uchayotgan qushni qaysi harf yodga soladi? «M» emasmi? Shu yanglig‘ yerda tizilgan yangi so‘z «Bozor» deb emas, «Mozor» deb o‘qiladi! Yozuvchi nimaga ishora qilmoqda? Bozorga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lib, uni tirikchilikning vositasiga emas, balki tiriklikning oliv maqsadiga aylantirish alaloqibat insonning qabriga aylanishi mumkinligiga emasmi?! Demak, ayrim kishilar o‘zlarini bozorga eltib o‘z qo‘llari bilan ko‘mib kelar, bozorni mozorga aylantirar ekan-da...

Lekin bu kabi ma’nolarni har doim ham uqa bilamizmi? Mo‘ysafid qoldirib ketgan izning sirini-chi? Nega u izlaganini bozordan topolmay ketib qoldi? Qayga ketdi? U qoldirgan izlar bizni qay soriga boshlamoqchi? Bular yozuvchining hayotdan ilg‘ab qolganlari. Lekin atrofimizda qanchadan qancha shu kabi hikmatlar sochilib yotgandir-u, biz ularning oldidan befarq-u loqayd o‘tib

ketayotgandirmiz. Nega? Chunki bozorga yengilganmiz. Inson bozorga emas, bozor insonning ichiga kirib olgan. Yozuvchi kaftdekkina hikoyasi maydonining qoq o‘rtasiga kattakon nog‘ora o‘rnatib olib, ana shu xavf haqida bong urayotgandek tuyuladi.

O‘rni kelganda shuni ham aytish kerakki, hikoyada zo‘r ramz – topilma topilgani holda unda ayrim ishlanishi, pishitilishi kerak bo‘lgan jihatlar ham yo‘q emasdek. Bu narsa, avvalo, asar tilida, bayon va tasvirida ko‘rinsa, qolaversa, hikoya qahramonining «qadr» izlab «sarson» bo‘lganida seziladi. Chunki, nazarimizda, qadr (mehr, shafqat, insof, iymon, ezgulik va h.k.) so‘rash motivi – adabiyotimizda anchayin siyqalangan mavzu. Lekin, baribir, hikoyani tutib turgan asosiy ustun – shamol va harflar o‘yini motivi ramz darajasiga ko‘tarilib, asarga alohida qo‘r va kuch bag‘ishlagan.

Hikoyani o‘qib bo‘lgach, pul cho‘ntakka emas, qalbga kirib, unda bir umrga tanda qo‘yayotganda, bozor oldi-berdi vositasi emas, balki bani basharning dunyoga kelishidan asosiy maqsad-muddaosiga aylanib borayotganda, insonning ruhiy-ma’naviy fazilatlari oyoqosti bo‘lib, hayvoniy sifatlari hakalak otayotganda hamda mana shunday – odamning insonligi sinovdan o‘tayotgan qaltis vaziyatlarning barcha-barchasida elning, qolaversa, insoniyatning chinakam yozuvchisi-yu shoiri, dramaturgi-yu qo‘sishiqchisi va boshqa har qanday ziylisining birlamchi va muqaddas burchi, avvalo, shular haqida o‘ylash, keyin esa albatta yozish, kuylash va aytish ekanligi yanada ravshanroq ayon bo‘ladi.

Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, modernizm o‘zbek adabiyoti uchun ham yot hodisa emas, bil’aks, u ham ko‘pdan ko‘p yo‘nalishlar kabi yurtimiz ijodkorlari badiiy tafakkur tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelayotgan adabiy oqimlardan biridir.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. O‘zbek modern adabiyoti haqida nimalarni bilasiz?
2. Modern adabiyoti Sharq, jumladan, o‘zbek adabiyotiga yot hodisami?
3. Modernizm va ramz munosabatlari haqida so‘zlab bering.

4. O‘zbek modern shoirlaridan kimlarni bilasiz, ularning qaysi asarlari bor?
5. Xorijiy va o‘zbek olimlarining modernizm haqidagi qarashlariga munosabatingiz.
6. Jahon va o‘zbek adabiyotidagi ayrim modernistik asarlarni tahlil qiling.
7. Modernizm va istiqlol davri o‘zbek adabiyoti haqida so‘zlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Модернизм. Сборник. – М.: Искусство, 1987.
2. Гассет Х.О. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991.
3. Борев. Эстетика. – М.: Политическая литература, 1981.
4. Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2014.
6. Йўлдош Ў., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016.
7. Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
8. Норматов У., Ҳамдам У. Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи. Сухбат // Жаҳон адабиёти. 2001.
9. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент, 2018.
10. Ҳалиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Тошкент: Академнашр, 2020.
11. Эшонқул Н. «Мен»дан менгача. – Тошкент: Академнашр. 2014.

3-mavzu: POSTMODERNIZM

REJA:

- 1. Postmodernizm va uning paydo bo‘lish omillari.**
- 2. Postmodern adabiyotning mazmun-mohiyati, namoyandalari.**
- 3. Universal gumanizm (jami tirik mavjudotga teng qarash).**
- 4. Ikkiyoqlama kodlashtirish tamoyili (xos va avom adabiyoti o‘rtasidagi chegaraning olib tashlanishi).**
- 5. Janrlar mutatsiyasi, ijodda individ rolini inkor qilish, «muallif o‘limi» konsepsiysi, intertekstuallik.**
- 6. U. Ekoning «Atirgul ismi» romani – postmodernizmning manifesti.**
- 7. Postmodernizm va bugungi o‘zbek adabiyoti manzarasi.**

Tayanch so‘z va iboralar: postmodernizmga oid tushunchalar, murakkab va ziddiyatli oqim, ommaviy didsizlashuv, dizaynlashuv, universal gumanizm, ikkiyoqlama kodlashtirish, intertekstual o‘yin, janrlar mutatsiyasi, «muallif o‘limi», logosentrizm, an’anaviy qadriyatlar, o‘zbek adabiyotida postmodernizm.

XX asr va XXI asr avvali shiddatli o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu asrlarda inson va jamiyat kayfiyati bot-bot turlandi, turlanmoqda. Natijada badiiy adabiyot uchun uslub, oqim va yo‘nalishlar xilma-xilligi oddiy holga, romantiklikdan ko‘ra realistik ruh badiiy adabiyotning yetakchi kayfiyatiga aylandi. Jamiyat va inson hayotiga bo‘lgan e’tibor, badiiylikdan ko‘ra g‘oyaviylikka urg‘u berish (publitsistik ruhning ortishi), qahramon psixologiyasiga kirish, uning faol hayotiy pozitsiyasini aniqlash ko‘pchilik zamonaviy asarlarga xos bo‘lib bordi. Ushbu zamonaviy yo‘nalish ilmda postmodernizm nomini oldi. Postmodern nasrning asosiy prinsiplari italyan Umberto Eko (1932–2016), Italo Kalvino (1923–1985), amerikalik Jon Bart (1930), olmon Patrik Zyuskand (1949), chex Milana Kundera (1925) va serb Milorad Pavich (1929–2009) asarlarida ko‘rinadi.

Postmodernizm modernizmdan keyin kelgan bo‘lib («post» – keyin), o‘ta murakkab va serqirra adabiy oqimdir. Adabiy oqim deyilsa-da, postmodernizm xuddi modernizm kabi inson dunyoqarashiga ta’sir qilgan, keng tarmoqli va g‘oyat ziddiyatli ulkan hodisadir. U haqidagi qarashlar ham tugallanmagan. Chunki hodisaning o‘zi davom etmoqda. Qayerdaki xaos bor ekan, u yerda postmodernizm ham bor deb qaraladi.

O‘zbek adabiyotshunosi, professor D. Quronov (va boshq.)ning «Adabiyotshunoslik lug‘ati» kitobida postmodernizm haqida quyidagicha ta’rif beriladi: «POSTMODERNIZM (fr. *postmodernisme* – modernizmdan keyingi) – o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan adabiyot va san’atda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarda kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod. Fransuz poststrukturalizmining dekonstruktsiya (J. Derrida), postfreydizmning «shizoanaliz» va «ongsizlik tili» (Lakan, J. Delyoz, F. Gattari) ta’limotlari hamda semiotikadagi kinoyaviylik konsepsiysi (U. Eko) P.ning falsafiy asosini tashkil qiladi. P.ning yuzaga kelish vaqtin, o‘ziga xosligi masalasida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim mutaxassislar P. 40-yillarda J. Joysning «Finnegan ma’rakasi» (1939) asari bilan boshlangan desa, boshqalari o‘tgan asrning o‘rtalarini, yana bir xillari 70 – 80-yillarini ko‘rsatadilar. Holbuki, P. termini ancha avval paydo bo‘lgan: ilk bor P. Vinnitsning «Yevropa madaniyati inqirozi» (1917) asarida ishlatilgan bo‘lsa, Toynbining «Tarixni o‘rganish» (1947) asarida termin kulturologik ma’noda, jahon madaniyatida yevroposentrizmning barham topishi ma’nosida qo‘llanadi. Adabiyotshunoslikda ham P. termini XX asrning 20-yillaridanoq ishlatilgan bo‘lib, u adabiy jarayondagi *modernizmga* aks ta’sir hodisalarini, 60 – 70-yillar amerika adabiy tanqidchiligidagi esa ultramodernistik ijodiy tajribalarni anglatgan...»¹⁶.

Postmodernizmni modernizmning davomi sifatida ham, undan alohida, hatto uning inkori, aksi sifatida talqin qilishlar ham ilmda bor. Bu ikki oqim mazmun-

¹⁶ Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.227.

mohiyatini, ularning bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlarini yaxshiroq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalga¹⁷ nazar tashlaymiz:

Modernizm	Postmodernizm
Yangi adabiyot va san'atni yaratish da'vosi, an'analarni inkor qilish;	An'analarni o'ziga singdirish va ularga kinoyaviy munosabatda bo'lish;
Olamni xaos deb bilih, undan qochish;	Xaos deb bilingan olamni qabul qilish, uni o'yin tariqasida o'zlashtirish;
Go'zallikni reallikdan, tashqaridan izlash;	Go'zallikni reallikdan izlash;
Antroposentrik gumanizm: insonga muhabbat;	Universal gumanizm, uning obyekti jami tirik mavjudot, tabiat, koinot – butun OLAM;
Madaniyatda yevroposentrizm, Yevropa xalqlari madaniyatini umumbashariy madaniyat asosi deb bilih;	Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, Okeaniya xalqlari madaniyatiga kuchli qiziqish, barcha madaniyatlarni qimmat jihatidan teng bilih;
Elitar san'at;	Elitar va ommaviy san'at orasida chegaraning yo'qolishi, asarda elita va ommaga mo'ljallangan qatlamlar mavjud bo'lishi – ikkiyoqlama kodlashtirish;
Semantika, mazmun muhim;	Ritorika, mazmunni yetkazish shakli muhim;
Janrlar, ular orasida aniq chegaralar	Janrlar mutatsiyasi;

¹⁷ Ўша манба. – Б.228 – 229.

mavjud;	
Ijodiy jarayonning natijasi – tugal asar muhim;	Ijodiy jarayonning o‘zi muhim;
Ijodni individual hodisa deb bilish, ijodkor faolligini va uning mazmunni shakllantiruvchi markaz ekanini e’tirof etish;	Ijodda individuallini inkor qilish, «muallif o‘limi» konsepsiysi.
va boshqalar	

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, postmodernizmning modernizmdan anchagini farqlari mavjud bo‘lib, ularni bir hodisa ostida birlashtirish masala mohiyatini chalkashtirib yuborishga olib keladi. Chunki keyingi ikki asrda insoniyat shu qadar azim evrilishlarni boshidan kechirdi va kechiryaptiki, natijada dunyoqarashda, dunyoni badiiy, estetik va falsafiy idrok etishda misli ko‘rilmagan sur’at va ko‘lamlarga duch kelinmoqda. Chunonchi, postmodernizmni maydonga chiqargan ko‘pdan ko‘p omillarning bir nechtasiga e’tibor beramiz:

1. Dunyo madaniyatlarining qorishuvi. Bunga elektron axborot vositalarida ro‘y bergan tezkorlik, masalan, televideniye va internetni asosiy sabablardan biri sifatida ko‘rsatish mumkin. Natijada turfa xil madaniyatlar ilgari hech qachon ko‘rilmagan, kuzatilmagan darajada bir-biriga ta’sir qildi, bir-biriga qorishdi. Turmushdagi bu hol (eklektiklik) san’at va adabiyotga ham ko‘chib o‘tdi. Turli san’atlar o‘zaro bir-biriga «aralashdi».

2. Ommaviy didsizlashuv. Bunga sabab qilib olimlar badiiy asar qimmati uning qancha ko‘p foyda keltirganligi bilan o‘lchanishini ko‘rsatishadi. Natijada badiiy asarga san’at asari deb emas, balki tovar o‘laroq qaraldi va shunday «ishlab chiqara» boshlandi. Uslublar, janrlar qorishdi, mutatsiyaga uchradi. Chinakam san’at asari bilan ommaviy asar o‘rtasidagi chegara buzildi. San’at asari dizaynlashdi, ya’ni faqat uning tashqi bezagiga e’tibor kuchaydi. U sotiladigan tovarga aylantirildi. Bularning hammasi bir bo‘lib ommaviy didsizlashuvga yo‘l ochdi.

3. Dunyo holining doimiy o‘zgarib turishini falsafiy, badiiy-estetik idrok qilish natijasida umidsizlik, ertangi kunga ishonchning yo‘qolishi kuzatildi va h.k.

Bu va boshqa ko‘plab sabablar postmodernizmning paydo bo‘lishiga omil bo‘lib xizmat qilgan.

Realistik san’at olamni tushunish va tushuntirishga uringan metarivoyatlar yaratgan bo‘lsa, postmodernizm ularni bekor sanaydi, o‘rniga butun olam haqida emas, balki uning parchalari haqida tasavvur beradigan kichik hikoyatlar yaratadi. Chunki faqat parchalargagina ishonish mumkin deb biladi. Mutaxassislarining fikricha, ayni shu xusus postmodernizmni modernizmdan ajratib turuvchi asosiy farqdir. Chunki modernizm ham xuddi realizm kabi dunyoni yaxlit ko‘radi, voqelikni badiiy idrok etish mumkin emas deb bilsa-da, uning yaxlit, butun modelini yaratishga urinadi. Postmodernizm esa voqelikni parcha-parcha holda ko‘radi va ifodalaydi. Postmodernizm uchun ijodning, asarning o‘zi jarayon, maqsaddir. Uningcha, badiiy asar tashqaridagi olamni tushuntirib berishga qodir emas, shuning uchun ijod jarayonining o‘zi qadriyat. Zero, dunyoni anglab bo‘lmaydi, uning o‘zi ma’ni (logos)dan xoli deb biladi. Postmodernizm an’anaviy madaniyat negizidagi logosentrizmni inkor qiladi. Bas, shunday ekan, dunyo haqida u yoki bu ma’noga suyangan konseptsiyani ilgari surayotgan muallifning o‘zi ham qadrini yo‘qotadi. Chunki, postmodernizmga ko‘ra, muallifni qadrli qilayotgan logos (ma’ni) o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Modomiki, dunyoni ma’no yordamida tushuntirib bo‘lmas ekan, uni tushuntirmoqchi bo‘lgan muallifning ham o‘rni bo‘lmaydi. «Muallif o‘limi» konsepsiysi shunday vujudga kelgan. Dunyoni uzuq-yuluq rivoyatlarga tushuntirishi mumkin deydi postmodernizm. Darhaqiqat, XVIII asrdan e’tiboran insonning dunyoni o‘zgartiruvchilik roli sekin-asta pasayib kelishi va nihoyat, yo‘qolishi adabiyotdagi subyekt rolining tushib ketishiga olib keldi. Bu esa «muallif o‘limi»ni paydo qildi. Natijada adabiyotga yakka shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan yaratuvchilik faoliyati deb emas, balki negizida kollektiv ijod mahsuli bo‘lgan «intertekstual o‘yin» deb qarala boshlandi. Avvaliga (XX asr avvalida) Nitshe: «Xudo o‘ldi», – deb jar solgan edi, XX asr ikkinchi yarmida «muallif o‘limi» e’lon qilindi. Inson ham matndan, koddan iborat, uning butun

umri davomida aytgan har bir fikri, so‘zi, xatti-harakati – kod. Hammasini u ajdodlardan meros qilib olgan. Uning o‘ziga tegishli hech narsa yo‘q. Insoniyat madaniyati ham butun boshli bir intermatn. Inson tomonidan yozilayotgan har qanday asar ham ana shu intermatndan olinadi (intertekstuallik) va bu matn ijodkorning kodlangan subyekti, xolos. Demak, muallif ham yo‘q, u o‘lgan (Fuko va Bart tadqiqotlariga qarang) deyishdi.

Postmodernizmning bir qancha o‘ziga xos tushunchalari borki, ularning mag‘zini chaqib olish ushbu murakkab adabiy oqim mohiyatini bir qadar tiniqroq anglashga yordam beradi.

1. Muallif o‘limi. Faqat matn bor, muallif esa asarda «o‘lgan», chunki u yozgan matn uning o‘ziniki emas, umummatndan olingan nusxalar, kodlardir degan qarashni bildiradi. Fransuz adabiyotshunosi R. Bart muallif istilohi o‘rniga skriptorni kiritadi. Skriptor hisobsiz lug‘at boyligidan matn yasaydi. Asarni esa muallif emas, o‘quvchi yaratadi. «Qanday qilib?» degan savolga asarga o‘z mazmunini yuklab deya javob beradi. Shuning uchun ham postmodernizm o‘quvchi darajasini muhim hisoblaydi. O‘quvchi qancha o‘qimishli bo‘lsa, asarga yashirilgan «madaniy kod»larni shuncha ko‘p topadi deydi.

2. Intertekstuallik (lot. inter – aro, textum – to‘qima, mato, matn) – har qanday matn o‘zidan oldingi matndan olingan matn ma’nosini bildiradi. Ya’ni har qanday matn qo‘shtirnoqsiz iqtibos. Chunki har qanday matn o‘zigacha yaratilgan matndan kelib chiqadi, unda boshqa matnlarning izlari bor degan qarashni ilgari suradi.

3. Simulyakr – asl san’at o‘rniga kelgan soxta estetik asarlar. Simulyakrlar (*simulo* lotincha so‘z bo‘lib, yo‘q narsani bor o‘laroq ko‘rsatish ma’nosida keladi) nusxalardir. Yo‘q reallikni bor qilib ifodalash, mabodo reallik bo‘lsa ham, u nomigagina «ishtirok etadi». Ular baland va past didlar o‘rtasidagi chegaralarni yuvib tashlashga xizmat qiladi.

4. Dekonstruksiya – mavjud butunlikni buzish va parchalardan yangini yaratish.

5. Ramziylik – dunyodagi hamma narsaning majoziy ma’nosи bor deb qarash.
6. Artefakt – kutilmagan joyda, xuddi tasodif kabi yaratilib qoladigan badiiy asar.
7. Interaktivlik – ijodkor va o‘quvchi sherikligi asosida badiiy asarning yuzaga kelishi.
8. Universalizm – hamma narsaning qorishib, ommaviyashib ketishi.
9. Gedonistik vosita, ya’ni san’at asariga o‘quvchiga lazzat beruvchi matoh deb qaralishi.

Mushohada qilinsa, postmodern yo‘nalishi go‘yo bugungi ilg‘or o‘lkalar kayfiyatini o‘zida ko‘proq aks ettirayotgandek. Lekin ilg‘or jamiyatlarda boshqa qarashlar ham aytilmoqda: postmodern davri o‘z o‘rnini metamodernizm, metarealizm, astro kabi yangi davrlarga bo‘shatib bermoqda deyilmoqda. Metamodernizm va metarealizm modernizm va realizmning murakkablashib, tarmoqlashishidir. «Astro» esa yunoncha so‘z bo‘lib, yulduz demakdir. Astronomiya – koinotni, undagi osmon jismlarini o‘rganadigan fan. Darhaqiqat, keyingi vaqtarda inson dunyoqarashi va tafakkuri koinotni anglash bilan birga kechmoqda. Koinot har doim o‘rganilgan, ammo bugun zamonaviy dunyoning imkonlari negizida koinot bag‘riga yanada teran kirib borish, uni tadqiq etish kuchaygani bor gap. Lekin «astro davri» degan ilmiy atama jahon adabiyotshunosligida yo‘q. Shunday tushuncha bor, xolos. Tushuncha ifodalayotgan kayfiyat erta-indin boshqacha atama bilan atalishi ham mumkin. Bunga «bo‘lishi mumkin, ehtimol» sifatida qarash kerak. Rus akademigi Yu. Borevning hozirgi kunda yangi paradigmaning yo‘qligi, uni na Sharq va na G‘arb taklif qila olmayotgani haqida urgan bongini hamisha yodda tutmoq lozim. 2019-yilning dekabrida Xitoyning Uxan shahrida boshlanib, 2020-yilda jahon pandemiyasiga aylangan koronavirus (COVID-19) – qora o‘lat bilan bog‘liq kelajak haqidagi mushohadalar dunyoning ertangi ravishida jiddiy o‘zgarishlarni paydo qilishi kutilmoqda. Odatda, jahon miqyosida yuz beradigan mana shunday falokatlardan keyin yangi fikr, yangi qarashlar tug‘iladi. Shu qonuniyatdan kelib

chiqsak, ajab emaski, kutilayotgan paradigmang dastlabki eskizlari yaqin keljakda chizilsa. Bunga ham bir ehtimol sifatida qarash lozim.

Badiiy tafakkurda olamshumul evrilishlar yuz bergani va hamon ushbu jarayonning davom etayotganini keyingi qator yillar mobaynida yaratilayotgan turli janrlardagi asarlardan ham bilsa bo‘ladi. Natijada san’at-u adabiyotimiz maydonlarida avvalgilarga o‘xshagan-o‘xshamagan asarlar paydo bo‘la boshladi. Albatta, ularning barchasini birdek durdona deb hisoblab bo‘lmaydi. Ular hali vaqtning, davrlarning, shu davrlar tarbiyalab yetishtiradigan o‘quvchilarining sinov-u ehtiyojlariga javob berishi kerak. Durdonalik maqomi shundagina nasib etishi mumkin. Hozir gap bunda emas. Gap dunyoni badiiy-estetik qabul qilish mezonlarining juda tez o‘zgargani va xuddi shunday shitob ila o‘zgarayotganligida. Davr adabiyotini tushunish, his qilish uchun e’tiborni mana shu sur’at mazmun-mohiyatiga qaratish kerak.

Yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsuli, ba’zan go‘yo hamma narsa yoki hech narsadek tassurot qoldiradi o‘quvchida. Chunki unda go‘yo hamma narsa bor, ammo aniq hech nima yo‘q. Ha, yangi san’at o‘zini shunday tutadi, shunday tutmoqda ham. Yangi san’at bugunga kelib mohiyatni shunday ifoda qilmoqqa kirishdiki, bir qarashda uning badiiy didi an’anaviy yo‘llarda shakllangan o‘quvchi bilan sirayam ishi yo‘qdek tuyuladi. «Mana, men shundayman, xohla qabul qil, xohla yo‘q», deyayotgandek bo‘ladi. Ko‘rinadiki, yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsullari mohiyatining ochilishi uchun o‘quvchi tayyorgarligi va ishtiroki zarus bo‘lib bormoqda. Endi o‘quvchining kitobxonlik darajasi asarga ayricha bir mazmun bag‘ishlashi haqida so‘z yuritilmoxda. Ilgari yozuvchi asar mazmunini hijjalab o‘quvchiga tushuntirib berardi. Endi unday emas. Endi o‘quvchining o‘zi harakat qilishi, she’r yoki roman «mag‘zini chaqish»da ishtirok etishi talab qilinmoqda. Shuning uchun ham nazariy manbalarda mutolaaga ijodiy jarayonning bir qismi sifatida qaralmoqda. Zero, yangi san’at namunasi har bir o‘quvchi bilan yuzlashganda o‘zgacha tovlanadi. Ya’ni asar o‘quvchining badiiy-estetik darajasiga qarab turlanadi. Albatta, bu o‘rinda modernizm uchun muallif darajasi

muhim bo'lsa, postmodernizm uchun muallif yo'q. Matn egasi – skriptor. O'quvchi o'z darajasidan kelib chiqib asar ma'nosini o'zicha uqadi.

Modern va postmodern adabiyot namunalari ayni paytda, dunyoni ramziy tafakkur qilish hosilasidir. Ularni «ishoralar asari» desa ham bo'ladi. (O'rni kelganda qayd etish joiz: bir-biriga unchalik bog'lanmagan ma'nilarga ishora qilib o'tish san'ati adabiyotda birmuncha yengil yo'lni paydo qilishi mumkin. Chunki yangi san'at, modernizm, postmodernizm niqobi ortiga berkinayotganlarning talay bir qismi, aslida, mutlaqo iste'dodsiz odamlar ekanligiga hayot va adabiyot sahnalarida tez-tez duch kelinmoqda. Gap shundaki, ular o'z bitiklarini «yangicha san'at namunasi» deya taqdim etishga o'rganib borishmoqda. Qizig'i, modernizmdan farqli o'laroq, postmodernizm aynan shu jihatni qo'llab-quvvatlaydi. Faqat tanlab olingan alohida iste'dod egasi hisoblanmish ijodkorlargina emas, balki barcha insonlar san'at asari yaratishi mumkin deb biladi.) U aniq bir narsa aytmaydi, buni maqsad ham qilmaydi, aksincha, faqat ishora qiladi. O'quvchi ana shu ishora qilingan tomonga boradi, ya'ni tafakkur «elchilarini yuboradi. «Elchilar» muloqotidan so'ng anglashilgan (ko'pincha payqalgan, sezilgan, fahmlangan...) «narsa», agar u chindan bor bo'lsa, o'quvchi botinida akslanadi. Mana shu aksning salmog'i asar mazmun-qiyofasini belgilaydi.

Aslida, har qanday badiiy asar o'ziga xos yo'l hisoblanadi. Ya'ni yo'l (voqelik)dan yo'l (asar)ga kelinyapti. Harakatlanuvchi kuch modernizmga ko'ra – muallif, postmodernizmga ko'ra – skriptor. (So'ngra teskari akt, ya'ni asar (yo'l)dan voqelik (yo'l)ka yurish boshlanadi. Bunda harakatlanuvchi personal – o'quvchi.) Asarni o'qigan o'quvchi go'yo shu yo'lidan (muallif yoki skriptor yo'lidan) yurishga taklif etiladi. Bu o'rinda gid – muallif yoki skriptor. U o'quvchiga atrofni tamosha qildiradi. Ammo vaqt tig'iz bo'lgani bois (butun insoniyat bosib o'tgan yo'l bilan yakka inson bosib o'tgan yo'l o'rtasida zamoniylar va makoniy tafovut bor. Go'yo ummon va tomchi o'rtasidagi hajm farqi yanglig', bas, tomchi (muallif, skriptor) yana bir tomchiga (o'quvchiga) ummon (bashar ahli) haqida, uning uzun yo'li haqida nimalarnidir uqtirarkan, ana shu tafovut taqozosiga ko'ra ham majoziy fikrlashga mahkum. Uning boshqa iloji yo'q.

Chunki ramz – kalavalangan mushtdek ip. Uni yechib cho‘zganingiz sari yer sharini quchoqlab oladigan imkonlari ochiladi. Yo‘qsa, u sirini o‘z ichiga qamab, bir musht, nari borsa, bitta koptokdek bo‘lib yotaveradi...) hamma narsani bat afsil tushuntirib berishning imkonи ham, bunga alohida istak ham yo‘q. Umuman olganda, kuzatishlar shuni ko‘rsatayotirki, «eniga va bo‘yiga kengayib» turlanayotgan, axborotga ko‘milib borayotgan dunyo mazmun-mohiyatini qamrab olish tobora qiyinlashayotganini hisobga olsak, bundan buyon inson badiiy tafakkur tarzida ishoraviy, ya’ni ramziy san’at o‘rni yanada ortishiga shubha yo‘q. Chunki ramz va tashbehda shunday bir ichki qudrat borki, ana o‘sha behudud olamning hadsiz-hisobsiz tovlanishlarini o‘z bag‘riga sig‘dira oladi. Boshqacha aytganda, ramziy san’at Aloviddinning sehrli chirog‘iga o‘xshaydi, kerakli kalit-duosini topib o‘qisangiz, bas, qarshingizda qo‘lingizga dunyolarni olib berishga qodir Jin paydo bo‘ladi. Shu ma’noda azaldan san’atning ajralmas qismi bo‘lgan ramziylik modernizmda ham, hatto postmodernizmda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Juda ko‘p qadriyatlar, ayniqsa, postmodernizmda inkor qilindi, lekin adabiyotning dunyonи ramziy-majoziy qabul qilish xususiyati yashab qoldi, yashab kelmoqda. Bunday ramziylik goho kimgadir, nimagadir, qandaydir ma’noga ishora tarzida o‘zini namoyon qiladi. Ishora esa, o‘z navbatida, sirni, sirlilikni keltirib chiqaradi. Mana shu yerda o‘quvchi, Gasset aytmoxchi, naq ikkiga bo‘linadi: tushunganlar va tushunmaganlarga. Mavlono Rumiyan qarashicha, sirdan xabardor bo‘lgan kishi indallosidanoq gapning mohiyatini darhol anglaydi, g‘ofillar esa yo‘q. Bu hol u yoki bu darajada modernizmga ham, postmodernizmga ham xos xususiyatdir.

Umuman, jiddiy ijodkorlar voqelikni ramzlar vositasida modellashtirishga ko‘proq harakat qilayotganini qayd etish joiz. Ayni damda, e’tibor bermoq kerakki, badiiyat olamida chinakam ramziy asar bilan «boshqotirma», ya’ni «krossvord» adabiyot o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Ammo xuddi muhabbat va nafrat (daholik va telbalik) kabi bir-birlariga juda-juda yaqin joylashganidan (bor-yo‘g‘i bir qadam), hatto soha mutaxassislari ham ularni gohida chalkashtirib yurishadi. Oqibatda, bor-yo‘g‘i o‘rtamiyona «boshqotirma» bir asarni bebahо durdona deya

taqdim etishgacha borib yetiladi yoki aksincha. Bu xusus, ayniqsa, postmodernizmga xos.

Postmodern adabiyot o‘z mazmun-kayfiyatiga ko‘ra ko‘pincha quramalardan iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham uni o‘qigan kishi ma’nolarning tariqdek sochib yuborilganini ko‘radi. Yaxlitlik, butunlikni topmaydi. Bu – tabiiy hol. Zero, ko‘z bilan ko‘rsa, qo‘l bilan ushlasa bo‘ladigan butunlikka da’vo qilmaydi postmodern adabiyot. Chunki vogelikning o‘zida butunlik yo‘q deb hisoblaydi u.

Postmodernizm falsafasi o‘tgan asrning 80-yillarida shakllangan. U jamiyatda yuz bergen o‘zgarishlarni aks ettirib, dunyoni qabul qilish va his etishda paradigma maqomini oldi. Hozirda dunyoning mana shunday holini to‘la-to‘kis o‘zida mujassamlagan paradigmaning yo‘qligi haqidagi qarashlar postmodernizm ham qaysidir ma’noda o‘z energiyasini sarf qilib bo‘layozganidan dalolatdir. Ammo dunyoda xaos kayfiyati hukm surmoqda. Ma’lumki, posmodernizm xaosdan oziqlanadi, uni ifoda qiladi. Dunyo ertasining noaniqligi, insonning global o‘zgarishlar va texnogen bo‘hronlar ichida qolib esankirashi, oxirzamon (apokalipsis)ni kutish, ayni paytda, kommunikativ texnologiyaning jadal rivojlanishi, kompyuter va internetning paydo bo‘lishi, dunyo hamjamiyatining madaniy tolerantligi (bag‘rikengligi)ning oldinga qarab ketishi postmodernizm kayfiyati hali davom etishini ko‘rsatadi. Fransuz faylasufi Jak Derrida¹⁸ postmodernizm davrini «Oxirzamon kelmasdan burungi (dunyoning) mutlaq ostinustun bo‘lishi» deb ataydi. Xuddi shunga uyg‘un fikrni ukrainalik olim Dmitriy Zatonskiy ham aytgan: «Postmodern davr termoyadroviy oxirzamon (*olim buni termoyadro urushi tufayli sodir bo‘ladigan oxirzamon deb ataydi – U.H*) sodir bo‘lmaidan keyin boshlandi. Biz dunyoning tubiga nazar soldik, ammo hayotda yashab qoldik. Albatta, buning uchun E’tiqod, Umid, Muhabbat bilan to‘lov to‘ladik»¹⁹. Mana, nima uchun postmodernizmga noaniqlik, parchalanish, «men»ning, kanonlarning yo‘qolishi, noturg‘unlik xosdir. Shuning uchun ham postmodernchilar «abadiy qadriyatlar»dan voz kechdi. Doimo qalqib, turlanib

¹⁸ Jak Derrida. Internet materiallari.

¹⁹ Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.

turgan olamda kimgadir yoki nimagadir suyanib bo‘lmaydi deyishdi ular. Bu esa postmodernizmga oid juda muhim jihat hisoblanadi.

Postmodernchilar hatto badiiy asar tushunchasini matn tushunchasi bilan almashtirishdi. «Matnlar dialogi» ma’nosini beruvchi intertekstuallik tushunchasi keng istifoda etiladi. Bunda reallik va san’at o‘rtasidagi chegara buziladi. Hech qanday individual asar yo‘q. Har qanday asar jamoaviydir. Chunki asar umummadaniyat negizida paydo bo‘ladi deyishadi. Fransuz yozuvchisi Jak Rive qalamiga mansub «Alik xonimlar» romani 408 muallif asaridan olingan 750 iqtibosdan iborat. Tasavvur qiling, qo‘lingizda bir roman turibdi. Kitob muqovasida muallif va asar nomi yozilgan. Lekin ichini varaqlar ekansiz, u yerda birorta gap muallif tomonidan bitilmagan, hammasi boshqalardan keltirilgan uzintilardir. «Buning nimasi seniki?» deb savol berilsa, «Bu fikrlarni men yoqtirib tanladim va bir muqova ostida jamladim, shuning uchun iqtiboslar romani menga tegishli», deb javob beradi.

Postmodernchilar haqiqat, xarakter kabi tushunchalardan voz kechishadi. Chunki haqiqatning mavjudligini inkor qilishadi, hech qanday hodisa bir xil tarzda ifoda qilinishi mumkin emas, uning cheksiz talqinlari bor (Nitsheni eslang), xarakter ham inson shakllanishining muayyan shartlari mahsulidir deb bilishadi.

Postmodernizm odamlarning begonalashuvini keltirib chiqargan postindustrial jamiyatda paydo bo‘ladi. Begonalashgan inson illyuzion dunyoda yashaydi, o‘ziniki va yotnikini farqlay olmay qoladi, begona til, begona madaniyatni o‘ziniki kabi qabul qiladi va ularga suyangan holda o‘z olamini yaratadi.

Postmodern matnda hamma narsa shartli, unda kinoya va parodiya ustun mavqedan turadi. Bu oqimning mumtoz namoyandalaridan Umberto Eko: «Postmodernizm modernizmga javobdir: modomiki, o‘tmishni yo‘q qilib bo‘lmas, o‘tmishni yo‘q qilish soqovlikka olib kelar ekan, demak, soddadillikni yig‘ishtirib qo‘ygan ko‘yi uni kinoya bilan qayta ko‘rib chiqish kerak», deydi. Yozuvchining postmodernizmning mumtoz asari deb tan olingan «Atirgul ismi» (1980) romani bosh qahramonlarining ismlari Konan Doyl asarlari qahramonlarining ismlarini

yodga soladi. Bu falsafiy-detektiv roman bo‘lib, voqealar o‘rta asrlar monastirida ro‘y beradi. Bosh qahramon Vilgelm Baskervilskiy qo‘lyozmalarini o‘qib, kimga, nimaga oidligini aniqlashtirish bilan shug‘ullanadi. Asar nomidagi «Atirgul ismi» so‘z birikmasi shunchalar ko‘p ramziy ma’nolarga to‘lib ketganki, natijada asl ma’nosini yo‘qotib ham qo‘ygan. Yozuvchi romanni lotincha iqtibos bilan yakunlaydi. Unda «atirgul so‘ldi, lekin atirgul so‘zi (ismi) hali-hamon yashayapti» deyilgan. Roman ikki qatlardan iborat bo‘lib, birinchi qatlam oddiy o‘quvchiga, ikkinchi qatlam esa xos o‘quvchiga mo‘ljallangan (ikki tomonlama kodlanganlik). Oddiy o‘quvchi asarni detektiv o‘laroq qabul qiladi va qiziqib o‘qiydi. Xos o‘quvchi esa roman qatlariga yashirilgan ramzlarni kashf qilib badiiy zavq tuyadi. Binobarin, «Atirgul ismi» tarixiy va detektiv romanning, adabiy va madaniy assotsiatsiyaning hamda falsafiy masal va mistifikatsiyaning qorishishidan paydo bo‘lgan g‘oyat murakkab asardir. Bunday yo‘l tutish postmodernizm asarlarida xos va avom saviyali o‘quvchi o‘rtasidagi chegarani buzib tashlashga qaratilgan. Natijada elitar va ommaviy san’at o‘zaro yaqinlashadi.

Postmodern yozuvchilar, jumladan, R. Bax, P. Zyuskind, P. Koelo, X. Murakami kabi ijodkorlar zamonaviy tamaddunning eng og‘riqli masalalariga e’tibor qaratishdi. Olmon adabiyotining zabardast namoyandası Patrik Zyuskind «Ifor» (1985) romanida bir shaxs siymosida ham daho, ham yovuz maxluq jo bo‘lgan attor (bu yerda atir ixtirochi, asli atir-upa sotuvchi) hayotidan hikoya qiladi. Asarning yuza qismi o‘ta qiziqarli detektiv ruhida bo‘lsa-da, uning tagma’nosи o‘quvchini jiddiy mushohadaga undaydi: romanda hid obraz darajasiga ko‘tarilgan. Bu obrazning ortida butun boshli zamonaviy dunyoning ma’naviy hayoti yashirilgan. O‘scha daho, ayni paytda, yovuz maxluq – qahramon tomonidan ixtiro qilingan atir hidiga odamlar ixtiyoriy ravishda bandi bo‘ladi. Atirga yetishish, uni hidlash uchun hamma narsaga, hatto hayvon qiyofasiga kirib ketishga tayyor olomonning ma’naviy dunyosi ayovsiz fosh etiladi. Ayni shu xususiyat roman «tarixiy detektiv», «psixologik drama» va yoki «qiziqarli afsona» degan yorliqlar qolipini parchalab tashlaganini bildiradi.

Amerikalik yozuvchi Richard Bax “Oqcharloq Jonatan Lingviston” (1970) asarida qahramonlar qushlar obrazida tasvirlanadi. Parvoz yozuvchi asarlarida falsafiy ramz ma’nosida kelib, bu bilan u insonlarni o‘zlarini erkin tutishga, o‘z qiyofasini ehtiyyot qilishga, dunyoning shafqatsizligi vaadolatsizligiga qarshi turishga undaydi.

Braziliyalik yozuvchi Paulo Koeloning «Alkimyogar» asari ham postmodern adabiyotning yorqin namunasi hisoblanadi. U roman-masal holiga keltirilgan asar bo‘lib, «Agar sen biron nimani chin dildan istasang, butun koinot o‘sha orzuyingga yetishishingga ko‘makdosh bo‘ladi» kabi aforizm darajasidagi fikrlarga bo‘ysundirilgan. Shu bilan birga, hikmatlar asar bo‘ylab xuddi yo‘l ko‘rsatuvchi ishoralardek sochib yuborilganki, ular o‘ta shiddatkor, o‘zgaruvchan, shafqatsiz zamonaviy dunyo kengliklarida sarosimada qolgan o‘quvchi uchun ayni muddaodir. Garchi mutaxassislar Koelo asarlarini, jumladan, «Alkimyogar»ni postmodernizmga mansub etsalar-da, ko‘pgina jihatlari (masalan, umidning, yorug‘likning mavjudligi)ga ko‘ra roman oqim taqozo etgan qoidalarga to‘liq mos tushmaydi. Balki roman mag‘zida Sharq ruhining, jumladan, Rumiy asarlari ruhining leytmotiv o‘laroq mavjud ekanligi masala mohiyatini izohlab beradi. Xullas, bunday hol chiqarilgan xulosalarini qayta ko‘rib chiqishga ehtiyoj tug‘diradi.

Zamonaviy yapon yozuvchisi Xaruki Murakamini (mashhur romanlari «Norverg o‘rmoni», «Kafka plyajda», «Dens, dens, dens», «Shamol qo‘shig‘ini tingla» va h.k.) vatanida «g‘arb kishisi» deb bilishadi. Sababi, yozuvchi o‘z ijodi bilan yaponlarning asrlar mobaynida shakllangan an‘anaviy hamda zamonaviy qadriyatlarini buzib kelmoqda. Chunonchi, tabiat bilan uyg‘un yashash, muhit shart-sharoitlarini qabul qilish, mansab pog‘onalaridan ko‘tarilishga qaratilgan va shunga o‘xhash boshqa qarashlar uning asarlarida inkor etilmoqda. Murakami o‘z vataniga, undagi qadriyatlarga yevropalikning ko‘zi bilan qaramoqchi bo‘ladi. Uning qahramonlari tizim ichida bir murvat bo‘lishga moslashmagan. Chora – o‘z olamiga, g‘ayrishuuriga sho‘ng‘ib, odamlarga xizmat qilish. Uning ham asarlarida

postmodernizm qoliplariga tushmaydigan qirralar mavjud. Chunonchi, Murakami ezgulikning kuchiga ishonuvchi romantikdir.

Yana jahon adabiyotida Italo Kalvino, Milan Kundera, Milorad Pavich kabi postmodern oqimining yirik vakillari borki, ularning asarlari ham qaysi bir jihatlari bilan bugungi zamon nafasini o‘zida yorqin aks ettiradi, fikrlashga, mulohaza yuritishga chorlaydi.

Bundan tashqari, fantastika janridan o‘zining *ayrim* jihatlariga ko‘ra farqlanib turuvchi *fentezi* janrida ham qorishiq zamon ruhini aks ettiruvchi talay asarlar bitildi. Ularning eng mashhurlaridan biri Joann Rouling qalamiga mansub «Garri Poter» sikl romanlaridir. Bu asar ham o‘zining ko‘pgina xususiyatlariga ko‘ra postmodern yo‘nalishiga yaqin turadi.

Xulosa shuki, postmodernizm jahon adabiyoti XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi, kechirmoqda. Shu bilan birga, uchinchi ming yillik adabiyotining tug‘ilishiga o‘ziga xos zamin tayyorladi. Zamonaviy jahon adabiyoti g‘oyat xilma-xil, qorishiq va murakkab hodisalardan iborat bo‘lib, u haqdagi, uning kelajagi borasidagi bahs-u munozaralar hali davom etadi.

O‘zbek adabiyotida postmodern izlanishlar, ayniqsa, nasrda yaqqolroq bo‘y ko‘rsatyapti. O. Muxtor, X. Do‘stmuhammad, N. Eshonqul, R. Rahmat, I. Sulton, M. Karim, Sh. Ahmedov, U. Hamdam kabi yozuvchilar ijodida postmodernizmning turli ko‘rinishlari uchraydi. Chunonchi, X. Do‘stmuhhammadning «Jimitxonaga yo‘l» hikoyasi D. Butsatining «Yettinchi qavat» hikoyasiga nazira yo‘lida yozilib, g‘arb hikoyasida aks etgan g‘arbona qarash o‘zbek yozuvchisi asarida sharqona ruhda qayta ishlanadi. O. Muxtorning qator romanlaridagi tushkunlik, porakandalik, tushuniksizlik postmodern kayfiyatni aks ettiradi. X. Do‘stmuhammad, N. Eshonqul va I. Sulton ijodidagi qator asarlarda («Donishmand Sizif», «Shamolni tutib bo‘lmaydi», «Go‘ro‘g‘li», «Og‘riq muolajasi», «Boqiy darbadar») jahon adabiyotidagi birmuncha mashhur asarlar syujeti, syujet chiziqlari yoki g‘oyasi olinib, badiiy jihatdan qayta ishlanadiki, bu hol ham postmodern adabiyot dasturiga mosdir.

Hozirgi o‘zbek she’riyati ham o‘zining ko‘pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko‘ra o‘zgardi. Shu bilan birga, ta’kidlash o‘rinlik, bugungi she’riyat kechagi she’riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o‘rtasida vorisiylik, uzbekiylik hamon davom etmoqda. Bugungi o‘zbek she’riyati kechagi o‘zbek she’riyatining eng yaxshi an’alarini davom ettirgan holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichyapti. Kecha dunyoga «sotsrealizm» tuynugi orqali qaragan bo‘lsa, bugun uning tafakkuri erkin. Ayni mana shu tafakkur erkinligi hozirgi zamon o‘zbek poeziyasini – yangilangan o‘zbek she’riyatini vujudga keltirayotgan bosh omildir. Shunga ko‘ra, har tomonlama boy she’riyatimizga nazar tashlab, uning bag‘rida barcha yashovchan tamoyillarning izini ko‘rish mumkin: realizm, modernizm va postmodernizm kabi adabiy oqimlarning turfa yo‘llarida yaratilayotgan bugungi o‘zbek she’riyati shoir tafakkurining yagona mafkuraviy iskanjadan xoli ekanligidan, boshqacha aytganda, chinakam erkinligidan dalolat. Yana shoirning qaysi yo‘nalishda qalam tebratishi emas, qanday iste’dod bilan yozayotganligi hamda azaliy muhoraba – ezgulik va yovuzlik jangida oldingisining yonida tura bilishining muhimligi tobora ko‘proq ayon bo‘lib bormoqda.

Bugun o‘zbek she’riyati ifoda usuliga ko‘ra taxminan quyidagicha ko‘rinishga ega: 1. An’anaviy. 2. Xalqona. 3. Aruz. 4. Modern. 5. Sinkretik. Ammo dunyoqarashda asosan ikki kuchning musobaqasini kuzatish mumkin. U ham bo‘lsa an’anaviy va modern (shu jumladan, postmodern) yo‘nalishlar o‘rtasidagi «musobaqa». Bunday «musobaqa» hamisha bo‘lgan, bor va bunday keyin ham davom etadi. Yaqin tariximizda u «an’ana va novatorlik» deb atalgan.

2012-yil fevral oyalaridan e’tiboran Rossiyaning «Литературная газета»sida postmodernizm haqida qizg‘in bahs boshlanib, yil davomida har xil qarashlar o‘rtaga tashlandi. Unda bir xil olimlar «postmodernizm Rossiyada o‘z o‘rmini topmadi» deyishsa, boshqa birlari «yo‘q, hali bunday deyishga juda erta, jamiyatda xaos bor ekan, postmodern bor bo‘laveradi» degan fikrni ilgari surishdi. Xuddi shunga o‘xhash munozara o‘zbek adabiyoti ilmi maydonida ham yuz berib turibdi. Bir tomon «modernizm degan unsur nafaqat o‘zbek adabiyotiga, umuman,

Sharq adabiyotiga, Sharqning tafakkur tarziga yot, u Yevropadan sun’iy ravishda keltirilgan usul» desa, boshqa tomon «u jamiyatning yashash tarzi, kayfiyati» demoqda. Mayli, bahs-munozara o‘z yo‘liga, ammo she’riyatning o‘zgarib-yangilanib borayotgani – fakt. Bundan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Keyingi 20 – 25 yil mobaynida jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar zamonaviy o‘zbek she’riyati qiyofasini belgilab berayotgani bor gap. «Haqiqiy adabiyot, chinakam she’r bu – yuksak san’at» degan shior ostida ijod qiluvchilar bir tomonda, ikkinchi yoqda esa omma kayfiyatini ask ettirayotgan qalamkashlar «lashkari» saf tortdi.

Postmodernizm – dunyoni tushunish va tushuntirishning bir yo‘li. San’at yo‘li, adabiyot yo‘li, dunyoni anglash, his qilish yo‘li. Lekin u oxirgi yo‘l degani emas. Insonlar, jamiyatlar bor ekan, ularning kayfiyatları, dunyoqarashlari, orzu-intilishlari-yu ehtiyojlari ham bir joyda to‘xtab qolmaydi. Bas, inson doimo yangi yo‘l qidiradi. U hayot ekan, izlanish ham hamisha barhayotdir.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Postmodernizmning paydo bo‘lishi va mazmun-mohiyati haqida gapiring.
2. Nima uchun postmodernizm murakkab oqim hisoblanadi?
3. Postmodernizmni modernizmdan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
4. Ommaviy madaniyat, ommaviy didsizlashuvning postmodernizmga qanday aloqasi bor?
5. Postmodernizmning asosiy tushunchalari haqida so‘zlang.
6. Postmodernizm namunalaridan tahlil qilib bering.
7. Postmodernizm va istiqlol davri o‘zbek adabiyoti haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
2. Модернизм. – М.: Искусство, 1987.
3. Гассет О.И. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991.

4. Борев Ю. Эстетика. – М., 1987.
5. Йўлдош Ў., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016.
6. Қурунов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
7. Internet materiallari: Postmodernizm, jumladan, <http://iEssay.ru> sayti.

4-mavzu: JAHON ADABIYOTINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

REJA:

- 1. Globalizm va adabiyot.**
- 2. Adabiyotning kelajagi masalasi.**
- 3. Internet adabiyoti.**
- 4. Zamonaviy adabiyot va tarjima masalasi.**
- 5. Yoshlar va sog‘lom adabiyot targ‘iboti.**

Tayanch so‘z va iboralar: Globalizm va adabiyot, yangi izlanishlar adabiyoti, internet adabiyoti, zamonaviy jahon adabiyoti muammolari haqidagi qarashlar, adabiyotning kelajagi, zamonaviy adabiyot va tarjima masalalari, sog‘lom adabiyot targ‘ibi.

Globalizm va adabiyot. Texnikaning rivoji, umumiy taraqqiyot, ilmiy kashfiyotlar bu davr adabiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. XIX asrda Hindistonga ingлизлар темир yo‘l qura boshlaganida braxmanlar norozi bo‘lib, bu bizning ruhiy-ma’naviy dunyomizga daxl qilishdir deya jon-jahdlari bilan qarshilik qilishgan edi. Shunga qaramay, dunyoda umumiy taraqqiyotni to‘xtatib bo‘lma(y)di. Dunyoning holi ham shunga ko‘ra o‘zgardi. Olamni badiiy-estetik qabul qilishda ham jiddiy evrilishlar yuz berdi. Yevropada realizm, tanqidiy realizm o‘rniga modernizm, postmodernizm kirib keldi. Nigohlar, ispan esteti va faydasufi O. Gasset aytmoqchi, 180 gradusga burildi. Voqealar tasviridan inson botini (ruhiyati)ning tasviri oldingi marraga chiqdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan to shu kunlargacha realizm, tanqidiy realizm, estetizm, modernizm, postmodernizm oqimlari bir-birining o‘rnini olib, biri ikkinchisiga xamirturish bo‘lib keldi. Natijada bugungi dunyoning kayfiyatida ko‘pgina «izm»larning nafasi seziladigan holga keldi. Shunga qaramay, keyingi bir necha o‘n yilliklarda jahonni o‘z domiga tortgan umumiy kayfiyatni «globalizm» deb atash urfga kirdi. Globalizm adabiy oqim emas. Lekin u adabiy oqimlarga jiddiy ta’sir qiladigan umumjahoniy «iqlim»

bo‘lib, uning ta’sirida dunyo badiiy-estetik tafakkur tarzida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz berdi, bermoqda.

Globalizm nima? Lotincha «globus», ya’ni shar so‘zidan olingan bo‘lib, dunyo miqyosidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy jihatdan o‘zaro ta’sirlashuv jarayonidir. Unda dunyo xo‘jalik tizimi o‘zgarib boradi. Bozor munosabatlari, mehnat taqsimoti, xalqaro aloqalar, madaniy munosabatlar, dunyoqarashlar o‘zaro integratsiyalashuv oqibatida jiddiy evrilishga yuz tutadi. Ayni damda, siyosiy va iqtisodiy globallashuv farqlanadi. Tarixchilar globalizmni kapitalizmning bitta davri deb qarasa, kulturologlar madaniyatning sharqlashuvi oqibati deydi. Manbalar aytadiki, bu so‘z ilk bor K. Marksning F. Engelsga yozgan xatida (1850-y.) uchraydi: «Endi dunyo bozori haqiqatan ham bor. Kaliforniya va Yaponianing dunyo bozoriga qo‘silishi bilan globallashuv sodir bo‘ldi»²⁰.

Globalizm o‘z domiga tortgan dunyoda adabiyot o‘z «mahallasining kayfiyati»ni kuylab xotirjam bo‘lолmaydi. O‘zbek shoiri «Ikki daryo oralig‘ida Qolib ketdi mening ovozim» (Abdulla Oripov), deb yozgan edi. Endi insonni qiziqtiradigan, uning hayotiga ta’sir qiladigan maydon ikki qutb o‘rtasidir. Bugun shoir butun dunyo muammolarini kuylashga mahkum va majbur. Buni u atay qilmaydi, balki tabiiy ravishda ado etadi. Bugun dunyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik, psixologik jihatdan yaxlit arenaga aylanib ulgurgan. Natijada inson badiiy tafakkurida ham o‘zgarishlar sur’ati misli ko‘rilmagan darajalarda tezlashmoqda. Adabiyotdagи «izm»lar ham shunga ko‘ra tez-tez yangilanib bormoqda. Chunki jamiyat kayfiyati yangilanmoqda. Jamiyat kayfiyati esa adabiyot yangilanishini taqozo etadi. Yangilanish adabiyotning tarzini, yo‘nalishlarini o‘zgartiradi, demakki, uning qarshisida yangidan yangi muammolarni paydo qiladi.

Zamonaviy adabiyotning muammolari o‘zgargan, o‘zgarishda shiddat bilan davom etayotgan dunyoning muammolari bilan bog‘liq. Moskvada o‘tkazilgan dunyo kongressida mashhur yozuvchi Ch. Aytmamatovga jurnalist N. Boltyanskaya quyidagicha savol beradi: «Forum yozuvchilarning muhim masalalaridan biri

²⁰ Qarang: Internet materiallari. Globalizm.

dunyo adabiyoti muammosidir. Zamonaviy jahon adabiyotining bosh muammosi nimada deb o‘ylaysiz?». Ch. Aytmatov: «Bu savolga javob berish judayam qiyin. Qo‘lida qalami bor har bir yozuvchi inson hayotining eng muhim qismini, yuragini nishonga olyapman deb o‘laydi. Nazarimda, inson juda katta sinovlar arafasida turibdi. Bu sinovlar dunyoviy konfliktlar, urushlar va shu kabilar bilan bog‘liqdir. Sinovlarda inson o‘zini qanday ko‘rsata oladi? Ehtimol, shu narsa (adabiyotdagi – U.H.) eng muhim masaladir. Ammo judayam og‘ir masala...» deya javob beradi. M. Peshkovaning «Sizning ma’ruzangiz nima haqida bo‘ladi?» degan savoliga Ch. Aytmatov shunday javob beradi: «Ekologiya va so‘z. Bunday so‘z birikmasi ajoyib-a?! Nahotki, ekologiya so‘zga bog‘liq bo‘lsa? Bog‘liq. Mening nazarimda, yer yuzidagi hamma narsa – ezgulik va yovuzlik, bиринчи navbatda, so‘zdan bino bo‘ladi. So‘z bu, avvalo, bizning fikrlarimiz, niyatlarimiz, harakatlarimiz, amallarimiz va hokazolardir. Buni ekologiya rakursida olib qarasak, zamindagi ekologiya ko‘p jihatdan insonning o‘zini qanday tutishiga bog‘liq»²¹.

Demak, zamonaviy jahon adabiyoti muammolarini yozuvchi Chingiz Aytmatov shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda insonning o‘zini qanday tutishida ko‘radi. Ya’ni bu yerda birlamchi bo‘lgan narsa – munosabat. Atrof-muhitda sodir bo‘layotgan olamshumul voqeа-hodisalarga zamonaviy inson qanday qaraydi va qanday munosabatda bo‘ladi degan savol nafaqat dunyoning, ayni damda, adabiyotning ham taqdirini hal qiladi deyilmoqda.

Adabiyotning kelajagi masalasi. Umumjahon forumida bo‘lib o‘tgan suhbatda ishtirok etgan adabiyotshunos T. Venslova: «Qisqa aytganda, fransuz she’riyati o‘ldi», deya xitob qiladi. Vaqtida xuddi shu gapni Bulat Okudjava rus she’riyati haqida aytgan edi. Bunday taxminlar, bashoratomuz fikrlar doim aytilgan. Masalan, 90-yillarda o‘zbek yozuvchisi Sh. Xolmirzayev ham «Adabiyot o‘ladimi?» degan maqola bilan chiqqan edi. Gap shundaki, vaqt-i-vaqti bilan jamiyat (ma’naviy-ruhoniy bo‘hronlar davrida) ana shunday kayfiyatlarga tushib turadi. Bu narsa, albatta, mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, psixologik evrilishlar

²¹ Moskvada o’tkazilgan xalqaro kongressdagi suhbat // <http://echo.msk.ru> (U. Hamdam tarjimasi).

bilan bog‘liq holda ro‘y beradi. XX asrning 70-yillari avlodidan keyin o‘zbek adabiyoti, xususan, o‘zbek she’riyati o‘ldi degan «bashorat»lar ham puch edi. Holbuki, bugun o‘zbek o‘quvchisi qadim ildizlardan suv ichib, zamon kayfiyatidan nafas olgan tamomila yangilangan istiqlol davri o‘zbek adabiyoti bilan yuzma-yuz turibdi. Bularning siri esa o‘zgarishlar negizida. Jamiyatda yangilanishlar shabadasi esib qolganda maydon markaziga har doim esinti yo‘nalishini to‘g‘ri fahmlab, o‘z asarlarida aks ettira oladigan ijodkorlar tushadi. Ammo davrlar tinimsiz almashib, o‘zgarib turgani bois har bir davr o‘z ijodkor (avlod)ini yaratadi. Bundan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Barcha zamonlar «hadis»ini to‘g‘ri anglagan va ularni yuksak san’atkorlik bilan asarlariga ko‘chira olgan ijodkorgina mumtozlik maqomiga ega bo‘ladi.

Internet adabiyoti. XXI asr avvalidanoq internetning misli ko‘rilmagan imkoniyatlari ayon bo‘lib qoldi. Sekin-asta «Internet adabiyoti» paydo bo‘lib, u ma’lum ma’noda an’anaviy, qog‘oz shaklidagi adabiyot o‘rnini egallay boshladi. 100 – 120 yil davomida doimiy ravishda nashr etib kelingan gazeta-jurnallar jahonning ko‘pgina yirik mamlakatlarida XXI asrning ilk choragiga kelib yopila boshladi. Odamlarning qiziqishlari, ehtiyojlarida inqilobiy burilishlar sodir bo‘ldi. Natijada ma’lum muddat adabiyot va san’atga e’tibor susaydi. Ammo bu hodisalar birdaniga yuz bermadi, aksincha, uning kurtaklari o‘tgan asrning ikkinchi yarmida insonlar dunyoqarashidagi siljishlar bag‘rida nish urgan edi. Xususan, ana shu evrilishlarni boshidan kechirgan Fransiyada XX asrning 70-yillaridan keyin «she’riyat o‘ldi» deya ovoza qilindi. Xuddi shunday e’tiroflar sobiq Ittifoq hududiga XX asrning oxirgi 10 yilligi va yangi (XXI) asrning avvalida tilga tushdi. Masalan, internet adabiyoti portallarida shunday rasm paydo bo‘ldiki, u dunyoning adabiyotga bo‘lgan bitta kayfiyatini qisman o‘zida aks ettirar edi: qabriston, qabr toshiga «Stixi RU» deb yozilib, yonboshiga gul, aroq va gazak qo‘yilgan. Lekin bu surat dunyodagi xilma-xil kayfiyatlarning hammasini to‘la qamrab ololmaydi. Chunki olam keng va u turfa axborot, turfa kayfiyatlar quchog‘ida nafas oladi. Yer yuzining qayeridadir adabiyot ahamiyatini bir qadar yo‘qotsa, qayeridadir u qaddini tiklashi, yaproq yozib, meva tugishi, hammani o‘ziga jalb etishi mumkin.

Jahon adabiyoti tarixiga bir qur nazar tashlashning o‘ziyoq bu fikrni tasdiqlaydi. Shunga qaramay, dunyo bugun umumiy «adabiy bo‘hron»ni o‘z boshidan kechirayotganligidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Shuning uchun zamonaviy o‘zbek she’riyati vakilasi, shoira Zebo Mirzo: «Gul davralar meniki emas, Mening uyim – ko‘krak qafasim», deb yozadi. Bu misralar tagzaminidagi ma’no XX va XXI asrlar she’riyatiga bitta o‘zak chiziq bo‘lib tortiladi. Ya’ni inson (shoir) tashqaridan ichkari (botin)ga kirdi va u yerdan turib atrofni kuzata boshladi. Bungacha shoir tashqarida, u yerdagi umum ish bilan band edi. Nafaqat parchalanib ketgan sobiq Ittifoq hududida, balki butun dunyo mamlakatlarida umumiy ahvol taxminan shunday edi. Yevropada «ichkariga yurish» biroz oldinroq (Birinchi va Ikkinci jahon urushlaridan keyin) sodir bo‘lgandi. Modernizm hodisasi shu tufayli tug‘ildi. Ispan esteti va faylasufi X.O. Gassetning yuqorida eslaganimiz: Inson XX asrga kelib «ko‘z qorachig‘ini 180 gradusga burib, ichkariga qaratdi» degan mashhur fikri shu tarzda tug‘ilgan edi. Mazkur fikr butun boshli jahon adabiyotidagi tub o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini yetarlicha ochib bera oladi.

Bir tomondan, qog‘oz shaklidagi adabiyotga talab ozayib bormoqda, ikkinchi yoqdan, she’riyatning internet sahifalarida ommalashib borayotganligi kuzatilmoxda. Ijtimoiy tarmoqlar vositasida targ‘ib qilinayotgan adabiy janrlar orasida she’riyat ancha peshqadam. Masalan, jahonda ayrim shoirlarning instagram kanalida 100 000 (yuz ming)dan ziyod obunachilar bor. Obunachilar shoirlarning ham xuddi artistlar kabi «poeziya shouulari» tashkil etishlarini yoqlab chiqishmoqda. Shu orqali shaharlarni kezib, auditoriya to‘plab, o‘z she’rlarini jonli o‘qib berishmoqda. Buning uchun esa shoirlar o‘z ijodini internet orqali targ‘ib qilishadi. Internetda ayollar she’riyati ham ommalashib bormoqda. Chunki internet, ijobiy-salbiyligidan qat’i nazar, barchaga birdek o‘zini namoyon qilish imkonini taqdim etdi. Natijada shu vaqtgacha hech kim tanimagan, tan olmagan yangi qalamkashlarni aynan internet tarmoqlari kashf qildi. Aytish joizki, adabiyotning shu shaklda tarqalishi postmodernizm ilgari surgan dasturdagi moddalarga juda ham mos tushadi. Shulardan birida har kim har qanday san’at turi,

jumladan, adabiyot bilan shug‘ullanishi mumkin degan fikr kechadi. Xuddi mana shu «mumkin» internet sahifalarida juda ham yaqqol kuzatilmoqda: iste’dodi bormi-yo‘qmi, fikr, tuyg‘u, g‘oya o‘zinikimi-yo‘qmi, bundan qat’i nazar, hamma hamma narsani yozib, e’lon qilmoqda. Hatto xalq maqollari, yozuvchi, shoir, mutafakkir, olim, mashhur siyosatchilarga tegishli aforizmlar birda muallifi ko‘rsatilsa, ko‘pincha ko‘rsatilmay yoyinlanmoqda. Mualliflik huquqlari o‘ta qo‘pol shaklda buzilmoqda. Ayni paytda, internet adabiyoti internet tanqidini paydo qildi. Oz bo‘lsa-da feysbuk, telegram, shaxsiy saytlarda e’lon qilingan kattakichik, turfa janrlardagi matnlarga munosabat bildirilmoqda. Munosabatlar ko‘pincha sharhlar tarzida ham qoldirilmoqda. Matnlarning aksariyati, albatta, professionalizmdan yiroq qoralamalardir. Ularni, ta’bir joiz bo‘lsa, bir so‘z bilan «bo‘tqa» epiteti bilan atash mumkindir, ehtimol. Shu bilan birga, tan olish kerakki, internet tarmoqlarida adabiyot bilan professional shug‘ullanuvchilarning ham o‘z sahifalari bor bo‘lib, ko‘pincha aynan ana shu yerda chinakam adabiyotga, badiiyatga daxldor adabiy mahsullar hamda ular haqidagi tanqidiy materiallar berib boriladi. Shuningdek, gohida xalq orasidan chiqqan, kasb-u kori, yoshi turlicha bo‘lgan qalamkashlarning ham pichoqqa ilinadigan matnlari, qarashlari «yilt» etib ko‘zga tashlanib turadiki, bu «internet adabiyoti» ustidan chiziq tortib bo‘lmaydi deganidir.

Xullas, nima bo‘lganda ham, «Internet adabiyoti» degan tushuncha tobora ildiz otib, internet nashri zamonaviy jahon adabiyotining hammabop nashrlaridan biriga aylanib bormoqda.

Zamonaviy adabiyot va tarjima masalasi. Tarjima – zamonaviy dunyo uchun bag‘oyat muhim masala. Chunki tarjima – muloqotning eng ta’sirchan va uzoq yashovchan shakllaridan biri, u nafaqat bir insonning o‘zga bir inson bilan, balki butun boshli bir millatning boshqa bir millat bilan «diydor ko‘rishuvi»dir. Bugungi axborot asrida, har tomonlama integratsiyalashuv tig‘izlashgan, tezlashgan zamonda madaniyatlararo muloqotsiz oldinga xotirjam bir odim ham qo‘yib bo‘lmasligi tobora chuqurroq tushunib borilayotgani haqiqat. Jahon adabiyoti ham tarjima bilan tirik. Faqat har qanday tarjima emas, balki millat

ko‘nglining, millat botiniy qiyofasining tarjimasigina o‘zini oqlaydi. «Har bir odamning yuragida o‘z xalqining jajji qiyofasi yashaydi», deydi A. Freytag. Millat guli hisoblanmish ijodkor ziyolilar faoliyatida esa (ya’ni ijodlarida) bu qiyofa o‘zining butun qirralari bilan, ayniqsa, to‘liqroq namoyon bo‘ladi. Bu qiyofa, avvalambor, millatning o‘zgarmas, barqaror tabiatini, har bir xalqning o‘zigagina xos o‘zak xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Tarjima orqali mana shu o‘zlikni tanitish kerak bo‘ladi. Bunday tanishuv esa o‘zga tillarga tarjimasiz, xorijiy tillarni mukammal bilishsiz mumkin emas. Zero, «Til robitayi vositayi olamiyondir» (Avaz O‘tar). Mana, nima uchun tarjima bugun hayot-mamot masalasiga aylanib boryapti ekan. Aks holda, o‘z javharidan, turlanmaydigan asos-mohiyatidan mahrum bo‘lgan millat qiyofasiz bir holga tushib, globalizmning ayovsiz girdobiga tortiladi-da, o‘z ildizidan, bora-bora esa o‘zligidan ham ayrılib, o‘zi bor-u nomi va shoni yo‘q odamlar to‘dasiga aylanadi. Bunday qismatni hech bir xalq aslo o‘ziga ravo ko‘rmasa kerak. Demak, jahonga so‘z bilan o‘zlikni namoyon qilishning birdan bir yo‘li baland saviyali, asliyatga muqobil badiiy tarjima yo‘lidir.

Biroq tarjimada ham tarjima bor. Tarjima bor – asliyatning «panjasiga panja uradi», tarjima bor – asliyat mohiyatini to‘la yetkazib berolmaydi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, dunyoda har bir katta ijodkorning o‘z tarjimon(lar)i bo‘ladi. Ana o‘sha tarjimon(lar) paydo bo‘limguncha ijodkor o‘zga millat uchun noma’lumligicha qolaveradi. Hatto uning yuzlab tarjimonlari bo‘lib, har yili bittadan kitobi o‘nlab tillarga tarjima qilinsa ham, foydasi kam. Aksincha, nomarg‘ub tarjima ijodkor haqidagi tasavvurni buzib, o‘quvchining nazaridan tushiradi. Ana o‘sha munosib tarjimon(lar) paydo bo‘limguncha u – «hech kim». Uning nomigina davralarda-yu kitoblardagi sanoqlarda aylanishi mumkin. Lekin hech qachon tarjima qilingan til vakillarining yuraklariga kirib, onglarida e’zoz topmaydi. Shu ma’noda rassom yoki bastakorga havas qilish mumkin. Chunki ularning biri rang, boshqasi esa ohang tilida ijod qiladi. Rang va ohang tili esa universal hisoblanib, hamma davrlarda va barcha ellar uchun tushunarli bo‘lib qolaveradi. Ya’ni bu «til»lar tarjimaga ehtiyoj sezmaydi. Bu «til»lar tarjima hodisasidan ustun hodisalardir. (Harakat san’ati – ayrim dramatik asarlar ham

shunday. Masalan, so‘zsiz, mimika asosiga qurilgan spektakllar.) So‘z san’ati esa ayni masalada yuqoridagi san’atlar bilan bellasha olmay qoladi. Shu yerda adabiyotning hududiga chegara uriladi. U tarjima bo‘lgandan so‘nggina «bojxona»dan chet mamlakat hududiga o‘tishi mumkin. Biroq u endi kattaroq boshqa bir dovonga duch keladiki, uning ismi o‘zga tilli, boshqa tafakkurli o‘quvchidir. So‘z san’ati namunasi muvaffaqiyat bilan tarjima qilingach o‘zga mamlakat o‘quvchisining yuraklariga kira oladi. Shu ma’noda asliyatda hatto har tomonlama durdona hisoblangan asar ham tarjimadagi o‘z muvaffaqiyatini yuzlab yillar kutishi mumkin. Ungacha esa u «yopig‘liq qozon»dek sirini ichida yashirib turaveradi.

Tarjima – og‘ir yumush. O‘zbek shoiri Erkin Vohidov yozadi:

Oy o‘rtanar, ko‘zlarida yosh,

Ko‘ksi dog‘-u yuragi qiyma:

«Ey falak, men edim quyosh,

Nega meni qilding tarjima?»

Darhaqiqat, tarjima qilingan asarlar mohiyatini juda teran bir tarzda ochib beradigan to‘rtlik bu. Chunki oy bir paytlar quyosh edi, tarjima qilingandan so‘ng oy darajasiga tushib qoldi, ya’ni kichrayib, nuri ozaydi. Demak, har qanday asar tarjimadan so‘ng bir daraja quyiga qarab ketadi degan xulosa yashiringan yuqoridagi to‘rt qator she’rda. Darhaqiqat, ko‘pincha shunday bo‘ladi. Lekin o‘z ishining ustasi bo‘lgan haqiqiy tarjimon asliyatga muqobil tarjima ustida o‘ylaydi, izlanadi. Zero, tarjimadan keyin quyoshning quyosh, oyning oy bo‘lib qolishi eng mukammal tarjima natijasi hisoblanadi. Quyoshni oy darajasiga tushirgan yoki aksincha, oyni quyosh darajasiga ko‘tarib qo‘yan tarjima ham mukammal sanalmasligi lozim. Chunki to‘g‘ri va baland tarjima asliyat ruhini saqlab qola olgan tarjimadir.

Tarjimon asar ruhiga kirib, asar mag‘zini «o‘ziniki»ga aylantira olsagina uning o‘girmalari muvaffaqiyatga erishadi. Shunday muvaffaqiyatli tarjimalardan biri o‘zbek shoiri Usmon Nosirga tegishli bo‘lib, u rus shoiri Mixail Lermontovning «Demon» dostonini yuksak darajada o‘zbekchaga o‘girgan.

Tarjimon doston mazmunini «o‘ziniki»ga aylantirib olgan. Asar xuddi o‘zbekchada bitilgan kabi ravon, haroratli o‘qiladi. Ayni chog‘da, tarjimada «Famoningga yig‘lab cho‘kay tiz» degan «ortiqcha» misra paydo bo‘lib qolgan. Bu misra Usmon Nosirda bor-u, Lermontovda yo‘q. Xo‘sh, nega? Tarjimonning bunga nechog‘lik haqqi bor? Nazariyaga qarasangiz, haqqi yo‘qdek. Asliyat va tarjimani qiyoslagandan keyin esa anglashiladiki, tarjimon doston ruhiga shu darajada chuqur kirganki, go‘yo uning ijodkoriga aylangan. Xuddi Lermontov kabi. Hamda ijodkor ruh kayfiyatini qog‘ozga to‘kkan:

Dengizlarning tublarin quchay,

Bulutlardan balandga uchay.

Yer ne’matin senga tutay, qiz,

Farmoningga yig‘lab cho‘kay tiz,

Sevgin meni!

Darhaqiqat, go‘zal, haroratli misralar! Aynan shu misra mamlakatning eng baland tog‘i cho‘qqisiga tikilgan bayroqqa o‘xshaydi. Bu o‘rinda bayroq o‘sha mamlakatning borligiga, kuch-qudratiga yo‘naltirilgan bir ramz bo‘lgani yanglig‘, «Farmoningga yig‘lab cho‘kay tiz» misrasi ham oshiqning sevgilisiga bo‘lgan cheksiz ishqidan bir dalil, nishon. Aynan shu misrada uning ma’shuqasi uchun har narsaga tayyor ekani ayonlashadi. Qolaversa, aynan shu misra «Usmon Nosir» deb atalgan tarjimon, ayni paytda, «shoir-mamlakat» qudratini ham ko‘z-ko‘z qilguvchi bayroqdir. Birgina shu bayroqqa qaraboq tarjimonning yusak iste’dodiga guvoh bo‘lish, undan hayratlanish mumkin. Bu misralar asliyatda quyidagicha:

Я опусь на дно морское,

Я полечу за облако.

Я дам тебе все, все земное –

Люби меня!

«Я дам тебе все, все земное» tarjimada «Yer ne’matin senga tutay, qiz» deb o‘girilgan. Nazarimda, ruschadagi ta’kid (все, все...)ni berish uchun ham yana bitta misra tug‘ilgan. Ha, qo‘shilgan emas, aynan tug‘ilgan, ijod qilingan: «Farmoningga yig‘lab cho‘kay tiz...»

Tarjimadagi ijodkorlik («Farmoningga yig‘lab cho‘kay tiz»)ni yana qofiya («qiz – tiz») taqozosi deb ham talqin qilish mumkindir, ehtimol. Lekin gap faqat bunda emas. Asliyat qofiyasiga e’tibor berilsa, u yo‘q («морское – земное» qofiya emas). Bu borada (ya’ni qofiya masalasida) tarjima varianti ustun ekanligini e’tirof etmoq kerak. Lekin asliyat o‘zicha juda go‘zal. U shu darajada go‘zalki, hatto qofiyaga muhtoj emas. «Я опущусь на дно морское, Я полечу за облако» misralarining ma’no, ya’ni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimasi «Dengizlarning tubiga tushaman (tushay), Bulutlarning ortiga uchaman (uchay)» bo‘lar edi. Usmon Nosir Lermontov chizgan manzarani Lermontov taklif qilgan badiiy gap konstruksiyasiga ko‘ra emas, balki o‘z so‘zlari bilan qayta yozib chiqadiki, natijada «Dengizlarning tublarin quchay, Bulutlardan balandga uchay» kabi oltin misralar, chinakam ijod, asliyatga tengma-teng ijod namunasi dunyoga keladi. Chunki dengizning tubiga tushish bilan uni quchish, bulutlarning ortiga uchish bilan ulardan balandga uchish o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Xuddi oddiy gap bilan she’riy misra orasidagi tafovut kabi. Lekin, baribir, unutmaslik kerakki, to‘g‘ri tarjima asliyatga adekvat (uyg‘un) tarjimadir.

Tarjima tarixiga nazar tashlasak, asosan, ikki xili ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Biri – taglamali (подстрочный) tarjima, ikkinchisi – mazmun tarjimasi. Aslida, badiiy tarjimaning necha xili bo‘lishiga qaramay, eng muhim, asar ruhi to‘g‘ri tarjima etilmog‘i shart. Shu ruh berildimi, qolgani katta-kichik tahrirlar bilan tuzatilishi mumkin. Ruh berilmasa-chi, barchasi bekor: chiroyli so‘zlar, silliq gap konstruktsiyalari, hikmatli so‘zlarning o‘rinli ekvivalentlari, qo‘yingki, butun «toat-ibodat» suvgaga oqadi-ketadi.

Adekvat tarjima muhim. Shu darajada muhimki, u asar taqdirini yo bor qiladi, yo yo‘q. Hozirgi zamonga kelib jahon adabiyoti va tarjima sohasida talay muammolar paydo bo‘ldi. Xususan, Moskvada o‘tkazilgan davra suhabatida tarjimon va jurnalist Irina Kuznetsova aytadi: «Tahririyatga fransuzcha she’rlar oqib keladi. Ular, asosan, Rembo, Verlen, Mallarme she’rlaridir. XX asming ikkinchi yarmiga oid she’rlardan juda kam yuborishadi. Yuborishsa ham, turgan-bitgani dahshat! Ular tarjimasini hech kim uddalay olmaydi, axir! Gap shundaki,

50- va 60- yillarda fransuz adabiyotida navbatdagi inqilob sodir bo‘ldi. Nazarimda, xuddi shundan Fransiyada zamonaviy poeziya boshlandi. Yangi avlod «reallikni boshdan oyoq ramzlashtirgan» syurrealizm merosiga qarshi bosh ko‘targan edi. Syurrealizm estetikasini Fransis Ponj «romantik-lirk saraton ishig‘i» deb atagan. Xullas, lirika ma’nosini ohanjamadan xoli qilaman deya novatorlar oshirib yuborishdi: axlat uyumiga nafaqat qofiya va poetik ko‘chimlarni chiqarib tashlashdi, balki she’riyatning barcha vositalarini gumdon qilishlariga sal qoldi. Ularning uslublarida she’rga joy qolmadi. Bir fransuz tanqidchisi bu davrni «muzlash davri» deb nomlagandi, adashmasam. Nihoyat, mana, yaqindagina «erish» boshlandi. «Muzlash davri»ning she’rlari ikki-uchta bir-biri bilan hatto grammatik jihatdan bog‘lanmagan so‘zlardan iborat edi. 70-yillarning oxirlarida fransuz shoirlari bizga (Rossiyaga) kelganda so‘radik: «Har bir so‘zingizning ortida nima turibdi? Ular ortidagi bo‘shliqni nima bilandir to‘ldirishimiz kerak, axir!» Chunki, masalan, xitoy va yapon she’rlarining ortida an’ana, o‘qishi bilan ma’rifatli inson qalbida tug‘iladigan ko‘plab assotsiyatsiya turadi. Bu yerda esa urushdan keyingi manzara yodingizga tushadi». Bu fikrga javoban forumning yana bir ishtirokchisi Yevgeniy Bunimovich quyidagicha fikr bildiradi: «Zamonaviy fransuz she’riyatini zamonaviy tarjimonlar tarjima qilishi kerak. Men boy madaniy kontekst faqat yaponlarda bor degan fikrga qo‘shilmayman. O‘qimishli fransuz uchun o‘z konteksti ortida ko‘p narsa turgan bo‘lishi, uni ruschaga oddiy so‘zlar bilan tarjima qilganimizda u sezilmasligi mumkin. Chunki ruschada u kontekst yo‘q...» Davra suhbatining yana bir ishtirokchisi Mark Freydkin aytadi: «Deylik, mening qiziqishim XIX asr va XX asrning birinchi yarmi. 30 yoshlilarni 30 yoshlilar va hatto undan ham yoshlar tarjima qilishi kerak. Ayniqsa, bugungi she’riyat shaklan butunlay boshqa, yangi qiyofaga kirib borayotganda. Men ba’zan ingliz tilida qanday yozishayotganiga qiziqib internetga kiraman. Aytish kerakki, kaminaning an’anaviy qarashlari bilan hamohangligi yo‘q internetdagи she’rlarning. Shu uchun menga katta gonorar taklif qilishsa-da, men ularni tarjima qilmayman. Bu ularning rasvoligi yoki yozishni eplay olmaganidan emas. Yo‘q,

ular bor-yo‘g‘i boshqa «til»da yozishyapti, ular qo‘llagan badiiy priyomlar menga notanish. Boshqa auditoriyaga mo‘ljallangan she’riyat bu» (U. Hamdam tarjimasi).

Bu munozaradan ham ko‘rinib turibdiki, tarjimada, tarjimonda gap ko‘p. Tarjimon hammani tarjima qila olmaydi. Tarjimon o‘z ruhi, o‘z dunyoqarashi, o‘z didi va o‘z yo‘nalishiga muvofiq tushgan asarnigina qoyillatib tarjima qilishi mumkin. Qolaversa, bir xil tizilgan so‘zlar zimmida ikki millat ijodkori ham, o‘quvchisi ham tamomila boshqa-boshqa ma’nolarni tushunishi mumkin. Ularning bir-biriga muvofiq tushishi uchun ikki millat vakilining yashash sharoitlari, shartlari va boshidan kechirganlari o‘rtasida talay mushtarak jihatlar bo‘lmog‘i lozim. Yo‘qsa, «men ne deyman-u, qo‘bizim ne deydi»ni aytgan kishining holiga tushish hech gap emas.

Yoshlar va sog‘lom adabiyot targ‘iboti. Muhtaram o‘quvchi! Shu o‘rinda mavzuga doir «Adabiyot – oldinda yongan chiroq» nomli esse e’tiboringizga havola etiladi.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Xuddi shunday evrilishlar maydonida qolgan «adabiyotning qo‘li»dan nima keladi: «u olam ravishiga ta’sir qila oladimi? Adabiyot – oldinda yongan chiroq bo‘la oladimi? Ayniqla, yoshlar uchun! Yoki chirpinib nimalar qilmasin, nimalar demasin, hammasi bekor-u bekorchi valaqlash bo‘lib chiqaveradimi?» degan og‘riqli savollar o‘qtin-o‘qtin xayolimizni band etadi. Chunki tevarak atrofda gohi-gohida yangrab turgan «bugun adabiyotning jamiyatga ta’siri nolga teng» degan iddaolar yuragimizga kuchi sekin-asta yetib keladigan og‘udek ta’sir qiladi va vaqt o‘tgani sayin mislsiz iztiroblarga ro‘baro‘ qilaveradi.

Akademik Yuriy Borev dunyonи yo‘naltiruvchi paradigma hozir yo‘q deya bong urdi. Buni o‘zbekona aytadigan bo‘lsak, bashariyat yurishi mumkin bo‘lgan tuzukroq yo‘l yo‘q deganidir. Nega yo‘q? Axir, u bor edi-ku! Bu nimadan dalolat? Atrofni zulmat qoplaganidan emasmi? Dunyo afkor ommasining ichiga kirib borayotgan qorong‘ilikdan emasmi? Faqat zulmatgina mavjud yo‘lni ko‘zdan pinhon tutadi... «Bashar ahlini chulg‘ab olgan bo‘hron ikkita urush va boshqa musibatlarni boshidan kechirgan dunyoning o‘ta xatarli va terrorga moyil bo‘lib

qolayotganida o‘zini yaqqol namoyon etmoqda. Sovuq urushdan keyin maydonga kelgan yangi davr insoniyat tarixida ilk bor borliq haqida hech qanaqa formulaga ega bo‘lmay turibdi. Qarshimizda olamshumul qora tuynuk paydo bo‘lgan. Binobarin, hokimiyatlarda strategiya yo‘q, faqatgina pishib kelayotgan muammoni hal qiluvchi amaliy qarorlargina mavjud»²², – deb yozadi akademik.

Sovuq aql bilan qilni qirq yoradigan G‘arbgan, o‘z hikmatlari bilan adashgan ruhga yo‘l ko‘rsatuvchi Sharqqa nima bo‘ldi? Nega dunyo tushkunlikka tushmoqda? Ehtimol, gap yana o‘sha yo‘lda, unga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi, biroq uni qondirish shaklining hadeganda topilmayotganida emasmikan? Chunki dunyo bor ekan, uning yurmog‘i uchun yo‘l kerak. Qulay, foydali va eng muhimmi, insonni oldinga, moddiy-ma’naviy jihatdan taraqqiyotga yetaklaydigan yo‘l zarur... Xuddi shu o‘rinda adabiyot o‘zini qanday tutadi? To‘g‘rirog‘i, qanday tutmog‘i kerak? Fahsh, ur-sur, zulm, oldi-qochdi mavzular botqog‘iga botib, o‘z ortidan insoniyatni tortib ketishga urinadimi va yoki do‘ppini olib qo‘yib, yetti o‘lchab bir kesadimi – tegrasini zulmat qoplab borayotgan odamzodning ko‘zlariga bir qatim ziyo bag‘ishlaydimi? Axir, yo‘lni ko‘rish uchun ko‘zlearning nurga ehtiyoji bormasmi? Chunki bugungi dunyo avvalgi dunyo emas. Bugungi dunyo – har qachongidan ham himoyaga muhtoj dunyo. Ayni paytda, undan ehtiyyot bo‘lishga insonning o‘zi majbur va mahkum bo‘lib turibdi. Boshqacha aytganda, bugun dunyo insondan, inson esa dunyodan muhofazalanmog‘i shart. Umidbaxsh adabiyot, yorug‘ san’at bizga shuning uchun ham lozim.

Gazetada birga ishlaydigan ustoz va shogird o‘rtasida tez-tez bahs-munozara bo‘lib turar ekan. Kunlardan bir kun shogird yurak yutib so‘rabdi: «Ustoz, nega siz va men tanlagan materiallar bir-biriga ters keladi, ular go‘yo o‘t bilan suv, doimo o‘zaro jang qiladilar?» Ustoz javob beribdi: «Chunki, sendan farqli ravishda, men beg‘araz yaxshilikka ishonmayman...» Shogird esa tashqariga chiqadi va uyiga kela-kelguncha bir narsa haqida bosh qotiradi: «Nahotki? Axir, ustoz elning katta, hamma taniydigan ijodkori bo‘lsa-yu, yaxshilikka ishonmayman deb tursa! Bu nima degani? Yaxshilikka ishonmaydigan odamning qo‘liga qalam tutishi

²² Борев Ю. Инсон ва инсоният хаётининг олий максади ва маъноси // ШЮ. 2001. №4. – Б.158 – 163.

nechog'lik to'g'ri? Uning ikki og'iz so'z yozib odamlarga havola qilishga ma'naviy haqqi bormi o'zi?».

«Inson tabiatiga zid hayot telbalikka olib keladi. Alaloqibat ular (insonlar) o'z dunyolarini o'zлari vayron qilishadi. Chunki ma'nosiz hayot alamiga dosh berolishmaydi», deb yozadi Erix From. Agar insoniyat boshi berk ko'chaga kirib qolayotgan bo'lsa, demak, u o'z tabiatiga ters ishlar qilmoqda. «O'z tabiatingga sodiq bo'l!» deya sado beradi Shekspir. Lekin tabiatimizning o'zi nima?

Bir ajoyib fe'lli do'stim bor. U hech qachon hech kim haqida yomon gapirmaslikka harakat qiladi. Har holda, men uning birovni keskin tanqid qilganini sira bilmayman. G'iybat qilganini esa boz ustiga. Bu – yaxshi sifat. Men hamisha uning shu tomonini eslab, alqab yuraman. Lekin o'rni kelganda u bilan tortishgan vaqtlarim bo'ladi, «Sen oqni oq, qorani qora deyolmaysan, bu esa qat'iy pozitsiyangning yo'qligidan dalolat», deya yaniyman. U esa javoban mayingina jilmayadi: «Bo'lishi mumkin». Shunda o'zimcha unga subutsizlik yorlig'ini yopishtirmoqqa jahdlanaman, lekin do'stimni yaxshi bilganimdan uning bu tavri, nekbin qarashlari, mayin jilmayishlari azbaroyi yuragidagi yorug'likdan ekanligini sezaman va o'zimga o'zim: «Adolatsizlikka yo'l qo'ymasdan burun to'xta!» deyman.

Tog'dan qulab tushayotgan odamning yordam ilinjida dod solishi, albatta, foydasiz harakat, lekin aslo ma'nisz emas. Uning faryodi kuchli voqelik zarbasiga utilgan birdan bir qalqondir chunki. Inson – mantiq farzandi. Bas, ichimizga azalda joylangan mantiq bizni yorug'lik, ezgulik, adolat va yaratishga undaydi. Aslo zulmat, yovuzlik, g'irromlik va buzg'unchilikka xizmat qilishga chorlamaydi. Demak, dunyoga kelgan bani odam qarshisida ikki yo'l bor: biri yorug'likka, boshqasi esa zulmatga eltadi. Bu – bir jaydari mantiq. Lekin aynan shu mantiqda inson tabiat mujassam ko'rindi. Inson hayotiga ma'ni kiritadigan yoki uni yo'q qiladigan kuch ham shu yerda yashirin kabi. Alalxusus, ana o'sha sodda mantiqqa ko'ra, do'stim tutgan hayotiy yo'l o'zini to'la oqlaydi.

Ruhshunoslarning aytishicha, hayotsevar odam yarim piyola suvni ko'rib «piyolaning yarmida suv bor» degani holda, tushkun kishi xuddi shu idishga qarab

«uning yarmi bo'sh» der ekan. Chunki birinchi holda inson piyoladagi suvni, ikkinchisida esa piyolaning bo'sh joyini ko'rarkan. Asqad Muxtor «Tundaliklar»ida derazadan boqib kimdir osmondagи yulduzni, kimdir yerdagi go'ngni ko'radi degan ma'nodagi fikrni yozib qoldirgan edi. Ore rost, chunki har kim o'z tabiatidan kelib chiqib olamga nazar soladi. Ijodkor-chi? U qanday bo'lishi, dunyonи qaysi nuqtadan turib aks ettirishi lozim? Faqat yulduzni ko'rib, yulduzni alqasimmi? Unda haqiqat, hayot haqiqati nima bo'ladi? Chinakam adabiyot, haqiqiy san'atadolatning yuziga oyoq bosmasligi kerakmasmidi? Hayotni qora ranglarda ko'rish va tasvirlashga moyil yana bir ijodkor do'stim: «Inson balchiqqa botgan maxluq va u shu yerda abadiy qoladi», deya takrorlab yurishni yoqtirardi. Bu borada unga: «To'g'ri, chinakam adabiyot o'zini balchiqni ko'rmayotgandek tutmasligi kerak. U nafaqat balchiqni ko'rishi, ayni damda, uning badbo'y hidini o'quvchiga hidlatishi, halokatli quchog'idan badiiy informatsiya berishi darkor. Hatto u bunga mahkum. Ayni paytda, najot haqida, uning borligi to'g'risida ham o'quvchining qalb qulog'iga shipshib o'tmog'i shart!» deya bahslashish mumkin. Bas, shuning uchun bir she'rda: «Balchiqlarga botsa-da jismim, Qorachug'da yashaydi osmon!» deb yozgandim. Shuni unga aytdim. Biroq bu so'zlar do'stimga zarracha ta'sir qilmadi. Oradan vaqtlar o'tdi. Do'starning bir o'g'il-u bir qizi voyaga yetib, uydan ostona hatlab ko'chaga chiqdi, jamiyat hayotiga aralashdi. Shunda, bilasizmi, nima voqeа ro'y berdi? Do'starning yorug' ranglarini izlab qoldi: o'zi uchun topolmagandi o'sha ranglarni, qarang, endi bolalari uchun, ko'zining oq-u qoralari uchun jazm etdi bu ishga va topdi! Hatto undan nari – dunyo va jamiyatdagi, ko'cha-ko'ydagи, odamlar fe'lidagi illat va nuqsonlarni o'zicha tuzatishga bel bog'ladi. Nega? Chunki bolalari bor edi u yerda – ro'yi zamin ustida, odamlar orasida! Do'stim hatto shu kungacha yozilgan o'z ijodini qayta ko'rib chiqa boshladi – yorug'lik, yaxshilik, ezgulik,adolat va bunyodkorlik ruhi foydasiga! Demak, vaziyatga qarab bitta odam o'z umri davomida piyoladagi suvga-yu deraza ko'zidan ko'rinib turgan yulduz-u go'ngga bo'lgan munosabatini o'zgartirib turishi mumkin va bu g'oyat tabiiy ekan. Demak, inson hayotdan qanday (musbat yoki manfiy) ta'sirlansa,

sekin-asta dunyoqarashi ham shunga moyil bo‘lib shakllanar ekan-da. Ya’ni inson miyasi go‘yo bir fotoapparat: u har kuni atrofidagi voqelik parchalarini chiqillatib rasmga oladi. Miyada yig‘ilgan suratlar uning olam haqidagi tasavvurini, tasavvur esa o‘z navbatida, o‘sha insonning dunyoqarashi-yu kayfiyatini, optimist yoki pessimist bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Demak, nimani suratga olish o‘sha insonning hayotga munosabatidagi darajani – nekbinlik yoki tushkunlik miqyosini belgilab beradi. Bu daraja va miqyoslar esa o‘z o‘rnida inson hayoti ma’nisini ifodalaydi. Qissadan hissa shuki, adabiyot hayot aksi, voqelik modeli bo‘lgani bois o‘quvchini yorug‘lik yoki zulmat sari yetaklashi, uning ong-u qalbini u yoki bu mazmun-kayfiyat bilan emlab turishi inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. Bas, shunday ekan, ijodkorning, umuman, insonning «kurashayotgan bu ikki to‘lqin» (Oybek) – (bu o‘rinda) Yorug‘lik va Zulmatning qay biri tomonida turishini issiq tanasiga yaxshilab o‘ylab ko‘rishi kerak bo‘ladi. Hatto har doim, bir umr o‘ylab yurishi shart buni.

Inson tug‘ilibdiki, ziyoga intiladi. Hayotning ibtidosi quyosh nuri bag‘rida ona sayyoramizga ingan yorug‘lik va iliqlikda yashirin. Boshqacha aytganda, Oliy Borliq quyoshni bir vosita aylab zamin uzra hayotni bor etdi. Zamonaviy ilm ham qadam-baqadam buni isbot qilib kelyapti. Demak, yorug‘likka intilish maxluqotning javhariga joylashtirilgan eng kuchli Ehtiyojdir. Adabiyotning oydinlikka talpinishi ham, aslida, ana shu ildizdan suv ichyapti. Binobarin, zulmat, yovuzlik, buzg‘unchilikka mag‘lub bo‘lish va pirovardida ularni targ‘ib-u tashviq qilish asllikka, sog‘lomlikka, mohiyatga, javharning tabiatiga zid. Zero, nur o‘z yo‘lida uchragan zulmatni yengish uchun bor etilgan. Aslida, olam ham cheksiz koinot zulmatiga basma-bas yaratilmadimi? Zulmatning bag‘ri chok-chokidan so‘kilib, ichidan nur oqib chiqmadimi? Xuddi shunday, adabiyot ham alaloqibat yorug‘likka, hayotga ovoz bermog‘i, bashar ahliga, yiqilganda yuzini yerga urib olishidan saqlaydigan tirkak – qo‘l, turganda esa olg‘a ketishini ta’minlaydigan oyoq bo‘lmog‘i shart emasmi? Bas, shunday ekan, bu zahmatli, ammo sharafli Vazifani faqat Yorug‘, Hayotparast, Nekbin va Kuchli Adabiyotgina uddalay

oladi! Insoniyatning mana shunday adabiyotga bugun har doimgidan-da ko‘proq ehtiyoji bor!

Bir vaqtlar tengdoshlarim qatori men ham V.M. Dostoyevskiyning «Dunyoni go‘zallik qutqaradi» degan chiroyli gapini aytib yurgich edim. Hozir o‘ylab qarasam, gapning ma’nosi-yu kuchi bilan unchalik ishim bo‘lмаган ekan o‘sha yoshlik yillari. Uning mavjud haqiqatga qanchalar yaqin kelib-kelmasligini esa o‘tgan qator o‘nyilliklar ko‘rsatib berdi, chamasi. Bugun men dunyoni qutqarish yolg‘iz go‘zallikning qo‘lidan kelmasligiga aminman. Yana yetib kelgan haqiqatim shu bo‘ldiki, asosiy gap go‘zallik (va xunuklik, ezgulik va yovuzlik, yuksaklik va tubanlik...) qarshisidagi insonning munosabati, ya’ni tanlovi dunyo taqdirini (uning inson faoliyatiga bog‘liq qismini, albatta. Yo‘qsa, odamzodga mutlaqo aloqasi bo‘lмаган, uning ta’siridan xoli tomonlari ham son-sanoqsiz) ko‘p jihatdan hal qilib berar ekan. Tanlov esa shu inson qanday muhitda, qanaqa qadriyat asosida yashaganligi, kimning qo‘lida va nimani o‘qib-o‘rganganligiga bog‘liq bo‘larkan. Agar go‘zallik o‘z holicha dunyoni qutqaradigan bo‘lsa, unda nima uchun go‘zal Yelena (Homerning «Iliada» asari qahramonlaridan biri)ning husn-u jamoli yoki Amir Umarxon kanizagining tillarda doston chiroyi butun boshli mamlakatlarning qon ichida suzishiga sabab bo‘ldi? Nega bu misollarda go‘zallik xaloskorlikka emas, halokatga sudradi? Sababi, nazarimda, besh qo‘ldek ayon: agar bu o‘rinda go‘zallikka munosabat xudbinona tus olmaganda, qirg‘inbarot urushlarning yuz bermasligi hamda ming-minglab odamlarning yostig‘i qurimasligini anglash unchalik qiyin emas. Dostoyevskiy yuqoridagi mulohazani yuz yillar muqaddam o‘rtaga tashlagan edi. Ehtimol, ulug‘ yozuvchi yashagan davr uchun go‘zallikni tushunish, uning qadriga yetishning o‘zi chindan ham dunyoga, uning avzoyiga jiddiy ta’sir qilgandir (yoki shunday bo‘lishiga asoslar mavjud bo‘lgandir). Hozir ham alohida vaziyatlar uchun: «Dunyoni go‘zallik qutqaradi», deb aytish joizdir, balki. Lekin butun boshli kurreyi zamindagi hayotni, avvalo, ma’naviy, so‘ngra jismoniy halokatdan qutlib qolishi uchun ushbu shiorgagina rioya qilib yashash kutilgan natijalarga olib bormasligi bugun kundek ravshan haqiqat. Gap shundaki, oradan talay suvlar oqib o‘tdi. Dunyo bir emas, bir necha o‘n marta dumaladi,

turlandi, murakkablashdi. Nihoyat, zamonamizga kelib u tamomila boshqa kayfiyat quchog‘ida nafas olyapti. Natijada dunyo bugun butunlay boshqa qutqaruv halqasiga ehtiyojmand bo‘lib turibdi.

Boshqa jihatdan, dunyodagi jamiki odamlar Dostoyevskiy kabi olam go‘zalligini nozik tushunib: «Dunyoni go‘zallik qutqaradi», deya hayqirganda ham boshqa gap edi. Shu bilan birga, muddaoning hosil bo‘lishi uchun o‘sha hamma, shu jumladan, Dostoyevskiy ham «go‘zallikka daxl qilmay, aksincha, asrab-avaylash lozim» degan xulosaga kelishi shart bo‘ladi. Demak, go‘zallikni ko‘rish va uni nozik his qilish bilan unga qanday munosabatda bo‘lish boshqa-boshqa narsalar ekan. Zero, go‘zallikni ko‘rib, his qilish ortidan unga egalik qilish xurujiga mubtalo bo‘lish hech qachon o‘zini oqlamaydi. Axir, dunyoda go‘zallik (estetika kategoriyasi)dan boshqa ezgulik,adolat, haqiqat (etika kategoriyalari) degan tushunchalar ham bor. Ular ham inson ehtiyojlari hosilasidir. Go‘zallikka munosabatda inson axloq normalarini chetlab yoki buzib o‘tdimi, demak, qalbda ego («men»lik) zulmatidan oziqlangan yovuzlik tug‘ilib keladi. Bunday vaqtarda hatto go‘zallik shaydosidan ham himoyalanish, kerak bo‘lsa, uni to‘xtatish kerak.

Yana bir gap shuki, «Dunyoni go‘zallik qutqaradi» degan fikrni Dostoyevskiy asar («Telba») qahramoni tilidan aytgan. Demak, asar qahramoni ma’lum bir kayfiyatga, vaziyatga, o‘zigagina xos dunyoqarashga suyanib aytgan bu gapni. Bas, shunday ekan, ushbu fikrni ulug‘ yozuvchi dunyoni xalos etish yo‘lidagi birdan bir eng oliv chora deb ilgari surganligiga hech kim kafolat berolmaydi. Bizning ayni masala yuzasidan batafsil mulohaza yuritganimizning boisi, gap hayot va uni qo‘rish haqida borar ekan, hashamdar fikrlar, chiroyli shiorlar, serjilva mulohazalar, esda qoladigan nutqlar har doim ham ko‘ringanidek, tuyulganidek kuch-qudratga ega bo‘lavermaydi. Yo‘qsa, yangi yo‘llar, dunyoni chindan-da xalos etuvchi o‘zga choralar ko‘zlanmay, izlanmay qo‘yiladi. Zero, bugun dunyo yangi yo‘lga muhtojdir. Bu yo‘l uni muqarrar halokatdan qutqarmog‘i kerak.

Daraxt hali navnihol ko‘chat ekan, uning o‘zagi hatto kichkintoy bolani ham ko‘tarolmaydi. Ulg‘ayib, bo‘y-bastini baralla kerganda esa har bitta shoxiga bir

nechtadan voyaga yetgan odamni «chiqarib olishi» mumkin. Xos odamlar uchun mo‘ljallangan, faqat shulargina hazm qilishi mumkin bo‘lgan «yukli» asarlarni keng omma uchun nashr etish qanchalik o‘zini oqlaydi? Demokratiya, plyurealizm kabi tushunchalar ta’siri ostida har doim ham to‘g‘ri ish qilinadimi? Men «Uliss» (Jeyms Joys) kabi kitoblarni, uning, ayniqsa, 18-qo‘srig‘ini o‘qigach, shunday o‘ylarga bordim. Albatta, Joysning tasvirda «ong oqimi» degan ungacha kashf qilingan yo‘lni qiyomiga yetkazishi badiiy tafakkur tadrijida alohida xizmat sifatida qaraladi. Lekin bu xizmatni o‘ta behayo tasvirlarsiz ham bemalol amalga oshirish mumkin edi. Chunki axloqsiz holatlarning asar taqozosiga ko‘ra fragmentar tarzda berilishi boshqa, ularning erinmasdan uzoq va bat afsil tasvirlanishi tamomila boshqa ta’sir kuchiga egaligiga e’tibor qaratmoqchiman. Ayniqsa, keyingisining qarshisidan chiqib qolgan yosh avlod vakili anchayin mushkul vaziyatga tushib qoladi. Bunday mulohazalarga: «Nima bo‘pti shunga? Ana, internetni ochib, bitta buyruq bersang, bas, istagancha hayosiz manzaralarni tamosho qilasan. Internetdagi sharmandaliklarning oldida «Uliss»dagi epizodlar arzimas narsa», deya e’tiroz bildirsa bo‘ladi. Lekin adabiyot nima o‘zi? Uning ildizi qayerdan suv ichadi? Inson ko‘nglidan emasmi? Ruhga payvastalanib ketmaydimi adabiyotning teran tomirlari? Va aynan shu narsa insonni hayvondan ajratib turmaydimi? Adabiyot, bo‘lganda ham jiddiy adabiyot bilan shug‘ullanuvchi kishilar bashar ahlining ma’naviy rahnamolaridir. Yo‘lboshlovchilarning o‘zi ruhga emas, ji smga, uning istaklariga sajda qilib turgandan keyin, qolganlardan nima kutish mumkin? Badiiy asar bani odamning insonlik tarafiga emas, balki hayvonligiga xizmat qilar ekan, u holda «cumuman, adabiyot kerakmi-yo‘qmi o‘zi?» degan savolning qarshisidan chiqib qolmaymizmi? Axir, kishilik jamiyatining har doim, hamma davrlarda adabiyot-u san’at yanglig‘ insonni tubanlikka emas, yuksaklikka, zulmga emas,adolatga, fahshga emas, poklikka yetaklovchi olamga ehtiyoji bor emasmi? Inson tabiat faqat hayvoniy mayllar yig‘indisidan iborat emas-ku, axir! Qani uning ruhoniy-ma’naviy tarafi? Yo‘q, gap bu yerda «Uliss» kabi asarlarni man etish haqida emas, balki keng ommaning hukmiga to‘laligicha havola qilish haqida ketyapti. Talaba

chog‘imda yoshi o‘zimdan ancha katta do‘stimdan Markiz de Sad kitobini o‘qish uchun so‘raganimda, o‘rtadagi samimiyatimizga qaramay, kitobni menga berib turishdan bosh tortgandi. O‘sanda undan xafa bo‘lgandim, endi esa men uni tushunaman. Ayniqsa, ancha yillar keyin Sad asarlari bilan tanishganidan so‘ng do‘stimga hatto hurmatim oshgan. Oradan 20 – 25 yillar o‘tib esa o‘sha do‘stim og‘ir xastalik vaqtida bir roman yozib qo‘limga tutqazdi. Men uning 20 sahifasi ma’qul, qolgan 280 sahifasini mutlaqo qayta yozib chiqish kerakligini aytganidamda endi u mendan xafa bo‘ldi. Lekin yillar o‘tib do‘stim sog‘ayib ketdi, jamiyat va tabiat bag‘riga qaytdi hamda romanning o‘sha men aytgan qismlarini qayta tahrir qilayotganidan xabar berdi. Faqat do‘stim emas, yaqinda mening o‘zim ham ilgari chop qilingan asarlarimni tahrir ko‘zi bilan qayta ko‘rib chiqdim: natijada juda tor davralarda, shu sohaning odamlarigagina aytlishi mumkin bo‘lgan tuyg‘ularimni ham farqiga bormay bir vaqtlar elga doston qilganimni anglab xijolat tortdim, ayamay tahrir qildim. (Sobiq sho‘ro davrida jamiyat anchagina cheklovlar ichida yashagan va adabiyot-u san’atning gohi-gohida erkinlikka talpinib turishi tabiiy zarurat edi. Tafakkur kishanlarini parchalash haqiqiy adabiyotning vazifasidek tuyulardi o‘shanda. Endi-chi? Endi hamma narsa mumkin va bu hol muqaddas deb bilganimiz adabiyotni ayrim o‘rinlarda oyoqlar ostiga otib yubormoqda! Endi adabiyot aksincha ish tutmog‘i (vaziyatga qarab ish ko‘rishni aslo subutsizlik deb tushunmaslik kerak) va insonga hamma narsaning mumkinligi halokatga olib borishi haqida bong urmog‘i shart! Dostoyevskiy qahramonlaridan biri «Agar xudo o‘lgan bo‘lsa, demak, hamma narsa mumkin» degan fikrni aytgan edi. Hamma narsaning mumkinligi insonning biz bilgan tabarruk zot sifatida barham topganligini anglatadi.) Shunda quyidagicha xulosalarga keldim: ijodkorning (garchi mumkin bo‘lmasa-da) hamma narsani bilishi yaxshi ekan-u, hamma narsani yozishi joiz emas ekan. Bu borada ham ulug‘ Navoiydan dars olsak arziydi:

Xiradmand chin so‘zdin o‘zgani demas,

Vale har chin ham degulik emas.

Chunki «har chin so‘z» ham uni hazm qila oladiganga, botini yorug‘lik ila yetarlichcha to‘yingan oydinlargagina aytilmog‘i lozim. Yo‘qsa, u, har qancha chin

so‘z bo‘lsin, alaloqibat zulmatga xizmat qilishi mumkinligini e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi.

Changab turgan odam qo‘liga qalam olmasin, yo‘qsa, uning yozganlari «suvga tortib» ketadi. Ya’ni suv ta’masiga aylanadi. Xuddi shunday, dardman odam yozganlarini o’sha darddan forig‘ bo‘lgandan keyin yaxshilab sog‘lom nazardan o‘tkazib olishi kerak. Toki bu darddan to‘ragan matn insonni inson o‘laroq tutib turgan gumanizm ustunlariga raxna solmasin. Chunki kasal kishi, odatda, o‘z dardi iskanjasida qolib, xastalikning xarxashalarini o‘zining asl istaklari deb biladi. Axir, inson faqat kasal holininggina mahsuli emas-ku! U o‘z umri davomida necha-necha bir-biridan farqli hollarga tushmaydi deysiz. Lekin u shularning birini mutlaqlashtirib, jamiyat a’zolari e’tiboriga: «Birdan bir haq gap shu!» deya sunsa, bu qanchalik to‘g‘ri bo‘ladi? Demak, barcha kayfiyatlarning o‘rtasini «nishonga olish» kerak bo‘ladi.

Hamma narsani plyuralizm (hurfikrlilik) bilan xaspo‘shab bo‘lmaydi. Agar hurfikrlilikda insoniyatga, uning hayotiga qarshi nimadir, hatto eng kichik unsur bor bo‘lsa ham, demak, bunday plyuralizm alaloqibat qora kuchlarga xizmat qiladigan hol sifatida baholanmog‘i kerak. Bunday hurfikrlilik ortidan chiqib keladigan yovuzlik, fahsh, zo‘ravonlik, atay tarqatiladigan yuqumli kasallik kabi illatlar borib-borib dunyodagi har qanday yaxshilik-u ezgulikning, yorug‘lik-u adolatning urug‘ini kuydirishi mumkin. Shuning uchun ham plyuralizm haqida baland pafos bilan nutq irod qilayotgan paytimizda bilmog‘imiz kerakki, plyuralizmdan plyuralizmning farqi bor. Bashar manfaatiga to‘la xizmat qiladigan hurfikrlilik bilan shu niqob ostida uning oyog‘iga bolta uradigan «hurfikrlilik» o‘rtasida juda nozik, lekin o‘ta muhim chegara chizig‘i mavjud.

Kunlardan bir kuni talaba yoshlarimizning uch-to‘rt vakili eshik qoqib kelishdi-da, «dunyodaadolat yo‘q, hayot bema’ni, nima gunoh qilsang qil-u, gunohkor sen emassan, bu yorug‘ olamda nima karomat ko‘rsatsang ko‘rsat-u, oqibati bir pul» degan gaplarni «dasturxon qilishdi». Shunda men ular bilan ochiqchasiga bahsga kirishmay, sekin ko‘ngillariga qo‘l solib ko‘rdim. Natijada ular o‘zları «ko‘tarolmagan», «hazm qilolmagan» yozuvchi-yu shoirlar asarlarini

o‘qib yurishganini, hatto ularning ta’sirida ekanliklarini bilib qoldim. Bular Umar Xayyom, Dostoyevskiy, Joys, Kafka, Kamyu va boshqa jahon tan olgan ulug‘ ijodkorlar bo‘lib chiqdi.

Yoshlarni obdan tinglab bo‘lgach, muddaoga ko‘chdim. Hayotlarining shu pallasida boshqa adabiyotlarni, xususan, botinida nur balqib turgan asarlarni ko‘proq mutolaa qilishlari zarurligini uqtirishga urindim. Keyinroq, masalan, ma’naviy immunitetlari kuchga kirib to‘lishganda boshqa har turli adabiyotlarni o‘qish zarar qilmasligini aytdim. Shunda ulardan biri jiddiy turib e’tiroz bildirdi: «Nega endi, masalan, Dostoyevskiyni emas-da, Tolstoyni aytyapsiz? Axir, Dostoyevskiy dunyoda eng katta yozuvchi deb tan olinadi», dedi. Men, avvalo, hech qaysi yozuvchi «eng katta» bo‘lolmasligi sabablarini tushuntirishga harakat qildim, so‘ngra asosiy masalaga kelib, tavsiya qilinayotgan asarlarda zig‘irdek bo‘lsa-da yorug‘likka ishonch borligi haqida gapirdim. Ular esa yana bahslashishdi. Chunki o‘sha tobda ichlaridagi zulmatning hissasi yorug‘liknikidan ko‘proq edi, nazarimda. Zulmat va yorug‘lik o‘t bilan suvdek gap. Yorug‘lik haqidagi kaminaning gaplari shuning uchun ham ularning botinlaridagi «qorong‘i borliq» bilan hamohang jaranglamasdi. Natijada e’tiroz bildirib, qarshi fikr bildirib turishaverdi. Ularni eshitarkanman, xayolimda «Quyosh bilan kaltakla meni, Chiqib ketsin ichimdan zulmat!» degan misralar aylanardi.

Muhtaram o‘quvchi! Mening bu gaplarimni konteksdan uzib olib, Umar Xayyom, Dostoyevskiy, Joys, Kafka yoki Kamyu singari ulug‘ shoir-u yozuvchilarga e’tiroz deb tushunmasligingizni so‘rayman. Chunki ularning inson badiiy tafakkur tadrijiga qo‘sghan olamshumul hissasini inkor qilish niyatim ham, holim ham yo‘q, aksincha, bu haqda baholi qudrat «nimalardir» qoralab kelaman. Lekin ular ma’lum ma’naviy immunitetga ega bo‘lgan, ruhiy jihatdan baquvvat kishilarning badiiy tafakkur tarzigagina ijobiyligi ta’sir o‘tkazishi mumkinligini baralla aytgim keladi. Dunyoqarashi hali yetarlicha shakllanmagan yoshlarni, uzoq yillar yo‘lini topolmay gandiraklab yuradigan bo‘sh-bayov o‘quvchilar ma’naviyatini esa bir umrga mayib qilib qo‘yishi hech gap emas. Uzoqqalar borishning hojati yo‘q. O‘zim ham taxminan yigirma – yigirma bir yoshlarimda

Kafka asarlariga oshno bo‘lib, so‘ng ular ta’siriga berilib, uyqumdan ayrilganimni yaxshi eslayman. Xullas, yana o‘sha gap: daraxt navnihol ekan, egiluvchan, mo‘rt keladi, ulg‘aygach, uning birgina shoxi ham necha-necha insonni «bag‘riga olishi» mumkin.

Dostoyevkiy hayoti va ijodiga diqqat bilan razm solsangiz, ulug‘ yozuvchining botinida ham juda katta zulmat yashaganligini ilg‘aysiz. U o‘sha zulmatga qarshi butun umri davomida kurashib o‘tgan. Lekin har doim ham yozuvchining qo‘li baland kelavermagan. Ana shunday damlarda yozuvchi imperialistik kayfiyatidagi niyatlarni yozib qoldirgan («Дневник писателя»). Shunday ulug‘ yozuvchi merosida bu kabi bitiklar ham borligi kishini hushyor torttiradi. Bunday taassufni yozuvchining zabardast tarjmoni Ibrohim G‘afurov ham «Dostoyevskiy bilan tungi suhbat» maqolasida o‘rinli ravishda bildirib o‘tadi. Xo‘s, nega yozdi ekan rusning betakror adibi ushbu so‘zlarni? Yengilish sodir bo‘ldimikin? O‘z davrining umumruhiga, chor davlati siyosati kayfiyatiga tushib qoldimikin yozuvchi? Axir, kishi ichkarida – botinda g‘olib kelsa, hech qachon o‘ziga ravo ko‘rmagan ko‘rgilikni o‘zgaga tilamaydi-da! Tilamasligi joiz! Iso alayhissalom o‘gitini eslangu. Hatto u zulmning har qanday xiliga qarshi chiqqan. O‘ng yuzingga ursalar, chap yuzingga tut deya o‘git bergen. Bu o‘gitni yuzaki tushunganlargina payg‘ambarni ojizlik va mutelikda ayblaydi. Aslida, bu so‘zlar yuksak martabadan turib zulmga qarshi mardona aytilgandir. Dostoyevskiyning nasroniylikka chuqur e’tiqodi bo‘lganligini hisobga olsak, u yuqoridagi kabi mulohazalarida muqaddas o‘gitlardan ham naqadar uzoqlab ketganiga guvoh bo‘lamiz. Albatta, har qanday millatparvar ijodkor o‘z xalqini sevishi, uni ulug‘lashi, o‘zi mansub jamiyatni buyuk maqsadlarga undashini tushunamiz va qabul qilamiz, lekin bu narsalar o‘zga xalqlarning ko‘zyoshi va qoni evaziga bo‘lmasligini ham mudom yodda tutamiz. Shularni o‘ylaganda xayolga beixtiyor quyidagi o‘ylar keladi: har bir davr tafakkuri o‘zigacha bo‘lgan va ulug‘ deb hisoblab kelingan hamma daholar va ularning barcha xizmatlarini yuksak etik va estetik tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazib, gumanizm mezonlari bilan obdon o‘lchab olishi shart. (Adabiyot ham o‘z davrining kayfiyatidan kelib chiqib unga ruhiy-

ma’naviy ko‘mak berish ma’nosida o‘z tavrini belgilab olishi kerak.) O‘tmishning xayollarimizdagina mavjud poydevoriga bugunning haqiqiy imoratini qurib bo‘lmaydi. Yoki kechagi kunning soyasida bugunning jazirasidan saqlanish mumkin emasligini teran anglamog‘imiz kerak. Ba’zan ta’lim-tarbiya haqida gap borganda jahonning mashhur asarlari tilga olinib, hatto o‘qib-o‘rganish tavsiyasi beriladi. Bu umumiy ma’noda to‘g‘ri, albatta. Lekin masalaning xususiy tomonlari ham bor. U ham bo‘lsa tarix va bugungi jamiyatlar, ularning dunyoqarashlari va qadriyatlari o‘rtasidagi tafovutdir. Shu ma’noda tarixiy-madaniy merosni qanday bo‘lsa, shundayligicha bugungi kunga ko‘chirish (oqlash)ga urinish o‘zini to‘la oqlamaydi. Kerak bo‘lsa, har qanday ma’lum-u mashhur meros ham tanqidiy o‘rganilishi foydadan xoli emas. Chunonchi, «Panchatantra» degan mashhur hind adabiyoti namunasini o‘qib qolgan yaqin do‘stim asardagi ochiq sahnalarni, ko‘plashib yashash epizodlarini, eridan zerikkan xotinning osongina boshqasi bilan bo‘lib, so‘ng erini o‘ldirish choralarini qidirib qolganini gapirib, tushuniksiz ko‘ylarga tushdi. Nega desangiz, tarozining bir tomonida butun dunyo shu kungacha ko‘kka ko‘tarib kelgan asar haqidagi tasavvur, hurmat tursa, ikkinchi tarafida mana bunday «pardasiz» sahnalar namoyishi...

Xo‘sh, «Panchatantra» qachon bitilgan? Milodiy uchinchi-to‘rtinchchi asrlarda. U paytda insonlar jamiyati, odamlarning o‘zaro munosabatlari qay daraja va ahvolda edi? Nega bu savollarni bermoqdamiz? Chunki asarda axloqsiz munosabatlar tasvirlari oz emaski, ularning bugungi kun ilg‘or jamiyatlari axloq tushunchalariga tamomila zid ekanligini ta’kidlamoq kerak. Hozirda ham Afrika, Janubiy Amerika kabi qit’alarning ayrim joylarida yarim yovvoyi qabilalar yashaydi, ularning oila, axloq bobidagi tushunchalarida bugunning zamonaviy, ilg‘or jamiyatlaridagiga mutlaqo muvofiq tushmaydigan jihatlar mavjud. (Ovrupaning ba’zi joylaridagi axloqsizliklarni ana o‘sha yetib kelingan baland maromdan chetlanish deb qarash kerak.) «Panchatantra» bitilgan davrlarda ham jamiyatlar rivojlanishning ancha quyi bosqichida bo‘lganini nazarda tutsak, biz, bashar ahli, shuncha yo‘l bosib, qancha qonlar yutib qo‘lga kiritgan hayot tarzimizdan, uning qonun-qoidalaridan, axloq normalaridan voz kechishimiz aql

ishi emasligi ayon bo‘ladi. Uzun gapning qisqasi shuki, nimaiki hayotda o‘zining sog‘lom qirrasi bilan namoyon bo‘lsa, o‘shani olish, kamol toptirish zarur bo‘lganidek, nimaiki sog‘lom hayot tarzi va mantiqqa zid bo‘lsa, u eng ulug‘ asarlarda bitilgan bo‘lishiga qaramay, ularga hech ikkilanmasdan tanqidiy yondashmoq, saragini avaylab olib, puchagini puflamoq lozim. Yanada keskinroq aytish joiz bo‘lsa, nimaiki insonning hayvoniylarafiga ozuqa bo‘lsa, ayovsiz tanqid qilmoq, nimaiki uning insoniy tomonini quvvatlasa, dastaklamoq zarur. Gap olovga tashlab yoqib yuborish haqida emas, balki jamiyatning katta-yu kichik a’zolarida mavjud merosga nisbatan sog‘lom nuqtayi nazarni shakllantirish, to‘g‘ri munosabat borasida ketyapti. Axir, necha vaqtdan beri bashariyat o‘zining oliv maqsadi – ideal olam, ideal jamiyat sari intilib kelmoqda. Buni utopiya, cho‘pchak hisoblaydiganlar ham bor. Lekin o‘sha orzuning o‘zi insoniyatni insonlik maqomida tutib turguvchi ma’naviy kuchlardan biri ekanligini inkor qilib bo‘lmaydi. Shunday paytda ortga qaytib, o‘tmish zamonlarda urf bo‘lgan ibtidoiy odatlarga rioya qilish inson ma’naviyatiga ham, uning orzusiga ham, maqsad-muddaosiga ham ters harakatdir. Albatta, ma’naviy merosning bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo‘qotmagan qirralari o‘qib-o‘rganiladi, bundan tonish yo‘q. Lekin ularni dunyo zulmatini yoritguvchi mash’ala maqomiga ko‘tarmasligimiz kerak. Illo, hayot deganimiz, aslida, kuydirguvchi bir olovdir. Inson mana shu olovda yonib poklanadi, poklanyapti, poklanmog‘i zarur ham. Uning shu gulxanda yonib, o‘zining eng tuban, eng jirkanch, eng qabih illatlaridan tozalanib borishi lozimligiga ishonmog‘imiz esa yanada muhim.

Mulohazamiz quruq bo‘lmasligi uchun «Panchatantra»dan joy olgan uch siynali qiz, ko‘r va bukri haqidagi hikoyaga qisman to‘xtalsak. Shoh nuqsonli tug‘ilgani uchun uch siynali qizini ko‘rga xotinlikka berib, siylovlar evaziga o‘zga yurtga ketishini istaydi. Shunday bo‘ladi ham. Ammo nogiron qiz kunlarning birida ko‘r eriga xiyonat qilib, erining bukri do‘sti bilan o‘ynashadi. So‘ng xiyonatkor xotin va bukri do‘st ko‘rdan xalos bo‘lmoq niyatida qora ilon o‘ligini keltirib, sho‘rva tayyorlashadi. Sho‘rvanining hovuridan esa ko‘rning ko‘zi ochiladi. Bundan bexabar xiyonatkorlar yana ishratga berilishadi. Hammasini ko‘rib turgan

er g‘azab otiga minib, bukrining oyog‘idan ushlab aylantiradi-da, xotiniga uradi. Natija sira kutilmagan bo‘ladi: kuchli zarbadan xiyonatkor do‘stning bukrisi va vafosiz xotinning siynasi tuzaladi. Hikoya shu yerda tugaydi. Xo‘sh, Sharq didaktik adabiyoti va falsafasi asosan qissadan hissa chiqarish asosiga qurilar ekan, ushbu hikoyadan qanday xulosa chiqib kelmoqda? Bevafolik (ayolning tutumi), xiyonat (do‘stning tutumi), qotillik niyati (xotin va do‘stning tutumi) natijasida uchta qosirning nuqsoni tuzalib ketyapti. Boshqacha aytganda, «marhamat, xohlagan razil ishingizni qilavering, natijasi yaxshi bo‘ladi» deganimi bu? Mazkur «qissadan hissa»ni bugungi inson, uning qalbi va tafakkuri, axloqiy qarashlari, iyomon-u e’tiqodi qabul qiladimi? Uni kecha ham qabul qilishmagan edi. Axir, arablar «Panchatantra» asosida «Kalila va Dimna» degan asar barpo qilishgan. Solishtirib o‘qisak, orada ancha farq bor. Arablar o‘z jamiyatları, bu jamiyatdagi odob-axloq normalari negizida asarni asrlar mobaynida mudom qayta ishlaganlar. Shunga ehtiyoj sezganlar. Chunki hind variantidagi ko‘pgina insoniy munosabatlarning mazmun-mohiyati ularning dunyoqarashlariga to‘g‘ri kelmagan ko‘rinadi. Agar hikoyani ramziy deb tushunmoqchi bo‘lganimizda ham uning ilk ma’no qatlami yuqorida ko‘rilgani kabitdir. Birinchi ma’no qatlamidan voz kechish esaadolatdan emas. Qolaversa, oddiy o‘quvchi bu kabi hikoyalarning, avvalo, yuzadagi ma’nosinigina ko‘radi. Shuning uchun ham zamonaviy olimning tafakkuri ulkan projektor kabi ishlamog‘i kerak deb o‘ylayman: u har bir qarich yerni, har puchmoqni yoritmog‘i va u yerda bashar qismatiga daxldor borliq haqiqatni ko‘rmog‘i, uni o‘z nomi bilan atamog‘i lozim. Mabodo dog‘ bo‘lib tushadigan zarracha kirni ko‘rsa ham, u kimga, qaysi xalqqa va qaysi ulug‘ zotga tegishli bo‘lmisin, bundan tafakkur ahlini xabardor etmog‘i joiz. Bu uning eng oliv va muqaddas burchi, vazifasidir.

Bas, shunday ekan, tashqaridan qaraganda bir chetda kitobga jo bo‘lib turadigan beozor adabiyot aql va qalblarga ko‘chganda olamshumul kuchga aylanadi. Binobarin, kitobga, adabiyotga bepisand qarab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ayrim buyuk ijodkorlar asarlarini mutolaa qilayotganingizda ko‘zingiz orqali qalbingizga bo‘ron yanglig‘ qop-qora zulmat bostirib kirmoqchi

bo‘layotganini his qilasiz. Agar botinda yetarli darajada yorug‘lik bo‘lmasa, siz yozuvchi zulmati quyunida qolishingiz hech gap emas. Axir, ulug‘ yozuvchi, ayni damda, buyuk iste’dod, hatto daho demak. Qaysi o‘quvchi (ayniqsa, yosh kitobxon) daho san’atkor bilan bellasha oladi: u ilgari surayotgan badiiy g‘oyaga tanqidiy qaray biladi? Kimning dahoga kuchi yetadi? Jiddiy o‘ylab ko‘riladigan mavzu bu.

Gapning lo‘ndasi shuki, UMID beruvchi asarlarga bo‘lgan ehtiyoj bugun har doimgidan-da katta. (Ertaga kashfiyotchilik adabiyotiga shunday ehtiyoj sezishimiz mumkin. Xuddi bir vaqtlar sarguzasht asarlarga talpinganimiz kabi.) Turmush va uning adoqsiz tashvishlari buramasi, ommaviy madaniyat girdobi, yengil hayot tarzining targ‘ib etilishi, e’tiqodning, burdning zaiflashuvi va hokazo sabablar natijasida inson ruhiy ildizdan uzoq tushib bormoqda. Uning hayvonligi hakalak otmoqda. OAV butun mohiyati iste’molchilikdan iborat Yangi Insonning paydo bo‘layotgani haqida ovoza qilmoqda. Shuning uchun ham bugun insonning insonlik tarafini kuchaytiradigan yorug‘ va umidbaxsh asarlarga suv va havodek ehtiyojimiz bor deb o‘ylayman. Yaqinda real hayotiy voqeaga asoslangan bir kino ko‘rdim va bir necha kun shu asar ta’sirida yurdim. So‘ng internet orqali asarni topdirdim. U fransuz dramaturgi Jan Dominik Bobbining «Skafandr va kapalak» nomli asari bo‘lib, yozilish tarixi meni o‘ziga jalb qildi. Ya’ni rosa kuchga to‘lgan, hayot va ijodda muvaffaqiyat qozonib kelayotgan dramaturg sira kutilmaganda insultga chalinadi-da, to‘sakka mixlanib qoladi. Lekin u taslim bo‘lmaydi. Sog‘lom miya va bittagina ko‘z bilan, ularning yordamida hayot uchun kurashadi. Chunki qolgan hamma a’zolar falaj holda edi: na qimir etadi, na gapiradi va na ovqat yeya oladi. Ishga yaroqli bittagina ko‘zi bilan logoped yordamida asar yozadi. Buning uchun alifboden foydalanishadi. Logoped bir chekkadan harflarni o‘qib chiqadi, falaj dramaturg kerakli harfga kelganda yagona sog‘ ko‘zini yumadi va shu tarzda bir necha daqiqada birgina so‘z yoziladi. Endi butun boshli asarni yozish uchun ketgan jasorat, sabr, vaqtni o‘zingiz tasavvur qilib olavering. Asar «Skafandr va kapalak» deb nomlanadi. Skafandr bu – suv ostiga tushish uchun kiyiladigan maxsus kiyim, lekin bu yerda ramziy ma’no kasb etib, inson tanasini,

kapalak esa rujni anglatadi. Dramaturg uzoq yashamaydi – o‘ladi. Lekin odamlarga umid qoldirib ketishni uddalab o‘ladi. Yozilishi buyuk jasorat va insonlikning oliy ko‘rinishi bo‘lgan asarda mujassam edi bu UMID. Ehtimol, asarning o‘zida ham emasdir bu umid. (Chunki unda g‘arb kishisining dunyoqarashiga singib ketgan shunday nuqtalar, ko‘nikmalar borki, bahslashish mumkin.) Umid – mazkur asarni yozishga undagan ishtiyoy zamiridagi hayotparastlikdadir. Yana bir fransuz adibi va faylasufi Alber Kamyu avtohalokatga uchrab o‘lganda o‘zining bosh asari – «Urush va tinchlik»ni yozaman deb yashayotgan edi. Nazarimda, uning ana shu yaratuvchanlik ishtiyogi yozilmay qolgan asaridan-da balandroq ahamiyatga ega.

Xullas, yana o‘sha – derazadan boqib kimdir yulduzni, kimdir go‘ngni ko‘radi degan fikrga qaytib keldik. Darvoqe, Deyl Karnegining otasi ham shunga yaqin gapni aytganini o‘qigan edim. Yaqinda sira kutilmaganda Umar Xayyomga nisbat berilgan quyidagicha fikrga duch kelib qoldim: Ikki kishi bitta derazadan boqib, biri yomg‘ir va loyni, ikkinchisi esa bahor va lojuvard osmonni ko‘ribdi... Xullas, adabiyot ko‘ngil oynasi deymiz. Bu oynadan boqqan o‘quvchiga biz nimalarni taklif qilyapmiz? Albatta, haqiqiy adabiyot hamma narsa haqida bilishi va yozishi kerak. Lekin bu degani har gal xulosani go‘ng va balchiqqa olib kelib taqash lozim degani emas. Nega insonga umid berish mumkin emas? Bir qatim nur ilinish shunchalar qiyinmi unga? Dunyoni zulmat bosganda yorug‘lik haqida yozmaslik, ziyyoni tarannum etmaslik insoniyat oldida jinoyat sodir qilish bilan barobardek tuyulmayaptimi sizga? «Iblis Odamga sajda qilmay, Ollohnning amriga qarshi chiqib: «Meni olovdan, uni esa balchiqdan yaratding», dedi. Ya’ni mening zotim olovdan, uniki tuproqdandir. Yuksak bo‘lganning tuban bo‘lganga sajda qilishi to‘g‘rimi? Iblis Olloh bilan shu tarzda mujodala etdi va Uning la’natiga uchradi, huzuridan quvildi. Va: «Oh, Ollohim! Hammasini sen qilding. Bular sening buzg‘unchililingdir. Ustiga-ustak, meni la’natlab huzuringdan badarg‘a qilmoqdasan», dedi. Odam ham gunoh qildi. Olloh: «Ey Odam, gunohing uchun seni jazoladim. Hammasini o‘zim qilganim holda seni qildi dedim. Sen esa men bilan tortishmading. Yoki daliling yo‘qmidi? Axir, sen ham: «Hammasi Sendan,

Sen qilding, chunki dunyoda Sen istagan narsa bo‘ladi, istamaganing bo‘lmaydi», – deyishing mumkin edi. Shu qadar aniq daliling bo‘lgani holda, menga qarshi lom-mim demading, nechun?» – dedi. Odam: «Ey Tangrim, bilaman. Biroq Sening huzuringda tarbiyamni qo‘ldan chiqarmoqni istamadim. Chunki Senga bo‘lgan ishqim meni qo‘yib yubormadiki, qarshi chiqsam», – dedi». (Rumiy J. «Ichindagi ichindadir». – B.116 – 117). Inson ham masalaga xuddi shayton kabi qarashi mumkin edi, lekin nafssini, tilini tiydi va yarlaqandi.

Adabiyot didaktika bilan bir narsa emas deymiz. To‘g‘ri. Adabiyot insonni har tomonlama kashf qiladi, uning sir-u sinoatga, ziddiyatga to‘la qalbini badiiy tadqiq etadi. Chunonchi, F. Dostoyevskiy inson shuuri yerto‘lasiga tushib, inson xatti-harakatlarining asl manbaiga qo‘l uzatdi, ongosti qo‘riqxonasiga kirib bordi. Dostoyevskiyning mana shu kashfiga tayangan holda jahon adabiyoti inson botinida kechadigan xilma-xil va g‘oyat murakkab qirralarni shundoq kaftimizga qo‘ydiki, natijada odam haqidagi tushunchalarimiz, sezimlarimiz kengayganini angladik. Mavridi kelganda aytish kerakki, bu xil kashflar Sharq mumtoz adabiyotida avvaldan bo‘lgan. Faqat ular tizimli tarzda emas-da, fragmentar shaklda asarlar qatiga yashirilgan. Chunonchi, Zigmund Freydning (XX asr) inson jinsiy quvvatining hayotni belgilaydigan yetakchi faktorligiga doir qarashlarini eslang. Endi Mavlono Jaloliddin Rumiyning «Qaysga tahammulidan ortiq ehtiros berilgani uchun u majnun (jinni)ga aylandi» («Ichindagi ichindadir») degan fikrini mushohada qiling. Rumiya bir jumlada aytilgan fikr Freydda butun boshli tizimga aylantirilmoqda. Freyd inson xatti-harakatlari zaminida faqat biologik asosni ko‘rgan bo‘lsa, Rumiy ruhiy o‘zakni mudom yodida tutgan. Bas, shuning uchun ham biologik faktorlar ta’sirini bo‘rttirmagan. Insonda bir vaqtning o‘zida ham hayvonlik, ham malaklik sifatlari yashashini uqtirgani holda, keyingisining g‘alabasiga umid bilan ko‘z tutgan. Rumiy insonning ruhiy-ma’naviy javharini ulug‘lab, farishtalardan yuksak maqomga eltilib qo‘ygani holda, Freyd xuddi shu insonning hayvoniy tarafini ideallashtirib, biologik maxluq darajasiga tushirdi. Lekin bu Freyd ta’limoti yolg‘on-u bo‘htonlardan iborat, u o‘rganilmasligi kerak degani emas. Insonning biologik jihatni inkor etilmaydi. Gap bu yerda

mutlaqlashtirmaslik haqida, ayni damda, insonni ulug‘laydigan sifatiga urg‘u berib, zulmatdan chiqish tirqishiga yo‘naltirish haqida bormoqda. Bas, shunday ekan, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib olishimiz lozim va u, eng avvalo, insonning hayvonligi ustiga qo‘yilmasligi shart bo‘lib tuyuladi. Dunyoni o‘zgartirish da’vosi bilan chiqqan yana bir olim K. Marks o‘z asrida insonning ijtimoiy jihatini ideallashtirishga urindi. Demak, insonni ruhiy, biologik va ijtimoiy asoslar harakatlantiradi. Rumiy insonda bir vaqtning o‘zida ham malaklik, ham hayvonlik yashaydi, malaklik uni yuqoriga tortsa, hayvonlik pastga yetaklaydi deydi. Xullas, yaxshilab surishtirib chiqsak, o‘zimizning mumtoz adabiyotimiz zamirida hammasi bor edi. Lekin o‘sha hammasi parda (ramzlar va majozlar)ga o‘rab, ayni paytda, yuksak san’at bilan aytilgan edi. Shunday qilib, adabiyot didaktika bilan bir narsa ham, undan tamomila ayro olam ham emas. Uning bag‘rida pand-nasihat (albatta, yuksak san’at vositasida) unsuri doimo saqlanib qoladi. Insonga kerakli adabiyot doimo shunday bo‘lgan va u shunday bo‘lib qolishida xayr ko‘proqqa o‘xshaydi. O‘quvchi ko‘ngliga bir qatim nur olib kirolmagan, yaxshilik, ezgulik, balandlik urug‘ini sepolmagan so‘zga tanqidiy qarash kerak.

Jurnal tahririyatiga yozuvchilarimizdan biri uch yil mobaynida uchta hikoya olib keldi. Lekin hech biri chop etilmadi. Chunki hammasi fahshiy epizodlar bilan to‘la edi. Buni yozuvchining o‘ziga aytiganda u: «Hayotda bor-ku, men hayot haqiqatini aks ettiryapman», deya norozi bo‘ldi. Bir (yuzaki) qarashda yozuvchining gapida jon bordek. U yog‘ini so‘rasangiz, xuddi shunday qarash talaygina ijodkorlarga xos ham. Lekin chuqurroq mushohada qilib ko‘rsak, bu qarashning tagi puch ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Avvalo, adabiyot hayotdan ko‘chirilgan nusxa emas. Nusxa bo‘lsa, adabiyotning bir tiyinlik qiymati qolmasdi. Chunki hayot o‘zidan aynan ko‘chirilgan har qanday nusxadan cheksiz karra rango-rang va boydir. Chinakam adabiyotni Gegel hatto tabiatdan ustun ko‘radi. Chunki adabiyotda inson ruhi ishtirok etadi deydi. Qarang, gap aylanib qayerga boryapti? Munosabatga! Ijodkor tomonidan tanlab olingan hayot materialiga bo‘lgan munosabat adabiyotning yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini belgilab berar ekan. Yozuvchi fahsh haqida yozarkan, o‘quvchi ko‘nglida ham o‘sha «daryordan

suв ichish» istagini paydo qilsa, bunday adabiyot alaloqibat yovuzlikka, bo‘hronga, hayvonlikka xizmat qiladi. *Haqiqiy adabiyot o‘quvchi ko‘nglida har qanday mavzuga nisbatan shunday bir munosabat yoki hol paydo qilishi kerakki, pirovard natijada bu tuyg‘u turmushga emas, hayotga, tirikchilikka emas, tiriklikka, buzishga emas, tuzishga, tubanlikka emas, yuksalishga, parvozga ovoz bersin!*

Esimda, talabalik yillarimda dunyo va o‘zbek adabiyotining ayrim namunalarini o‘qib yurgan chog‘larimda birdan qalbimning ich-ichida shunday bir tuyg‘uga duch keldimki, uning otini, masalan, «Yorug‘likka tashnalik» deb atasa bo‘lardi. Gap nima haqida? Men boshim bilan sho‘ng‘igan o‘sha asarlarning qat-qatida ulkan bir zulmat bor edi va men nursizlikdan, havosizlikdan bo‘g‘ilgan, dimiqib qolgan edim. Shuning uchun ham sal keyinroq quyidagi she‘r tug‘ilgan bo‘lsa ajabmas:

Olislarda bo‘lsa ham,
Hech qachon yetmasam-da,
Mayli,
faqat oldinda
Bir chiroq yonsa deyman...

Aytilganlardan muallif «hayot go‘zal, hayot soz» degan jo‘n tezissni adabiyotga tiqishtiryapti deya yuzaki tushunmaslikni so‘ragan bo‘lardim. Hayot har doim ham bayram emas. Balki, katta miqyosda olib qaraganda, umuman bayram emasdir. Oshini oshab, yoshini yashab o‘tayotgan inson umri davomida, hazrat Navoiy aytganidek, to‘rt faslni boshidan kechiradi. Turmushning o‘zga muammolarini qo‘ya turaylik, shu to‘rt faslning o‘zida fasllar almashinushi bag‘rida qanchadan qancha quvonchli va qayg‘uli damlar yashalmaydi deysiz! To‘rtinchisi fasldan u yog‘i yana ma’lum... U yog‘i (ruh) haqida esa bani odamga juda kam ilm berilgan deyiladi muqaddas kitobda. Shuning uchun ham ana shu o‘gitlar-u ko‘nglimiz sezgisiga tayangan holda faqat o‘z ichimizdangina o‘tsa yarashadigan xayol va tasavvurlar yupanchiga duch kelamiz hammasidan narida. Yupanchi bo‘limganlar esa inson bu dunyoga tashlab ketilgan tashlandiq, uning yolg‘iz

hukmronligi faqat va faqat bu dunyodadir (ekzistensializm falsafasi) deya badbin o‘ylarga yengiladi. Va bundaylarni biz negadir faqat g‘arbliklar deb o‘ylaymiz. Aslida-chi? Yanglishamiz. Yozgan asarlarida mohiyat-e’tibori bilan yaxshilikka, ezgulikka, yorug‘likka ishonchi bo‘lmaganlar, aksincha, faqat va faqat zulmni, ma’nisizlikni, ishonchsizlig-u buzuqlikni targ‘ib-tashviq etuvchilar Sharqning qoq markazida, hatto Makka-yu Madinada yashasalar ham, farqi yo‘q, baribir, ZULMATGA XIZMAT QILUVCHILAR bo‘lib qolaveradi.

Kunlardan bir kun professor Qozoqboy Yo‘ldoshev telefonda bir hikoyaning yorug‘ xotimasi haqida qoniqish bilan gapirib qoldi. Hikoya «Ertaga quyosh chiqs kerak» degan jumla bilan yakunlanardi. Go‘sakni qo‘ygandan so‘ng mushohada qilsam, sermahsul va sinchkov olim o‘sha suhbatimizda asosan xotima haqida gapirgan ekan. Qozoqboy akani ko‘pchilik turfa eksperimentlarga boy avangard adabiyot namunalarining ashaddiy targ‘ibotchisi deb biladi. Lekin yuragining juda chuqur joyida azaliy yaxshilik-u yorug‘likka bo‘lgan ulkan muhabbat borligini men o‘shanda aniq his qilganman. Aslida, bunday muhabbat hammamizda bor. Faqat zamonaning shovqinlari bosib ketayotganidan ko‘pincha uning ichkaridan taralayotgan sasini eshitmaymiz.

Gogol va Kafka nima uchun o‘z qo‘lyozmalarini yoqib yo‘q qilishni do‘stlaridan iltimos qilishgan ekan? Ehtimol, o‘sha yozuvlari qatlarida zulmatni his etishgandir va bu hol ularning ruhiyatidagi, juda ichkarida yashirin yorug‘ mohiyatga teskari kelib qolgandir? O‘siprinlik chog‘larimda A. Dyumaning «Graf Monte Kristo» asari menga juda yoqardi. Chunki u yerda yomon odamlardan boplab qasd olish bor edi-da. Talay hind kinolarida ham shu motiv eniga va bo‘yiga rosa ishlangan. Ular kulgingni qistatadigan darajada sodda edi, lekin negadir vaqtı-vaqtı bilan tamosha qilishga ehtiyoj sezardim. Nega? Talabalik yillarimda buning mag‘zini chaqqandek bo‘ldim: o‘shanday asarlar mening botinimdagи adolatning tiklanishiga ko‘maklashar ekan. Chunki men ham, hali yosh bo‘lishimga qaramay, atrofimda ro‘y berayotgan o‘ziga yarasha adolatsizliklarga duch kelib turardim-da. Nazdimdagи adolatni tiklashga esa, berkitib nima qildim, ojizlik qilar edim: jismoniy, aqliy va yurak quvvatim

yetmasdi. Shunda, masalan, Monte Kristoning sarguzashtlari orqali ichimdagি ana o'sha orzuyimga erishgandek his qillardim o'zimni. Aslida, qasd olishdan ko'ra afv etish balandroq va inson sha'niga munosibroq a'mol ekanligini ta'kidlamoq lozim.

Umuman olganda, asar o'z holicha, ya'ni badiiy, falsafiy, psixologik, uslubiy va boshqa jihatlariga ko'ra baland bo'lishi mumkin. O'qishing bilan buni tushunib yetasan kishi. Faqat hamma gap shundaki, har qanday ulug' asarning ham jamiyatga maksimal ta'sir qiladigan vaqt, davri bo'ladi. Tushunganingizdek, bu o'rinda ijobiy ta'sir nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, uning salbiy ta'sir fazasi ham bor. Qizig'-a? Asar genial maqomda bo'lsa-yu o'quvchiga ikki xil ta'sir qilsa! Chunki o'rtada o'quvchi mansub bo'lgan zamon va uning muammolari masalasi bor. Ana o'sha zo'r asar deganimiz davr va uning dardlari bilan qaysidir nuqtalarda yo kesishadi, yo yo'q. Birinchi vaziyatda kutubxonalarda chang bosib yotgan asarga qaytadan jon kiradi, ikkinchi holatda esa aks ta'sir etadi. Misol uchun, Ikkinchi jahon urushi vaqtida Umar Xayyom ruboilyarining front va front ortidagi odamlarga ko'rsatgan ta'sirini eslab ko'ring. Yaqinda «Литературная газета»да «Umidlar so'nmaydi» degan suhbatga ko'zim tushdi. Unda «XXI asrda sizga katta ta'sir qilgan film nomini ayta olasizmi?» degan savolga RosFA bosh ilmiy xodimi, MDU professori Sergey Kara Murza: «Javobim kulgili tuyulishi mumkin, lekin bu – «Siniq chiroqli ko'chalar». Har bir seriya ezgulikning yovuzlik ustidan yengilgina g'alabasi bilan yakunlanadi... Seriallar terapeutlik funksiyasini bajarmoqda. 1990-yillar avvalida jamiyatimiz olgan jarohat hali bitib ketgani yo'q. Hozir yaraga tuz sepadigan kartinalar kerak emas»²³, deb javob bergan. Albatta, bu yerda olim biron-bir asar peshonasini silab, ikkinchisining ko'kragidan astoydil itarishni maqsad qilganda edi, biz ham ushbu maqolamizda e'tirozlarimizni bayon etardik, u bilan bahslashardik. Lekin kontekstdan kelib chiqadigan bo'lsak, professor buni ko'zda tutmaganini uqamiz. Shunga qaramay, nega u miyonaroq kino asarini yoqlab chiqmoqda? Bunday deyotganimning sababi, serialning bir necha qismini tomosha qilganman. Aktyorlik mahorati, ko'tarilayotgan muammoning yangiligi, tashqi effekt va boshqa ko'plab jihatlariga ko'ra

²³ Литературная газета. 2014 г. 17 – 23 сентябрь.

chindanam miyonaroq film. Professoring o‘zi ham beziz: «Javobim kulgili tuyulishi mumkin», demayapti. Faqat davr va uning kayfiyatidan kelib chiqqan holda ushbu asarni tilga olmoqdaki, bu bilan: «Hozir odamlarga ezgulik tantanasiga bo‘lgan ishonch har qachongidan-da zarurroq», demoqchi. Ha, san’at asari, adabiyot o‘rni kelganda tarbiya vositasiga aylangan, aylanishi zarur. «Men shunga ishonamanki, inson nafaqat bardosh beradi – u yengadi. Uning o‘lmasligi tirik mavjudotlar orasida aql-idrokka egaligida emas, balki qalbi, ruhi, iztirob chekishga qobilligi, o‘zini qurban qila olishi va sabr-toqatli ekanida. Shoirning, yozuvchining burchi shu haqda yozishi zarurligidadir. Shoir shunchaki inson hayotining solnomasini yozmasligi kerak; uning asari insonni qo‘llab-quvvatlaydigan, uning bardoshiga kuch beradigan va yengishiga ko‘maklashadigan tayanch, ustun bo‘lishi lozim», deb yozganida amerikalik Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Folkner adabiyotning tarbiyaviy tomonini ham nazarda tutganiga shubha yo‘q. Ha, odatda, umumga mo‘ljallangan adabiyotdan ayni shu narsa kutiladi. San’at-u adabiyotning faqat idrok va his sari yo‘nalgan boshqa, teranroqdagi qirrasi esa alohida – xos suhbat mavzusi.

Bas, shunday ekan, vaqtি-vaqtি bilan davr va uning ehtiyojidan kelib chiqqan holda qanday badiiy asarlarga ko‘proq ehtiyoj borligini munaqqidlar-u ziyolilar tadqiq etib topishlari, topganlarini bildirishlari, o‘z navbatida, jamoatchilik ham aytilganlarni e’tiborga olishi, masalan, ko‘proq nashr etishi, darsliklarga kiritishi, targ‘ib-u tashviq qilishi maqsadga muvofiqli. Zero, mamlakat va jamiyatlar rivoji o‘qilgan asarlarning sifat va saviyasidan tashqari o‘sha vaqtdagi ruhiy-ma’naviy ehtiyojga keraklilik darajasiga ham bog‘liq.

Xullas kalom, adabiyot hayotimiz tarkibiga kirib, singishib ketgan ekan, uning kamoli, inson va jamiyat hayotidagi roli ustida doimiy ravishda qayg‘urmoq lozim bo‘ladi. Zero, adabiyot har birimizning botinimizda. Eng katta adabiyot, aslida, yuragimizda yashaydi. A. Kamyu «Isyon va san’at» maqolasida antik davrdan to o‘z davrigacha bo‘lgan barcha buyuklarning san’atga turlichay munosabatiga to‘xtaladi. So‘ng san’atga hukm va tazyiq qilmaslik kerak degan tezisni o‘quvchiga yuqtiradi. Rost. Fikrlar turlichay bo‘laverishi mumkin va bu

to‘g‘ri ham. Chunki san’at (adabiyot)ning o‘zi xilma-xildir. Didlar, dunyoqarashlar xilma-xil. Shu bilan birga, ular har qancha rango-rang bo‘lmasin, pirovardida bir nuqtada kesishadi, kesishmog‘i kerak. Ana o‘sha ko‘p tafovutli san’at va adabiyot insonga, uning ma’naviyatiga xizmat qilib, odamning inson o‘laroq yashab o‘tishiga ko‘maklashmog‘i judayam zarur. Yo‘qsa, san’at-u adabiyotning erkinligidan odamlarga nima naf? Mario Vargas Losa bejiz quyidagilarni aytmagan ko‘rinadi: «Adabiyot tufayli, adabiyot uyg‘otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, xayolot saltanatiga safar chog‘i ko‘ngilda bosh ko‘targan kechinmalar tufayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o‘ylab topgan badiiy to‘qima qumga singgan suvdek izsiz ketmadi, bil’aks, toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo‘lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig‘lagan bo‘lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko‘ngil birligi yo‘qolardi, mutelik kayfiyati keng tarqalib, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi – taraqqiyotning yetakchi omili yo‘qolardi». Aytilganlardan kelib chiqib inson va jamiyatning holi ruhiyasiga qarab turib adabiyot ham aytar so‘zi va uning ifoda tarzini ohorlab borishi maqsadga muvofiq deyish mumkin.

Biz – insonlarning botinida rahmoniy va shaytoniy kuchlar yashaydi. Muqaddas bitiklar ham bunga shohidlik beradi. Tomonlar har doim kurashib keladi. Hamma gap bizning ana shu tomonlardan qay birining yonini olishimizda. «Egri oyoq kiyimi egri oyoqqa mos bo‘lganidek, shaytonning afsun va afsonasi ham to‘g‘ri bo‘lmagan ko‘ngillarga mosdir», – deydi Mavlono Jaloliddin Rumi. Uning ustozи Farididdin Attorning «Illohiynoma»sida keltirilgan rivoyatga ko‘ra, zo‘r berib ishlayotgan haqir chumoliga Sulaymon alayhissalom: «Agar senga Nuhning umri-yu Ayyubning sabrini ato etsa ham, bu tepani yo‘lingdan olib tashlash qo‘lingdan kelmaydi, joningni jabborga berib kurashmog‘ingdan maqsad ne?» – desa, u: «Tuproqni olib, do‘ngni yer bilan bir etsam, uning ortida meni kutayotgan yorimga qovushaman», – deb javob qaytaradi. Umri bir chimdim bo‘lgan chumoli qarshisida turgan va o‘zini yordan to‘sib qo‘ygan ulkan tuproq uyumini hech qachon olib tashlay olmasligini bilmaydi deysizmi? Biladi. Juda

yaxshi biladi. Lekin yorga eltuvchi bu yo‘ldan o‘zgasini harom deb hisoblaydi. Bas, umrini yor yo‘liga tikadi, shu yo‘lda qurban bo‘lishni o‘zi uchun sharaf, hayotining eng oliy a’moli, mazmun-mohiyati deb ishonadi. Bu bilan chumoli Nur va Zulmat, Ezgulik va Yovuzlik, Yuksaklik va Tubanlik... kurashida safini ma’lum qilmoqda. Hech qachon yetolmasa-da, yorug‘ murod – yorning yo‘llariga umrini baxshida aylamoqda. Chumolidan murod – inson. Yordan murod esa insonning kim ekanligini uning o‘ziga anglatadigan, sezdiradigan Borliq – Tilsimdir! Yuqorida: «Adabiyot – oldinda yongan chiroq», dedik. Lekin qanday adabiyot? «Faqat va faqat umidbaxsh adabiyot!» deb hayqiradi ichkaridagi ovoz! Insonlik – juda-juda yuksak martaba. Shu bilan birga, o‘ta tuban ham. Yuksak yoki tuban bo‘lishimiz, «yor»ni tanlash yoki undan voz kechishimiz, butun maqola davomida ta’kidlanganidek, o‘zimizga bog‘liq bo‘ladi. «O‘ldir, ichingdagи xoини o‘ldir!» deya xitobiy ishora beradi otashin o‘zbek shoiri Shavkat Rahmon. Aslida, dunyoning, dunyomizning taqdiri har birimiz uchun ana shu tanlovda hal etiladi. Darvoqe, uhroning, uhromizning ham...

Azaldan beri kurshashib kelayotgan kuchlar – Ezgulik va Yovuzlik, Nur va Zulmatning qaysi birini tanlash ko‘p jihatdan har bir insonning o‘ziga bog‘liq bo‘ladi. Adabiyot, umidbaxsh adabiyot bu mushkul tanlov qarshisida ertak qahramonlaridek turib qolgan zamondosh insonning, ayniqsa, yoshlarning to‘g‘ri yo‘lni tanlashida ishonchli ko‘makdosh bo‘la oladi.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Globalizmning ma’nosini tushuntirib bering.
2. Hozirgi zamonda adabiyotning o‘rni va vazifalari haqida gapiring.
3. Qog‘oz shaklidagi adabiyot va internet adabiyoti to‘g‘risida so‘zlang. Ularning ustunlik va kamchiliklari nimalarda ko‘rinadi?
4. Juhon adabiyotida tarjimaning o‘rni va muammolari haqida tushuncha bering.
5. Inson ma’naviy olamining shakllanishida adabiyotning o‘rni.

6. Ko‘hna adabiy merosni qanday o‘qish kerak?
7. Umidbaxsh adabiyot nima uchun kerak?

Adabiyotlar:

1. Internet materiallari. «Wikipedia», «Все поэты в Контанте», «МУ СТИХИ».
2. Мир без границ. Литературная беседа с австралийской писательницей Н. Крофтс // Звезда Востока. – Ташкент, 2014. №1.
3. Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2013-y. may.
4. Sharq yulduzi. – Toshkent, 2015-y. aprel.

MAVZUGA DOIR ADABIY SUHBATLAR

DUNYONI YANGICHA KO'RISH EHTIYOJI

(*Filologiya fanlari doktori, professor Umarali NORMATOV bilan o'zbek modern she'riyati, umuman, modernizm xususida suhbat*)

Umarali NORMATOV: Ulug'bek, siz ham she'riyatshunos, ham shoir sifatida bugungi milliy she'riyatimizdagi jarayonlardan, qolaversa, zamonaviy jahon she'riyati, she'riyat ilmi haqidagi yangiliklardan yaxshi xabardorsiz. Oybekning zamonamizga hamohang «ko'ngil she'riyati»ga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyangiz, hozirgi yosh shoirlar izlanishlariga doir matbuotdagi chiqishlaringiz adabiy jamoatchilikka ma'lum. Keyingi paytlarda marhum shoirlar: Asqad Muxtor, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf ijodiga oid tadqiqotlar olib bordingiz, bugungi milliy she'riyatimiz muammolari xususida doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlayotirsiz. Ayni chog'da, «Tangriga eltuvchi isyon» deb atalgan she'riy kitob chop ettirdingiz... Bilaman, she'riyat dunyosida yurgan bir yosh ijodkor sifatida bugungi she'riyat xususida hali qog'ozga tushmagan gaplaringiz, o'y-mushohadalaringiz ko'p. Keling, hozir ko'pchilikni qiziqtirayotgan masala – keyingi o'n yil mobaynida muayyan adabiy hodisa tusini olgan o'zbek modern she'riyati, uning jahon modernistik oqimi bilan mushtarak va ayri jihatlari xususida suhbatlashsak.

Ulug'bek HAMDAM: Ustoz, nazarimda, har qancha sodda tuyulmasin, baribir, bir savol barcha zamonlar uchun qaysidir darajada muhim bo'lib kelgan, barcha zamonlar o'sha savolga baholi qudrat javob berishga uringan. Savol taxminan shunday: «Umuman, she'r nima? Uning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati nimalardan iborat?» Javob ming yillardan beri qidiriladi. Javob topilmaydi emas, topiladi. Biroq vaqt o'tgani sayin javoblarning ohori to'kiladi. Yangi davr, yangi kayfiyat tug'ilishi bilan esa ohori to'kilmagan javoblarga ehtiyoj seziladi. Aslida, yangi javobning mohiyati eskisidan hech qancha farq qilmaydi, hamma gap shundaki, javobni har bir davr o'z tushunchalari, belgilari bilan

bezaydi. Chunonchi, Aristotel o‘z davrida poeziyaning, umuman, adabiyotning mohiyatida «katarsis», ya’ni poklanishga intilish mavjud degan bo‘lsa, XX asrga kelib uning yoniga, masalan, she’r (umuman, adabiyot) kishini yolg‘izlikdan asraydi yoxud insonning ruhiy muvozanatga erishuvida yordamchi bo‘ladi deganga o‘xhash yorliqlar qo‘sib qo‘yildi. Chunki aynan XX asrga kelib inson o‘z yolg‘izligini teranroq his qila boshladi-da. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, qaysi asrda-yu qaysi davrda qanaqa o‘y-dard birlamchi bo‘lsa, adabiyot-u san’at ham shuni ko‘proq ifoda etadi. Alaloqibat har bir davr she’rni o‘ziga qarab turgan qirrasining ismi bilan atay boshlaydi. Vaholanki, u ko‘p qirralidir. Shunday emasmi?

Umarali NORMATOV: She’rga qarash davrga qarab yangilanib boradi degan fikrga qo‘shilaman. Shu bilan birga, har bir izlanuvchi shoirning umri davomida she’rga qarashi betinim o‘zgarib, yangilanib borishi ham mumkin. Uzoqqa bormay, o‘z milliy shoirlarimiz ijodiy tajribasidan bir misol keltiray. XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallagan shoir Asqad Muxtor 1965-yili shunday yozgan edi: «She’r – turmush o‘chog‘idan olingan laxcha cho‘g‘, u hayotiy epizodga asoslangan, syujethi bo‘lishi kerak deb she’rning bo‘lak turlarini tan olmay qancha yil yurdim; she’r – yalt etgan oniy tuyg‘u, zavq-shavq tug‘yon, uni faqat musiqa janrlari bilan qiyos qilish mumkin degan ruhda ham ancha vaqt ishladim; she’r hayot falsafasining essensiyasi, fikr, fikr, fikr! Fikrsiz poeziya yo‘q deb anchagacha biryoqlama, ratsionalistik she’rlar yozdim...» Shoir davom etib: «Bu to‘lg‘onishlar menga ba’zan ziyon, ba’zan foyda qildi. Lekin bir narsada fikrim sira o‘zgargani yo‘q: she’r – zaruriyat, shoirga ham, she’rxonga ham... She’r odamning yashashi uchun, kurashishi, ulg‘ayishi uchun zarur», deydi.

Paradoksnii qarangki, san’atning, jumladan, she’riyatning ko‘pqirrali ekanligini deyarli barcha shoirlar, she’rshunoslar e’tirof etishadi. Biroq san’at asarining, she’rning mafkuraviy jihatiga kelganda darhol cheklanish-chejaralanish boshlanadi. Mafkuraviy yondashuv ustuvor bo‘lgan XX asr adabiyotida, xususan, o‘zbek she’riyatida bu hol juda chuqur va mudhish asoratlar qoldirdi. Ayniqsa,

she’riyatdagi yangicha, noan’anaviy izlanishlarga, modernizmga munosabatda bu juda yaqqol ko‘rindi.

Shu o‘rinda modernizm va uning XX asr jahon adabiyotidagi mavqeyi, o‘zbek adabiyotidagi ko‘rinishi, tadriji xususida ozgina to‘xtalib o‘tsak.

Modernizm XX asr jahon adabiyoti, san’atida muhim hodisa, uning asl qiyofasini belgilovchi omil ekani, M . Prust, F. Kafka, J. Joys, Eliot, E. Paund, A. Kamyu kabi yangi oqim, yo‘nalishlarga mansub ijodkorlar so‘z san’ati rivojida butunlay yangi davr ochgani hech kimga sir emas. Jahonning turli mintaqalarida ularning yuzlab-minglab maslakdoshlari, izdoshlari, davomchilari bor. Modernizm shunchaki adabiy-badiiy eksperiment-tajriba, shakliy-uslubiy izlanish natijasi emas, balki u dunyoni, insonni yangicha ko‘rish, tushunish, anglash, anglatishning o‘ziga xos falsafiy-nazariy asoslariga ega; Shopengauer, Nitshe, Bergson, Freyd, Yung, Xaydegger, Sartr, Kamyu kabi g‘oyat xilma-xil ilmiy-falsafiy maktab asoschilarining ta’limoti yoki g‘oyalari yangicha adabiy oqim, yo‘nalishlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

XX asr boshlarida shakllana boshlagan yangi o‘zbek adabiyoti, asosan, ma’rifatchilik realizmi, umuman, realizm ko‘rinishida, aniqrog‘i, XX asr jahon, birinchi galda, Ovrupa realistik adabiyoti tajribalari yo‘lidan bordi. Shunisi qiziqlik, 20-yillardayoq Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy, Hamza singari peshqadam o‘zbek adiblari ijodida XX asr jahon adabiyoti adabiy tafakkuridagi eng yangi jarayonlarga ohangdosh xususiyatlar, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, modernistik oqim-yo‘nalishlar belgilari namoyon bo‘la boshladi. Bu tasodifiy emas. Bu davrga kelib o‘zbek adiblari jahon adabiyotidagi yangi jarayonlar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldilar. Bunday tanishuv xilma-xil yo‘llar orqali amalga oshdi. Eng muhimi, qator adiblarimiz o‘sha qizg‘in yangi jarayonlar yuz berayotgan, ular haqida jo‘shqin bahs-mulohazalar ketayotgan yurtlarda yashab, o‘qib, ishlab, o‘shanday yangilanishlarning guvohi, hattoki ishtirokchisiga aylangandilar: Fitrat avval Turkiyada, keyin Moskva va Leningradda bo‘ldi, Hamza haj safari bahonasida ko‘plab mamlakatlarni kezdi, Qodiriy bilan Cho‘lpon bir necha yil Moskvada yashadi, Oybek Leningrad ta’limini oldi, Qodiriy, ayniqsa,

Cho'lponning Moskva taassurotlarini, u yerdagi ma'naviy-adabiy hayotga doir maqolalarini, ulardagi nozik kuzatishlarni, Oybekning Neva bo'ylarida tug'ilgan lirkasini eslang. Bular shunchaki bir taassurot, qaydlar emas, balki yorqin iste'dodlar ko'nglida kurtak yozayotgan yangicha adabiy mayllar, badiiy-estetik prinsiplarning nishonalaridir. O'sha kezlardayoq ular yaratgan asarlarda zamonaviy Ovrupa adabiyotidagi yangi adabiy-badiiy oqimlar, ularga xos eng «yangi priyomlar» u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'la boshladi. Modernizm san'ati, adabiyotiga oid futurizm, simvolizm, ekspressionizm singari qator tushuncha, atamalar tez-tez tilga olinadigan bo'ldi. Fitrat 1926-yili chiqqan «Adabiyot qoidalari»da ularning ayrimlarini o'zicha sharhlashga harakat qildi. Bugina emas, «so'nggi priyomlar», she'riyatdagi simvolizm masalalarida «qizg'in bahslar boshlandi. Xususan, Cho'lpon bilan Qodiriy bu muammoga o'z davrida naqadar teran, oqilona, xayrixohlik bilan yondashganlarini bilamiz. «Ko'ngil yangilik qidiradir», «Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz» – bu so'zlar Cho'lpon bilan Qodiriyning adabiy-badiiy manifestlari edi. Hatto Qodiriy Ovrupa tushunchasidagi an'anaviy yo'lda bitilgan «O'tkan kunlar»ga «so'nggi priyom»larning ba'zilarini ertaroq kiritganini aytadi. Romandagi Zaynab, Xushro'y xarakteri, ruhiyati tasvirida, Otabekning «Xo'ja Ma'oz» mozoridagi tungi kechinmalari, Kumush qabri qarshisida Zaynab bilan so'nggi uchrashuvi ifodasida imo-ishoralarga, sir-sehrga mo'l, g'aroyib yangicha talqinlarga duch kelamiz. Adibning keyingi yirik asari – «Mehrobdan chayon», ayniqla, «Obid Ketmon»da, tanqidchilikda ta'kidlanganidek, jahon zamonaviy yangi adabiyotiga xos izlanishlar, «so'nggi priyom»larning talay belgilari, ya'ni ichki monolog, ichki psixologik tahlil, shaxsning ichki shakllanishi, shaxs tabiatining sirli-sehrli nag'malari, syujetning «istalgan» yerda boshlanishi va «istalgan» yerda tugashi, kutilmagan yangi voqealari chiziqlarining kurtaklanishi kabi eksperiment holatlarni kuzatamiz.

Fitrat, Cho'lpon, Oybek va 20-yillarda ular izidan borgan qator iste'dodli shoirlar she'riyati yaxlit holda bizda Ovrupa yangi adabiyotiga hamohang

simvolizm adabiy hodisa darajasiga ko‘tarila boshlaganligini tasdiqlaydi. Fitrat, Cho‘lpon she’riyatini XXI asr boshida turib o‘qib, ulardagi qoliplarga sig‘maydigan asov ruhni ko‘rib bu ikki shoir o‘z muhitiga, davriga nisbatan naqadar ilgarilab ketganligidan hayratga tushasiz. Bugina emas, Fitratning «Qiyomat», «Shaytonning tangriga isyoni», Hamzaning «Jahon sarmoyasining eng so‘nggi kunlari» singari ramzlar asosiga qurilgan yirik asarlari 20-yillardayoq o‘zbek adiblari G‘arb yangi adabiyoti bilan bo‘ylasha oladigan namunalar bergenligini tasdiqlaydi...

Ulug‘bek HAMDAM: Modernistik she’riyatning ilk kurtaklari XX asr boshlaridanoq nish bergen ekan, xo‘sh, nima uchun u yuz yillik mobaynida birdek taraqqiy etib bormadi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Avvalambor, bunday she’riyatning, umuman, san’atning rivojlanishi uchun real ijtimoiy-psixologik sharoit yetilgan bo‘lishi shart. Mana, siz aytgandek, Fitrat-u Cho‘lponlar Moskva, Leningrad, Istanbul kabi peshqadam shaharlarda ancha muddat yashadilar, buning natijasida tug‘ilgan o‘zaro ta’sirlanish izsiz ketmagan, albatta. Aksincha, shoirlar ijodida eng yangi, hatto moderncha ohanglar paydo bo‘la boshlagan. Keyin-chi? Keyin nega u takomil etmadi? Chunki sobiq Sho‘ro davlati o‘zini tashqi dunyodan ajratib, ichkarida faqat siyosiy mafkura xizmatiga yo‘naltirilgan iqlimni vujudga keltirdiki, oqibatda adiblar ijod erkini, tafakkur hurligini boy berib qo‘ydilar. Dunyo ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ilgarib ketdi-yu, bu yerda, ya’ni bizda turg‘unlik kayfiyati hukm surdi. Modern izlanishlar turg‘unlikning emas, balki ozod tafakkurning mevasidir. Albatta, A. Muxtor, R. Parfi va 70-yillar avlodi ijodida yangicha ohanglar, izlanishlar mavjud edi, biroq ular bugungidek keng va teran ma’no kasb etmagan. Bugun biz o‘sha paytda ilgarilab ketgan dunyoning yetib borgan pog‘onasi mahsullari bilan tanishish imkoniga egamiz va sekin-astalik bilan bo‘lsa-da tanishib boryapmiz. Bunday muloqot – ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, psixologik aloqa almashuv o‘lkamiz insoni dunyoqarashiga ta’sir qilmoqda, yangilamoqda. Natijada san’at-u adabiyot odamlari orasida moderncha kayfiyat tug‘ilib ulgurdi. Mana, nima uchun bugun qo‘liga qalam tutib, adabiyot olamiga «atak-chechak» qilib kirib kelayotgan

yosh havaskorlar ham «moderncha» mashqlar qoralamoqda. Aslida, bu ularning judayam ilgarilab ketgani emas, balki hamma zamonlarning ijodkorlari kabi boryo‘g‘i o‘z davrining, o‘z zamonasining farzandi ekani bilan bog‘liq normal kayfiyat mahsulidir. Shu bilan birga, alohida ta’kidlab aytish joizki, 80-yillarning o‘rtalarigacha, yanayam aniqrog‘i, jamiyatda ulkan o‘zgarishlar yuz bergungacha yozilgan modernistik she’rlar mualliflari kayfiyatlarida chindan ham umumiylaytadan ilgarilab ketish bor edi. Buni tan olish kerak. Kunimizda modernizm xususiyatlari umumiylaytadan kayfiyatga aylanib bormoqdaki, endi bu yo‘lda ijod qilish bilangina «faxrlanib» bo‘lmaydi, endi yangi yo‘nalishlarda yuksak san’at asarlari yaratishgina ijodkorni «qutqarishi» mumkin.

Umarali NORMATOV: Albatta, asr tongotarida boshlangan yangicha izlanishlar bora-bora sustlashib ketdi. Nega shunday bo‘lgani ma’lum. Futurizm, simvolizm ko‘rinishlari, «so‘nggi priyom»lar ustida boshlangan sof adabiy bahslar keskin mafkuraviy-siyosiy dag‘dag‘a, aybnama, tazyiqlarga aylana boshladи. 30-yillar o‘rtalariga kelib sotsrealizm sovet adabiyotining ijodiy metodi deb e’lon qilinganidan so‘ng modernizmning har qanday ko‘rinishi taqiq va ta’qib ostiga olinadigan bo‘ldi. Ta’qib-tazyiqlar avjiga chiqqan o‘sha yillarda ham sotsrealizm qolipiga tushmaydigan ayrim asarlar, chunonchi, Abdulla Qahhorning absurd belgilari mavjud hikoyalari, «Sarob», «O’tmishdan ertaklar»dek yirik asarlari, Oybekning sof «ko‘ngil lirikasi» yaratilaverdi.

60-yillarga kelib ijodiy izlanishlar, bosib o‘tilgan yo‘lni qayta baholash uchun qisman yo‘l ochildi. Biroq «qo‘rquv sultanati», hadik tuyg‘usi hatto eng yorqin izlanuvchan ijodkorlarni ham hamon o‘z iskanjasida tutib turardi. Ba’zi misollar. Oybek o‘sha kezlari bitilgan tarjimayi holida shunday deydi: «Mening birinchi she’rlarimda ko‘pgina qarama-qarshiliklar, izlanishlar uchrab turardi. Davrning eng muhim voqealariga hamohang she’rlar bilan bir qatorda sababsiz mungli nido bilan sug‘orilgan mavhum she’rlarim ham bor edi... «Tovushim» nomli she’rimda uzil-kesil shunday deganman: «Kurashadi ikki to‘lqin, qarab turaymi? Yo‘q! Bolg‘alar, o‘roq safi ila boraman!» Men hamma vaqt «qo‘llarida bolg‘a ushlaganlar» to‘g‘risida yozishni orzu qilardim».

Shu tariqa Oybekdek ulkan iste'dod egasi davr tazyiqi ostida ilk ijodidagi o'zining noyob izlanishlari samaralaridan yuz o'girishga majbur bo'ladi. Qarangki, shoir o'zi xush ko'rgan «davrning eng muhim voqealariga hamohang», «qo'llariga bolg'a ushlaganlar» to'g'risidagi she'rlari allaqachon eskirdi, ahamiyatini yo'qotdi; muallif salbiy baholagan «voqelikdan yiroqlashtiradigan», «sababsiz mungli nido bilan sug'orilgan mavhum she'rlar»i esa XXI asrga yetib keldi, hozirgi she'rxonlarni, she'riyat tadqiqotchilarini ayni o'shanday ko'ngil taronalari ko'proq maftun etayotir... Adabiyot dunyosi qiziq ekan-da, ba'zan shoirning o'zi ham to'g'ri degani noto'g'ri, noto'g'ri degani haqiqat bo'lib chiqarkan.

Butun umri ijodiy izlanishlar bilan kechgan, ayniqsa, 60-yillar milliy she'riyatimiz tafakkur tarzida yuz bergan muhim o'zgarishlar boshida turgan, «99 miniatyura» kitobi bilan katta e'tibor qozongan novator shoir Asqad Muxtor ham o'sha davr zamonaviy jahon she'riyatidagi noan'anaviy izlanishlarni aslo hazm qila olmaydi, modernistik yo'llardan borayotgan shoirlarni she'riyatning o'z ichidan chiqqan «ashaddiy dushmanlari», «lo'ttiboz abstraksionistlar», she'rni fikrdan ham, hisdan ham, mantiq va maslakdan ham mahrum qilishga, uni «yashash, ulg'ayish qurolidan shaldiroq o'yinchoqqa aylantirishga urinuvchilar» deya ayblaydi. Bu, albatta, davr adabiy siyosatining, mafkuraviy-siyosiy tazyiqlarining shoir shuuridagi oqibat-azorati edi. O'sha yillarda rasmiy doiralarda modernizmga munosabat ayni shunday edi. Baxtimizga, zamonlar o'zgardi, johil mustabid adabiy siyosatning tagiga suv ketdi. Afsus, ming afsus, bugungi erkin ijodiy tafakkur zamonida ham modernizmga goho xushlamay, o'gay ko'z bilan qarashlar uchrab turibdi. Iste'dodli tanqidchi Suvon Meli hech tap tortmay mana bularni yozadi: «Anchayin ishonch bilan aytish mumkinki, modernizm G'arb hodisasi sifatida o'zbek ma'naviy muhitida nash'-u namo topa olmaydi. Modernistik qora va tushkun kayfiyat bizda ildiz ota olmaydi. Sharqona islomiy ma'naviyat, o'zbek ma'naviyati bunga yo'l qo'ymaydi». Atoqli adibimiz Odil Yoqubovning fikricha, har bir xalqning faqat adabiyot va san'atigina emas, kundalik turmushi ham har xil bo'ladi. Masalan, Afrikada bambuk degan daraxt o'sadi Afrika va Janubiy Amerikada kokos yong'og'i va kaktus o'sadi. Bu

mamlakatlar aholisi ana shu ne'matlarni jon-dillari bilan iste'mol qilishadi. Bu daraxtlarni ildiz-pildizlari bilan ko'chirib olib kelib, o'zimizda eking, xalq ularning mevasini tili tamshanib iste'mol qilarmikan? Yo'q. Iste'mol qilmaydi. Bizning bobolarimiz ular o'rniga qovun ekishgan. Bizning ajdodlarimiz va o'zimiz ham shirinligidan odamning tilini kesadigan shu qovunlarni iste'mol qilib balog'at yoshiga yetganmiz. Mening nazarimda, Abdulla Qodiriy va Cho'lponning asarlari ana shu qovunlarni eslatadi...»

Dunyoni, milliy madaniyatlar, san'at va adabiyotlarni «G'arb» va «Sharq» deb keskin ajratish, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishdan qachon qutular ekanmiz?! Milliy qadriyatlar, an'analar qanchalik rang-barang bo'lmasin, dunyo bitta-ku, jamiki elatlar, butun bashariyat bitta Odam Ato bilan Momo Havvoning surriyodi-ku! Dunyoning biron chekkasida, biron millat madaniy hayotida paydo bo'lgan noyob badiiy ixtiro, xayrli tajriba boshqa o'lkalarga, milliy adabiyotlarga ko'chib o'tishi, u yerda ildiz otib, unib-o'sib, yangidan hayot boshlab, nash'-u namo topaverishi tabiiy bir hol. Yozuvchi aytmoqchi, Abdulla Qodiriy, Cho'lponning shirinligidan tilni kesadigan qovunlarimizni eslatadigan asarlari tarkibida G'arb mevalarining ta'mi – elementlari to'lib-toshib yotibdi-ku! Bu jarayon g'oyat tezlashmoqda. Odamzod shunga chuqur ehtiyoj sezmoqda. Odamlarning, xususan, yosh avlodning yashash, fikrlash tarziga, ma'naviy ehtiyojiga bir nazar tashlang – har damda siz yangilikka – modernga tashnalikni ko'rasiz. Milliy adabiyotimizda modern yo'nalişning qaror topib borayotganligi hayotiy ehtiyoj, zarurat taqozosidir...

Modernizm o'zbek muhitiga yot G'arb hodisasi degan gaplarni bugun, ya'ni pluralizm adabiy hayotning tabiiy hodisasiga aylangan, xilma-xil adabiy oqimlarning amal qilishi tabiiy bir hol bo'lib qolgan, eng muhimi, noan'anaviy yangicha yo'llar allaqachon nash'-u namo topgan, milliy hodisa tusini olgan, uning muayyan yutuqlari adabiyotshunoslik tomonidan e'tirof etilgan, ular o'z kitobxonlarini topgan, topayotgan kunlarda eshitish g'alati tuyularkan.

Ulug'bek HAMDAM: Modern asarlar o'z kitobxonini topayotgan, uni qadrlovchilar soni ko'payib borayotgan bir paytda tamomila o'zga bir nuqtayi

nazar bilan chiqayotgan, bu hodisani bizga hamon yot deb qarayotgan olimlarimiz ham bor. Bu o'rinda men professor Bahodir Sarimsoqovning keskin chiqishini nazarda tutayotirman.

Umarali NORMATOV: Adabiyotshunos B. Sarimsoqov modernizm, aniqrog'i, absurd va ekzistensializm adabiyotini tanqid qilishda hatto sho'ro davrining eng jangari munaqqidlarini ham yo'lda qoldirib ketdi. XX asr o'zbek adabiyotining qator namunalarida absurd va ekzistensializm ko'rinishlari mavjudligi xususidagi qarashlarga javoban yozilgan «Absurd ma'niszlikdir» (O'zAS. 2002-y. 28-iyun) maqolasida olim jahon adabiyotidagi bu oqimlar sha'niga keskin tanqidiy gaplar aytadi. Uningcha, «umuman olganda, badiiyestetik hodisalardagi absurd tushunchasi ijobiy hodisa emas», «absurd o'z oti bilan ma'niszlik», «absurd asar jamiyatda ana shu asarga umuman estetik talab bo'lмаган paytda, ijodkorda esa «еhtiyoj farzandi» (A. Oripov) tug'ilmaganda yoziladi. Aniqrog'i, absurd asar ijtimoiy-estetik jihatdan arziydigan g'oya tashimaydi», «absurd asar ma'naviy-ahloqiy konsepsiyasiz, muayyan g'oya tashimaydigan, hayotga loqayd va ma'nisz munosabatni ifodalaydi. Bu – uning belgilovchi mezoni. Absurd tuyg'u – ma'niszlik tuyg'usi. Absurd insonning o'zi yashayotgan jamiyatga, muhitga, o'z-o'ziga, hattoki yaratuvchiga begonalik tuyg'usi», «absurd barcha zamon va makonlarda ma'niszlik bo'lib kelaveradi», «u badiiyat dunyosidagi inqiroz «botqog'i»dan iborat...»

Olim absurd adabiyotini shu tariqa qayta-qayta qoralar ekan, ekzistensializmni qisqa va lo'nda qilib «subutsizlik» deb ataydi, bu bahoda sobit ekanligini ta'kidlab, «men ekzistensializmga nisbatan «subutsiz» sifatlovchisini to'la anglagan holda ishlatdim va bu masalada bahslashishga hamisha tayyorman» deb yozadi.

Tabiiyki, har qanday adabiy-badiiy oqimda bo'lgani kabi, absurd va ekzistensializm adabiyotida ham ijtimoiy-estetik jihatdan arziydigan g'oya tashimaydigan, badiiy nochor asarlar bor. Biroq bu absurd va ekzistensializmning XX asr jahon taraqqiyparvar adabiyotidagi munosib o'rnini, ushbu oqimga mansub shaxs va uning ruhiyatini butunlay yangi tomonlardan badiiy kashf etib bergen

nodir asarlar ahamiyatini inkor etish uchun aslo izn bermaydi. O‘ta murakkab, ziddiyatli bu falsafani, adabiy-badiiy hodisani anglash, o‘rganish yo‘lidagi bizdagi dastlabki xayrli qadamlarni qo‘llab-quvvatlash o‘rniga bu harakatni yomonotliq qilish, menimcha, insof va odobdan emas.

B. Sarimsoqovning absurd va ekzistensializmga bergan bahosi o‘ta munozarali. San’at hodisasi sifatida absurd tushunchasi bu so‘zning lug‘aviy ma’nosidan o‘zgacharoqdir. Absurd, B. Sarimsoqov da’vo qilganidek, aslo ma’nisizlik emas, aksincha, teran ma’noga ega. Absurd adabiyot, san’atda adashgan, aldangan, behuda, samarasiz mehnat-faoliyatga, ma’nisiz qismatga mubtalo etilgan shaxsning fojiasini ochib berish, kutilmagan tomonlardan o‘ziga xos tarzda badiiy tahlil etishdan iborat.

Ulug‘bek HAMDAM: Darhaqiqat, g‘alati hol, paradoks. Fojia, tushkunlik, o‘lim kabi tushunchalar hayotda ijobiy ma’noga ega emas. Biroq bu mavzularda yaratilgan badiiy durdoni asarlarni sevib o‘qiymiz, ular necha asrlardan buyon odamlarni hayajonga solib keladi.

Umarali NORMATOV: To‘g‘ri! Absurd bobida ham ayni shunday. Absurd ko‘hna dunyo, hayot, yashashning ma’nosи haqidagi o‘ziga xos mushohadalar majmuasidir. Absurd asar odat tusiga kirgan hayotiy hodisa, jarayonlarni yangicha idrok etishga, bahsga undashi bilan qimmatli. Absurd asar aslo befarqlik, loqayd munosabat emas, balki fikrdagi, qalbdagi tug‘yon-isyon mahsulidir. Absurd ijod sohibi va nazariyachisi Kamyuning «Absurd bu – o‘z cheki-chegarasini anglaydigan aql-idrok», «Men fikrdan nimani talab qilsam, absurd ijoddan ham ayni shuni – isyon, erkinlik va rang-baranglikni kutaman» degan so‘zlarini unutmaylik!

Nahotki, XX asr absurd adabiyotining yuzlab nodir namunalari, jumladan, ona tilimizga allaqachon tarjima qilingan, kitob bo‘lib chiqqan, bugungi kunda maktab o‘quv dasturiga kiritilgan «Begona», «Vabo» asarlari jamiyatda ana shu asarlarga umuman estetik talab bo‘lmagan paytda, ijodkorda esa «ehtiyoj farzandi» tug‘ilmaganda yozilgan bo‘lsa?! B. Sarimsoqov da’vo qilganidek, absurd adabiyot «muayyan g‘oya tashimaydigan adabiyot» ekan, nega bu adabiyotning ulkan

namoyandasiga va nazariyachisi A. Kamyu o‘z davrida «Ovrupa vijdoni», «aqllar hukmdori» degan nom oldi? Olim «ma’nisizlik»da, «loqaydlik»da ayblagan oqimga mansub adib insoniyat oldiga bugungi kun muammolarini butun keskinligi bilan qo‘yuvchi adabiy asarlarining ahamiyati uchun nufuzli «Nobel» mukofoti bilan taqdirlangan edi-ku!

Ulug‘bek HAMDAM: Fikringizni hurmat qilaman. Biroq Bahodir akaning o‘zbek adabiyotida absurd asar yaratilgan emas, buning uchun bizda zamin-muhitning o‘zi yo‘q degan gaplari, har qancha munozarali bo‘lmashin, baribir, muayyan asosga ham egadek tuyuladi. Ayniqsa, bu gap sobiq sho‘ro davri o‘zbek adabiyotiga tadbiqan olinganda yanada ishonarli jaranglaydi. Chunonchi, A. Qahhorning siz eslagan asarlarini absurd adabiyot namunalari deya to‘la ishonch bilan aytish biroz bahstalab. Chunki u asarlarda absurd ruhni, kayfiyatni «tug‘ib beradigan» voqelikning ayrim parchalari chindan ham tasvirlangan, lekin, nazarimda, asarning chinakam absurd adabiyot namunasiga ko‘tarilishi uchun unda aks etgan absurd voqelik asar muallifi tomonidan to‘la idrok etilgan, anglangan bo‘lishi shart. Sho‘ro davrida ijod qilgan shoir va adiblarimizning hech birini, fikrimcha, tom ma’noda absurd ijodkor deya olmaymiz...

Umarali NORMATOV: Bu fikr ham munozarali. Hatto absurd asarning ahamiyatini har jihatdan himoya qilib chiqqan Jabbor Eshonqulov «Voqelik va xayolot» sarlavhali mazmundor maqolasida (O‘zAS. 2002-y. 12-iyul) «absurd asar absurd ijodni talab qiladi», «absurd ijod yo‘q joyda absurd asar ham bo‘lmaydi» deydi. To‘g‘ri gap. Biroq bunday qarash biroz aniqlik kiritishga muhtoj. Absurd adabiyot nazariyachilarining fikricha, absurd ijodga mansub bo‘lмаган adiblar bisotida ham absurd g‘oyasi, tuyg‘usi, absurd qahramon qarashi, absurd muammo si qo‘yilaverishi mumkin. Masalan F. Kafka absurd ijodkor emas, lekin bu buyuk adib asarlarida absurd problemasi butun keskinligi bilan yoritilgan. Bugina emas, jahon adabiyotidagi Gogol, Dostoyevskiy singari daho realist yozuvchilar ijodida ham ayni shu holni kuzatish mumkin. Shuningdek, absurd doirasi ham nihoyatda keng. Sizif haqidagi rivoyatda namoyon bo‘lgani kabi keng qamrovli, azal va abadga daxldor ma’nolarni tashuvchi asarlar bilan barobar, oddiy

kundalik real voqeа-hodisalar qalamga оlingan asarlarda ham bu tuyg‘u, g‘oya namoyon bo‘laverishi mumkin. Biz har xil maqomga solib, tortishib, chalkashtirib yurgan absurd tushunchasi mohiyatini Kamyu Sizif haqidagi qadimgi mif misolida sodda va lo‘nda qilib ochib bergen.

O‘sha asotirga ko‘ra, bu foniy dunyoning hoy-u havaslariga mukkasidan berilib ketgan Sizif og‘ir jazoga – poyoni yo‘q samarasiz mashaqqatli mehnatga mahkum etiladi: u ulkan xarsangtoshni tog‘ cho‘qqisiga ne-ne azoblar bilan dumalatib chiqadi, endi yetdim deganida bu tosh orqaga – pastga dumalaydi. Sizif bunday samarasiz mashg‘ulotni uzlucksiz davom ettiradi. Kamyu Sizifni absurd qahramon deb ataydi. Sizifning mangu besamar mehnati, fojeiy qismatini eslatadigan hodisalarni bu foniy dunyoda hamma zamonlarda, har qadamda uchratish mumkin. Adib umr bo‘yi mehnat qilayotgan hozirgi ishchilarning qismati absurdlik bobida Sizifnikidan kam emasligini ta’kidlaydi.

Ana shu qarashlarga tayanadigan bo‘lsak, XX asr o‘zbek adabiyotida, xususan, Cho‘lpon, Qahhor ijodida, 80-yillar oxiri va 90-yillarda paydo bo‘lgan o‘nlab she’r, doston, hikoya, romanlarda absurd tuyg‘usi, g‘oyasi, absurd qahramonni eslatadigan talay personajlar mavjudligi sirayam ajablanarli emas. A. Qahhorning o‘tmishdan olib yozgan hikoyalari, «Sarob» va «O‘tmishdan ertaklar» asarlari bu jihatdan yangi o‘zbek adabiyotida noyob hodisadir. Qahhor ijodida absurd talqinning mavjudligi xususida so‘z ochish, B. Sarimsoqov da’vo qilganidek, uni realizmga zid «ma’nisz adabiyot» botqog‘iga tashlash emas! Qahhor asarlarida absurd xususiyatlarining mavjudligini e’tirof etish aslo bu ulug‘ adibni realizmdan chetlatish degani emas! Kamina qalamiga mansub «O‘tmishdan ertaklar» va absurd» maqolasida Qahhor asarlaridagi absurd alomatlari realizm an’analari zaminida shakllangan, mustabid mafkura sinfiylik tushunchalari g‘uborlaridan xoli bo‘lman betakror adabiy hodisa ekani aytilgan. Shuningdek, «Lolazor», «Otamdan qolgan dalalar», «Tushda kechgan umrlar», «Olabo‘ji» kabi realistik romanlardagi bir qator personajlar qismatida absurd muammosining qo‘yilishi zamonaviy jahon adabiyotidagi mavjud tajribalarga aynan mosdir.

Nihoyat, absurd asarlarda shaxsning jamiyatdan qochishi, begonalashuvi, yolg‘izlik muammosi talqini xususidagi e’tirozlarga ham qo‘shilish qiyin. Bu muammo faqat absurd adabiyotigagina tegishli emas, Odam Ato zamonidan tortib hamma davrlar adabiyotida qandaydir ko‘rinishlarda mavjud bo‘lgan. Jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotimizda, Navoiy, Bobur, Mashrab she’riyatida bu tuyg‘u g‘oyat zo‘r ehtiros bilan yoritilgan. Absurd adabiyot esa bu muammoni butun keskinligi bilan o‘rtaga qo‘ygan. Bizda ham shunday. Qolaversa, deyarli barcha mintaqalarda bo‘lgani kabi, Sharqda ham keng tarqalgan bu foniylarning «besh kunlik», «omonat», «bevafo» ekani haqidagi qarashlar, bu qarashlarning, xususan, Yassaviy, Boqirg‘oniy, Mashrab, So‘fi Olloyor kabi shoirlar ijodidagi talqini hozirgi milliy adabiyotimizdagi absurdning muayyan falsafiy zaminidir. Shunisi xarakterliki, absurd adabiyoti umidsizlikni yoyadigan, tarkidunyochilikni targ‘ib etadigan adabiyot emas. Kamyuning fikricha, inson farzandi absurddan cho‘chimasligi, undan xalos bo‘lishga intilmasligi darkor, chunki buning aslo iloji yo‘q, absurd dunyosi butun insoniyat hayotini qamrab olgan. Inson shunday harakat qilishi va yashashi kerakki, u o‘zini bu absurd dunyoda baxtli his qilsin. Absurd adabiyotining eng yorqin namunalari bag‘rida ayni shu g‘oya nurlanib turadi.

E’tirof etish kerak, absurd, ekzistensializm, umuman, modernizm muammolarini, xususan, ularning milliy adabiyotimizdagi ko‘rinishlarini o‘rganish, talqin etishda hali tajriba kamligi uchun qator qiyinchilik va chalkashliklar uchramoqda. Ularni ro‘kach qilib bu jiddiy muammodan yuz o‘girishga qaratilgan da’vatlar, cho‘chitishlarni tushunish qiyin. Bunaqa da’vat, cho‘chitishlar zamon ruhiga zid! Absurd tasvir – san’at va adabiyotdagi o‘nlab, balki yuzlab talqinlarning biri. Uni xushlamaslik, unga qo‘silmaslik, u bilan bahslashish mumkin, biroq uni butunlay rad etish ziyoli, olim odamning ishi emas!

Kishini quvontiradigan holat shundaki, so‘nggi yillar adabiyotshunosligida XX asr o‘zbek adabiyotini o‘rganish, talqin etishda aqidaparastlar mezonlaridan qochib, yangicha yo‘llar qidirish mayli kuchayib bormoqda. Bu yo‘llardagi dastlabki izlanishlar, yangicha kuzatish, tahlil va talqinlar, umuman, XX asr o‘zbek

adabiyoti, uning jahon zamonaviy adabiyotida tutgan o'rni xususidagi tasavvurlarimizni xiyla boyitmoqda. Ayniqsa, milliy adabiyotimiz nodir namunalarining jahon zamonaviy adabiyoti, jumladan, modernizm durdonalari bilan siyosiy tahlil va talqinlari kutilmagan xulosalar chiqarish uchun izn va asos bermoqda.

Shu paytga qadar «Qutlug' qon» romani M. Gorkiy ijodi, xususan, «Ona» romani an'analari ta'sirida dunyoga kelgani aytildi. S. Sodiq «Yangi o'zbek adabiyoti» qo'llanmasida bu asarni J. Steynbekning «Nobel» mukofoti berilgan «G'azab shodalari» romani bilan qiyos qilib, bu ikki asar asosiy pafosi va bosh qahramonlar – Yo'lchi va Tom qismati talqinida talay mushtarakliklar mavjudligini ko'rsatadi.

X. Do'stmuhammad «Ozod iztirob quvonchlari» kitobida yapon adibi Akutagava Ryunoskening «Biseyning sadoqati» hikoyasi bilan Oybek lirikasi, «Rasyomon darvozasi» bilan G'. G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida g'aroyib ohangdoshlik jihatlarini topadi. Yosh tadqiqotchi Sh. To'ychiyeva «Cho'lpon va Kamyu» maqolasida «Kecha va kunduz» va «Begona» asarlaridagi sud jarayoni tasvirini qiyoslash orqali har ikkisida ekzistensializm, absurd tuyg'usi va g'oyasi talqinidagi o'xshashliklarni aniqlashga urinadi. Suvon Meli Dostoyevskiyning «Telba» va G'. G'ulomning «Shum bola» asarlari qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ma'rzasida bu ikki asardagi asoslanmagan ongning namoyon bo'lishi xususida qiziqarli kuzatishlarni o'rtaga tashlaydi. M. Sharafiddinova esa beriroq kelib, O'. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani badiiy strukturasiga oid tadqiqotida mazkur roman ifoda tarzi yo'llari jihatidan Nabokov asarlari poetikasiga yaqin turishini aytadi...

Shaxsan men ham A. Qahhorning «Sarob» romanidagi bosh personaj tasviri va talqini ko'p jihatdan Kafkaning «Jarayon»iga yaqin turishi, bu romanda, shuningdek, «O'tmishdan ertaklar»da ekzistensializm, absurdizm xususiyatlari mavjudligani isbotlashga harakat qilganman.

Shunisi qiziqliki, «Telba» romanini mustasno etganda, qiyos qilingan asarlarning barchasi deyarli bir davrda, mualliflari bir-biridan mutlaqo bexabar

holda yaratilgan. G‘aroyib hol: bir asrda jahonning turli nuqtalarida, turli xil sharoit va milliy zaminda, turli tillarda dunyoga kelgan san’at namunalarida bu xil mushtarak jihatlarning mavjudligi sababi, ildizi qayerda? Ko‘lamli, teran tadqiqotlarga arziydigan mavzu! Ehtimol, hozircha bu boradagi mavjud kuzatish, mulohazalar ayrim hamkasblarimizga g‘ayritabiyy tuyulishi mumkin, lekin shu xil fikrlashga, bahsga undaydigan ilmiy faraz, versiyalarning o‘rtaga tashlanayotganining o‘zi quvonarli hol! Taraqqiy etgan mamlakatlarda ilmiy faraz, yangicha g‘oyalarning qadr-qimmati fundamental tadqiqotlarnikidan kam emasligini unutmaylik.

Ulug‘bek HAMDAM: Ustoz, shu o‘rinda suhbatimiz avvalida tilga olingan muammoga qaytib, o‘zbek modern she’riyatining milliy asos – zamini xususida batafsilroq gaplashsak.

Umarali NORMATOV: E’tibor bersangiz, yetmish yillik tayyorgarlikdan so‘ng bizda modernizm endi adabiy oqim tusini ola boshladi. Avvalo, o‘sha yetmish yillik tajriba bu oqimning birinchi asos zaminidir. Adabiyot va san’atning uzoq davom etgan hukmron mafkuraviy siyosiy tazyiq iskanjasidan xalos bo‘lishi, pluralizmning qaror topishi bizda xilma-xil falsafiy ijodiy oqimlar, jumladan, modernizmning erkin rivoji uchun yo‘l ochib berdi. Tabiiyki, bugungi o‘zbek modern adabiyotida, G‘arb, qolaversa, jahon zamonaviy adabiyoti, san’atidagi talay falsafiy-ijodiy oqimlar, ayniqsa, ekzistensializm falsafasi, adabiyoti tajribalari ta’sirini ko‘rish mumkin.

Ayni paytda, bizda modern adabiyotning oqim tusini olish jarayoni milliy o‘zlikni anglash, milliy-diniy qadriyatlarni tiklash, jumladan, tasavvuf falsafasi, adabiyotiga qiziqish g‘oyat kuchaygan bir davrga to‘g‘ri keldi. Ayniqsa, zamonaviy G‘arb falsafasi, jumladan, ekzistensializm bilan Sharqdagi qadimiy tasavvuf ta’limoti orasidagi mushtarakliklar modernist ijodkorlarda o‘zgacha qiziqish uyg‘otdi, ularni dadil ijodiy izlanishlarga ilhomlantirdi. Ajdodlarimizning qadim o‘gitlari, o‘y-mushohadalari, navolari bilan zamonaviy tafakkur – mushohada, bugungi kunning g‘oyat serjilo, ko‘ppardali sadolari o‘ziga xos bir tarzda uyg‘unlasha boshladi. Modern adabiyotimizning yangi bosqichi boshida

turgan, hozirgi zamon, uning o'tkir muammolari xususida bahs yurituvchi ikki yetuk asar – Xurshid Do'stmuhammadning «Jajman» hikoyasi va Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» dostonidagi milliy ruhni o'zida yorqin ifodalagan, milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos timsoli deyishga loyiq nuroniy, donishmand qariyalar obrazi ham buni tasdiqlab turibdi. Yoki Faxriyor saylanmasining «Ayolg'u» nomi bilan atalishi dam tasodifiy emas. «Ayolg'u» – qadim cholg'u asbobining nomi; lug'atlarda qayd etilishicha, sof turkiy o'lan, ashula, yalla, kuy, ohang, ta'sirli qo'shiq degani. Avvalo, «Ayolg'u» nomi bilan atalgan dostonni, qolaversa, shu nom bilan chiqqan saylanmadagi boshqa doston va she'rlarni o'qisangiz, «sof modern» ko'rinishidagi deyarli barcha asarlar qa'ridan aks sado berib turgan qadim ayolg'u navolarini tuyib-eshitib turasiz. Bunaqasini boshqa biron xalq adabiyotidan topolmaysiz. Qisqasi, eng yaxshi, yetuk asarlar ustidagi kuzatish, tahlillar asosida dadil aytish mumkinki, o'zbek modernizmi boshqalarga taqlid mahsuli emas, u o'ziga xos yo'lidan boryapti, u milliy adabiy hodisadir.

Ulug'bek HAMDAM: Noan'anaviy she'riyat bizda osonlik bilan o'ziga yo'l topayotgani yo'q. Ehtimol, noan'anaviy hodisalarning, yangi, hali «yurilmagan» yo'llarning ilk taqdiri hamisha ham shunday bo'lar. So'ngra ko'nikish, qabul qilish, hatto mehr qo'yish degan bosqichlar kelar. Axir, 70-yillar avlodining ayrim noan'anaviy she'rlarida bir qadar sun'iylik sezilib qolishi barobarida kunimiz yoshlarining modern izlanishlarida tabiiylikni kuzatish mumkin-ku! Shu holning o'ziyoq «yangi yo'l»ning tobora ildiz otayotganidan dalolat emasmi? Shoirlilik da'vosi bor talabalarimdan biri: «Men an'anaviy she'riyatdan, uning an'anaviy, hatto bir qadar jo'n ifoda tarzidan hayajonga tushmayman. Qaytaga, masalan, «Ko'zlarimda ikkita shovqin» deganga o'xhash misralarni o'qib qolgudek bo'lsam, borlig'im titrab, she'r ruhiga g'arq bo'lamani. Bilasizmi, men o'sha ikkita shovqinning nima ekanligini biladigandekman, ular mening botinimda yashayotgandek bo'laveradi», deb qoldi.

Yoshlar izlanishlarida ajdodlarning aruz va barmoq vaznida mavjud bo'lgan ohangdorlik, musiqiylik, qofiya va ritmikadan uzoqlashish mavjud. Ammo, qizig'i shundaki, bu ish atay qilinmayotir. Aksincha, yoshlar yozmoqchi bo'lgan she'rlar

negadir o‘zga ohanglarda – 70-yillar avlodi o‘z vaqtida o‘zbek she’rxonlariga singdirtirolmay qiynalgan pardalarda, hatto yanada zamonaviyroq pardalarda yangrayotgandek. Albatta, ularning aksarida ijtimoiy dardning sayozligi, hatto tasvirlanayotgan o‘ta intim kechinmaning bachkanaligi seziladi. Ayniqsa, barmoqda ham bemalol ifoda qilish mumkin bo‘lgan kechinmalarni ortiq darajada «modernlashtirish»ga urinish mavjud. Qofiya va vazndan voz kechib, fikr va tug‘yoningni sal «chalkashtirib», murakkabroq qilib yozsang bas, «modern she’r» tayyor deganga o‘xhash noto‘g‘ri tasavvur ham bor ularning tajribalarida. Biroq, baribir, ular she’riyatini diqqat bilan kuzatar ekanmiz, amin bo‘lamizki, o‘zbek she’riyati badiiy tafakkur tadrijida yangi sahifa ochilib kelmoqda. Chunki, istaymizmi-yo‘qmi, ular dunyoni boshqacha – yangicha ko‘ryaptilar. Aslida, san’atdagi barcha yangiliklar aynan shundan boshlanadi. Bu ijobiy hol, ammo yaxshi natijagacha hali ancha yo‘l bosish kerak. Hali yoshlar she’riyati – tugallanmagan, harakatdagи jarayon. Binobarin, ularning she’riyatimizdagi jiddiy o‘rni haqida gapirishga ancha fursat bor. Abdulla Orif: «Hali oldindadir go‘zal kunlarim, hali lab tegmagan qadahlar oldda», degani kabi yoshlarning she’riyatimizda ro‘yobga chiqarishi lozim bo‘lgan ishlari haqiqatan ham oldinda. Chunki haqiqiy modern she’r tili – poetik tili hali hech bir shoirda to‘laligacha shakllanib ulgurgan emas. Biz ko‘pincha u yoki bu modern shoirning she’ridan bir parchani uzib olib, uni o‘zimizcha sharhlaymiz. Nazarimda, biz o‘scha chog‘da she’rdagi ma’niga ko‘proq asir bo‘lamiz, ajab emaski, ushbu suhbatimizda ham shu ruh yetakchilik qilayotgan bo‘lsa. Chunki biz shunga ko‘nikkanmiz. She’rdagi ma’nini qo‘l bilan tutish she’rning san’at asari sifatidagi go‘zalligini tutishdan chandon yengildir. Bizda modern she’r hali san’at asari sifatida o‘zining qiyomiga yetgani yo‘q dedik. Biz hozirgacha o‘z nazarimizdagi modern she’rda faqat shakl farqlilagini, ifoda o‘zgachaligini ko‘ryapmiz, xolos. An’anaviy she’riyatimiz 60 – 70-yillarda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabi shoirlar, keyinroq 70-yillar avlodi ijodi misolida o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqqandi. Lekin modern she’rimiz hali hatto Oybek yetib borgan simvolistik manzillarga qadar ham kela

bilgani yo‘q. Takror aytaman, bu o‘rinda men she’rga fikr aytish vositasi deb emas, balki san’at asari sifatida qarayapman.

Umarali NORMATOV: Yoshlar she’riyati – tugallanmagan, harakatdagi jarayon, binobarin, ularning adabiyotdagi o‘rni haqida gapirishga ancha fursat bor deysiz. Bu bir jihatdan, to‘g‘ri. Ayni paytda, ular haqida gapirish, bahslashish uchun bugun ham yetarli asos, ham katta ehtiyoj bor. 70 – 80-yillarning muayyan sintezi va 90-yillar yangicha she’riyatimizning debochasi sanalmish Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug‘at» dostoni, Faxriyorning «Ayolg‘u», Bahrom Ro‘zimuhammadning «Kunduz sarhadlari» kitoblari, bu shoirlarning o‘nlab safdosh va izdoshlari ijodisiz, ayniqsa, «Muchal yili», «Yoziq»dek dostonlarsiz keyingi o‘n yillik o‘zbek milliy she’riyatini aslo tasavvur qilish mumkin emas.

Ulug‘bek HAMDAM: Albatta, shubhasiz. Biroq men andak boshqa jarayon haqida fikr yuritayotgan edim. Bahs yuritayotganimiz modern she’r o‘z bo‘yi-bastini asosan 70-yillardan bu yonda ko‘rsatayotgan va kunimizga kelib uning ishqibozlari, haqiqiy jonkuyarlari ko‘payib borayotgan ekan, demak, u tobora pishib-shakllanmoqda. Bas, shunday ekan, bu she’riyatning «oltin davri»ga, ajab emaski, endi kirib kelayotirmiz. Tarixdan misollar: asr boshlaridan ibtido olgan barmoq vaznidagi o‘zbek she’riyati eng go‘zal namunalarining ko‘pchilik qismi 60 – 70-yillar she’riyatiga to‘g‘ri kelganligini o‘ylab ko‘rsak, ayon bo‘ladiki, qariyb yarim asrlik vaqt bejiz ketmabdi. Bu yillar mobaynida o‘zbek she’riyati badiiyat bobida, san’at bobida izlanibdi, pishibdi. Yoki yana boshqa bir misol: Navoiy ham yo‘q yerdan bino bo‘lgan emas, balki ungacha ham Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi o‘nlab shoirlar turkiyda ash’or bitib, tilning, nazm tilining, tashbeh va ramz tilining shakllanishiga o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Agar bu borada ham Navoiy birinchi bo‘lganda, ehtimol, uning ko‘p fursati salaflar amalga oshirgan «qora ishlar»ga sarf bo‘lib, badiiy durdonalarining soni va sifatiga putur yetgan bo‘larmidi... (Shu ma’noda o‘zbek modern she’riyati hatto shu bugungi holida ham ko‘psozlilikdan, olifta va bachkana tuyg‘ular-u «burama» fikrlar yaltiroqligidan, tafakkurning hissiz o‘yinlaridan xoli emasligiga ko‘z yummaslik lozim. Ammo, ishonamanki, u o‘z rivojlanish yo‘lida bunday qusurlardan forig‘ bo‘lib, yuksak badiiy tiniqlikka

erishadi. Necha yuz yillardan beri yashab kelayotgan va bugun ham muhib qalblarga o‘z titrog‘ini solayotgan yapon hokku va tankalarining sir-u asrori haqida bir mulohaza yuritsak, men aytayotgan fikrning mag‘zi yanada oydinlashadi.) Shundan ham ko‘rinib turibdiki, dunyoda biron shaxs va uning biron-bir ishi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, aksincha, hamisha tarixdan, salaflardan nimadir (hatto u salaflarga sira «o‘xshamasa» ham) o‘rganiladi. Xuddi shunday, bugun biz yangicha, modern deb atayotganimiz she’riyat ham hali shakllanish bosqichida, bas, uning ham mevalari larzon-larzon pishgan, hosildor fasliga, nasib qilsa, endi kirib kelamiz. Ayni chog‘da, ta’kidlab aytish joizki, turli xil ko‘rinishdagi modern yoki modern-realistik she’rning yaxshi-yaxshi namunalarini o‘sha Asqad Muxtorning «99-miniatiyura»sidan, o‘sha Rauf Parfining «Sabr daraxti»ga kirgan «uchlik»laridan, 70-yillar avlodi shoirlarining unumli tajribalaridan tortib to shu kunda faol ijod qilayotgan Bahrom Ro‘zimuhammad, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor kabi shoirlar ijodlaridan topish mumkin. Shermurod Subhon, Olima Nabizoda, Go‘zal Begim, Dilrabo Mingboyeva, Oydin kabi o‘nlab yosh ijodkorlarning o‘z ilk mashqlarini aynan modern ohanglarda e’lon qilayotganliklari ham modern she’r haqidagi asosiy bahs-munozaralar hali oldinda ekanidan dalolat beradi.

Ustoz, meni boshqa bir narsa o‘ylantiradi, ko‘pincha an’anaviy she’r bilan modern she’r o‘rtasidagi chegarani topolmay qiynalaman. Darhaqiqat, ularning chegarasini kim qo‘yib bera oladi? Ular o‘rtasidagi farq faqat an’anaviy she’rning qat’iy ritm va qofiyaga asoslangani-yu modern she’rning bulardan «ozod» ekanligi bilan o‘lchanishi haqidagi «haqiqat» allaqachon o‘z qimmatini yo‘qotmadimi? Bunday tasnifda mohiyat emas, shakl birlamchi bo‘lib qolmaydimi? Umuman, an’anaviy va modern she’rni ajratib turuvchi chegara tobora buzilib bormayaptimi?

Mening kimligimni bilmaydi hech kim,

Men bir g‘alatiman, men alohida.

Ko ‘zimning yoshini keladi ichgim,

Tilimni chaynagim kelar gohida.

(Muhammad Yusuf)

Mana shu she’rni kim qaysi «izm»ga qo’shgan bo’lardi? Darhaqiqat, u modernistikmi yo an’anaviy? Suratiga (aytgandek, she’rning o’zi ham «Surat» deb nomlanadi) qaraydigan bo‘lsak, u an’anaviydir. Biroq she’rning faqat shakligina uning kategoriyasini belgilab bera olarmikan? Bu o‘rinda shoirning she’rda aks etgan dunyoqarashi va kayfiyati birlamchi emassi? Axir, lirk qahramonning qandayligi sizni o‘ziga jalb qilmayaptimi? Axir u o‘zining «sirli va g‘alatiligi»dan so‘z ochyapti-ku! Bu shunchaki olifta so‘z yoxud o‘ziga e’tibor qaratish emas. Isboti – lirk qahramonning haqiqatan notabiiy holati – «Ko‘zimning yoshini keladi ichgim, Tilimni chaynagim kelar gohida». Bunday murakkab, ziddiyatli ruhiy-dramatik holat she’r yakunida yanayam shiddatli tus oladi: «Kiyiklar qonini keladi ichgim, Chayonni chaynagim kelar gohida». She’r shaklan an’anaviy barmoq vaznining risolalardagi qoidalariga muvofiq bitilgan. Biroq lirk qahramonning yuqorida aytganimiz holati an’anadagi ruhiy holatlar doirasidan tashqariga chiqib ketadi. Chunki an’anaviy she’riy axloq qahramonni kiyikning qonini ichishga yo‘latmas, ayni paytda, uni chayondan «ehtiyot» qilgan bo’lardi. Aksincha bo‘lishni faqat badiiy tafakkurning navbatdagi bosqichi (modernizm)gina amalga oshirishi mumkin edi. Ko‘rinadiki, yangi she’riyat nafasi allaqachon o‘zbek she’riyatiga kirib kelgan, u hatto eng an’anaviy shoirlarimiz ijodida ham kishi bilmas tarzda yashab kelayotir. Yoki shu o‘rinda quyidagi mulohazamiz o‘rinlimikan – modernistik tafakkur tarzining tobora kengroq va chuqurroq «yo‘yila borayotgani»ni e’tiborga olgan, shu bilan birga, uning an’anaviy san’atimiz fitratini qaysidir ma’noda o‘zgartirayotganini nazarda tutgan holda ushbu jarayonning XX asr o‘zbek adabiyotidagi «bo‘y-basti»ga qarab turib umumiy bir nom bilan modernistik realizm deb atasak haqiqatga yaqin kelgan bo‘lamizmi? Chunki tan olishimiz kerakki, XX asr mobaynidagi bizdagi modern yangilanishlarning asosiy ulushi sof modernistik yo‘nalish zimmasiga emas, balki aynan yuqoridagi tarzda an’anaviylik va modernistik intilishlarning sintezi gardaniga tushib keldi. Albatta, keyingi 10 – 15 yil ichida hayotimizda ro‘y bergen o‘zgarishlar badiiy tafakkur tarzimizda ham olamshumul yangiliklar yasay bildi. Demak, bu yog‘iga modernistik realizm «shoxlab» ketishi, natijada

modernizmning turli xil oqimlariga xos ohanglar paydo bo‘lishi tabiiy ko‘rinadi menga.

Umarali NORMATOV: She’riyat, umuman, adabiyot dunyosi qiziq. Aks holni kuzatish ham mumkin. Eng zamonaviy, «sof modern» she’r bag‘rida an’anaviy ruh kishi bilmas bir tarzda yashayverishi ham mumkin. Faxriyorning «Ayolg‘u» dostonidagi mana bu satrlarga qulqoq tuting-a:

*Oylar cho ‘kar falakdan jimir jimir jimirlab
Tog ‘lar cho ‘kar falakka jimir jimir jimirlab
Toshlar qilar kalaka qiqir qiqir qiqirlab
mening esa bo ‘g ‘zimda
uluv bordir bir ulim
Hey tulugim hey tulum
Hey tulugim hey tulum*

Keyingi satrlarda xalqona taronalar ruhi sho‘x, o‘ynoqi, ayni paytda, o‘kinch-
armonlarga to‘la siniq, ajib bir ma’yus tuyg‘ular sadosi yanada yorqinroq
yangraydi:

*ko ‘ktangrining bog ‘ida gullar unar nopormon
endi men bu gullarni izlab qaydan toparman
singan umidlarimning darvozasin yoparman
gulni izlab boradir
uluvlarim ul ulum
Hey tulugim hey tulum
Hey tulugim hey tulum*

Biroq o‘sha an’anaviy, xalqona ruh – ohang bilan yo‘g‘rilgan satrlar bag‘rida
qad rostlab turgan lirik qahramon shoirning nigohi, tabiat manzaralarini ko‘rish,
kuzatish, idrok etish tarzi tamomila yangicha, o‘ziga xos. Manzaralar harakati,
aniqrog‘i, sassiz harakatlar shoir ko‘nglida g‘aroyib aks sadolar beradi, ulum
uluvga aylanadi, bu g‘aroyib uluv sadosi qulog‘ingiz ostida eshitilib turgandek
bo‘ladi: bir qarasangiz, aniq-tiniq, bir qarasangiz, mavhum, sir-sehrlarga,
qandaydir imo-ishoralarga to‘la asov ruhiy kechinmalar bizni muvozanatdan

chiqarib, g‘alati holatga soladi. She’riy satrlardagi asov ruh hech qanaqa qoliplarga sig‘maydi, an’anaviy she’riy tizim talablarini, yozuv-imlo qoidalarini tan olmaydi, tinish belgilariga hojat qolmaydi. Mabodo satrlar mavjud qolip-aqidalarga solingudek bo‘lsa, aminmanki, ruhiy-hissiy tarovatini yo‘qotadi. Bu modern she’riyatning muhim belgilaridir.

Ulug‘bek HAMDAM: Mening nazarimda, yangi, modern she’r, avvalo, badiiy tafakkurdagi yangilanishdir. Aslo qofiyadan, ritmdan ongli ravishda voz kechish emas. Albatta, ana o‘sha yangilangan badiiy tafakkur mahsuliga yangi libos – yangi shakl kiydirish agar shoirga muyassar bo‘lsa, nur ustiga nur. Bo‘lmasa, bu shoirning aybi yo kamchiligi hisoblanmasligi lozim. Yangi shakl, ifoda zo‘r berish bilan emas, balki dunyoqarashdagi, olamni idrok etishdagi yangorish bilan, badiiy tafakkur tarzimizdagi, didimizdagi yangilanish bilan, demakki, ijtimoiy-tarixiy, ma’naviy-psixologik zamindagi ulkan siljishlar bilan dunyo yuzini ko‘radi.

Shavkat Rahmon she’riyatini olaylik. U an’ana zaminida yaratilgan yangi, original she’riyatdir. Bu sheriyatning an’anaga yaqinlik darajasi ancha yuksak bo‘lganidan bir qarashda ko‘p ham original she’riyat bo‘lib tuyulmaydi. Biroq adabiyot ilmi, badiiyat qonuniyatları nuqtayi nazaridan hijjalab o‘rganilganda Shavkat Rahmon she’riyatining o‘ziga xosligi ochila boradi va u, masalan, salaflar she’riyatidan qaysi bir jihatlariga ko‘ra ajralib turishining guvohi bo‘lamiz. Yoxud modernistik she’riyatimizning yirik vakillaridan biri Bahrom Ro‘zimuhammad, hatto Faxriyor she’riyati biz ko‘nikkan an’anaviy lirkamizga nisbatan g‘oyat original ko‘rinmasin, ular ham o‘z an’anasiga ega. Boshqacha aytsak, bugun tobora kengroq yoyilayotgan modernistik she’riyatning dunyo adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni bor, u «havodan oziqlanayotgan gul» emas. Turkiy xalqlarimiz adabiyotini, qo‘lyozmalarni varaqlab ko‘rganimizda ham shu holga duch kelamiz: ajdodlarimiz aruzdan avval, hatto barmoqdan ham avval sochmalar shaklidagi erkin vaznlardan foydalanishgan ekan. Bunga birgina misol – Turkiyada chop etilgan «Chingizzxonning maxfiy tarixi» nomli tarixiy asarga kiritilgan turkularni olib ko‘ring... Qolaversa, vaqt aylanishi bilan she’rning yangilanishi

ham qonuniyat. Yangi davr, yangi nasl kayfiyati... degandek. Tushunchalar, qadriyatlarning turlanishi bor... Shu ma'noda she'riyatda yangilik yaratgan shoir o'z davrining jon tomiriga qalb qulog'ini tutib turgan va unga to'g'ri tashxis qo'ya bilgan ijodkordir, bor-yo'g'i shu. Hodisani shishirib, unga ilohiy liboslar kiydirishga, shoirni salkam payg'ambar atashga hojat yo'q. Shu bilan birga, uni kamsitishlik, «ha, endi bir shoir-da...» deya ijodkorga mensimay munosabatda bo'lishlik ham kam deganda madaniyatsizlikdir. Birgina fakt – haqiqiy shoirlik ko'pchilik dardiga malham qo'yishga urinish ekanligining o'ziyoq ijodkorlikning qanday sharafli qismatligidan shohidlik beradi.

Umarali NORMATOV: Siz juda muhim bir masalani o'rtaga qo'yayotirsiz: haqiqatan ham «she'riyatda yangilik yaratgan shoir o'z davrining jon tomiriga qalb qulog'ini tutib turgan va unga to'g'ri tashxis qo'ya bilgan ijodkordir». Bizda modern she'riyatni mavhum, zamondan, zamona muammolaridan ajralib qolgan, shunchaki asov kayfiyat, tuyg'ularning asov ifodasi, anchayin bir eksperiment, so'z o'yinlari, shaklbozlik deb qarash udumga aylangan. Sirtdan qaraganda shunday. Shunday deyishga asos beradigan modern she'rlar ham yo'q emas. Ammo chin modern iste'dod egalari bisotida noyob qobiliyat mahsuli bo'lgan modern asarlar mohiyati, ruhiga teranroq kirib borganingiz sari o'zgacha holni ko'rasiz: ulardagi zamon ruhi, dardi ba'zi oshkora, sof ijtimoiy yo'nalishdagi she'rlardan ko'ra kuchliroq va teranroqdir. «Izohsiz lug'at» yoki Faxriyor dostonlarini bir eslab ko'ring-a... Ular yaxlit holda XX asr odamining, aniqrog'i, asr oxiriga kelib o'zligini anglay boshlagan ma'nisiz o'tgan hayot yo'lini shafqatsizlarcha tanqid elagidan o'tkazayotgan adashgan avlodning arzi holi, afsus-nadomatlaridir. U faqat kechagi kuniga emas, hozirgi holatiga ham mardona tanqidiy nazar tashlay oladi:

Aro yo 'l.

Vaqti

*o'tmayotgan odam iztiroblarin,
ikkilanishlarin suvga tashlaydi
tush kabi...*

*Yo'l bilmagan odam,
adashgan odam
erkin bo'lolmas
kishanlardan xalos bo'lib ham...*

Endi mana bu hayqiriq-alamli, dilo'rtar nidolarga qulqoq tuting-a:

*Mohiyatni yemirib borar
so 'zlarning bu qadar beqadrligi.
Kecha dunyolarni yaratgan so 'z
bugun bozorlarda o'tmaydi.
Kecha solih amallarga boshlagan kalom
bugun adashtirar fikrsizlik o'rmonlarida.
Kecha suydirgan so 'z
bugun kuydirar.
Kecha mag'zi butun bo'lgan aqida
bugun o'lib ketgan toshbaqanining
kosasiday bo'm-bo'sh yotibdi.
Kechagi alqashlar
bugungi qarg'ish.
Kechagi umidlar –
bugungi armon,
armon – qadrsizlangan umid.*

Nihoyat, shoirning falsafiy umumlashmalari ham mardona, o'ta shafqatsiz:

*Aslida, hidoyat –
nabiylarning adashishlari.
Sening adashishing nimadir
valilarning adashishlari oldida?
Sen qayon borursan muridi bo'lib*

*o ‘zi yo ‘lni topolmay,
dunyoning bor gunohlarini
bo ‘yniga olgan
piri murshidlarning ortidan?
Qaysi yo ‘lga kirsang xatodir,
Kirmaslik – kufr.
Tarix xatolarning,
gunohlarning
solnomasidir.*

Shoir xato va adashishlarga to‘la bu murakkab ko‘hna dunyo nag‘malarini kuzatar, ular haqida alamli o‘y-mushohadalarga to‘lar ekan, nihoyat, bir she’rida shunday zalvorli, rumiyona savolni o‘rtaga tashlaydi:

*Kimni olib ketdi bu fano,
Senimi, sendagi meni yo?
Menmi, senmi, ayt-chi, kim qani,
Qaysimizda adashdi dunyo?*

Bu zalvorli savolning javobi ham jumboqlar bilan limmo-lim:

*Topmoq uchun izlamasliging,
Izlash uchun topmog ‘ing darkor.
Bu tuyg ‘ular naqadar chigal,
har chigali bir sirtmoq arqon.*

*Men o ‘zimni senda suyarman,
Goho topib, goho topmayman.
Seni topganidan kuyarman,
Kuyadirman topmagan sayin.*

Qiziq hol, «Ayolg‘u» kitobini sinchiklab varaqlasangiz, «sof modern» bitiklardan sekin-asta, bosqichma-bosqich an’anaviylik tomon og‘ishni kuzatasiz. «Izlam» sarlavhali «Rumiyona» deya izohlangan she’rda bu jarayon go‘yo o‘z intihosiga yetgandek tuyuladi... Asov tuyg‘ular endi tartibga – muayyan tizimga tusha boshlaydi, tinish belgilari o‘z joyini topadi. Biroq ruh – ichki mohiyat, dunyoni yangicha ko‘rish, butun murakkabligi, chigalliklari bilan idrok etishga bo‘lgan mayl-ishtivoq o‘zgarishsiz qolaveradi. Muhimi shu!

Ulug‘bek HAMDAM: Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug‘at» deb nomlangan dostoni ham xuddi shunday, dunyoni boshqacha, o‘ziga xos tarzda badiiy idrok etish mevasidir. Dunyoda azal-azaldan ikki buyuk Kuch bor, dunyo azal-azaldan shu Kuchlarning orasida taqsimlab olingan. Birining ismi – Oq, ikkinchisiniki – Qora. Ismlarning boshqacha talaffuzi ham mavjud: Ezgulik va Yovuzlik, Ma’rifat va Johillik, Malaklik va Shaytonlik, Ozodlik va Tutqunlik, Ruh va Jism (Nafs)... Shoiring pirovard maqsadi go‘zallik yaratish bo‘lsa-da, o‘rni kelganda, baribir, Ezgulik va Ma’rifat, Halollik va Shafqatlilik... yonida ular bilan bir safda turib kurashadi. Chunki uning yaratilishi shunday. Shoир – dunyoda oq rangning ko‘p bo‘lishi tarafdori. Agar qora rangning hissasi ko‘payib, atrofini Yovuzlik, Jaholat, Tutqunlik... kabi balolar qoplay borsa, shoiring bag‘ri ulkan jang maydoniga aylanadi. Shaxsan uning «mushugini birov «pisht» demasa-da», hassos qalbi dunyo muvozanatiga putur yetganidan nihoyasiz iztiroblarga tushadi... Nazarimda, doston ayni shu zaminda dunyoga kelgan. Asar boshdan oyoq o‘sha ikki azim Kuchning ziddiyatidan bahs qilsa-da, konkret davrning konkret, real voqeа-hodisalari izlarini aniq-ravshan ko‘rib turasiz:

O, Darig‘!

Qo‘qonda tasirlar xiyonat miltig‘i,

Tiflisda zirh, kaltak, belkurak

Insondon o‘zini qo‘yadi ustun.

Sariq ofat kelar yoprilib,

Egatlar qappayar tirik vahmday,

Etagiga solar bolalarni

Oxirsiz mung,

Oxirsiz mung.

Biroq bularning barchasi zamirida o’sha ikki azim Kuchning mangu ziddiyati va buning oqibatida hassos qalbga tushgan taskinsiz iztiroblar yotadi. A. Qutbiddinning tasavvufga «yaqinligi», ya’ni uning ota-bobolaridan o’tib kelayotgan, qarindosh-urug‘ muhitidagi tasavvufiy iqlim ham dostonda sezilib turadi. Bu ta’sir lirik qahramonning nafaqat 13-bobdagi Bahovaddin Balogardonga yordam ilinjida qilgan murojaatida, balki, umuman, asarning bor bo‘y-bastiga singdirilgan dunyoqarash va kayfiyat mazmunida yashirin.

Dostonning «Izohsiz lug‘at» deb nomlanishining siri ham ehtimol, yuqorida aytganimiz – dunyoning azaliy holi – Oq va Qora kuchlarning mangu ziddiyati va bu kurashda odamzodning Oq rang tomonida turishi, tura olishi zarurligi, shartligiga ishora borligida deb o‘ylayman. Ma’lumki, lug‘at – kishilik turmushida nimaning (so‘zning, atamaning) nima (ma’no bildirishini) ekanligini ajratib berishga yordam beruvchi bir ko‘rsatma kitob. Izohli lug‘at masalaga yanada oydinlik kiritadi, so‘z ma’nisini «chaynab og‘zimizga solib qo‘yadi». Endi «Izohsiz lug‘at» degani nimasi? Bu bor-yo‘g‘i so‘z o‘yini yo oliftagarchilik emasmi deganga o‘xhash fikr ham keladi kallaga. Biroq dostonning asosida turgan o’sha ikki azim Kuchlar qismatini eslasak, nomlanish mantiq va mazmun kasb eta boshlaydi: izohsiz lug‘at, ya’ni izohga hojat yo‘q! Dunyo dunyo bo‘libdiki, dostonda tilga olingan Kuchlar va ularning omonsiz jangi bor. Dunyo deb atalgan kitob shu ikki so‘zdan iborat: Oq va Qora! Biroq ularga izoh berilmagan, izohni har bir kishining o‘zi yozadi, kimlarning qismatiga oqni ta’riflash, kimnikiga qoraning sharhini bitish tushadi. Shunga qaramay, shoir baribir o‘z tanlovini izhor qilib ketmoqda:

Barmog ‘im qaboqqa qo ‘ydim, o ‘rtandi,

Emrandim, nigohim tindi, aylandi.

Bildim, a'zoyi badanim hayot shirasidan.

Hamishram – turna,

Qondoshim – jayron,

Jigarim – arg 'uvon.

Xok-u turobdanman, inim – qumursqa, og 'am – ot,

Bildim – odamiyzodman,

Odamiyzod...

So‘nggi «Bildim – odamiyzodman, Odamiyzod» degan misra shoirning o‘sha mangu kurashda qaysi tomonda ekanini bildiradi... Chunki odamiyzod bo‘lish oson emas, buning uchun kishi «Qora»ning lazzat-farog‘atidan voz kechib, «Oq»ning zahmatlariga bardosh berishi shart!

Umarali NORMATOV: Abduvalining bu asarini, nazarimda, 90-yillarda yaratilgan ko‘plab yaxshi-yaxshi modernistik ruhdagi dostonlarning o‘ziga xos debochasi deyish mumkin.

Ulug‘bek HAMDAM: Umarali aka, umuman, o‘zbek she’riyatidagi tub modern burilishlar qayerdan va qanday boshlandi degan savol meni o‘ylatadi. Albatta, o‘zbek she’riyatida yuz bergan chin ma’nodagi yangilanishni ancha ilgaridan, XX asr tongotaridan, xususan, Cho‘lpon (Fitrat, Avloniy, Hamza...)dan deya olmoqlik ham haqiqatga zid emas. Hatto XIX asr ikkinchi yarmi, ayniqsa, kunbotarida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar natijasida shaklan an’naviy, ya’ni aruziy, mazmunan esa noan’naviy ijtimoiy lirikaning paydo bo‘lganligi ham fakt, bor narsa.

O‘sha Muqimiy-u Furqat, Ibrat-u Ajziy, Avaz O‘tar-u Maxmur, Turdi va boshqa o‘nlab shoirlarimiz ilk bor g‘azalda ijtimoiy mavzularni kuylamadimi? Va bu shoirning badiiy tafakkur tarzida tubdan o‘zgarish kechayotganidan dalolat emasmidi? Biroq, baribir, butun intilishlarning natijasi, hosilasi Cho‘lpon bo‘ldi. (Rus she’riyatida Pushkin shunday «hosila»dir. Jukovskiy va Derjavin, Delvig va Baratinskiy, Yazikov kabi o‘nlab o‘z davrning ko‘zga ko‘ringan shoirlari intilgan

cho‘qqi Pushkin tomonidan zabit etilgandi.) Albatta, Fitrat bor edi, Hamza va Elbek bor edi, biroq XX asrning tom ma’nodagi yangi she’riyatining o‘ta muvaffaqiyatli ibtidosi, baribir, Cho‘lpon nomi bilan bog‘liq ekanini tan olishdan o‘zga chora yo‘q. Chamasi, o‘n yillar burun bir suhbatda taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov Cho‘lponning yangi o‘zbek she’riyatida tutgan o‘rni to‘g‘risida gapira turib, agar XX asr o‘zbek poeziyasini bir azim daraxtga mengzasak, Cho‘lpon, shubhasiz, uning o‘zagidir degan fikrni bildirgan edi. Chunki XX asr o‘zbek she’riyatiga neki xususiyat aloqador ekan, deyarli barchasini Cho‘lpondan topish mumkin. Hatto bugun qaysidir ma’noda rusm bo‘layotgan modernistik ohanglar – dunyoni boshqacha, butunlay kutilmagan tomonidan idrok etish ham bor unda. Oybekday dilbar shoir «ko‘ngil lirika»sini, Hamid Olimjondek xalqona ohang ustasi she’rlarini, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabi hassos shoirlarimizga xos tuyg‘u nozikligini, 70-yillar avlodi she’riyatidagi novatorlikni, hatto Abduvali Qutbiddindek o‘zbek she’riyatidagi o‘ziga xos ovoz sohibi poeziyasini yodga tushiradigan she’rlarni Cho‘lpon she’riyatidan o‘qish mumkin. Cho‘lponning «Lekin shu'lalar Singib boralar, Oqshom to'r solar» («Ko‘klam yomg‘iri»), «Na uchun yaproq Choyshab yoymaydir?» («Ko‘klamdan xabar»), «Qor parchalari To‘kilgan sadaf, Yonar yiltillab Oy kechalari» («Bu yerning qishi») kabi serramz oltin misralari Oybekning «Kunduz», «Tong», «Dengizda oqshom», «Qishki oqshom», «Ertabahor» kabi o‘nlab simvolizmning go‘zal namunalari hisoblanmish she’rlariga o‘ziga xos poydevor bo‘lgan bo‘lsa ne ajab! Zero, Oybek Cho‘lponni o‘ziga ustoz sanagan.

Cho‘lponning 20-yillarda yozilgan «Sochilgan sochingdek sochilsa siring» deya «s» tovushiga urg‘u berib (alliteratsiya) va bu urg‘u orqali ham ma’noni kuchaytirishga, ham she’r maydoni ichra tovush o‘yini yasashga erishgan misrasi keyinroq, 1957-yilda Erkin Vohidov tomonidan yaratilgan «Qaro qoshing, qalam qoshing» deb boshlanuvchi ajoyib she’rning XX asr o‘zbek poeziyasidagi dastlabki muvaffaqiyatli namunasidek tuyuladi.

*Bulutlar turgan joylarida qotib qoladirlar,
Gulduraklar dam chiqarmasdan nafas oladirlar.*

Chaqmoq toshini bag‘riga berkitadir,

Nay kamalak o‘qlarini ataylab chikkitadir...

Yoki

Bulut – kampir elagini ko‘tarib

Suprasini yoymoq uchun boradi, –

kabi misralari Abduvali Qudbiddin tashbehlarni, umuman, bu shoirlarning dunyoni badiiy idrok etishidagi ayrim xususiyatlarini (chunonchi, olamni kutilmagan, noan'anaviy tashbehlar orqali idrok qilishini) yodga tushiradi. Qolaversa, Cho‘lpon she’riyatida yana shunday ohanglar borki, ular keyingi avlod shoirlari tomonidan haligacha maromiga yetkazib kuylanmagan desak mubolag‘a bo‘lmas. Nazarimda, shunday ohanglarning yuksak maromdag'i kuychisi uchun ham o‘zbek she’riyati «kahkashoni»dan munosib o‘rin bor.

Yiroqlashdim, uzoqlashdim bir necha kun sendan,

hol so‘rab ko‘r mendan:

Nega muncha og‘ir keldi bu yiroqlik menga –

anglatayin senga...

Ushbu she’rning «boshqachaligi» uning o‘ziga xos ohangida mujassam. She’rning mazmuni yordan bir muddat yiroq tushgan oshiqning iztiroblaridan iborat. Bor-yo‘g‘i shu. Biroq iztirob kutilmagan, avvalgilarga o‘xshamagan nola bilan ifoda qilinganidan beixtiyor yodimizda qoladi. Ha, she’riyatning qudrati aynan shu yerda – kutilmaganlikda, ohori to‘kilmagan, tesha tegmagan usullarda, hali hech kim yig‘lab ko‘rmagan nolalarda, hali hech kim sevinib ko‘rmagan sevinchlarda, hali yashalmagan tuyg‘ular titrog‘ida... Yuqoridagi bandda qofiya, ichki qofiya har qancha siyqalangan (sendan-mendan, menga-senga) bo‘lsa-da, u kechinma tabiiyligi zamirida pardozlanib ketadi, natijada shoir-u o‘quvchi o‘rtasida samimiyy munosabat quriladi. She’r bitta she’r, biroq u ikkita alohida-alohida ohang bilan jaranglamoqda. Ya’ni bir she’rning ichida ikki xil musiqa, ikki xil yondashuv – ikkita ovoz yashiringandek: «Yiroqlashdim, uzoqlashdim, bir necha kun sendan» – bu birinchi ovoz. «Hol so‘rab ko‘r mendan» – ikkinchi ovoz. Har bir ovoz o‘z ohangiga ega. Birinchi ovoz nima voqeal yuz bergenini hikoya

qilib bermoqda, misraning ko‘p bo‘g‘inlardan (14 ta) iborat ekanligi ham hikoyaboblik uchun atay tanlangan. Ikkinchи ovoz – yorga bevosita murojaat. Biroq har ikki ovoz ham oshiqniki. Faqat dard – hijron azobi zo‘r kelganda yurakdan otilib chiqayotgan oh-nola bo‘laklarga bo‘linib ketmoqda. Yoki «Tabiatga» deb nomlangan she’rdan o‘qib ko‘ring:

Kel, malak, kel, kel, pari, kel, kel, o ‘pay bir erkalab,

Kel, quyosh chiqquncha o ‘ptir... kel, o ‘pay bir ertalab.

Bu she’rning ham yo‘q deganda yarim kuchi, yarim harorati uning ohangida, ohangining o‘ziga xos o‘ynoqiligidagi. Shu ma’noda aytish kerakki, she’riyatimizdagи bugungi modernistik intilishlarda ko‘pincha ohang mensilmayotganining guvohi bo‘lmayapmizmi? Bu o‘rinda ohangni faqat bir xil miqdordagi ritmlar yig‘indisi yo qofiyadan iborat deb tushunmasligimiz lozim. Men tuyg‘u ohangini nazarda tutyapman. Har qanday yaxshi she’r ana shu ohangdan istisno emas. Ayniqsa, noan’anaviy, bugun biz modern deya e’tiborga havola etayotganimiz she’rda ichki, tuyg‘u ohangi bo‘lmas ekan, u bo‘laklanib ketadi.

Oybekning 20-yillar oxiri va 30-yillar avvalida yozgan simvolistik she’rlarini alohida urg‘ulab o‘tishni istar edim. Shoir «Ko‘ngil she’rlari»ning aksari juda jozib tuyg‘u asosiga qurilganki, ularni ko‘nikilgan usullarda birdaniga va birvarakayiga tahlil qilib tushunish, tushuntirish birmuncha mushkul. Bunday she’rlar ramzlarga qorishgan, ramzlarga aylangan tuyg‘u tilini nozik tushunishni taqozo etadi. Hatto bu ham kamlik qiladigandek, o‘quvchi o‘z muhitidan qabul qilib olgan va badiiy tafakkurida me’yorlashgan, qat’iylashgan ayrim dogma nuqtayi nazarlar qafasini parchalab tashlab she’rni o‘qishga tutinmog‘i lozim. Shundagina omad kulib boqib, san’at asari o‘quvchiga o‘z bag‘rini ochishi mumkin. Ehtimol, shundagina san’at asarini, Aristotel aytganidek, tabiatga taqlid va undan olingan nusxagini deb emas, balki tabiatga, voqelikka muqobil, u bilan baravar bellasha oladigan o‘zga bir muvoziy (parellel) voqelik deyishi ma’nisini ko‘proq tushunib yetarmiz...

Umarali NORMATOV: Darhaqiqat, modernistik yo‘l biz o‘ylaganchalik, tasavvur qilganchalik oson yo‘l emas. U – juda azim evrilishlar hosilasi. Bu yo‘lning yo‘lchisi – shoir ham, uning qismati ham o‘ziga xos sir-sinoatlarga boy.

Ulug‘bek HAMDAM: Har lahzada yaltiroq shahardan voz kechib, dala-tuz bag‘riga qaytish kayfiyatida yashamagan kishi she‘r yozish qasdida qo‘liga qalam olmasin. Xuddi shunday, yuragiga Majnunni qamab qo‘ymagan erkak shoir, qalbining to‘rida Laylini asrab yurmagan ayol shoira ham she‘r yozmasa deging keladi. Zero, yuragida siri bo‘lmagan ijodkor qalamidan chiqqan «yozuvlar»ning sehriga shubha qilasan kishi. «Xalqqa ash’or kerak sirli va ezgu» (Mirpo‘lat Mirzo tarjimasi), deb yozadi Osip Mandelshtam. Shoirlik takror va takror ana o‘sha sirga, ana o‘sha sehrga qaytish demakdir. Tabiatga qaytish, tabiat mavzulariga murojaat ham shunday, aslida. Odatda, ijtimoiyot shoir zimmasiga ham talay muammolarni, turli qonun-qoidalar zahmati-yu odob-axloq tashvishlarini yuklaydi. Biroq u jazavaga tusharkan (she‘r yozarkan), ilk bor egar urilgan asov ot singari ko‘kka sapchiydi, gardanida g‘ashiga tegayotgan nimadandir qutulmoqchi bo‘ladi. Shoir aynan shu lahzalardagina shoirdir. Uning asl hayoti ham, foniyligi olamdagidagi quvonchi ham shu paytda kechadi... Ilhom onlarida shoir jismi va u bilan bog‘liq olamni unutadi, yodida qolgan borlig‘i esa ajib bir tuyg‘uga – musiqaga aylanadi. She‘r mazkur ohangning, ya’ni siyratning nuqsonli surati, xolos. Uni o‘qish emas, go‘zal bir musiqa yanlig‘ eshitish, his qilish lozim va ushbu his orqali botinda qolib ketgan siyratga tushib bormoq mumkin bo‘ladi. Ha, shoir mana shu tarzda sirlar dunyosi sari intilib yashaydi, bu mashaqqatli yo‘lda goho omad unga kulib boqadi: u parvoz qiladi. Ehtimol, u uzoq ucholmas, qanotlari qayrilib sinar, ojizligini anglar, jismi botib turgan dag‘al voqelik botqog‘idan butunlay xalos bo‘lish vujud halokatisiz mumkin emasligini tushunar... Biroq she‘riyat uchun muhimi bu emas, muhimi qafasni yorib chiqqan qush (ruh) parvozining ilk shiddati, shu shiddatning hayotsevarligidir!

Qiziq, men she‘rning botiniy ohangi – tuyg‘u mazmuni haqida gap boshlasam, hamisha mana shunaqa – boshi va oxiri yo‘q olamga kirib qolaman. Shunda men o‘zimni fikrni istagan joyda to‘xtatsam ham, istagancha davom

ettirsam ham bo‘laveradigandek sezaman va o‘ylab qolaman: haqiqatan ham, qaydadir bir ulkan olam mavjud va u tiriklikka oid neki bor, hammasini o‘zida mujassam etadi, chunki u hammasining asosidir. Ehtimol, chin dunyo deganlari o‘sha bo‘lar, bilmadim... Lekin aynan shu olam kishini ezgulikka va go‘zallikka chorlaydi, iymon haqida, e’tiqod to‘g‘risida o‘ylashga, ularsiz tiriklik yo‘q ekaniga ishontirishga undaydi. Go‘yo bu olamda inson hayotining mazmuni, o‘lmak hikmati yashirindek. Biroq unga olib boradigan yo‘llar juda chalkash, juda murakkab... Haqiqiy san’at asari, chinakam badiiyat – mana o‘sha sanoqli mahol yo‘llardan biri. Ushbu olamga boshlovchi va unga eltuvchi, undan xabar beruvchi san’at qanchalar go‘zal, san’atkor qanchalar hassosdir! San’atning ilohiyligi haqidagi mulohazalar ehtimol shu yerda o‘rinlidir, bilmadim...

Yosino tog‘larida

Olcha gullari bilan

Uchayotir oq bo‘ron

Cho ‘qqilarning ustida...

Ajratib ham bo‘lmaydi.

(Xurshid Davron tarjimasi)

Saygyo qalamiga mansub ushbu she’rda cho‘qqilarning ustida olcha gullari bilan qo‘shilishib uchayotgan oq bo‘ron – birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydigan, go‘zallikka og‘iz solgan omuxtalikdan so‘z ochiladi. Bunda shoir o‘z munosabatini – qayg‘u yo shodligini yashirgan. Rassom kabi ish tutib, hayotning mangu harakati natijasida tabiatning muayyan kesishiklarida dunyoga kelguvchi oliy va ko‘pincha oniy nuqtalari – go‘zallidan birini she’r deb atalmish shakl yordamida xotiraga mixlamoqchi bo‘lgan.

Oybekning she’rlari ham shunday tansiq tuyg‘ularni qo‘zg‘aydi... Kishi o‘zining asl qiyofasi bilan yuzma-yuz kelganda hamisha hayajonga tushadi, titraydi. San’atkorning eng go‘zal asarlari ham ana shu titroqning anchagina ko‘rimsiz shakli – suvda suzib yurgan to‘lin oy singari akslardir, topilganning

yo‘qolib ketishi to‘g‘risidagi qo‘rquvdan tug‘ilgan qaytariqlardir, asl suvratdan ko‘chirilgan nusxalardir... Oqshomda dengizga, unga oltin sochlarini tashlab qo‘ygan quyoshga tikilib o‘tirarkan, shoir qo‘qqisdan o‘z botinida yashirinib yotgan zotning nigohlariga duch keladi va titraydi. Uchrashuv uni shunday jazavaga soladiki, oqibatda shoir bundan xotira qoldirmoq istaydi va qo‘liga qalam oladi:

Suvlarda sekin o‘ynar

Oltin qayiqchalardek

Quyosh alangalari.

Suv betiga urilib to‘lqin harakati yordamida tovlanayotgan quyosh alangalarini aynan oltin qayiqchalardek qabul qilgan shoir shu lahzalarda bolaga aylanadi. Axir, faqat bolagina suvga qog‘ozdan yasalgan qayiqchalarni shirin umid-la qo‘yib yuborarkan, ularga oltindan yasalgandek alohida, sir aralashgan mehr bilan, sodda samimiyat bilan yondashadi. Bunday tuyg‘u bizning aksariyatimizda bor, barhayot. Shunga ko‘ra, biz ham hech ikkilanmasdan, shubhalanmasdan suvlarda o‘ynayotgan quyosh alangalarini shoir bilan baravar oltin qayiqchalardek qabul qilamiz. Chunki oltin qayiqchalar haqidagi ertak bizning botnimizda hamisha nimaningdir, qandaydir muqaddas va ulug‘ nimaningdir ilinjida umr kechiradi...

Shuningdek, Bahrom Ro‘zimuhammad, Abduvali Qutbiddin singari zamонави shoirlarimiz ijodida ham ana shu teranlikda tug‘ilgan she’rlarga duch kelganingda beixtiyor sevinib ketasan kishi.

nafas sovqotadi

derazadan mo‘ralar gullar

junjikadi qushchalar

toyib yiqiladi xayolim

shirin tush kabi gir atrof

derazadan qaragan kabi

*xayol oynasidan qarayman
tikilaman issiq oynadan
puflab tashlaydirman nafasni
g‘ijimlanib qolar kechagi tushim
sababsiz xursandchilik ruhimda jim
odimlagim kelmoqda juda
bir o‘zim yashagim keladi qishda
mittigina qor yog‘sa menga atalgan
sovqotadi nafas qushchaga o‘xshab
mamnuniyat ila termular bir gul
atrof sokinligi
sokinligimdan yuz bora ulkan
qanday sig‘di ekan bu faslga u.*

(B. Ro‘zimuhammad)

Bunday she’rlar shoirning ruhiyat bilan bir umrlik muloqotidan, ilohiy borliqda bir umrlik talpinishidan so‘ng o‘simlik yanglig‘ o‘z-o‘zidan o‘sib chiqadigan ma’rifat mevasidir. Ha, u biz ko‘nikkan, o‘qib-o‘rganish, ta’lim olish natijasida erishiladigan mahsul bo‘lmay, dunyoni badiiy-estetik idrok etish bilan bog‘liq GO‘ZALLIK MA’RIFATI ne’matidir... Qolaversa, umuman, modernistik san’atni tushunish assotsiatsiya tilini tushunish bilan ancha mukammalashadi. Chunki bu san’at an’anaviy badiiy tafakkur mahsulidan farq qilib, izchil mantiqiylikka, uzluksiz tasavvurga asoslanmaydi. Modernizm real voqelikning ijodkor nuqtayi nazaridagi in’ikosinigina, demak, voqelikning «ajratib-tanlab olingan» ma’lum bo‘laklarinigina badiiy asarda aks ettiradi. (Uning aytmoqchi bo‘lgani ana shu bo‘laklarning birgalikdagi hamkorligi zamirida yashiringan.) Bu bo‘laklar o‘rtasidagi sabab-oqibat, mantiq-mazmun bog‘lanishlarini go‘yo «unutadi». Modernistik san’at o‘quvchisi esa ana shu «unutilgan»ni «eslab olish, eslay olishi» shart. Yo‘qsa, «yopiq qozon yopiqligicha» qolaveradi...

Umarali NORMATOV: An'anaviy aruz, barmoqdagi she'riyatdan farqli o'laroq, modern she'rda uch unsur – original poetik fikr, tuyg'u, manzara ohangi, ya'ni o'sha uch unsurdan tug'ilgan ohang hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aruz va barmoqdagi she'riy ritmika – ohangni belgilaydigan hijo, turoq, bahr, qofiya kabi qat'iy talablar bu yerda o'z ahamiyatini deyarli yo'qotadi. Biroq haqiqiy modern she'r ohangdorlik bobida an'anaviy aruz yoki barmoqdan aslo qolishmaydi. Qaltis va qiyin joyi shundaki, bu yerda aruz yoki barmoqdagi kabi ohangni vujudga keltiradigan tayyor andoza – me'yorlar yo'q hisob, bor bo'lsa ham, ilmiy kashf etilmagan. Bu ohangni faqat qalb ko'zi orqali tuyish, his etish, undan zavqlanish mumkin, xolos. Modern she'r hatto an'anaviy shaklda yozilganda ham hijo, turoq, qofiyadan hosil bo'ladigan ohang emas, ayni o'sha original poetik fikr, tuyg'u, manzara, ular harakatidan vujudga keladigan ohang o'quvchi qalbida aks-sado beradi.

Faxriyorning «Kuz yomg'iri» turkumidagi mana bu manzara ohangiga e'tibor bering:

*Xazonlar ergashdi armon xayliga,
Kuz vido istadi ko 'ngil mayliga,
Yomg'irlar yog 'adi hijron saylida,
Kuz yomg'iri,
Hijron yomg'iri.*

Kuz, xazon fasli bilan bog'liq mungli-hazin kayfiyat, betinim yog'ayotgan hijron yomg'iri, uning dardli sadosi bilan qo'shilgan g'aroyib, o'ta ma'yus, munis bir musiqiy ohangni vujudga keltiradi; kuzning ko'ngil mayliga vido istashi, buning ustiga, «hijron saylida» yomg'irning savalashi she'rdagi ma'yus tuyg'u musiqasini avj pardalarga ko'taradi. She'rning keyingi bandidagi bir qarashda xalqona, sho'x, quvnoq tuyulgan misralar hissiy ohangi jihatidan butunlay o'zgacha – yangicha:

*Na ko ‘z – tikarga, na umid – bog ‘larga,
Na so ‘z – aytarga, na dimog ‘ – chog ‘larga,
Na gul – sevarga, na ko ‘ngil – dog ‘larga,
Kuz yomg ‘iri,
Hijron yomg ‘iri.*

Quvnoq satrlar bag‘ridan sizib chiqayotgan mungni sezib-tuyib turgan bo‘lishingiz kerak...

Shoirning qator she’rlarida keraksiz, ortiqcha, o‘rinsiz tuyulgan tinish belgilari, ayniqsa, tire, vergul bu yerda fikr, tuyg‘u izhori-ifodasi uchun zaruriy element, poetik vositaga aylanadi. Ehtimol, misralardagi gap tuzilishi qoidaga unchalik mos emasdir, biroq «qoidaga uncha mos bo‘lmagan» ana shu misralar lirik qahramon ko‘nglidagi asov tuyg‘ular, kechinmalar ifodasiga nihoyatda mos. Buni chinakam poetik ixtiro deyish mumkin. Shu kabi eng yaxshi asarlar bugungi modern she’riyatida poetik ohang masalasini tadqiq etish uchun yetarli asos bo‘la oladi deb o‘layman.

Ulug‘bek HAMDAM: Umarali aka, nima deb o‘ylaysiz, she’riyatimizda yuz berayotgan bu o‘zgarishlarning tub sabablarini qayerlardan izlamoq o‘rinli bo‘larkin? Hamma gap aylanib borib inson va davr munosabatiga taqalmasmikan? Axir, odamzod o‘zini o‘tga-cho‘qqa ursa ham, urmasa ham, baribir, o‘zi yashab turgan jamiyat va zamonning bir parchasi ekanligini inkor etolmaydi. Shunday bo‘lgach, davr ta’siridan qochib qayga ham keta olardi? Ketganda nima bo‘lardi? Uni hech kim tushunmay qolmaydimi? Axir bizning ma’naviy holimiz o‘zimiz yashayotgan muhitdan qabul qilib olgan shartli belgilar darajasi bilan o‘lchanmaydimi? Modomiki shunday ekan, biz ana shu belgilarga ko‘ra gapirmog‘imiz shart emasmi? Yo‘qsa, begona yurtga kelib qolib, hech kim tushunmaydigan tilida nimalarnidir anglatishga behuda urinayotgan sho‘rlik sayyoh holiga tushmaymizmi? Belgilarga ko‘ra gapirish degani o‘zing yashayotgan davr tabiatini, tartib-intizomini tan olish deganimi? Uzoqqa

bormaylik-da, 60-yillarda o‘z she’rlari bilan sobiq Ittifoqda keng shuhrat qozongan Y. Yevtushenkodan bir misol olaylik. U yozadi:

Bugungi qahramon –

u o ‘zgardi.

Xuddi asr yanglig ‘ murakkablashdi.

Hozir qahramon – faylasuf va ijodkor,

Aslo qilichbozlardan emas,

balki payg ‘ambarlardan.

O ‘gitlarni anglash davri – bu,

Yuzaki romantikaning kuni esa bitdi.

(U.Hamdam tarjimasi)

Bundan bir necha o‘n yillar burun yozilgan she’rda «yuzaki romantikaning kuni bitganligi-yu o‘gitlarni anglash davri boshlanganidan, kunning qahramoni o‘zgarganidan» bahs qilinmoqda. Endi e’tibor bering, shu she’r mazmunini bugungi kunimizga tatbiq etsa bo‘lmaydimi? (Faqat bugungi qahramonning ismi yana o‘zgargan: u Yevtushenko aytganiday «faylasuf» yo «ijodkor» deb emas, balki «tadbirkor», «tujjor», «bankir» va shu kabi ismlar bilan atalmoqda.) Axir, shoir 30 yil naridan turib kunimizni yozgandek tuyulmayaptimi? Axir, biz emasmi xomxayollar pallasidan yiroq tushib, real hayot sarhadiga qadam qo‘yan va zamonga mos bo‘lishga, o‘zgarishga intilayotgan kishilar? Ko‘rinadiki, har davrning o‘ziga xos kayfiyati bo‘lib, u shu davrda yashayotgan kishilar ongi va qalbiga kirib boradi. Biz shuning ta’sirida yuramiz. Yevtushenko 30 yil oldin qahramonning o‘zgarganidan xabar bermoqda. Bugun u yana o‘zgardi. Demak, 30 yil oldin ro‘y bergen yangilanish o‘zining nihoyasiga yetdi va undan-da yangi boshqa davr boshlandi. Va biz endi yangilangan shu davrga ko‘ra hayotimizni moslashga, u bilan hamqadam yurishga intilamiz. Ushbu harakat esa dunyoni, o‘zimiz tegishli bo‘lgan jamiyatni qayta anglash, idrok qilishimizni taqozo etganida sekin-asta ma’naviy hayotimiz harakatga keladi. Shu vaqtgacha ma’lum

ma'noda turg'unlashib qolgan qadriyatlar ham o'z o'rnidan qo'zg'alib, tuslanishga yuz tutadi. Jamiyatdagi qadriyatlarning o'zgarishi esa inson botinini harakatga keltiradi va qaysidir ma'noda dunyoni qayta baholash jarayoni kechadi. Natijada ilgari bizni quvontirgan, ko'ngil va ongimizga zavq-u shavq olib kirgan narsa va hodisalar endi judayam g'arib ko'rina boshlaydi. Ko'ngil, Cho'lpon aytganidek, yangilik qidirishga tushadi. Chunki zamon bilan hamnafaslikka ehtiyoj sezadi-da. Ha, inson o'zi mansub bo'lgan davr bilan yonma-yon yurmas, zamon nafasini o'z hayotida his qilib yashamas ekan, u o'zini baxtsiz sezaveradi. O'tmishda yaratilgan har qanday buyuk asar o'zining har qancha ulug'ligi va fazilatiga qaramay, baribir, bugungi kunni to'la ma'noda aks ettirolmaydi. U ma'naviy, lekin tarixiy qadriyat sirasiga kiradi. Shunga ko'ra ham zamonning qaynoq nafasi ufurib turgan asarlarga, shu kunning asarlariga har doim alohida talab bo'ladi. Cho'lpon Navoiydek dahoni o'qib ham ko'ngil taskin topmaydi deb yozganini «Navoiydan qoniqmaslik» deb tushunmaslik kerak. Cho'lpon dunyoga va odamzodga tegishli bo'lgan asosiy qirralar Navoiyda go'zal tarzda aytilganini judayam yaxshi biladi. Biroq qidirgani – shu «qirralar»ni o'zi yashab turgan zamon nuqtayi nazaridan turib yangi zamon belgilari vositasida yoritilgan asarlar edi. Ha, u zamon nafasiga ehtiyoj tuygan edi... Va bu ehtiyoj yangilangan badiiy tafakkurdan tug'ilayotgandi. Ehtiyoj mavjud ekan, san'at, adabiyotda ham yangilanish bo'laveradi.

Umarali NORMATOV: O'tgan asr boshlarida milliy adabiyotimizda tub o'zgarish, badiiy islohotlarga ehtiyoj naqadar kuchli bo'lganligi hammaga ayon. Adabiyotimiz baxtiga, mana shu ehtiyojni chuqur his etgan Cho'lpon, Qodiriy singari ulkan iste'dodlar maydonga chiqdi va milliy adabiyot rivojini yangi yo'llarga solib yubordi. Qarangki, XXI asr boshlarida ham bugungi adabiyotimizda tub yangilanishga kuchli bir zarurat borligini ko'rib, sezib turibmiz. Axir, shoir aytmoxchi, charxning avzoyi avvalgilarga o'xshamas: mustaqil mamlakatning ozod odamini, globallashuv, axborot asri kishisini avvalgi adabiy mezonlar asosida yaratilgan asarlar aslo qanoatlantirmasligi kunday ravshan. Aslini olganda, yangilanish, o'zgarish jarayoni allaqachon boshlangan, suhbatimizda keltirilgan she'rlar bu yo'lda muayyan ijobiy tajribalar mavjudligini tasdiqlab turibdi.

Ulug‘bek HAMDAM: Ustoz, sizningcha, o‘zbek she’rshunosligi, adabiy nuqtayi nazari o‘zbek poeziyasidan qaysidir ma’noda orqada qolib ketmayaptimi? Bu hol, ayniqsa, modern she’rni tushunish, uni tahlil-u tadqiq etishda sezilib qolayotganga o‘xshaydi. Umuman, negadir har qanday yangilik Sharqda qiyinchilik bilan ko‘karadigandek. Jumladan, o‘zbek she’riyatida sodir bo‘lgan yangilanishlar ham, masalan, 70-yillarda unchalik xush qabul qilinmagan. Hozir undayin qarshilik va tazyiqlar bo‘lmasa-da, baribir, «modern shoirlar» ko‘p ham suyib o‘qilmaydi. Uzoqqa bormaylik-da, so‘nggi bir necha yil mobaynida nashr etilgan Bahrom Ro‘zimuhammadning «Kunduz sarhadlari» va Faxriyorning «Ayolg‘u» to‘plamlariga bo‘lgan adabiy munosabatni olaylik. Rosti, men shu ikki kitob chuqur tushunilib, ohori to‘kilmagan go‘zal tahlillar asosida yozilgan taqrizlarni, maqolalarni o‘qimadim. Ustoz Ozod Sharafiddinovning «Modernizm jo‘n hodisa emas...» sarlavhali suhbati, professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning bir qancha radiosuhbatlari, munaqqid Ahmad Otaboyevning ahyon-ahyondagi «modernistik chiqishlari», shoir Bahrom Ro‘zimuhammadning «Ayolg‘u» haqida, shoir Shermurod Subhonning B. Ro‘zimuhammad she’rlari to‘g‘risida yozgan maqolalari va yana shu ruhdagi harakatlar hali yetarli emas. Qolaversa, har ikki maqola ham shoirlar she’riyati mohiyatini to‘la ochib berolgan deyish mushkul. Umuman, o‘zbek adabiyotshunoslida yangilanayotgan badiiy tafakkurga doir masalalarni teran va atroflicha tadqiq etgan salmoqli ishlar deyarli yaratilmayotgani kishini o‘ylantirib qo‘yadi. Ehtimol, adabiy tanqidga bo‘lgan bizdagi sovuqqon munosabatning hosilasidir bu. Axir, tan olmog‘imiz kerakki, Sharqda badiiy asar yozish adabiyot ilmi bilan shug‘ullanishdan ko‘ra hamisha «balandroq» yumush hisoblab kelingan. Bunday yondashuv haligacha o‘z ta’sirini yo‘qotgan emas. Hatto «juda chuqur» tushunuvchi ziyorilarimiz ham ko‘pincha adabiy tanqidni mustaqil ijod turi o‘laroq tan olishdan ko‘ra biron-bir asarning «soya»si sifatida qabul qilishga ko‘proq moyillik bildiradi. Aslida-chi? Aslida, haqiqiy adabiy tahliliy asar – chinakam ijod, ilm va badiiyat baravar ishtirok etadigan ulkan maydon. Axir, Belinskiyning «Adabiy orzular»ini o‘z davri uchun Pushkin yo Lermontov she’rlaridan quyi qo‘yish mumkinmi? Menimcha, yo‘q!

Chunki Belinskiyning adabiy-tanqidiy asarlari o‘zining yuksak pafosi nuqtayi nazaridan Pushkin she’rlaridan aslo qolishmaydi. Dunyonи badiiy-estetik idrok etish darajasi jihatidan ham Belinskiy, masalan, Lermontov bilan bo‘ylasha oladi. Eduardas Mejelaytisning «Tungi kapalaklar», K.G. Yung, E. Fromm, O. Gassetning badiiy adabiyotga bag‘ishlab yozilgan asarlari to‘g‘risida ham shunday baland munosabat bildirish mumkin. Albatta, o‘z zamonasiga ko‘ra bunday ilg‘or adabiy-tanqidiy asarlar yozish uchun ijodkor-olimga juda ko‘p narsa zarur: u tarix va jamiyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya, qo‘yingki, barcha ijtimoiy sohalar bilimdoni bo‘lishi shart. U yana aniq fanlardan ham umumiy bilimga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Keyin eng muhim boshlanadi: munaqqid kamida o‘zi tadqiq etayotgan shoir yo yozuvchi darajasida fikrlay va his qila bilishi, dunyonи shu pog‘onada badiiy idrok eta olishi lozim. Ha-ha, bulardan tashqari ham ijodkor-olimga yana ko‘p fazilatlar faqat asqotishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, uning qomusiy olim bo‘lishi ayni muddaodir! Ehtimol, shuning uchun ham bizda modernizm deganda ko‘pchilikning ensasi qotadi. Ensanning qotishi, aslida, bilimsizlikdan: bu adabiy metod haqida juda kam yoki umuman bilmaslikdan. Albatta, nimalardir qilinmoqda, onda-sonda bo‘lsa-da, kishining esida qoladigan adabiy-tanqidiy asarlar uchrab turibdi. Men 1998-yilda chop etilgan I. Bafurovning «Dil erkinligi» nomli kitobini alohida sanab o‘tgan bo‘lardim. Qolaversa, sizning bir qator adabiyotshunos olimlar bilan so‘nggi yillar davomida «Jahon adabiyoti» jurnalida e’lon qilingan suhbatlaringiz, Bahrom Ro‘zimuhammad, Uzoq Jo‘raqulov singari yana bir necha ijodkorlar-u olimlarning adabiyotimizning turli masalalariga bag‘ishlangan maqolalari... Biroq o‘zgarayotgan badiiy tafakkurimiz mevasi bo‘lib dunyoga kelayotgan modern she’riyatini, uning tug‘ilish sabablari va qonuniyatlarini ko‘rsatib, tushuntirib bera oladigan tadqiqiy, tahliliy asarlarga ehtiyoj baribir qondirilmay kelayotir. 1987-yilda yozilgan, 1988-yilda kengaytirilib, qayta ishlangan fransuz olimi Jan Luis Jubertning «She’r nedir?» deb nomlangan asari, nazarimda, ana shu tashnalikni bir qadar qondiradigandek tuyuldi menga. (Men uni turkchada o‘qidim – U.H.) Kitob uchta bo‘limdan va ko‘plab boblardan iborat. Birgina boblarning nomlanishining o‘ziyoq kishi e’tiborini

tortadi, sergak torttiradi, hali masala mohiyatini anglab yetmasingdan burunoq sen bilgan she'r haqida qandaydir yangi gap aytilishi mumkinligini sezal boshlaysan. Mana ulardan bir nechtasi: «She'rning foydasizligi», «She'r va xotira», «She'r va sehr», «Nasrning yurishi, nazmnning raqsi», «Tilning mag'lubiyati», «Ovoz she'ri», «She'rning ovozsizligi», «Mavhum she'r», «She'r va tush» va hokazo.

Umarali NORMATOV: Milliy adabiyotimizdagi, xususan, she'riyatdagi noan'anaviy yo'nalish, modern she'riyat tadqiqi ko'ngildagidek emas degan gapingizga qo'shilaman. Biroq noumid shayton deydilar, mana shu yo'nalishdagi asarlarni teran his qiladigan, chuqur tahlil eta oladigan navqiron kenja adabiyotshunoslar avlodni yetishib kelayotgani ko'ngilga taskin beradi. Juhon adabiyoti tajribasidan ma'lum: yangi adabiy hodisa, ertadir-kechdir, albatta, o'z tadqiqotchilarini yetishtiradi. Milliy universitetda o'tkazilgan adabiy anjumanlarda, jumladan, Shavkat Rahmon, Faxriyor, Iqbol Mirzo, Tursun Ali she'rlari muhokamasiga bag'ishlangan anjumanlardagi chiqishlarni, o'ta murakkab, noan'anaviy she'rlar xususida yoshlari topib aytgan mulohazalarni tinglab ko'ngil yayraydi. 2001-yili o'zbek filologiyasida Muhayyo Yo'ldosheva degan qizimiz bugungi modern she'riyat haqida magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi. Yosh tadqiqotchining eng yangi she'riyatimiz ruhiga mos noan'anaviy yo'nalishdagi nozik kuzatish, ilmiy tahlillari himoya qatnashchilarini lol qoldirdi. Bu ish kitob holida chop etishga, uni nomzodlik dissertatsiyasi tarzida himoya qilishga tavsiya etildi. Muhayyoxonga o'xshagan yosh she'rshunoslar yakka-yolg'iz emas. Ular matbuotda ham ko'riva boshlashdi. Aminmanki, erta-indin ular katta maydonga, yuksak minbarga dadil chiqadilar. Ko'rasiz, yaqin kelajakda modern she'riyat tadqiqi siz-u biz kutgan manzillarni albatta zabit etajak.

Umuman olganda, modern she'riyat tilini uqish, anglash oson emas. Bu she'riyat dunyosini teran anglash uchun ayni shu dunyo ichida yashash, bu olamning odami bo'lish lozim. Modern she'riyatning, umuman, modern adabiyot, san'atning hayot, jamiyat bilan aloqasi an'anaviy realistik adabiyot, san'atnikidan tubdan farq qiladi. Modern she'riyatda «odamlarning tili uchida turgan so'zni aytish», odamlar zamondoshlar kayfiyatini ifodalashga intilish yo'q hisob. Modern

adabiyot, she’riyat namunalarini o‘qiganda realistik musavvirlar yaratgan hayotni ayni o‘zidek gavdalantirgan suratlar ko‘rgazmasiga emas, avangard san’atkorlar suratlaridan iborat g‘aroyib, darhol tushunish, anglash mushkul bo‘lgan «ayqash-uyqash» manzaralar galereyasiga kirib qolgandek bo‘lasiz, o‘zgacha ranglar jilosiga duch kelasiz, avval eshitmagan navolarni tinglaysiz. Ular sizda kayfiyatlar uyg‘otadi, hayotga, narsa va hodisalarga o‘zgacha nigoh bilan qarashga undaydi... An’anaviy realistik asarlar ruhida tarbiyalangan o‘quvchi, realizm estetikasi, nazariyasi bilan qurollangan tanqidchi adabiyotshunos buni oson hazm qila olmasligi tabiiy bir hol. Bu g‘aroyib, tushuniksiz olamga chuqur kirib borganingiz sari sekin-asta uning asiri, muxlisi bo‘lib qolganingizni o‘zingiz ham sezmay qolasiz. Men oliy o‘quv yurtida talabalar bilan ishlash jarayonida bunga amin bo‘lganman. Umumta’lim maktablarida modern adabiyot, she’riyat, ayniqsa, san’at namunalari bilan deyarli tanishtirilmaydi. O‘quv dasturlarida mavjud yangicha yo‘nalishdagi ayrim she’rlar tabiatini tushuntirib bera oladigan adabiyot muallimlari nihoyatda kam. O‘zbek filologiyasi fakultetlari 1-kursida «Hozirgi adabiy jarayon» fani orqali talabalar modern adabiyot dunyosi bilan bevosita tanisha boshlaydilar, mana shu tanishuv jarayonda atigi 3-4 oy davomida ular tamomila boshqacha odam – modern she’riyatning «ashaddiy muxlisi» bo‘lib qoladilar... Ta’lim-tarbiyada ham gap ko‘p-da!

Ulug‘bek HAMDAM: Bugungi o‘zbek modern she’riyatida, umuman, o‘zbek adabiyotida «katta burilish» – ta’siri nafaqat san’at doirasida, balki jamiyat miqyosida kutiladigan voqealarning deyarli sodir bo‘lmayotgani yuqorida u yoki bu munosabat bilan aytib o‘tilgan sabablarga bog‘liq ekanidan tashqari yana ikki ulkan omilga ham aloqadorligini ta’kidlash lozimga o‘xshaydi. Birinchisi, tashqi omil – jamiyat hayotining keyingi 10 – 15 yil mobaynida ko‘p qatlamlari, ko‘p qiyofali mazmun kasb etishi oqibatida muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy toifaga mansub kishining o‘z qatlami darajasidagi ehtiyoj va qiziqishlari shakllanganligi hamda adabiyot-san’atning ko‘p hollarda mazkur ehtiyoj va qiziqishlar ro‘yxatidan «tushib qolayotganligi» bilan izohlanadi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, garchi «adabiyot odamlari» orasida modern kayfiyat kechagi

kunga nisbatan bir qadar barqarorlashgan esa-da, modern she'r muxlislarining soni, baribir, judayam ozchilikni tashkil qiladi. Raqamning «kambag'alligi» modern she'rni tushunish o'quvchidan xos bir adabiy tayyorgarlik, xos bir badiiy did taqozo etishiga ham bog'liq, albatta. Hatto, aytish mumkinki, adabiyot-san'atga qaysi bir jihatdan bevosita aloqasi bo'lgan o'quvchigina bugungi modern she'rning chin muxlisi. Odatda, talabning cheklanganligi taklifning kamtaronaligiga, yetarli miqdorda ommaviylashmasligiga olib keladi. O'z-o'zidan ma'lum bo'lmoqdaki, bugungi o'zbek modern shoirlarining el orasida an'anaviy shoirlarimiz – A. Oripov yo M. Yusufdek mashhur emasliklari g'oyat tabiiydir.

Ikkinchisi ichki omil bo'lib, shoir shaxsi, bu shaxsning qismati bilan bog'liqdir. «Shoir bo'lib tug'iladilar» degan naql yuradi. Bu gapda hikmat bor. Chunki shoirlik haqiqatan ham qismat. Kishi shoirtabiat bo'lib tug'ilishi va andak adabiy ta'lim orqasidan binoyidek she'rlar mashq qilishi, hatto el og'ziga tushishi mumkin. Aslida, shunday shoirlar ham kerak. Hammaning birdek «daho» bo'lishi mumkin ham, shart ham emas. Biroq san'atda navoiylar bu tariqa paydo bo'lmaydi. Navoiylarga fitratining shoirtabatliligidan tashqari qismatining ham ayricha – chinakam ijodkornikiga monand bo'lmog'i zarur. Ulug' dard, mislsiz muhabbat, taskinsiz ulkan yo'qotishlar, tunganmas ruhiy evriliishlar, chidab bo'lmaydigan iztiroblar... mana nimalar havodek kerak Katta Shoirga, Ulkan san'atkorga! Biroq, kechirasiz, bu yog'i endi peshona... Odam buyurtma berib baxtsiz bo'la olmaydi, ataylab o'zini o'zi ruhiy qynoqlarga, iztiroblarga, o'pqondek yutib kelguvchi dard-munglarga giriftor eta bilmaydi. Qismat! Shuning uchun ham oramizda iste'dodlar ko'p bo'lishiga qaramay, daholar siyrak. Iste'dodning daho san'atkorga «aylanmog'i» uchun ana shu do'zaxiy azoblarni kechib o'tmog'i va, eng muhimi, tegirmondan butun chiqmog'i shart! Ha-ha, shuncha evriliishlardan so'ng ham botinida o'z «men»ini butun saqlab qololgan iste'dodgina yana bir qadam ilgari tashlaydi – Ulkan San'atkorgina yozishi mumkin bo'lgan durdonalarni yarata boshlaydi. Mana «Nima uchun hammamiz binoyidekmiz-u, oramizda navoiylar ko'rinxaydi?» degan achchiq savolning undan-da achchiqroq javobi.

Jubert yuqorida eslangan kitobida Masset ismli muallifning 1835-yilda yozilgan «May kechasi» deb nomlangan she'rini keltiradiki, nazarimda, u ruhan aytigancha monand tushadi:

*Ishq to 'la ko 'ksidan oqar edi qon:
Dengizlar ustida behuda uchdi,
Sohillar bo 'sh edi, bo 'sh edi ummon.*

*Nihoyat, panjasin ko 'ksiga sanchdi...
Keltirdi yuragin palaponlarga.*

*Toshga yastangancha ojiz saqoqqush
Bo 'lasha boshlarkan so 'ngra parchani
Ulug' muhabbat-la qismat achchig 'in
Bostirib qo 'ygandek sezardi o 'zni
Va qonli to 'shiga boqardi bot-bot
Zavqdan va shafqatdan, dahshatdan sarxush...*

(U.Hamdam tarjimasi)

Yanada ko‘p iztirob chekib yashagan shoir ham o‘z hayotini asarlar tariqasida qonga tashna o‘quvchilarga mana shu tarzda arg‘umon etadi, deydi fransuz olimi she'rni tahlil etarkan. Albatta, bu misolda kimdir ortiq darajadagi mubolag‘ani ko‘rar, kimdir boshqa fikr aytar, lekin nima bo‘lganda ham, haqiqiy shoir-ijodkor taqdiri ba’zan chindan ham saqoqqush qismatini yodga soladi. Shu ma’noda oramizdan navoiylarning chiqmagani sabablaridan biri sho‘rlik saqoqqushning achchiq qismatidek qismatni kamdan kam, noyobdan noyob ijodkor o‘ziga ravo ko‘rishidadir. Bas, shunday ekan, haqiqiy shoir, umuman, san’atkor, avvalo, Ulug‘ Dardmanddirki, men unga havas qilishdan, sharafiga sanolar o‘qishdan oldin dardiga Yaratgandan shifo tilagan bo‘lardim. Ha, chinakam shoirlar (e’tibor bergen bo‘lsangiz, butun suhbatimiz davomida men «san’atkor», «ijodkor», «shoir»

so‘zlari oldiga «chinakam», «haqiqiy» degan sifatlarni bot-bot qo‘sib qo‘yishga majbur bo‘ldim, o‘ylaymanki, izohga hojat yo‘q!) oramizdagi eng kasalmand, «sog‘lar orasidagi nosog» kishilarkim, ularning dardi haqiqatan ham olamning dardi, odamning dardidir. Ularga hasad qilish esa, ko‘rinadiki, har qanday sog‘lom mantiqdan yiroq ahmoqona va razilona ishdek tuyuladi menga.

Umarali NORMATOV: Adabiyot tarixidan ma’lumki, hech qaysi adabiy oqim, ijodiy metod ijodkorga imtiyoz, afzallik huquqini bermaydi. Oxir-oqibat ijodkorning iste’dod darajasi, zakovati, ijoddagi omadi, badiiy ixtirosi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi modern she’riyatning, modern shoirlarning unchalik mashhur emasligidan ko‘pam tashvishga tushavermaslik kerak. Har holda, mening kuzatishimcha, modern she’riyatga munosabatda muayyan o‘zgarish bor, ixlosmandlar keyingi 4 – 5 yil davomida sezilarli darajada ko‘paydi. Qolaversa, modern she’riyatning o‘zi, yuqorida aytilganidek, betinim o‘zgarib-yangilanib, takomillashib, o‘quvchi-she’rxonga yaqinlashib boryapti, hali bizda modern she’riyatning imkoniyatlari to‘laligicha namoyon bo‘lgani yo‘q. Shunga qaramay, bugungi kunda uning Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammaddek tan olingan iste’dodli namoyandalari borligrining o‘zi katta gap! Bular va ularning o‘nlab izdoshlari o‘zbek milliy modern she’riyatining ertasiga katta umid uyg‘otadi.

Ulug‘bek HAMDAM: Domla, negadir menga Abduvali Qutbiddin va Faxriyor bilan Bahrom Ro‘zimuhammad she’riyati o‘rtasida ildizli tafovut borga o‘xshaydi. Birinchi ikki shoir an’ana doirasida, an’ana zaminida turib modernistik kashfiyotlarga intilayotgan bo‘lsalar (sizning yuqorida «sof modern» ko‘rinishidagi deyarli barcha asarlar qa’ridan aks sado berib turgan qadim ayolg‘u navolarini tuyib-eshitib turasiz» deganingiz bejiz emas), Bahrom Ro‘zimuhammad ijodiyoti ko‘proq modernistik sohil tomonida kabi. Chunki Abduvali Qutbiddin va Faxriyorga dunyoni boshi va oxiri mavjud bus-butun olam o‘laroq ko‘rish xos, binobarin, ular yaratayotgan badiiy dunyo izchil mantiqiylikka, uzviy davomiylilikka asoslangan bo‘lsa, Bahrom Ro‘zimuhammad «dunyosi»ning

haqiqatan ham «oyog‘i osmonda». Uning she’rlari Faxriyor va Abduvali Qutbiddin asarlarida aks etgan «butun dunyo»ning sochilib ketgan siniqlaridek taassurot qoldiradi. (Axir, modernizmning mohiyati aynan inson ruhiyatidagi darzlar orasida yashiringan-ku!) Bu o‘rinda gap qaysi she’riy yo‘lning ustun yo quyiligidan, yaxshi yo yomonligida emas aslo! Masalani hech qachon bunday qo‘ymaslik kerak. Gap shoirlarning fikriy o‘ziga xosligida, dunyonи badiiy-estetik idrok etishidagi ayrichaligida. Hech shubha qilmaymanki, agar shoir chinakamiga iste’dodli bo‘lsa, har qanday yo‘sinda go‘zal, g‘oyat go‘zal ash’or bita oladi. Binobarin, badiiy tafakkurning realistik bosqichi ham, modernistik bosqichi ham, jumladan, ularning o‘ziga xos sintezi bo‘lmish modernistik realizm²⁴ (Faxriyor, Abduvali Qutbiddin kabi yana ko‘plab shoirlarimiz shu uslubga yaqinroq) bosqichi ham yuksak san’at namunalarini berishga qodirdir. Ha-ha, shoirning kuchi uning qaysi «izm»ga mansubligida emas, balki shu «izm» zaminida turib nima va qanday yoza bilganidadir. Ustoz, meni yana shunday o‘ylar hech tark etmaydiki, o‘zbek modern she’riyati XX asr o‘zbek an’anaviy she’riyati bergen «Kishan kiyma, bo‘yin egma Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsen!» (Cho‘lpon), «Sochiladi o‘ylarim sensiz, Xayolimga taroq urgayman. Mening qo‘lim yetmagan yulduz, Tushlarimda seni ko‘rgayman» (A. Oripov), «Uyg‘on, ay malagim, tur, o‘rningdan tur, Otashin muzlarda isinaylik, yur!» (R. Parfi) kabi o‘zining o‘lmas misralarini hali yarata bilganicha yo‘q. Biz «modern she’r tabiatni sal boshqacha bo‘ladi, unga bu yanglig‘ talablar qo‘yib bo‘lmaydi» degandek o‘nlab-yuzlab vaj-korson ko‘rsatmaylik, baribir, adabiyotning san’atlik xususiyatini unutmasligimiz lozim. U bizning estetik dunyomizni titratib yuboradigan asarlar bergandagina chinakam badiiy hodisa haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Umarali NORMATOV: Modern she’riyatimiz rivoji oson va silliq kechayotgani yo‘q, albatta. Uning rivoji yo‘lida jiddiy qiyinchiliklar, kamchiliklar, turfa og‘ishlar mavjudligi hech kimga sir emas. Bu yangi adabiy jarayon oqilona tanqid, xayrixohlik ruhidagi bahs-munozaralarga nihoyatda muhtoj. Ana shunday

²⁴ Bugun jahon adabiyotshunosligida «metamodernizm», «metarealizm» atamalari ishlatila boshlandi. Mazkur suhbat qurilgan paytda nomlari zikr etilgan atamalardan xabarsiz edik, lekin qiyos qilinganda shu atamalar ostida kechayotgan jarayon nazarda tutilganligi ayon bo‘lmoqda – U.H.

bir vaziyatda hech qanaqa aniq dalil, ilmiy tahlillarsiz bu yo‘nalishdagi she’rlardan burun jiyirish, uni quruq rad etish hollariga duch kelayotirmizki, bundan afsuslanmay ilojingiz yo‘q. Modern she’riyat tanqidi hozircha bu yo‘nalishning «o‘zbek ma’naviy muhiti»ga nomuvofiqligi, matnda «tinish belgilariga amal qilmaslik», nazm tuzilishining «qoida-qonun»lariga, nazariyaga mos tushmasligi, fikr-g‘oyaning mavhumligi xususidagi quruq nolishlardan nariga o‘tmayapti.

Nihoyat, har qaysi adabiy-badiiy oqimda bo‘lgani kabi, ijodkor shaxsi, darajasi, uning ijodiy jasorati modern she’riyatning buguni va ertasini belgilaydi. Bu yo‘nalishda qalam tebratayotganlar aychayin bir havaskor qalamkashlar emas, ular orasida milliy va jahon adabiyoti, san’ati tarixi hamda bugungi kunidan chuqur xabardor yetuk ijodkorlar borligidan cheksiz quvonaman. Bu she’riyat ustida so‘z ochadigan, babs yuritishga chog‘langan munaqqid o‘z saviya-darajasini ularning bo‘yi-basti bilan bir bor solishtirib olsa zarar qilmasdi.

Ulug‘bek HAMDAM: Xo‘s, shu choqqacha bahs yuritganimiz modernizmning o‘zi nima? U qachon va qanday paydo bo‘lgan? Modernizmni bir necha xayolparast san’atkor «bekorchilik»dan o‘ylab topganmi? Yoxud tabiiy bir jarayon sifatida badiiy tafakkurimizni band aylaganmi? Uning an’anaviy oqimlar, xususan, realizmdan nima farqi bor? Modernizmni realizm o‘rniga kelgan va uni (realizmni) o‘z hayot hujayralarini butunlay sarflab bo‘lgan oqim o‘laroq «iste’mol»dan chiqarib tashlashga qodir yo‘nalish deya olamizmi?

Bu kabi yana o‘nlab savollar tug‘ilishi tabiiy hol, albatta. «Jahon adabiyoti» jurnalining 2001-yil noyabr sonida rus olimi Aleksandr Genisning «XX asrning yetakchi uslubi» nomli maqolasi va ulkan ruhiyatshunos olim K.G. Yungning «Pikasso» nomli essesidan yuqoridagi savollarning ayrimlariga javob topgandek bo‘lasiz. Genis yozadi: «Tarix vaqt bilan hisoblashmaydi, biroq bizlar solnomaga nazar solmay ish yurita olmaymiz. Ortga nazar tashlar ekanmiz, modernizm tarixning qaysi pallasidan boshlanganini bilib olamiz. Londondagi mashhur ikki badiiy muzey jamoasi yaqinda ana shunday muammoga duch keldi. Ular o‘z xazinalaridagi san’at asarlarini o‘zaro taqsimlab olishlariga to‘g‘ri keldi: natijada Milliy galereyaga mumtoz tasviriy san’at asarlari, Teyt galereyasiga esa

zamonaviy ijodkorlarning asarlari nasib etdi. Bu borada 1900-yil chegara chizilgan vazifasini o‘tadi. Bu chegara chiziq, har qancha bahsli va shartli bo‘lmasin, nafaqat taqvimiylar, balki mantiqiy haqiqatga yaqinligi bilan ham e’tiborni tortadi. Biz modernizmni o‘tgan asr bilan tengdosh hisoblay turib ham tarixan, ham badiiy jihatdan adolatli ish tutgan bo‘lamiz».

Modernizmning mohiyati haqida fikr yuritarkan olim modernizmga san’atda vositalargina o‘zgartirib kelingan bo‘lsa, modernizm «tadqiq qilinayotgan obyektning o‘zini tamomila yangilagani»ni ta’kidlaydi. «Nitshening «hech qanday faktlar mavjud emas, balki ularning talqini, in’ikosigina bor» degan aqidasini dastak qilib olgan modernizm muallifning tasavvuridagina mavjud voqelikning turli talqinlari, dunyoni turli subyektivizmlarning kurash maydoni sifatida aks ettira boshladi», deb yozadi yana olim.

Yung esa modernistik san’at mohiyatida ruhiy xastalikni ko‘radi. U bunday xastalikka chalingan kishilarni ikki guruhga ajratadi: «bular nevrotiklar va shizofreniklar. Birinchi guruhga mansub (kishilar) sintetik xarakterdagi kuchli va yaxlit tuyg‘uga yo‘g‘rilgan suratlar chizishadi... Ikkinci guruh, aksincha, shunday suratlar chizadiki, bu suratlar ularning mualliflariga hissiyot begona ekanini ko‘rsatib turadi. Ular har qanday holda yaxlit uyg‘un tuyg‘uni emas, balki, aksincha, qarama-qarshi kechinmalarni yoki ularning umuman yo‘qligini ifodalaydi. Bu suratlarning badiiy shaklida esa siniq chiziqlarda aks etgan tanazzul, inqiroz kayfiyati ustuvorlik qiladi, bu, o‘z navbatida, ijodkorning ruhan bo‘linganini, ya’ni o‘zini boshqa odam deb fahmlashini bildiradi. Suratlar tomashabinga yoqmaydi yoki aqlga to‘g‘ri kelmaydi, tajovuzkor ruhdaligi va beo‘xshov nosamimiyligi bilan unda qo‘rqinchli taassurot qoldiradi. Picasso ana shu ruhiy (psixologik) tipga mansub»²⁵.

Bunday qarash modernizmning kelib chiqishida ijtimoiy-psixologik faktorning dominant mohiyatiga urg‘u beradi. Chindan ham, XX asrga kelib insonning turmushi sivilizatsiya oqibatida misli ko‘rilmagan darajada murakkablashdi, odamlarning o‘zaro muloqot imkonini toraydi, bunday ehtiyoj –

²⁵ Ahmad Otaboy tarjimasি.

ruhiy munosabat ehtiyoji insonning ichiga hibs etildi, natijada botinda iztirob tug‘ildi, ruh kasallikka chalindi. Nazarimda, modernizmning ruhiy-psixologik asosi shu nuqtadan boshlanadi.

Darhaqiqat, insoniyat hayotiga modern ruhning kirib kelishi asrlar davomida shakllanib-turg‘unlashib qolgan dunyoqarashni ostin-ustin qilib yubordi. Modernizm shunday mohiyatga ega ediki, u eng an’anaviy, eng mumtoz shakllar, tushunchalar bag‘riga ham sira tortinmay, sira ikkilanmay yorib kiraverdi. Modernizm – XX asrga kelib insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’naviy sohadagi yoppa taraqqiyoti tufayli onglarda sodir bo‘lgan ulkan o‘zgarish – tafakkur tarzimizdagi yangi bosqich. U davrning umumiy, universal kayfiyatidir. U realizmga qarshi emas, balki realizm zaminida (materialida) barpo etilgan zamonaviylikning yangi qasridir. Istilohning lug‘aviy ma’nosiga («modern» fransuzcha «yangi», «zamonaviy» degani) e’tibor beradigan bo‘lsak, «modernizm tug‘ilishga tug‘ildi-yu, biroq endi o‘lmasa kerak!» deging keladi. Mantiqan olganda, endi har qanday davr o‘z kayfiyatini aks ettirgan yangidan yangi, zamonaviydan zamonaviy asarini «modern asarlar» deb ataydi... Demak, modernizm hech qachon eskirmas ekan-da degan o‘y ham keladi xayolga. Biroq ertangi kun hamisha o‘z bag‘rida kutilmagan sirni yashirib turishi bilan qudratlidir. U «bugun»ga nisbatan ancha erkin. Keljakning bizning tasarrufimizdagi foizi unchalik katta emas. Binobarin, biz «modernizm mangu, modernizm hech qachon o‘lmaydi!» deganga o‘xshash hayqiriqlardan tiyilganimiz ma’qul. Agar modernizm mohiyatida biz faqat dunyoga yangicha qarash, uni o‘z davri darajasida badiiy his va idrok etishni tushunsak, ha, u abadiydir. Biroq modernizmni XX asr avvalida (rang-tasvir san’atida) yomg‘irdan so‘ng potrab chiqqan qo‘ziqorindek ko‘paygan qismlari – kubizm, syurrealizm, abstraksionizm, ekspressionizm, futurizm, dadaizm, giperrealizm, ridjionalizm kabi «izm»larning yig‘indisi sifatida tushunsak, ha, u ham tug‘ildi va umrini o‘tab bo‘layozdi (yuqorida nomlari keltirilgan «izm»larning aksari bir necha o‘n, hatto bir necha sanoqli yil «yashab», o‘rnini navbatdagi oqimga bo‘shatib berganligi san’atshunoslik, adabiyotshunoslik tarixiga oid materiallardan ma’lum!). Nazarimda, ushbu masalaga oydinlik

kiritishga qodir yolg‘iz hakam – Vaqt! Chunki ahli bashar axborot asriga qadam qo‘ydi. Bu ham turmushni misli ko‘rilmagan darajada o‘zgartirib yuborishi, natijada insonning dunyoni badiiy-estetik jihatdan qabul qilishida yanada keskinroq burilishlar yuz berishi hech gap emas...

Mana, «izm»lar qanday va qayerda o‘zgaradi! Mana, nega biz modernizm mohiyatini to‘la tushunib-tushuntirib berolmasligimiz yetmaganidek, uning qancha umr ko‘rgani va yana qancha yashashi mumkinligi to‘g‘risida tayinli gap aytolmasligimizning sababi!

2001-yil dekabr – 2002-yil fevral

IJODIY ERKINLIKNING TOTLI MEVALARI

(Suhbat)

Rahimjon Rahmat: Ulug‘bek! Ancha yillardan buyon o‘zbek adabiyotchi olimlari va ijodkorlari orasida Yevropa modern adabiyoti haqida ko‘p fikrlar aytilyapti. Hatto ilmiy ish qilayotgan olimlar ham «O‘zbek modern adabiyoti» degan atamani ishlatishyapti. «Absurd qahramon» degan gaplar ham ko‘paygan. Ayrim olimlarimiz maqola yoki ilmiy ish yozsa, avval Yevropa modern adabiyoti haqida gapirib, keyin «o‘zbek modern adabiyoti» degan birikmani ishlatishadi. Paydo bo‘layotgan badiiy asarlardan modernizm unsurlarini, absurd qahramonni izlashadi. Hatto Yevropa modernizmi to‘g‘risida jiddiyroq maqola o‘qimagan, absurd qahramon nima ekanligini bilmaydigan ayrim olimlar ham yangi zamon Yevropa adabiyoti to‘g‘risida maqola yozmoqchi bo‘lishadi. Va ular o‘zlari sezmagan holda yangi paydo bo‘layotgan o‘zbek adabiyoti namunalarini Yevropa modern adabiyotining oqovasiga aylantirib qo‘yishadi. Aytmoqchimanki, ayrimlar nasrimizda paydo bo‘layotgan anchayin jiddiy yangiliklarni kimgargadir taqlid deb baholashyapti. Goho «falonchi o‘zbekning Kortasari, pistonchi o‘zbekning Borxesи» degan gaplar quloqqa chalinib qoladi. Bu gapning tagida yangilanayotgan milliy nasrimizni kamsitadigan nozik ma’no bor.

Shuni unutmaslik kerakki, bizda adabiyot ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi yoxud turlanadi. Masalan, Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriylar «Jadid adabiyoti» vakillaridir. Ularni shu atama bilan atasak ma’qul bo‘ladi. Jadid adabiyotini harakatga keltirgan kuch esa, birinchi navbatda, jamiyatda yuzaga kelgan siyosiy-ijtimoiy g‘oyadir. Abdulla Oripov va Erkin Vohidov kabi ulkan shoirlarning paydo bo‘lishi ham o‘zbek millatining o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi bilan bog‘liqdir. Kommunistlar davlatining parchalanishi va mamlakatimizning ozodlikka erishishi bilan badiiy adabiyotda jiddiy o‘zgarish sodir bo‘ldi. Diqqat qiling: ko‘p yillik adabiyotimizdagi yangilanishlar ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Modernizm esa bevosita ilm, falsafa va jamiyat kishilari kayfiyatidan o‘sib chiqqan. Albatta, bizlar ham butun dunyo

ilmini o‘rganishimiz, o‘rganganlarimiz asosida milliy badiiy tafakkurda yangilanishlar qilishimiz lozim. Lekin **mavjud adabiyotimizni modernizm degan ulkan hodisa ostiga bostirib dimiqtirib qo‘yish yaramaydi** deb o‘ylayman men. Unutmaylik: modernizm real tarixiy zaminda va konkret hodisalar tasirida yuzaga kelyapti.

Modernistlar vaqt, makon, tabiat tasviri, qahramon portreti, syujet chizig‘i va boshqa an’anaviy romanga xos unsurlardan chekinib, kichik bir detal bilan kifoyalangan ko‘yi shu detalni universal ma’no tashiydigan ramzga aylantirishgan. Ilk bor Freyd kashf qilgan ijod xuddi tush kabi botiniy ong (bessoznatelnost)ga safardir. Botiniy ong esa ramzlar vositasida o‘z mavjudligini namoyon qiladi. Mashhur Kafka o‘z romanlaridan biri haqida gapirib, «bir kecha ko‘rgan tushim» deb atagandi. Real ongga xos mantiqiy, jo‘yali fikrlash orqali botiniy shuurdagi ma’no-mazmunni anglatib bo‘lmaydi. Shuning uchun modernist ijodkorlar so‘z tuzilishini ham o‘zgartirib yuborishgan. Modernistlar ilk bor o‘zini har jihatdan nochor va notavon his qiladigan, go‘yo yovuzlik qurshovida qolgan «kichkina» odamni asar qahramoni qilib tanlashgan. Aytmoqchimanki, o‘zbek adabiyotidan modernistik yo‘nalishlarni izlayotganlar bu adabiy oqim haqida haqqoniy va yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim. Albatta, ijodkorlarimiz modernizm adabiyoti namunalari va ularning ijodiy uslubidan yaxshi xabardor. Yana aytamanki, Yevropa modernizmining vujudga kelishiga muayyan ijtimoiy-ma’naviy va ilmiy muhit sabab bo‘lgan.

Ulug‘bek Hamdam: Mo‘tadil iqlim, uyg‘un muhit bo‘lmasa, ko‘chirib keltirganingiz bilan, ko‘chat tomir otmaydi. Shu ma’noda bugungi o‘zbek adabiyotidagi yangi izlanishlarni o‘tgan asrning birinchi yarmida Yevropada tug‘ilgan modernistik oqimning g‘arib taqlidi deyish anchayin xom gap. Bir-biriga monand ijtimoiy-tarixiy davrlar kayfiyati o‘xshash adabiyotlarni vujudga keltiradi. E’tibor qiling: dunyo folklorida qanchadan qancha bir-biriga mengzaydigan qahramonlar mavjud. Nima, ularning bari bittasidan ko‘chirganmi? Yo‘q, albatta. Barcha mushtarak hodisalar ham «sayyor syujetlar», ya’ni ko‘chib yuruvchi syujetlar qolipiga tushmaydi. Ijodiy ta’sirlanish, albatta, bo‘ladi, lekin bu o‘rindagi

eng muhim omil millatlar tarixidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik muhit o‘xhashligidir. O‘xhash muhitlar o‘xhash syujet chiziqlarini, o‘xhash adabiy qahramonlar-u ularning bir-biriga monand kayfiyatlarini dunyoga keltiradi. Demak, Yevropaning modernistik adabiyoti Yevropanikidir va bu adabiyot o‘z davrida o‘z vazifasini o‘tab, asosan, o‘sha yerda qoldi. Bizdagi modern adabiyot kayfiyatiga Yevropa modern adabiyotining ijodiy ta’siri (ko‘proq shakliy ma’noda) bor, albatta, lekin u mohiyat-e’tibori bilan o‘z yurtimizdagи ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar zaminida tug‘ilgan adabiy hodisa deya baralla ayta olamiz.

Modernizmning paydo bo‘lishidagi omillar hozir ko‘pchilikka ma’lum. Men boshqa narsaga e’tiboringizni jalg etmoqchiman: ijodkor vaqtı-vaqtı bilan boshqacha yozishga ehtiyoj sezib turadi. U mavjud haqiqatni har doim bir xil uslub va ohangda aks ettirishdan zerikadi. Buning uchun keskin ijtimoiy-tarixiy sabablarning sodir bo‘lishi judayam shart emasdek. Demoqchimanki, hayot eng «tussiz» davrlarda ham shunchalar rango-rang va aql bovar qilmas mo‘jizalarga to‘laki, ijodkor uslubining turlanib turishiga hamisha imkon qolaveradi.

Aslida, bundan-da muhim gapim shuki, hamma izmlar, avvalo, realizm tufayli uning qarshisida mavjuddir. Realizm shohko‘cha bo‘lsa, romantizm, naturalizm, modernizm va postmodernizm kabi o‘nlab boshqa «izm»lar shu ko‘chadan boshlanuvchi, uning yon-verida uzanibgina mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan yondosh ko‘chalardir. Pirovard natijada ular yana shu bosh ko‘chaga kelib tutashadi. Shundagina ular ma’no kasb etadi. Ularning qimmati, ahamiyati faqat shohko‘chaning borligi vajidandir. Chunki ijodkor fantaziysi har qancha uchqur bo‘lmasin, u o‘zini nechog‘lik modern hisoblab, shu ruhdagi asarlar bitishga chog‘lanmasin, baribir, yozganlari alaloqibat o‘quvchi botinidagi reallik tuyg‘usi bilan muqoyasada baholanadi, o‘lchanadi. Avvalo, uning o‘zi ana o‘sha reallik tuyg‘usi bilan ish ko‘radi, tafakkur yuritadi, qog‘oz qoralaydi. Bas, shunday ekan, realizm daraxt bo‘lsa, qolgan barcha «izm»lar (hozirgacha mavjud, hatto kelajakda nish uradigani – barcha-barchasi) uning ko‘pdan ko‘p shoxlaridir. Yoki realizm shunday zaminki, uning bag‘rida har xil daraxtlar misol ko‘plab «IZM»lar voyaga yetib turadi.

Bizdagi yangi (modern) adabiyotning milliy zaminda ildiz otganligi haq gap. Ha, bu adabiyot Yevropa modern adabiyotidan ko‘chirilgan nusxa yoki boshdan oyoq unga taqlid emas. U bizning an’anaviy yo‘limizdan boshqacharoq shakl va mazmunga ega o‘z adabiyotimizdir. Shu ma’noda uni modern adabiyoti deyishimiz ham biroz bahstalab. Bu atama shartli. Topa olsak, milliy adabiyotimizda qariyb so‘nggi yigirma yil mobaynida bo‘y ko‘rsatib, bugunga kelib qaddini tiklab olgan ushbu adabiy yo‘nalishga boshqa ilmiy-asosli nom berishimiz kerak. Chunki, masalan, Rossiyada qariyb so‘nggi 30 yilda «metarealistik adabiyot» degan termin iste’molga kirdi. G‘arbda metamodernizm – potsmodernizmdan keyin modernizm va postmodernizm qo‘shiluvidan paydo bo‘lgan adabiy oqim haqida mushohada yuritishmoqda.

XX asr muqaddimasidan ibtido olgan adabiyotimizni «Yangi o‘zbek adabiyoti» deb nomlaganmiz. O‘shanda ham nasr, ham nazmda tubdan o‘zgarishlar yuz bergan, ilk dramatik asarlar vujudga kelgan va bu chinakamiga yangi hodisa, yangi adabiyot bo‘lgan edi. Adabiy shakllar asosan tashqaridan – o‘zga adabiyotlardan qabul qilib olingani ham haqiqat: roman, drama va yangicha she’r shakllarini (she’riyatning tarixiy turkiy ildizlari ham mavjudligi alohida masala!) eslang. Asr adog‘idagi yangilanish esa bir qadar boshqacha tabiatga ega. Bunda shakl va mohiyatning o‘zi ichkaridan yorib chiqdi. Demak, tashqaridagi adabiyotga taqlidning hissasi o‘ta salmoqli bo‘lmagan. Chunki ijodkorning dunyoni badiiy-estetik jihatdan qabul qilishi va aks ettirishida ildizli o‘zgarishlar yuz berdi. Nazarimda, **ushbu hodisa Yangi o‘zbek adabiyoti emas, o‘sha Yangi adabiyotning ikkinchi to‘lqini degan nomga munosibroq. Aslida, nomdan ham muhimroq gap shuki, bugun ijodkorning badiiy tafakkur tarzi yangilandi, bas, Yangi adabiyotning paydo bo‘lishi muqarrardir.**

Rahimjon Rahmat: Shuni afsus bilan qayd etish lozimki, yozuvchilarimiz orasida hozirgi zamon ilmi, falsafasi, psixologiya fanidagi yangiliklarga ko‘pam e’tibor bermaydiganlari yetarlicha topiladi. Axir, birgina Freydning asarlari g‘arb kishisining realizm haqidagi tushunchalarini tubdan o‘zgartirib, adabiyot va san’atda turli oqimlar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Men, ismini aytmayman,

o‘zim tengi bir necha yozuvchining ijodini jiddiy kuzatib boryapman. Dinlar, dunyo xalqlari tarixi, ilmdagi eng so‘nggi yangiliklardan boxabarligi ko‘rinib turgan bu yozuvchilarimiz chindan ham milliy nasrimizda salmoqli o‘zgarishlar yasayapti. Aslida, o‘zbek nasrida jiddiy o‘zgarish sodir bo‘lib ulgurgan, faqat hozircha tanqidchilarimiz bu o‘zgarishni to‘la idrok etib, payqab ulgurishgani yo‘q.

Mening nazarimda, Ulug‘bek, yozuvchi ikki xil holatda yaxshi asar yoza oladi: sayohat va ilm o‘rganish. Masalan, hammamiz sevib o‘qiydigan Xemingueyning hayoti faqat sayohatlarda o‘tgan, urush nima ekanligini anglash uchun uch marta urushga borgan. Ilm vositasida ulkan yozuvchiga aylangan Borxes esa asosiy vaqtini kutubxonada o‘tkazgan. Oxirgi yillarda asarlari dunyoda mashhur bo‘lgan Koelo ham anchayin sirli ilmlar bilan shug‘ullangani ma’lum.

Jorj Oruellni olaylik. Juda ko‘p o‘zbek adiblari shu yozuvchining asarlarini o‘qib ko‘rismagan hali. Oruell siyosatni badiiy asarga aylantirgan. Buning uchun butun umr siyosiy hodisalar to‘g‘risida maqola yozadigan jurnalist bo‘lib ishlagan.

Sizning «Muvozanat» romaningiz, men bundan yaqindan xabardorman, atrofingizda sodir bo‘lgan va bevosita shaxsiy hayotingizga daxldor shiddatli hodisalar natijasida yozilgan. Ya’ni asaringizga asos bo‘lgan hayotiy materialni avval yashab o‘tib, keyin uni roman shaklida qog‘ozga tushirgansiz.

Nazar Eshonqul va Isajon Sulton rivoyatlar, asotirlar, ilm-fandagi yangiliklar, dunyoning turli burchaklarida sodir bo‘lgan turli davrlardagi tarixiy hodisalar vositasida inson qalbi, qismatini badiiy talqin qilib hikoyalari yozishyapti. Ular, aytish mumkinki, an’anaviy roman uchun arzimas detal bo‘ladigan oddiy unsur-obrazni dunyoni anglash vositasiga, universal ma’noga ega bo‘lgan ramzga aylantira olishadi. An’anaviy nasrimizda dehqon haqida yozilgan asarda bu kasb egasining hayoti, dunyoqarashi, dard-iztirobi aks etadi. Deylik, dehqon obrazi dunyoning tuzilishi haqida universal ma’no tashiydigan ramzga aylanmaydi. Yangicha asarlarda esa dehqonning hayoti maqsad emas, bir vosita sifatida tanlanadi, bu vosita orqali odam va olam haqidagi diniy-falsafiy xulosalarini bayon qiladi. Demak, dehqon haqida asar yozishdan maqsad dehqon emas, yangicha prozaning muhim jihat shu – mavzu va qahramon vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Aytmoqchimanki, qo‘liga qalam tutgan ijodkor o‘zi yaxshi bilgan hayotiy materialni o‘ziga ma’qul uslubda qog‘ozga tushiraversin. O‘zbek o‘quvchisi uchun turli yo‘nalishlarda yozilgan juda ko‘p, rosayam ko‘p asarlar kerak.

Ulug‘bek Hamdam: Hamma gap ana o‘sha hayotiy materialning borligida, yozuvchi o‘ta muhim gapining chipqon darajasida pishib yetilishidadir. Bizning avlod o‘tgan asrning 80-yillarida boshlangan ulkan, olamshumul o‘zgarishlarning qaynoq bag‘ridan o‘tdi. Endi bunga e’tibor bering: ana o‘sha voqealar ijodkorning ichidan, yuragidan ham o‘tdimi, hamma gap shu yerda. Yurgan daryo deydi xalqimiz. Ijodkorning yuragi to‘lib-toshib oqquvchi daryoga aylanmaguncha undan o‘quvchi bahra topmaydi. Boshqa tomondan, ta’kidlaganingizdek, tamaddun taraqqiyoti silsilasida jiddiy yangilanishlar yasagan ilmiy kashfiyotlardan boxabarlik bugungi ijodkor uchun namozdagi farz darajasida bo‘lmog‘i kerak. Chunki yozuvchi yo shoir har qancha iste’dodli bo‘lmasin, o‘z kuchini ana o‘shanday ixtiolar bilan charxlab turmasa, ildiziga suv yetib bormaydigan daraxtdek sekin-asta qovjiray boshlaydi. Taxminan o‘ttiz-qirq yoshgacha yozganlari ko‘zlarga surtib o‘qiladigan, keyingi qoralamalarining qiymati haminqadar bo‘lgan ijodkorlarimiz ozmi? Nega? Chunki, avvalo, ulardagi zaxira sob bo‘lgan. Yana bir muhim jihat shuki, ijodkor o‘z yuragining pokligiga ahamiyat bermog‘i, binobarin, o‘z qalbining bir umrlik sadoqatli qo‘riqchisiga aylanmog‘i shart. Qorayib ketgan yurak bilan nafaqat zo‘r, balki miyona asar yozish ham mushkul. Yozish san’atining ko‘pdan ko‘p sir-u asrori tagiga yetgan, tizgan satrlarida nainki stilistik, balki birorta orfografik xato uchramaydigan ijodkorlarimiz bor. Shakldagi san’atlariga tasanno deymiz, lekin, ne yoziqliki, ularning aksariyatida mazmun to‘piqqa ham chiqmaydi, asardan vulqondek otilib chiqib, o‘quvchi yuragiga to‘g‘ri borib uriladigan badiiy zarb yo‘q, xuddi qishda tumanlar aro xira ko‘rinib turgan quyoshdek taftsiz, nursiz. Ular barpo etayotgan adabiyot, tanqidchi A. Otaboev ta’biri bilan aytganda, «masxaraboz mingan yog‘och ot»ga o‘xshaydi. Demak, bunday «vosita» bilan birmuncha vaqt tomosha ko‘rsatib, odamlar e’tiborini tortish mumkin, xolos, lekin u bilan biron manzil ko‘zlanib safarga chiqilmaydi. Ayni damda, ko‘ngilga umid baxsh etguvchi

nosirlarimiz ham bor: siz qayd etgan nomlar qatorida S. O‘nar, N. Jaloliddin, A. Yo‘ldosh, L. Bo‘rixon, Sh. Ahmedov, Z. Qurolboy qizi kabilar jiddiy asarlar yaratish yo‘lida urinayotgandek tuyuladi. «O‘zAS» sahifalarida berilgan E. A’zamning «Stupka» va X. Do‘stmuhammadning «Qichqiriq» nomli hikoyalari jiddiy adabiy jamoatchilikda ijobiy rezonans uyg‘otdi. «Tafakkur» jurnalida N. Muhammad Raufxonning «Chilla», «Sharq yulduzi»da «Etakdag‘i kulba» nomli ramziy hikoyalari chop etildi. «Bahouddinning iti», «Qultoy» (N. Eshonqul) – zo‘r hikoyalari. Kamnamo va kansuqum N. Boqiydan ham katta badiiy kashfiyotlar umid qilsak arziydi. «Suratdag‘i ayol» hikoyasi bilan yangicha yozish mumkin ekanligini isbot qilgan Sh. Hamroni esa yana qalam tebratishga undaymiz. Xullas, nazar solsak, nasrimiz ufqlari yorisha boshlagan. Boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas-da. Chunki biz keyingi 20 – 25 yil mobaynida chindan-da jahonshumul ijtimoiy-tarixiy evrilishlarni boshdan kechirdik, endi uni badiiy idrok qilish, anglash va his etish davriga kirib keldik. Ro‘yobga chiqqan ishlar – hali xamir uchidan patirdek gap. Asosiyları oldinda. Har holda, menga shunday tuyulmoqda.

Rahimjon Rahmat: Ulug‘bek! Bizning yozuvchilarimiz o‘z mehnatlarini ro‘yobga chiqarishni yaxshi o‘rganib olishgani yo‘q. Bizlar bu masalada haliyam Muqimiyning izdoshimiz. Aytmoqchimanki, ijodkorlarimizning asarlari butun dunyoga millionlab tirajda tarqalmayapti. Og‘izga tushgan «Alximik» asarini bir necha marta o‘qib chiqdim va bu asar butun dunyoda nima uchun bu qadar shovqin solinib o‘qilganini unchalik tushunmadim. Hozirgi kunda yozuvchilarimiz «Alximik»dan ko‘ra yaxshiroq asarlar yozishyapti. Lekin ularning yozganlari do‘stlari, tanishlari va ilmiy jamoatchilik davrasidan nari chiqolmayapti. Men ham orzu qillardim: o‘zbek yozuvchilarining asarlari butun dunyoda besh millionlab nusxada tarqalsa. Bu narsani amalga oshirish uchun reklama va biznes degan tushunchalarni bilib olish kerakmi deyman-da. Shuningdek, butun dunyo bilan adabiy aloqani kuchaytirish lozim deb o‘ylayman. Ingliz adibi yozgan oddiy detektiv asar 10 million nusxada butun olamga tarqaladi. Xo‘s, nima uchun bizning yozuvchilarining asarlari To‘ytepadan nariga o‘tolmaydi?

Ulug‘bek Hamdam: Haqqast rost. Nazarimda, XX asr o‘zbek she’riyati o‘zining sifat darajasiga ko‘ra jahonning istalgan ilg‘or she’riyati bilan yonma-yon tura oladi. Nasrimizda ham, barmoq bilan sanarli bo‘lsa-da, shunday asarlar bor. Afsuski, o‘zbek ijodkorlari asarlarining xorijdagi mutolaasi ko‘ngildagidek emas. Xo‘sh, o‘zbek adabiyotining dunyo bo‘ylab yaxshi o‘qilishi borasida nimalar qilish lozim? Birinchidan, yurtimizning iqtisodiy va ma’naviy jihatdan havas qilarlik pog‘onalarga yetishmog‘i yo‘lida bor imkonimizni sarflamog‘imiz joiz. Bunga hamma, yettidan yetmishgacha safarbar bo‘lmog‘i kerak. Jumladan, ijodkorlar ham. Nega? Chunki iqtisodiy va ma’naviy barkamol bo‘lgan mamlakat hamma vaqt e’tiborni tortadi. E’tibor esa alaloqibat uning adabiyotiga qiziqishga olib keladi. Ikkilamchi, tarjimon masalasi. O‘zbek va chet tilining butun badiiy tovlanishlari bilan barobar biladigan mutarjimlar avlodini tarbiyalash lozim. Ular yana ijodkor bo‘lishlari shart. Chunki asar badiiyatini nozik va teran his qilmasdan uning asliyatdagi tarovatini berish amrimahol. (Cho‘lpon, U. Nosirning Pushkin va Lermontovdan, E. Vohidovning Gyote va Yesenindan, A. Oripovning Dantedan qilgan tarjimalarini eslang!) Uchinchidan, sara asarlarni tanlab tarjima qilish, chiroyli va sifatli holda nashr etib, tarqalishi uchun chora-tadbirlar ko‘rmoq darkor. To‘rtinchidan, tarjima moddiy-ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmog‘i zarur. Jamiyatda shunday tizimning mavjudligi va doimo ishlab turishi judayam-judayam asqotadi. Albatta, mazkur muammoning beshinchi, oltinchi, yettinchi yechimlari ham bor, lekin bir chetdan boshlansa, u yog‘i yurishib ketadi.

Rahimjon Rahmat: Hozirgi yaratilayotgan badiiy asarlardagi muhim jihat shuki, ular bir-biriga ozgina bo‘lsa ham o‘xshamaydi. Bu narsa ko‘ngilda umid uyg‘otadi. Deylik, Qodiriydan boshlangan milliy o‘zbek prozasida muayyan ijtimoiy-siyosiy muhit sabab to 90-yillargacha ifoda uslubi va mavzuda jiddiy yangilik deyarli kuzatilmadi hisob. 90-yillardan keyin esa biri ikkinchisinkiga o‘xshamagan uslubga ega bo‘lgan yozuvchilar ko‘zga ko‘rina boshladi. Bu jarayonning tezlashishi ijodiy erkinlik bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Ulug‘bek Hamdam: Ko‘nikib qolib, ahamiyatini bir qadar unutgandek bo‘lyapmiz, aslida, ijodiy erkinlik – ijodkor uchun hayot-mamot masalasi. Bugun

yaxshi yozolmayotgan yoki umuman yozmayotgan yozuvchi, shoir va dramaturg bo‘lsa, avvalo, o‘zidan o‘pkalasin. Chunki uning boshi ustida hech kim «manavinday yoz, anavinday yozma» deb mafkuraviy qamchi o‘ynatib turgani yo‘q. Mavzu tanlash va uni yoritishda hozir ijodkor emin-erkin. Chinakam ijod uchun shu erkinlik qarshisida qolgan barcha vaj-korsonlar bahonadan boshqa narsa emas. Chunki ijodiy erkin bo‘limgani tufayli ham vaqtida Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzoda kabi ulkan ijodkorlar o‘zlarini to‘liq namoyon qilolmadilar. Birgina Oybekning ijodiy potensialiga e’tibor qiling, uning eng yuksak adabiy cho‘qqilarni zabit etgulik kuch-qudrati mafkuraviy tushovlar bois yuzaga chiqmay, soqov tilning ortida – botinda qoldi, shunday ketdi ham. Bugun biz ana shunday achchiq saboqlarni yodda tutmog‘imiz va imkonimizdagi mavjud ijodiy erkinlikdan maksimal darajada istifoda etmog‘imiz darkor. Siz aytayotgan uslubiy rang-baranglik, shak-shubhasiz, ijodiy erkinlik deb atalgan ne’matning dastlabki shirin mevalaridir. Adabiy bog‘imizning keng, undagi mevali daraxtlarning xilma-xil bo‘lishi kelajakda millatimizning eng botindagi ijodiy quvvatlarini ham harakatga keltirib yuborishiga ishonaman.

2010-yil mart

QIYOFALAR MAZMUNI

Sanjar NAZAR: Nazarimda, yuksak ideallarga talpinish va go‘zal tuyg‘ularning tubida, asl mohiyatida o‘ta primitiv maishiy ehtiyojlar yashirindek. Biz bu ehtiyojlarni allaqachonlardan beri o‘z nomi bilan atamaymiz. Ularni chiroyli, jimjimador atamalar ortiga yashirganmiz yoki asl nomlarini unutib yuborganmiz. Masalan, aslida, millat, e’tiqod yoki maslak atrofida birlashishdek balandparvoz harakatlarning ostida «jamoa narsissizmi» deb ataladigan ruhiy holat yotishi yoki vatanparvarlik bir paytlar g‘orda yashagan bobokalonimizning o‘z oshyonini xarsang bilan berkitishining chiroyli takrori ekanligini hech birimiz qabul qilishni xohlamaymiz. Negaki ehtiyojlarni o‘z nomi bilan atash oliynasabligimiz va boshqa ulug‘vor sifatlarimizga soya tashlaydi.

Maqsadga o‘tsam, nazarimda, barcha san’at turlari, shu jumladan, she’riyat ham insoniyatga butun taraqqiyot davomida yo‘ldosh bo‘lib kelayotganiga sabab uning mohiyatida yashiringan ehtiyojga bog‘liqdek. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Qo‘shilsangiz, she’riyatning asosida qanday ehtiyoj(lar) turibdi deb hisoblaysiz?

Ulug‘bek HAMDAM: Darhaqiqat, bu juda shafqatsiz savol. Javobi esa undan ham badtar. Biroq baribir, umid bor: garchand u judayam kichik, lekin, muhimi, mavjud.

Ma’lumki, ilmda Zigmund Freyd nazariyalarining paydo bo‘lishi bilan insoniyat yaratgan ko‘pgina ma’naviy sohalar va ularning yuzaga kelish sabablari yangicha talqin etila boshlandi. Freyd hatto butun madaniyatni qondirilmagan jinsiy mayldan «bino bo‘lgan olam» sifatida baholadi. Bundan dunyo larzaga keldi. Axir asrlardan buyon ne-ne mashaqqat va yuksak intilishlar orqasida misqollab to‘plangan ma’naviyat mahsuli – madaniyat ilk bor o‘ziga xos «tavqi la’nat»ga duch kelgan edi. Uning oliy qadriyatlardan yaralgani shubha ostiga olingandi.

Qisqasi, «She’riyatning ortidagi ham she’rmi?» demoqchisiz-da...

Agarda insoniyat deb atalgan xilqat faqat ommadan, omma darajasi va kayfiyatidan iborat bo‘lganda, men Freydga to‘la haq berardim. Yaxshiyamki, bunday emas, yaxshiyamki, hamma davrlarda kishilikning sara farzandlari

dunyoda ikkinchi qutbni (ommaga nisbatan) yaratib kelganlar va bu dunyo muvozanatini ushlab turgan. Yaxshiyamki, Freyddan oldin ham, u yashagan davrda-yu hozir ham shunday kishilar – xos aql, xos ko‘ngil egalari mavjud va ayni fakt men yuqorida ham sevinib, ham hadiksirab aytgan umidni paydo qiladi. Biroq javobning bitta «lekin»i, ya’ni bor dahshati shundaki, dunyoni tobora, Gasset kuyinib yozganidek, omma egallab, butun hukmronlikni o‘z qo‘liga olib borayotir. Bu endi do‘ppini olib qo‘yib o‘ylaydigan jiddiy masala...

Keling, endi bir qadar konkret javobga o‘tsak. Ingliz yozuvchisi Jorj Oruell: «To‘rtta sabab ijodkorni yozishga undaydi, bular: xudbinlik, olamdan estetik zavq-shavq olish va uni boshqalarga yetkazish istagi, tarixiy haqiqat qanday bo‘lsa, uni o‘shandaligicha ko‘rish ehtiyoji va siyosiy xohish-iroda», deb yozadi. Bulardan ikkitasi – xudbinlik va siyosiy xohish-iroda (ya’ni odamlarga o‘z siyosiy qarashini singdirib, dunyoning o‘zi xohlagan tarzda boshqarilishiga hissa qo‘shmak ehtiyoji) qaysidir ma’noda siz aytayotgan gap mazmuniga yaqin keladi. Biroq qolgan ikkitasi – dunyo go‘zallidan bahra olish va uni boshqalarga yetkazish istagi hamda narsalar qanday bo‘lsa, shandaligicha ko‘rish ehtiyoji insonlik sha’niga munosibdir. Hatto bularning zamirida ham ijodkorning «o‘z dunyoqarashi» bilan bog‘liq, uning qaysidir manfaatiga mos tushadigan nimalardir bo‘lishi mumkin. Biroq u endi siz aytgan «primitiv maishiy ehtiyoj» emas. Agar shunday bo‘lganda edi, ijodkor boshqa kasb bilan shug‘ullanardi. Chunki primitiv maishiy ehtiyoj yaxshi yeb, yaxshi kiyish bilan izohlanadigan tushuncha bo‘lsa, biz bilamizki, ijod yo‘li bunday manzilga deyarli (bizda) olib bormaydi...

Shaxs – ijodkor haqida bir-ikki og‘iz so‘z aytmoqchiman. Bunday ijodkorni yozishga undagan bosh sabab uning dunyoga inson bo‘lib kelgani va insonlik chegaralarini anglaganidadir. Qolgan barcha katta-kichik sabablar shuning ichida. Tasavvufda «Xudo insonni o‘ziga o‘xshatib yaratdi» degan fikr o‘tadi. Ulug‘ valiy Rumiy hazratlari esa inson Olloh sifatlarini o‘ziga qaytarib bermagunicha saodatli bo‘lolmaydi degan mazmunda bir gap aytgan. Bu degani shuki, inson o‘z umrini Ollohga xos bo‘lgan sifatlarga intilib yashab o‘tmog‘i lozim. Bas, shunday ekan, Ollohnинг bitta sifati yaratuvchilikdir. Egamning sifatlariga intilgan bandasi,

garchi Ollohdék yo‘qdan bor qilolmasa ham, baribir, Xojasiga – Yaratganga taqlid qiladi: yozadi, chizadi, kuylaydi, tarashlaydi... Bularsiz mumkin emas. Chunki u aynan shunday intilishlardagina o‘z insonlik mohiyatini, bu dunyoga kelish va undan ketish mantig‘ini – hayot mazmunini idrok etadi. Ayting, Sanjar, yozuvchilik, umuman, ijod mohiyatini shunday tushungan ijodkorga: «Sening ijoding zamirida eng mayda maishiy ehtiyojlar mavjud», deyishga endi ham haddingiz sig‘adimi?! Menimcha, yo‘q. Chunki bunday ijodkor boshqa, siz nazarda tutayotgan qalamkashlar yana boshqadir. «Badiiy tafakkur tadriji» kitobimda men bu haqda to‘xtalganman. Unda Cho‘lpon she’rlarini o‘qib poeziyani ijtimoiyat, R.Parfi ijodi bilan tanishib ruhiyat aks etguvchi maydon deb bilsangiz, ayrim shoirlar mashqlarini varaqlab uni haqiqatan ham, Freyd aytganidek, qoniqmagan biologik maylni o‘ziga shimib olgan shakl deb o‘ylaysiz degan bir fikrni ta’kidlaganman. Shuning o‘zi, nazarimda, siz bergen savolga yana bir umumiyy, ayni paytda, yetarli darajada batafsil javobdir. Chunki siz she’riyatga qaysi shoir ijodi orqali qarasangiz, u shu shoirga «yaqin» bir «rang»da o‘zini namoyon etadi. Agar so‘nggi paytlarda o‘qiyotganingiz shoirlar sizga ana o‘sha primitiv maishiy ehtiyojlarni yodga solayotgan bo‘lsa, boshqasini – ruhiy parvozlarga undovchilarni o‘qib ko‘ring. Shunda sizga poeziya boshqacha bo‘lib tuyuladi. Biroq, baribir, she’r to‘g‘risidagi haqiqat ularning bittasida emas, aslo! Balki hammasining (hatto o‘sha primitiv maishiy tuyg‘ularga eltuvchilarining ham) birligida.

Sanjar NAZAR: Bugun ko‘plab she’rlarni ko‘zdan kechira turib (ularni faqat ko‘zdan kechirish mumkin, ular o‘qish uchun judayam soddalik qiladi) muallifning holatini yaqqol tasavvur qila olaman. Bu – krossvord yechayotgan odamning holati. Hayrat ham, mehnat ham, hissiyat va ilhom ham aynan shu darajada. Nimaga shunaqa? Nimaga adabiyot, ayniqsa, she’riyat san’atning boshqa turlari, ilm-fan yoki sportdagidek uzluksiz taraqqiy etmaydi, balki o‘rni kelganda o‘zining kechagi darajasiga havas bilan boqadi?

Ulug‘bek HAMDAM: Ko‘pchilik she’rlarda aks etgan kechinma haminqadar, ularni o‘qisa ham, o‘qimasa ham bo‘ladi demoqchisiz-da!

Qo'shilaman. Bunday she'rlarning urchib ketgani, avvalo, xalqimiz tabiatidagi sentimentallik bilan, ana shunday mashqlarni qoralayotganlarning adabiyotga, she'riyatga oddiy bir narsa sifatida qarayotganlari bilan, qolaversa, chuqr adabiyestetik tarbiyaning yetishmasligi, ya'ni diddag'i qusur bilan belgilanadi. Tabiiy, buning yana ko'p chuqr sabablari bor. Shulardan bittasi shaxsning o'zi bilan, uning qismati bilan bog'liq bo'lib, aytish mumkinki, inson har qancha iste'dodli bo'lib tug'ilmasin, agar uning ko'rgan kuni, peshonasiga bitilgan qismati san'atkornikiga monand bo'lmasa, ya'ni hayot chig'iriqlarida yetarli darajada «pishmasa», undan katta adabiyot kutib bo'lmaydi. Bunday ijodkor yozgan narsalar shuning uchun ham sizning ma'naviy, ruhiy, estetik chanqog'ingizni qondirmaydi. Binobarin, siz adabiyotning kechagi darajasiga havas bilan boqa boshlaysiz.

Yana bir sabab shuki, odamlar o'z bag'ridan tuyg'uni, hisni, kechinmani tobora siqib chiqarmoqda. Zamondosh inson go'yo his-hayajonsiz, faqat aql-idrok bilan yashamoqqa ahd qilganga o'xshaydi. («O'ldim-kuydim» tarzidagi «shig'ir»larning esa katta tuyg'ularga aloqasi yo'q. Ularning darajasi juda sayoz. Sayoz suvning shovqini kuchli bo'ladi deyishadi.) Chunki shunday qilinganda hayot yengilroq bo'ladi deb ishonadi zamondosh. Binobarin, u boshni aylantiradigan ishq-muhabbatga mubtalo bo'lishni, uning olovida kuyib azoblanishni emas, balki sovuq mulohazakorlik bilan farovon hayotga eltuvchi yo'llarni tanlaydi, shularni afzal biladi... Bu – asrimizning, biz yashayotgan davrning umumiyligi kayfiyati. Bugungi shoir ham shu zamonning farzandi bo'lidan keyin o'z muhitiga xos kayfiyatdan uzoqqa ketolmaydi. Biroq, baribir, istisnolar mavjud. Katta adabiyot ana shu istisnolar evaziga yaratilishi mumkin. Lekin «istisno»lar har kuni tug'ilavermaydi-da...

«Adabiyot, she'riyat nima uchun ilm-fan yo sportdek uzluksiz taraqqiy etmaydi?» degan savolningizga kelsak, shuni aytish joizki, inson bolasi tug'ilibdiki, hamma narsani noldan – boshidan boshlaydi. Agar salaflar yetib kelgan joydan boshlaganida edi, hozir, siz aytgandek, uzluksiz taraqqiyot haqida gaplashayotgan bo'lardik. Biroq bunday emas, bugungi shoir o'z faoliyatini Navoiy yetib borgan

yuksaklikdan emas, balki Navoiy boshlagan quyilikdan – ibtidodan boshlaydi. Shuning uchun u ham turtinadi, surtinadi, alaloqibat o‘z kuch-qudratiga, Xudoyim yurak-bag‘riga jo qilgan imkoniga yarasha «yo‘l bosadi». Shunga ko‘ra, bosilgan yo‘llarning uzun-qisqaligi har xil bo‘ladi.

Sanjar NAZAR: Nafaqat she’rning, balki shoirning qiyofasi (yanayam aniqrog‘i, yuz ifodasi) ham o‘zgarib turadimi deyman-da. Sho‘ro davri shoirlarida asosan ziyolinamo, arboblarga xos qiyofa ustuvordek. Biroq 60 – 70-yillarda ular safiga darveshsifatlar qo‘shilgan, 70 – 80-yillarning shoirlari suratda jangchiga xos qiyofa, isyonkor nazar bilan namoyon bo‘lishga intilganlar. Bugungi kun shoirlari tabiat fonida, imkon qadar sentimental qiyofada ko‘rinishni xohlaydilar. (Ayniqsa, bugun televideniyeda she’r o‘qigan odam borki, biron-bir bog‘dagi butalar orasida qo‘lida bargmi, novdamni aylantirib, olislarga tikilgancha sayr qiladi.) Bu zamonning shoir bo‘lish uchun qo‘ygan talablari natijasimi yoki shoirlarning boshqalarda qoldirishni xohlayotgan tasavvurlari ifodasimi?

Ulug‘bek HAMDAM: Men har bir davrning xuddi odamlarga o‘xshab o‘z qiyofasi bo‘lishi haqida yozgandim. Savolningizga javob shu yerda ekan, uni yana takrorlashdan o‘zga chora yo‘q. Tasavvur qilingki, jamiyat – yaxlit bir organizm. U asrlar davomida yashab kelyapti. Bu davomiylik mobaynida u hech qachon bir xil kayfiyatda bo‘la olmaydi. Bu na amaliy va na nazariy jihatdan mumkin. Inson esa, xoh ishchi, xoh ijodkor bo‘lsin, o‘sha jamiyatning bir parchasidir. Bas, shunday ekan, odatda, o‘zi mansub bo‘lgan davr ruhidan uzoqqa ketolmaydi. XX asr o‘zbek shoirining turli davrlarda turlicha qiyofaga kirishining tub ildizlarini shu yerdan qidirishimiz kerak. Siz shoir qiyofalarining tasnifini sho‘ro davridan boshlayapsiz. To‘g‘ri, undan avvalgilarni – Cho‘lponlar avlodini hatto televizorda ham ko‘rmagansiz. Men ham shunday. Ajab emaski, ularning qiyofalarida ham o‘z davrining ziddiyatli, aziyatli ruhi shundoq aks etgan bo‘lsa. Sho‘ro davrida esa ziyolinamo qiyofa urf bo‘lgan deyapsiz. Buning ham o‘z sabablari bor. Chunonchi, sobiq sho‘ro davri adabiyotga o‘z mafkurasini zo‘rlab o‘tkazib kelgan bir davr bo‘lgan, ijodkor ham to‘la ma’noda ana shu mafkuraning targ‘ibotchisi hisoblanardi. Bunday targ‘ibotchi esa yozilmagan qonun-qoidaga binoan rasmiy

qiyofada bo‘lishi kerak edi. Qolaversa, tarixiy taraqqiyotda sho‘roviy Rusiyadan, dunyoning ilg‘or mamlakatlaridan orqaroqda kelayotgan Turkiston ijodkorlari tabiiy ravishda ilg‘or o‘lkalarda rusm hisoblangan qiyofalarga g‘ayrishuuriy ravishda taqlid ham qilganlar. 60-yillar avlodi davriga kelib jamiyatda mo‘tadil iqlim shabodalari (Stalin o‘limidan, 1953-yildan keyingi «Ottepel» davri) esa boshladi. Chet el adabiyotidan xabardorlik kuchaydi. Natijada shoirlar orasida «haqiqiy san’atkorda devonalikdan bir chimdim bo‘lishi kerak» degan aqida tarqaldi va ayrimlarga bu yoqib tushdi. (Shuni alohida ta’kidlab aytish kerakki, devonalik, darveshlik xislati har qanday davrda ham chinakam ijodkorlarning bir qismi, botiniy qiyofasi bo‘lib yashayveradi. Agar shuni tashqariga chiqarishga sharoit tutilsa, u namoyon qilinadi, yo‘qsa, yashirin holda kechadi.)

Shoirlarimizning 80-yillardagi jangovar qiyofalari ham o‘z izohiga ega. Ma’lumki, she’riyatimizda 70-yillar avlodi degan baquvvat avlod bor. Ularning o‘ziga xos jihatni ham aynan ijtimoiy jangovarlik bilan belgilanadi. Bu shoirlar jamiyatdaadolat o‘rnatalishini talab qilib chiqdilar, har qanday yolg‘onga, firibga, ko‘zbo‘yamachilikka qarshi kurashdilar. Bularning hammasi ular qiyofalarida aks etmasligi mumkin emasdi. Demak, «jangovar qiyofa» ular olib borgan kurash aksidir.

«Bugungi kun shoirlari tabiat fonida, sentimental qiyofada ko‘rinishni xohlaydi» degan gapingizda ham jon bor. Avvalo, yurtimizning siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lgani bugungi ijodkor ongida muayyan erkinlikni vujudga keltirdi. Kecha yurish-turishini, qiyofasini qandaydir g‘oyalar yo‘nalishiga muvofiqlashtirishga ehtiyoj sezgan shoir endi o‘z ko‘ngil mayllariga ham qulog tutib, o‘zini birmuncha bo‘sh qo‘yib yubordi, chamasi. Yuqorida ta’kidlanganidek, xalqimiz tabiatidagi (Sharq xalqlarining aksari xos) sentimentallik ana o‘sha erkinlik tufayli o‘z-o‘zidan zamondosh shoir qiyofasiga qalqib chiqmoqda.

Bular umumiyl qiyofalardir. Umumqiyofalar qafasini parchalab, o‘zining individual ovozi, demakki, xos qiyofasiga ega bo‘lishi uchun shoir katta Ijodkor, katta Odam, katta Shaxs bo‘lishi shart! Buning boshqa chorasi ham, yo‘li ham yo‘q! Yana bir gap: qiyofalar ichida eng dahshatlisi – qiyofasizlik. Siz aytgan

sentimentallik ham ko‘p jihatdan mana shunga yaqin keladi. Chunki shoir o‘z qiyofasini topa olmay, o‘zini umumiy ruhga, kayfiyatga topshirib qo‘yadi. Natijada davr qiyofasi paydo bo‘ladi-yu, shoirning o‘z qiyofasi shakllanmaydi. Qiyofasizlik shu. Ehtimol, sizning bugungi she’riyatdan ko‘nglingiz to‘lmayotgani sabablaridan biri ham shundadir. Ehtimol, siz suyansa bo‘ladigan, sevsə arziydigan qiyofa izlayotgandirsiz. Ko‘rinadiki, butun shoir, umuman, ijodkor anglamog‘i kerakki, har kim o‘z yo‘lini, o‘z qiyofasini qidirib topmaguncha uzoqqa borolmaydi. Buning uchun faqat she’r o‘qish va she’r yozish bilangina chegaralanmay, ayniqsa, falsafa, psixologiya, tarix kabi ko‘plab ijtimoiy fanlarni, qolaversa, insoniyat madaniyati asoslarini chuqur o‘rganmog‘i, tinimsiz mutolaa qilmog‘i shart. Biroq shunda ham omad unga kulib boqadimi-yo‘qmi – bir narsa deyish qiyin. Chunki o‘z so‘ziga, o‘z qiyofasiga ega katta ijodkor bo‘lishning ikkinchi tomoni taqdiri azalda inson peshonasiga bitilgan qismatga borib bog‘lanadi. «Xudo bergen iste’dod» deyishadi-ku... Shuning mohiyatida talantli ijodkor qismatining chinakam san’atkornikiga monand bo‘lishi ham ko‘zda tutiladi. Soddaroq aytganda, shoirda yuqorida sanalgalarning hammasi bo‘lgani holda, u yana o‘z qismati tomonidan shunaqangi iskanjaga olinmog‘i zarurki, natijada ushbu qafasdan qutulmoq uchun uning butun iste’dodi, bilimi, ehtirosi... hamma-hamma to‘la ravishda ishga solingan bo‘lsin! Shundagina ijodkor qiyofasi tug‘iladi. Biroq, inkor etolmaymizki, hech qaysi sog‘lom fikrlovchi odam o‘ziga hech qanaqa dard, hech qanday aziyatni tilab olmaydi... Mana, nima uchun har bir ijodkor o‘z qiyofasiga ega bo‘lishni istaydi-yu, biroq kamdan kam shoir yo yozuvchi, qo‘schiqchi yo rassomning o‘z so‘zi, o‘z qiyofasi bo‘ladi. Siz yuqorida sanagan olimona, darveshsifat yoki jangovor-u sentimental qiyofalar ham qaysidir ma’noda umumqiyofadir. Yaxshi bilamizki, XX asr o‘zbek she’riyati «yukini ko‘tarib turgan» eng baquvvat shoirlarining o‘z qiyofalari mavjudki, bu bilan ular o‘z davrining ijodkorlariga «yopishtirilgan» yorliq – umumqiyofadan ajralib turadi. Yana shunday kuchli qiyofalar borki, ular davr qiyofasini belgilab berishadi. Natijada ko‘pchilik ularga ergashib, o‘z qiyofalarini ularning qiyofalarida «g‘arq qilishadi». Bular endi alohida suhbatlar mavzusi...

Sanjar NAZAR: She’riyatga bilvosita aloqador bo‘lgan yana bitta savol. Nimaga keyingi paytda shoiralar ko‘payib ketdi?

Ulug‘bek HAMDAM: Nazarimda, hali savolningiz serobga o‘xshaydi. Shuning uchun qisqa va lo‘nda javob berishga urinaman.

Avvalo, siz aytayotgan «keyingi paytda» sivilizatsiya tug‘ib berayotgan kayfiyat tubdan o‘zgardi. Ayollarimiz o‘zlarini yanada «erkin» his qilib qoldi. Ishlash imkoni, erkaklar bilan barobar bo‘lish huquqi, din, vijdon, so‘z va yana shu kabi o‘nlab erkinliklar, bularning yonida yana iqtisodiy mustaqil bo‘lish kabilar ayollar uchun asrlar davomida qulflи turgan eshiklarni ochib yubordi. Natijada ularning dunyoqarash va yashash tarzlarida «yangi qanotlar» o‘sib chiqdi. Qarabsizki, bu yog‘iga ko‘ngil ham erkin bo‘lib qoldi... Bu degani o‘nlab, yuzlab, minglab shoiralardir... Bu – birinchi sabab.

Ikkinchisi yuqorida eslangan umumiy sentimental ruh bilan bog‘liq bo‘lib, darajasidan qat‘i nazar, ikki-uch bor oh-voh chekib, ko‘zyosh to‘kish bilan osongina mashhur bo‘lish, odamlar e’tiborini jalb qilish mumkinligi his qilindi. Ya’ni ilgari dugonasiga dardini aytish bilan taskin topgan ayol endi o’sha dardni dunyoga doston qilish ko‘proq foyda beryapti deb ishonib qoldi. Alaloqibat ayollar orasida shig‘ir yozg‘uchilar urchidi-ketdi.

Aytiganlar ommaviy ayol she’riyati to‘g‘risidagi umumiy fikrlar bo‘lib, bundan tashqari, yana shunday ayol poeziyasi ham borki, uning yuksak namunalari o‘zbek she’riyatining munosib bir qismini tashkil etadi. Bu endi alohida suhbat mavzusi.

Sanjar NAZAR: She’riyatning saviyasi adabiyotshunoslikning saviyasiga qanchalik bog‘liq? Ba’zi o‘rinlarda badiiy adabiyot haqidagi nazariy fikrlar asarlardan oldinroqda yurishi kerak emasmi?

Ulug‘bek HAMDAM: Nazarimda, katta shoir (umuman, ijodkor)ning ichida yaxshigina adabiyotshunos ham yashaydi. Garchand u hech qachon adabiy-ilmiy maqolalar yozmasa ham. Bas, shunday ekan, shoirning yozganlari o‘z botinidagi adabiyotshunos olim tomonidan nazorat qilib turiladi.

Bevosita savolningizga kelsak, to‘g‘ri, ba’zan adabiy-ilmiy fikr badiiy-estetik dunyoqarashdan o‘zib ketishi ham mumkin. Biroq buning uchun adabiyotshunos dunyoni badiiy-estetik qabul qilish bobida shoirdan oldinroqda yurishi shart deb o‘ylayman. Shundagina adabiyot, she’riyat adabiyotshunoslikning ortidan yetib keladi. Bularning hammasi aylanib borib shoirning ham, adabiyotshunosning ham o‘ziga, uning shaxslik, ma’rifatga daxldorlik, iste’dod darajasiga bog‘lanadi.

Sanjar NAZAR: She’riyatda «aqlli» va «iste’dodli» degan sifatlar doim ham mos kelishi shartmi? Umuman, sizningcha, san’atning ushbu turida daholikning asosiy ko‘rsatkichlari nimalar?

Ulug‘bek HAMDAM: Shunday vaqtlar bo‘ladiki, biz «aqlli» she’riyatni o‘qigimiz keladi, boshqa bir vaqtda esa iste’dod bilan yozilganini afzal ko‘ramiz. Nazarimda, «iste’dodli» degan sifat o‘z ichiga «aqlli» degan sifatni ham qamrab oladi. Biroq teskarisiga, ya’ni «aqlli» «iste’dodli»ni qamrab olishiga unchalik ishonmayman. Bas, shunday ekan, she’riyatda iste’dod birlamchidir.

Sanjar NAZAR: Siz nimaning ilinjida she’r o‘qiysiz: ohangmi, hissiyotmi, fikrmi yoki boshqa biron narsami?

Ulug‘bek HAMDAM: Menga ko‘ra, eng yaxshi she’r bularning barini o‘z ichiga olgan she’rdir. Biroq biz ba’zan chiroyli ifoda qilingan aforizmni ham she’r o‘rnida qabul qilamiz. Chunki ichimizda aforizmga, hikmatga bo‘lgan ehtiyoj bor.

Sanjar NAZAR: Yozuvchi Nazar Eshonqul bilan suhbatlashganimizda «XXI asr nasr asri bo‘ladi» degan edi. Siz bunga nima deysiz?

Ulug‘bek HAMDAM: Yaqinda adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul: «XXI asrda she’riyatimiz yanada ilgari ketadi», dedi. Har ikkala fikrda ham jon bor. Menimcha, keyingi 15 yil mobaynida hayotimiz, dunyoqarashimizda shunchalik azim evrilishlar bo‘ldiki, endi navbat (ijodkor uchun!) o‘shalarni badiiy-estetik nuqtayi nazardan idrok etishga keldi. Demak, shoir uchun ham, nosir uchun ham ulkan imkoniyat paydo bo‘lib turibdi. Biroq hamma gap ijodkor va uning tashabbusida.

Sanjar NAZAR: Ulug‘bek aka, oddiy o‘quvchi sifatida, bugungi suhbatimiz singari mavzularning «Yosh kuch»da yoritilishi qanchalik o‘rinli deb o‘ylaysiz?

Ulug‘bek HAMDAM: Men jurnalningizga oddiy o‘quvchi sifatida qaray olishim mumkindir, biroq ushbu suhbatga unday qaray olmayman. Chunki har qanaqasiga olib ko‘rmaylik, adabiyotga aloqador suhbatda ko‘tarilgan muammolar men uchun juda muhim va qadrli bo‘lib tuyulaveradi. Shunday bo‘lsa ham, oddiy o‘quvchiga buning (suhbatning) qizig‘i yo‘q bo‘lsa kerak deb yozishga o‘zimda kuch topa olaman. Fikrlovchi o‘quvchi uchun esa bunday suhbatlar judayam zarur. Endi tanlash (suhbatni e’lon qilish-qilmaslik) sizlarning ixtiyoriningizda.

Suhbat «Yosh kuch» jurnalining 2003-yil 2-sonida e’lon qilingan.

ZAMON, INSON VA MODERN SHE'RIYAT

A. Allambergenov: Modernizm an'analarni rad qiladi, sizningcha, an'analardan uzilgan adabiyot (modern ta'lomoti) boshi berk ko'chaga kirib qolmaydimi?

U. Hamdam: Ha, modernizm an'analarni inkor etadi. Lekin o'rniga o'z realligini taqdim qiladi. Avvalo, nega inkor etadi? Chunki u real hayotda baxtli bo'lishning imkoniy yo'q, inson faqat o'z xayollaridagi insondek yashay oladi deb biladi va ispan esteti O. Gasset iborasi bilan aytganda, ko'z soqqalarini 180 gradusga burib, e'tiborni ichkariga qaratadi. Modernizmning realligi ichkarida, inson botinidagi reallikdir. Lekin bunday xulosaga u «he» yo'q, «be» yo'q, tephakis yo'lda keldimi? Aslo! Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oqibatida million-million insonning yostig'i quridi. Bu dahshatlar G'arb tafakkur egalarining shundoq ko'z o'ngida sodir bo'ldi. Natijada botinda «inson dunyoni qo'l bilan isloh qila olmaydi, haqiqiy hayot, baxt insonning xayollarida» degan fikr tug'ilди. XX asr san'atkori shunday deyishga majbur bo'ldi. «Xayol, xayol, yolg'iz xayol go'zaldir, Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqamen...» deb yozmadimi xuddi shu davr farzandi, ulug' o'zbek shoiri Abdulhamid Cho'lpon. Albatta, keyinroq modernizm o'zini har ko'yga solib ko'rdi, jumladan, u adabiyotni o'yinga aylantirishga urindi. Bu narsa, ayniqsa, modernizmdan keyin kelgan postmodernizmda avj oldi. Ayni hol nomlari zikr etilgan oqimlarning, siz aytgandek, boshi berk ko'chaga kirib borayotganidan darak edi. U yog'ini so'rasangiz, tanglik hozirgi dunyoning o'zida mavjud. Akademik Yuriy Borev bashariyatning hozirda boshi berk ko'chaga kirib qolgani-yu, uning yurishi uchun yangi paradigmang, ya'ni yo'lning yo'qligi haqida bong urmoqda. Modomiki, boshi berklik zamonaviy hayotning o'ziga xos jarayoni bo'lsa, demak, «izm»lar (jumladan, modernizm) ham ana shu hayotiy kayfiyatni aks ettiryapti ekan-da. Shunga qaramay, qanoatimcha, yangi paradigmaga ehtiyoj bor ekan, u hali izlanadi, izlanmoqda ham.

Qolaversa, Anvar, shu savolningizning o'ziga butun boshli bir suhbatni bag'ishlash kerak. Yo'l-yo'lakay aytib ado qilinadigan mavzu emas bu.

A. Allambergenov: Ijodiy malaka yuksalishida moderncha talqin qanday o‘rin tutadi deb o‘ylaysiz?

U. Hamdam: Qarshi bo‘lmasangiz, moderncha talqinni, umuman, moderncha tafakkur tarzi deb olsak. Chunki moderncha tafakkur tarzi bo‘lmasdan talqin ham bo‘lmaydi. Xullas, ushbu tafakkur tarzining bugungi, zamonaviy ijodkor malakasi o‘sishida judayam katta ahamiyati bor. Chunki modernizm, ayrimlar iddao qilayotganidek, oliftalik degani emas. U – hayotning o‘zidan o‘sib chiqqan bitta oqim, bitta kayfiyat, o‘zlikni ifoda qilishning bitta yo‘li. Bu yo‘lning sir-u sinoatlaridan xabardor bo‘lish esa, o‘ylaymanki, ijod ustasi uchun koni foyda. Axir, usta kurashchining kurashning barcha usullarini bilgani yaxshimi yoki aksi? Shunday rivoyat bor. Bir shogird ustozining yonida yurib, undan kurash asrоридан yaxshigina saboq olibdi. Kun kelibdiki, shogird ustozdan hamma usullarni o‘rgandim deb o‘ylabdi va xalq sayllaridan birida elning ko‘z o‘ngida ustozи bilan bellashishga jur’at qilibdi. «Ustozim keksa, men esa yoshman. U bilganni men ham bilaman. Yoshligim esa zafar quchadi», deya xomxayol qilibdi. Kurash boshlanibdi va hash-pash deguncha shogird ustozining oyoqlari ostiga tushib qolibdi. Ma’lum bo‘lishicha, shogird shoshilgan ekan: ustozining hali unga o‘rgatmagan kurash usullari bor ekan, u o‘sha usulni qo‘llab, shogirdi yelkasini yerga qadagan ekan. Xuddi shunday, qaysi izm bo‘lishidan qat’i nazar, haqiqiy ijodkor ularning havosidan simirib, kerakli qirralarini kifoya qilgulik darajada o‘zlashtirgan bo‘lsa, bu faqat yutuqdir.

A. Allambergenov: Sizningcha, xalqchillik tamoyili she’rni san’at darajasiga olib chiqadigan omil bo‘la oladimi yoki yo‘qmi?

U. Hamdam: Albatta, bo‘ladi. Faqat buning bitta sharti bor: ijodkor iste’dodli bo‘lsin! Iste’dod, iste’dod, yana bir bor iste’dod! Faqat u hal qiladi.

A. Allambergenov: Ozod Sharafiddinov: «Modernizm jo‘n hodisa emas», – deya unga ehtiyyotkorlik bilan yondashsa, Suvon Meliyev modern yo‘nalishini tamomila inkor etib, bu yo‘nalish o‘zbek adabiyotini buzadi, u asl badiiyatni tushunmaydigan va yaratolmaydigan ijodkorlar yo‘li deya hukm chiqaradi. Har ikkala qarashga o‘z fikringizni bildirsangiz?

U. Hamdam: Sho‘ro davrida modernizmga taqiq qo‘yildi. Bu ishning o‘ziga yarasha arzigulik sabablari bo‘lsa-da (chunonchi, modernizm individualizmni yoqlaydi, axloqiy chegara tanimaydi, har qanday an’anani inkor qiladi, Yevropa madaniyatini boshqa madaniyatlardan ustun qo‘yadi va h.k.), oqimning dunyo tan olgan, jahon adabiyotida alohida mavqega ega bo‘lgan vakillari bor ediki, ularning asarlarini man qilish insonni yaxshi bilmaslik, uning badiiy tafakkur tadrijini mensimaslik bilan teng edi. Zero, modernizmni bilishga intilish insonni bilishga, uning botinidagi puchmoqlarda yashirinib yotgan sirlarga bo‘ylashga, ichkaridagi ziddiyatlardan boxabar bo‘lishga intilishdir, buning mahliyolik yoki g‘arbparastlikka aslo aloqasi yo‘q. Insonning san’at-u adabiyotdagi har bir hodisaning tub ildizlariga sog‘lom nazar sola bilishi alaloqibat uning dunyoqarashi butunligini ta’min etibgina qolmay, ma’naviy immunitetini ham chiniqtiradi. «Modernizm nima?» degan savolga dunyo va o‘zbek olimlari ko‘pdan beri javob berib kelishadi, haligacha bu masala ustida bahslar yakunlangani yo‘q. Modernizm, o‘zbek olimi Ozod Sharafiddinov ta’kidlab aytganidek, «jo‘n hodisa» emas. O‘zbek adabiyotshunosligida, ayniqsa, istiqlol yillarida modernizm atrofida qizg‘in bahslar bo‘ldi. Bahslarda, asosan, modernizmni o‘zbek mentalitetiga butunlay yot mafkura yoki, aksincha, modernizm insoniyat badiiy tafakkur tadrijining bir bosqichi, uni o‘qib-o‘rganishning hech bir zarari yo‘q degan ikki qarash aytildi. Chunonchi, siz eslagan adabiyotshunos olim, o‘ziga xos qarashlar egasi Suvon Meliyevning chiqishlaridan tashqari filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov «Absurd ma’niszlikdir»²⁶ maqolasida modernizm oqimlaridan biri – absurdni keskin tanqid ostiga oladi, uni «inqiroz», ekzistensializm oqimini esa «subutsiz» deb ataydi. Bu qarashga javoban filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov o‘z qarashlarini ilgari surib, absurd va ekzistensializm yo‘nalishidagi asarlarga san’at hodisasi sifatida qarash kerakligini aytadi: «B. Sarimsoqovning absurd va ekzistensializmga bergen bahosi o‘ta munozarali. San’at hodisasi sifatida absurd tushunchasi bu so‘zning lug‘aviy ma’nosidan o‘zgacharoqdir. Absurd, B. Sarimsoqov da’vo qilganidek, aslo

²⁶ O‘zAS. 2002-y. 28-iyun.

ma’nisizlik emas, balki, aksincha, teran ma’noga ega. Absurd adabiyot, san’atda adashgan, aldangan, behuda, samarasiz mehnat-faoliyatga, ma’nisiz qismatga mubtalo etilgan shaxsning fojiasini olib berish, kutilmagan tomonlardan o‘ziga xos tarzda badiiy tahlil etishdan iborat»²⁷. Ko‘rinib turganidek, qarashlar har xil, ziddiyatli. Bahs-u munozaralar hali-hanuz davom etmoqda. Talaba yoshlar bu bahsda qaysi fikr jo‘yaliroq, ya’ni haqiqatga yaqinroq ekanini bilish uchun esa modernizm va uning yo‘nalishlari mohiyatini teranroq o‘rganib chiqishlari lozim bo‘ladi.

A. Allambergenov: Jiddiy yangilanayotgan adabiy tafakkurga turli xil yo‘nalishlar ta’siri ortib bormoqda, xususan, modernizm o‘rnini egallayotgan postmodernizm ta’limoti ta’sirini ta’kidlashimiz mumkin. Postmoderncha talqin she’riy dunyoqarash yuksalishiga olib keladimi yoki aksincha?

U. Hamdam: Postmodernizm modernizmdan keyin kelgan bo‘lib («post» – keyin), o‘ta murakkab va serqirra adabiy oqimdir. Adabiy oqim deyilsa-da, postmodernizm xuddi modernizm kabi inson dunyoqarashiga ta’sir qilgan, keng tarmoqli va g‘oyat ziddiyatli hodisadir. U haqidagi qarashlar ham tugallanmagan. Chunki hodisaning o‘zi davom etmoqda. Qayerdaki xaos bor ekan, u yerda postmodernizm ham bor deb qaraladi. Xaos esa hozirda dunyoning hamma joyida bor.

Postmodernizmni maydonga chiqargan ko‘pdan ko‘p omillarning bir nechtasiga e’tibor beramiz:

1. Dunyo madaniyatlarning qorishuvi. Bunga elektron axborot vositalarida ro‘y bergan tezkorlik, masalan, televideniye va internetni asosiy sabablardan biri sifatida ko‘rsatish mumkin. Natijada turfa xil madaniyatlар ilgari hech qachon ko‘rilmagan, kuzatilmagan darajada bir-biriga ta’sir qildi, bir-biriga qorishdi. Turmushdagи bu hol (eklektiklik) san’at va adabiyotga ham ko‘chib o‘tdi. Turli san’atlar o‘zaro bir-biriga «aralashdi».

2. Ommaviy didsizlashuv. Bunga sabab qilib olimlar badiiy asar qimmatini uning qancha ko‘p foyda keltirganligi bilan o‘lchanishini ko‘rsatishadi. Natijada

²⁷ Норматов У., Ҳамдам У. Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи. Сухбат // Жаҳон адабиёти.

badiiy asarga san'at asari deb emas, balki tovar o'laroq qaraldi va shunday «ishlab chiqara» boshlandi. Uslublar, janrlar qorishdi, mutatsiyaga uchradi. Chinakam san'at asari bilan ommaviy asar o'rtasidagi chegara buzildi. San'at asari dizaynlashdi, ya'ni faqat uning tashqi bezagiga e'tibor kuchaydi. Uni sotiladigan tovarga aylantirildi. Bularning hammasi bir bo'lib ommaviy didsizlashuvga yo'l ochdi.

3. Dunyo holining doimiy o'zgarib turishini falsafiy, badiiy-estetik idrok qilish natijasida umidsizlik, ertangi kunga ishonchning yo'qolishi va h.k...

Bu kabi omillar postmodernizmni paydo qildi. Bundan tashqari, realistik san'at olamni tushunish va tushuntirishga uringan metarivoyatlar yaratgan bo'lsa, postmodernizm ularni bekor sanaydi, o'rniga butun olam haqida emas, balki uning parchalari haqida tasavvur beradigan kichik hikoyalar yaratadi. Chunki faqat parchalargagina ishonish mumkin deb biladi. Mutaxassislarning fikricha, ayni shu xusus postmodernizmni modernizmdan ajratib turuvchi asosiy farqdir. Chunki modernizm ham xuddi realizm kabi dunyoni yaxlit ko'radi, voqelikni badiiy idrok etish mumkin emas deb bilsa-da, uning yaxlit, butun modelini yaratishga urinadi. Postmodernizm esa voqelikni parcha-parcha holida ko'radi va ifodalaydi. Postmodernizm uchun ijodning, asarning o'zi jarayon, maqsaddir. Uningcha, badiiy asar tashqaridagi olamni tushuntirib berishga qodir emas, shuning uchun ijod jarayonining o'zi qadriyat. Zero, dunyoni anglab bo'lmaydi, uning o'zi ma'ni (logos)dan xoli deb biladi. Postmodernizm an'anaviy madaniyat negizidagi logosentrizmni inkor qiladi. Bas, shunday ekan, dunyo haqida u yoki bu ma'noga suyangan konsepsiyanı ilgari surayotgan muallifning o'zi ham qadrini yo'qotadi. Chunki, postmodernizmga ko'ra, muallifni qadrli qilayotgan logos (ma'ni) o'z ahamiyatini yo'qotgandir. Modomiki, dunyoni ma'no yordamida tushuntirib bo'lmash ekan, uni tushuntirmoqchi bo'lgan muallifning ham o'rni bo'lmaydi. «Muallif o'limi» konsepsiysi shunday vujudga kelgan. Dunyoni uzuq-yuluq rivoyatlarga tushuntirishi mumkin deydi postmodernizm. Darhaqiqat, XVIII asrdan e'tiboran insonning dunyoni o'zgartiruvchilik rolining sekin-asta pasayishib kelishi va, nihoyat, yo'qolishi adabiyotdagi subyekt rolining tushib ketishiga olib

keldi. Bu esa «muallif o‘limi»ni paydo qildi. Natijada adabiyotga yakka shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan yaratuvchilik faoliyati deb emas, balki negizida kollektiv ijod mahsuli bo‘lgan «intertekstual o‘yin» deb qarala boshlandi. Avvaliga (XX asr avvalida) Nitshe: «Xudo o‘ldi», deb jar solgan edi, XX ikkinchi yarmida esa «muallif o‘limi» e’lon qilindi. Inson ham matndan, koddan iborat, uning butun umri davomida aytgan har bir fikri, so‘zi, xatti-harakati – kod. Hammasini u ajdodlardan meros qilib olgan. Uning o‘ziga tegishli hech narsasi yo‘q. Insoniyat madaniyati ham butun boshli bir intermatn. Inson tomonidan yozilayotgan har qanday asar ham ana shu intermatndan olinadi (intertekstuallik) va bu matn ijodkorning kodlangan subyekti, xolos. Demak, muallif ham yo‘q, u o‘lgan (Fuko va Bart tadqiqotlariga qarang) deyishdi.

Endi, Anvar, o‘zingiz xulosa qiling, mana shuncha gapdan keyin «postmoderncha talqin she’riy dunyoqarash yuksalishiga olib keladimi?». Nazarimda, postmodern dunyoqarash va ifoda yo‘sini o‘z dunyoqarashi va uslubiga payvand qilgan, lekin bu dunyoqarashda o‘zligini yo‘qotib qo‘ymagan ijodkorgina mazkur yo‘nalishning mahv etuvchi bo‘ronlardidan omon chiqa oladi. Faqat shunday ijodkorning she’riy dunyoqarashida, aytaylik, badiiy tafakkur tadrijida siljish bo‘lishi mumkin. Men bu haqdagi mulohazalarimni «Inson va postmodern dunyo» degan she’rimda to‘liqroq ifodalaganman.

A. Allambergenov: Sizningcha, o‘zbek modern she’riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor nechog‘lik?

U. Hamdam: Bu masala o‘zbek she’rshunosligida monografik planda hali o‘rganilgan emas. Jumladan, men ham masalani siz qo‘ygan tarzda qo‘yib tadqiq qilgan emasman. Hozirgacha modernizm haqida yozganlarimiz uning umumiyligi qiyofasini chizishga qaratildi desam ko‘nglim xotirjam topadi. Chunki yo‘q narsani bor qilib ko‘rsatmagan bo‘laman-da. Demak, bu kabi masalalar sizlar kabi yosh tadqiqotchilarini kutib turibdi.

A.Allambergenov: Tilni bilmay she’r yozishga jazm qilgan shoir suzishni bilmay daryoga tushgan tentakka o‘xshaydi deyishadi. Hozirgi kunda she’r

nimaligini bilmay yoki modernizmning asl mohiyatini anglamay modern yo‘nalishida ijod qilayotganlar ko‘p. Bular haqida nima degan bo‘lardingiz?

U. Hamdam: Ha, hozirda modernizm ayrim iste’dodsiz qalamkashlar qochib borib ostiga yashirinadigan katta xona burchagidagi stolga aylanib qoldi. Ular ana shu stol ostiga kirib olsak, bas, modernist bo‘lamiz-qolamiz, asli kim ekanligimizni hech kim bilmaydi deb o‘ylashib, tushunuksiz, nuqta-vergulsiz va qofiyasiz misralar yig‘indisini modernistik asar bo‘lsa kerak deb taxmin qilishadi, boshqalarni ham shunga ishontirmoqchi bo‘lishadi. Xato! Modernizm oddiy hodisa emas. Aksincha, u juda murakkab va rang-barang ko‘rinishli adabiy oqimdir. Shuning uchun ham hali hech bir shoir yoki nosir o‘zbek adabiyotida chinakam modernizm hodisasi bo‘lib ko‘z oldimizda qad rostlagan emas. Boshqa tomondan, biz Sharq farzandlarimiz. O‘zbek ijodkori siyosidan G‘arb modernistini qidirish ham to‘g‘ri emas. Qolaversa, ko‘chada allaqachon boshqa havo esib turibdi: postmodernizm, metamodernizm, metarealizm, astro degandek. Bularning barchasini kichik bir suhbat doirasida qamrab olib bo‘lmaydi.

A. Allambergenov: «Qalamkashga qishloqning qalbi, shaharning aqli kerak!» O‘tkir Hoshimovning yuqoridagi fikri modern she’riyatida o‘z aksini topyaptimi?

U. Hamdam: O‘tkir akaning shu gapini men ham yoqtirib aytib yuraman. Umuman, bugungi ijodkor uchun kerak shunday bo‘lish. Bugun ijodkor olim ham bo‘lishi zarur deb o‘ylayman. Modernchi shoir do‘stimiz: «Hamma shoir emas, Shoир – hamma» (Sh. Subhon), deganda shuni nazarda tutgan, fikrimcha. Ya’ni shoir – hammaning terisi ichiga kirib, uni his qiladigan zot. Agar shunday qila olmasa, uning qo‘liga qalam olmagani tuzuk. Xuddi shunday, ijodkor, ayniqsa, yozuvchi hamma sohani loaqal yuzakiroq bo‘lsa-da bilishi foyda beradi. Biron mavzuda asar yozayotganda esa mavzuga aloqador soha asoslarini bir mutaxassis – olim qadar bilishi kerak. Siz qo‘ygan masala aynan modern she’riyatda qanday aks etgan degan savolni men o‘zingizga, yoshlар avlodiga havola qilaman: xuddi havoda ilib olinib, yana jamoadoshga oshirilgan to‘p yanglig‘. Endi bu kabi ilmiy

muammolar javobini sizlardan kutamiz. Albatta, biz ham qarab turmaymiz, kuchimiz yetgancha yoningizda bo‘lamiz.

A. Allambergenov: Yozuvchining o‘quvchiga aytayotgan dardi qancha kuchli bo‘lsa, asar tili shuncha biyron bo‘ladi. Umuman olganda, modern she’riyati ancha «mujmal»dek. Yoki bu ruhda ijod qiluvchi shoirlarning yozayotganlarida dard yo‘qmi?

U. Hamdam: An’anaviy she’riyat Sharqda ming yillik tajribaga ega. Modernizm – kechagi bola. (G‘arb esa postmodernizmni «yashab o‘tdi» hisob.) Shuning uchun ham aruz va barmoqda baland savyiyada bitilgan merosimiz bor. Modern ruhli she’riyatimiz esa hali yosh. Shunga qaramay, shirin mevalari yo‘q emas. O‘ylaymanki, o‘zbek modern she’riyatdagi izlanishlar, xuddi boshqa janrlarda bo‘lganidek, hali davom etadi va kun kelib o‘zining go‘zal namunalarini beradi.

A. Allambergenov: Mumtoz adabiyotimizning bosh mavzusi yor madhi, muhabbat iztiroblari va quvonchlari desak yanglishmaymiz. Yangi o‘zbek she’riyatida ham oshiq, ma’shuq, raqib obrazlarini uchratamiz, modernizmda asosiy e’tibor nimaga yo‘naltirilgan?

U.Hamdam: Botinga, o‘zlik kashfiga qaratilgan desam, xato bo‘lmas... Bunday e’tibor mumtoz she’riyatimizda ham bor edi. Mana, masalan, Hazrat Navoiy: «Har ne istarsen, o‘zingdan istagil», deydi. Yoki «Mantiq ut-tayr», «Ichindagi ichindadir», «Lison ut-tayr» kabi durdona asarlarni oling. Ularda ham e’tibor o‘zlikka qaratilgan. Modernizmda adabiyotning xuddi shu qirrasi kuchaydi, endi u butun diqqat-e’tiborni inson botiniga qaratdi. Ilgari fragmentar tarzda bu ish amalga oshirilgan bo‘lsa, endi botin kashfiga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv paydo bo‘ldi. Atrof-muhit, real dunyo tasviridan ko‘ngil tasviriga o‘tildi. Modern yo‘nalishning asosiy mazmun-mohiyati mana shunda va albatta, ifoda vositalarida deb o‘ylayman.

Suhbatdosh: Anvar Allambergenov, shoир va tadqiqotchi. Adabiy gurung. «Tamaddun nuri» журнали (2018. №2), «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» газетаси (2018-yil 20-iyul)da e’lon qilingan.

МИР БЕЗ ГРАНИЦ...

(Интервью главного редактора журнала «Звезда Востока» Улугбека Хамдама с поэтом и писателем из Австралии Натальей Крофтс

15 октября 2013 г.)

Наталья, вы живете в Сиднее, в Австралии. Это как-то обуславливает ваши творческие интересы?

– Да, в какой-то мере. Можно сказать, что из-за приезда в Австралию у меня появился новый интерес – история русской литературы пятого континента. Дело в том, что этим очень мало кто систематично занимался – а между тем в Австралии были и замечательные прозаики, и поэты, да и просто пишущие люди с удивительной судьбой: Константин Бальмонт, Борис Нарциссов и невероятно противоречивый и яркий человек Сергей Алымов, и многие другие... Лично мне очень интересно открывать этот неизвестный пласт.

Расскажите о вашей литературной деятельности. О журналах, которые вы издаете, о литературных конференциях и форумах, где вы всегда желанная участница.

– Прежде всего, я – главный редактор квартального международного издания «Интеллигент. Санкт-Петербург». Мы публикуем современную силлабо-тоническую поэзию и короткую прозу. Среди наших авторов – Ефим Бершин, Игорь Губерман, Владимир Алейников, Кирилл Ковальджи и многие другие замечательные писатели. Мы очень рады, что за три года существования нашего издания отбор материала заметно ужесточился, что, конечно же, повышает качество издания. Кроме того, в рубрике «Гость номера» мы регулярно беседуем с интересными людьми, оставившими след в литературе или формирующие современный литературный процесс. Например, у нас были опубликованы беседы с главными редакторами ведущих толстых журналов: Андреем Василевским из «Нового мира», Андреем Грицманом из «Интерпоэзии», Евгением Степановым из «Детей Ра»

и ряда других журналов. Мы планируем продолжать такие беседы, чтобы помочь нашим читателям – да и нам самим – разобраться в сегодняшнем литературном мире.

Что же касается литературных форумов и конференций, то туда я езжу не столько как редактор (хотя, конечно, мы всегда ищем новые имена, и разные литературные события тоже помогают нам их найти), сколько как автор. За последние несколько лет я побывала на очень разных событиях в разных точках планеты – от «Форума молодых писателей в Липках», регулярно проходящего в России, в Подмосковье, до ежегодного фестиваля журнала «Интерпоэзия» в Нью-Йорке.

То, что вы много ездите по всему миру, с чем связано? Это стремление к познанию мира, или потребность общения с людьми, которые занимаются литературой? Вы родились на Украине, где люди очень общительны и искренни. Сейчас вы живете в большом мегаполисе, а общения очень не хватает. Может быть, ваш страннический образ жизни своего рода компенсация той жизни, которую вы оставили на родине?

– Скорее всего, мои поездки просто связаны с характером и немного с прихотями судьбы. Все началось еще в школе, когда я случайно выиграла конкурс на годовое обучение в Штатах. Когда человеку в 17 лет приходится отправляться совершенно одному на другой конец света на целый год, как в «черную дыру», то к дальнейшим передвижениям уже относишься с легкостью. Живя в Москве и потом, учась и работая в Оксфорде и Лондоне, я потихоньку «осваивала» Европу; впоследствии, работая на Востоке, и теперь, живя в Австралии, я тоже стараюсь исследовать близлежащие страны. В свои 37 лет я побывала уже в 57 странах.

Кроме того, во многие страны хочется вернуться: теперь в самых разных точках планеты живут дорогие мне люди, хотя, казалось бы, у нас всех очень разные жизни, разное прошлое, разные языки и культуры. Раз в год я обязательно стараюсь навестить своих друзей на Украине, а два коренных американца уже много лет гордо представляют меня всем как свою дочку,

хотя формально на это нет никаких оснований. И разные точки на земном шаре, будь то Генуя, Цюрих или Сингапур, вдруг начинают излучать тепло потому, что для меня они – логическое продолжение очень любимых мною друзей.

Я внимательно прочитал ваши последний сборник «Поэт эпохи динозавров» и понял, что вас волнуют не только проблемы того края, откуда вы родом, или той страны, где вы сейчас живете. Вас интересует проблемы всего мира. Диапазон тематики ваших стихов очень широк. Об этом свидетельствуют названия ваших стихов: «Моя Одиссея», «Дубай», «С острова под Южным Крестом», «Письма с Мертвого моря», «Последний султан Занзибара» и т.д. Вы в каком-то смысле становитесь поэтом всех континентов, то есть поэтом планеты. Как вы прокомментировали бы это?

– Наверное, я просто человек, для которого во многом стерлись границы. Например, мне предлагают поехать поработать куда-нибудь в Кению или в Индонезию – и я с огромным удовольствием немедленно туда еду; то, что там совсем другая культура, образ жизни, меня не только не останавливает, а наоборот, привлекает. Я стараюсь провести в таких местах побольше времени, общаться с местными, а не с приезжими, ходить пешком или ездить на велосипеде и даже посещать местные театры. Когда я работала на Востоке, то прошла почти все каньоны султаната Оман, а о том, что это потрясающее, захватывающее дух природное сокровище, знает очень немного людей, даже из местных.

Просто у меня уже давно возникло чувство, что Земля – это мой мир, без всяких границ. И когда начинаешь много ездить, то расстояния сокращаются и уже не пугают. Мне очень интересно, как живут другие люди, как живут прочие обитатели земли. Я люблю сидеть в кафе и наблюдать за прохожими, или же могу часами смотреть, как купаются слоны, как живут колонии каких-нибудь дасси, или как леопард сидит на дереве и ждет свою добычу. В

животном мире столько интриг, страстей, иерархий – это тоже ужасно занятно, лучше любого телесериала.

Расскажите немного о литературе Австралии.

– В Австралии, как мы уже говорили, я занимаюсь, в основном, русскоязычными авторами. Думаю, что те, кого интересует австралийская литература на английском языке, уже знают и довольно известных авторов – Питера Кэри, нобелевского лауреата Патрика Уайта, поэта Генри Лоусона, и сравнительно недавно появившиеся имена – например, Аравинда Адигу, чей «Белый тигр» мне очень понравился.

А вот русской литературой Австралии серьезно очень мало кто занимался. Поэтому, наверное, лучше рассказать о ней. Насколько мне удалось установить, скорее всего, «русская литература Австралии» начинается с 1911 – 1912 года, когда на материк приехало сразу несколько интересных писателей: Константин Бальмонт, Александр Усов (Чеглок), Сергей Алымов. Правда, надолго в Австралии из этих троих авторов остался только последний, но зато и Бальмонт, и Чеглок, наверное, впервые отразили в литературе настоящую, невымышленную Австралию, честно говоря, их разочаровавшую:

*Нет Австралии тех детских наших дней,
Вся сгорела между дымов и огней.*

Такие строки напишет Бальмонт в стихотворении «Черный лебедь». Впоследствии появятся очень разные авторы, описывающие пятый континент и с любовью, и с ужасом... На портале «Русская литература Австралии» при старейшей русскоязычной газете континента «Единение» можно прочитать работы самых интересных авторов за последние сто лет. Читателей, которым интересно узнать больше о русской литературе Австралии, можно отослать к ряду моих статей на эту тему: они были опубликованы и в «Литературной газете», и, наверное, самая полная статья –

в альманахе «Белый ворон». А наше издание «Интеллигент. Санкт-Петербург» посвятило этой теме целый номер в 2012 году, когда мы отмечали столетие русской литературы континента, конечно, понимая всю условность этой даты.

Что вы знаете об узбекской литературе и о русскоязычной литературе в Узбекистане? Как вы оцениваете нашу литературу?

— Мое знакомство с писателями Узбекистана началось почти случайно: мне очень понравилась проза Исажона Султона, которую я впервые прочла в чикагском журнале «Лексикон». Но, в основном, авторов из Узбекистана я для себя открыла, когда уже стала собираться к вам в гости. Мне было очень интересно познакомиться и с узбекскими писателями, и с русскоязычными авторами, очень разноплановыми и яркими. Например, не могу не сказать о замечательной прозе и стихах Баха Ахмедова, мне также очень понравились ваши рассказы, прекрасно переведенные на русский язык Саодат Камиловой — это не дань вежливости, а лишь говоря о моем впечатлении о прочитанном.

Впоследствии мое знакомство с узбекской литературой в переводе Саодат продолжилось: она привезла книгу рассказов узбекских прозаиков для обсуждения на Форуме молодых писателей в подмосковных Липках.

Теперь я знаю, что это знакомство будет продолжаться, поскольку каждый раз, знакомясь с литературой Узбекистана, я получала большое удовольствие. И судьба продолжает меня знакомить со всеми новыми интересными авторами, живущими или родившимися в вашей стране.

Мир меняется, меняется и взгляд на мир. Естественно, что литература тоже явление динамичное. Чем отличается литература прошлого столетия от литературы сегодняшней, на ваши взгляд? И как поэт, и писатель, и как человек, который много ездит по всему миру, скажите, что ждет литературу завтра, каковы ваши прогнозы? Хочу напомнить, в начале 90-х годов у нас, в литературных кругах Узбекистана, был поднят вопрос — «Умирает ли литература?» Конечно, сразу же с

пафосом ответили, что пока человечество существует, литература тоже будет жить! А если отказаться от пафоса?

— По-моему, она будет жить и без пафоса. Как мне кажется, сейчас очень сильно меняется «инфраструктура»: читателям не совсем понятно, где искать интересных им писателей. И поэтому у многих создается впечатление, что сильных писателей сейчас нет или почти нет. Но они есть, просто каждому читателю приходится больше усилий тратить на поиски.

Наверное, в новом веке появится просто другая система публикаций, вернее, даже не публикаций, а «рекомендательная система». Понимаете, раньше, когда напечатать книгу или журнал было технически сложно, публикация уже служила рекомендацией. И таких публикаций было, в общем-то, не так уж много, за ними можно было следить — и находить подходящих вам авторов.

А сейчас любой клуб, любое собрание людей, любой отдельный человек может, по идеи, опубликовать все, что угодно: и на бумаге, и в сети. Это касается и книг, и журналов. Поэтому сейчас таких «рекомендаций» слишком много, чтобы за всем успевать следить. Более того, сомнительной стала искренность, ценность этих рекомендаций: опубликован ли автор потому, что его очень интересно читать, или потому, что он принадлежит к какому-то клубу, междусобойчику?

Хотя, конечно, ценность рекомендаций была всегда под вопросом: и в прошлом многие замечательные авторы публиковались мало или не публиковались вообще, то же касалось и отдельных книг, сейчас считающихся классикой. Здесь мне даже не нужно перечислять имен, они слишком хорошо известны: от ни разу не опубликованных при жизни стихов Павла Когана — до романа «Доктор Живаго»...

Сегодня никто не сомневается, что литература и искусство сближают народы, независимо от расы, национальности и религиозного вероисповедания. Дни рождения Навои, Шекспира или Пушкина отмечаются как литературный праздник во многих странах мира. Значит, литература

объединяет народы. Но, к большому сожалению, в нынешнем мире не очень доброжелательны к серьезной литературе. Та литература, которую мы знаем и любим, теряет свои позиции. Как вы думаете, как писатель, побывавший во многих странах, как можно разрешить эти наболевшие проблемы в пользу серьезной литературы? И что необходимо для более активного взаимодействия литератур разных стран и более активного взаимосотрудничества писателей?

— Вы знаете, возможно, мы стали слишком «серьезными». Конечно, большой пласт классической литературы — литература не развлекательная... Но из перечисленных вами авторов — Шекспир-то как раз писал «для толпы», для развлечения, для ярких сцен, которые соберут народ и увеличат кассовые сборы театра. Да и у Александра Сергеевича множество вещей озорных, на особую серьезность и пафосность не претендующих.

А что касается «потерь позиций» литературы... У того же Александра Сергеевича есть одна очень мною любимая вещь, «Опровержение на критики и замечания на собственные сочинения» — остроумная, занятная и поучительная статья. Очень рекомендую всем любителям литературы — и особенно людям пишущим — полюбопытствовать. Так вот, там он говорит: «В отношении стихотворений число требователей ограничено. Оно состоит из тех же лиц, которые платят по 5 рублей за место в театре». А теперь давайте представим себе, сколько во времена Пушкина было мест в театре. Поэтому, наверное, стоит признать, что число истинных любителей и ценителей серьезной литературы никогда не было особо большим. Как говорится все в той же статье: «Басни (как и романы) читает и литератор, и купец, и светский человек, и дама, и горничная, и дети. Но стихотворение лирическое читают только любители поэзии. А много ли их?»

Что же касается взаимодействия литератур разных стран, конечно, нужны хорошие переводчики, а еще — разумные законы авторских прав. Дело в том, что и я, и мои друзья уже неоднократно сталкивались с тем, что опубликовать переводы отличных зарубежных авторов очень трудно, если те

умерли только недавно, и их правами теперь заведует какое-нибудь агентство. Такие агентства, как правило, интересует только доход от публикаций, без учета того, что сами переводчики за подобные публикации часто ничего не получают. Продвижение же автора среди русских читателей в такой ситуации, как правило, агентства не интересует совершенно. Выходит, что нужно или договариваться с живыми авторами, которые, надо сказать, вполне понимающие относятся к ситуации, по крайней мере, исходя из моего опыта, или же переводить авторов, умерших более 75 лет назад, то есть тех, чьи работы уже свободны от копирайта. Что, конечно, не сильно способствует взаимодействию культур и взаимопроникновению именно некоммерческой литературы в настоящем, на том начальном этапе, когда только начинают выкристаллизовываться имена появляющихся классиков некоммерческой литературы, в первую очередь, стихов.

Вовремя нашей беседы, когда я привел высказывание пророка Мухаммеда о том, что человек, который знает один язык – это один человек, человек, который знает два языка – это два человека, вам оно понравилось и вы записали его в свой блокнот. Сколько же человек живет в вас? Вы не знали, что в вас живет несколько человек?

– У меня возникало это чувство, и когда я прислушивалась к себе и к моим друзьям, многие из которых тоже говорят на нескольких языках. Помню, когда, живя в Америке, я впервые по-настоящему заговорила по-английски, то есть, не переводя слова и предложения с русского, а просто погружаясь в этот язык и думая его категориями, то у меня даже возник небольшой рассказ об этом погружении – и там была фраза «меня становится две». Наверное, именно поэтому приведенное вами высказывание так сильно меня зацепило, так сильно понравилось: это формулировка того, что я уже понимала и чувствовала, но так хорошо не могла сказать. Так что спасибо вам за эту находку!

Что же касается «количества людей», то, как мне кажется, тут все-таки многое зависит от уровня языка. Два человека во мне живут точно:

русскоязычный и англоязычный, и я подозреваю, что италоязычный тоже, хотя практики и «простора для выражения» этому последнему сейчас достается, увы, не так много. Будем считать, два с половиной человека!

В октябре этого года вы побывали в Узбекистане. Посетили Бухару, Самарканд, Ташкент. Поделитесь, пожалуйста, своими впечатлениями.

— Я должна абсолютно искренне сказать, что в Узбекистан я просто влюбилась — и теперь мне очень хочется сюда вернуться. У меня появилась еще одна точка на карте, начавшая излучать для меня тепло, переставшая просто быть каким-то абстрактным географическим названием. Во-первых, здесь я встретила невероятно радушных, светлых и мудрых людей; наверное, встреченных мною здесь замечательных людей объединяет «солнечность», на каком бы языке они не говорили.

И, конечно, здесь невероятно древняя, интересная культура. Больше всего меня поразила Бухара, ее древность, сохранившийся дух другой жизни, другого мира, даже другой цивилизации. Очень красив Самарканд, очень зеленый и чистый Ташкент. Каждое место оставило свое теплое впечатление — а сколько еще мест в Узбекистане, в которых я на этот раз не успела побывать!

Ваши пожелания нашим читателям...

— У вас замечательные читатели: в зале музея Есенина, выступая перед ташкентскими слушателями, я видела перед собой понимающих, умных, отзывчивых и чувствующих людей. К такой аудитории хочется возвращаться, и приятно, что такие люди есть. Поэтому просто пожелаю вашим читателям не утратить этот дар — чувствовать поэзию, ценить литературу, любить прекрасное, на каком бы языке они не говорили. И еще раз — большое спасибо за гостеприимство, радущие и теплоту, которые я нашла в этой замечательной стране.

OZOD SHARAFIDDINOV: «MODERNIZM JO‘N HODISA... EMAS»
(2002)

— *Garchi «modernizm» atamasi qariyb bir asrdan beri ishlatilib kelayotgan bo‘lsa-da, biz uchun yangi, bir qadar notanish istiloh. Suhbatimiz boshida bu tushunchaning mohiyati haqida gazetxonlarimizga ma’lumot bersangiz.*

— «Modernizm» asli fransuzcha «modern» so‘zidan olingan bo‘lib, «zamonaviy» degan ma’noni bildiradi. Bu istilohning biz uchun bir qadar notanish bo‘lib kelganiga sabablar bor. Bu sabablar, birinchidan, mafkuraviy xarakterga ega va sho‘ro davri adabiy siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Ma’lumki, sho‘rolar hayotdagi hamma sohalarni birvarakayiga tubdan o‘zgartirishni da’vo qilib chiqishgan edi. Shu bilan birga, ular butunlay yangi odam yaratish g‘oyasini ham oldinga surib, shuningdek, yangi adabiyot da’vosi bilan ham chiqishgan edi. Hayot bu da’volarning puch ekanligini isbot qildi. Jumladan, har qanday inson hayoti davomida turfa xil o‘zgarishlarni boshidan kechirsa ham, bir quvonchlarga to‘lib, bir baxtsizlik ichida yashasa ham, zohiran qaraganda, bir terining ichida necha marta ozib-semirsa ham, aslida, uning tabiat dunyodagi eng kam o‘zgaradigan narsadir. Insonshunos olimlarning bugungi inson tabiatiga ko‘ra bundan 2000 yil oldingi insondan juda kam farq qilishini isbotlab berishgan. Uning tafakkurida qandaydir yangi g‘oyalar tug‘ilishi mumkin, lekin tafakkur mexanizmi eskicha qoladi. Uning tuyg‘ularida qandaydir yangi xislatlar paydo bo‘lishi mumkin, lekin baribir tuyg‘ularning o‘zi juda kam o‘zgaradi. Davrlar har qancha o‘zgarmasin, insonni harakatga keltiruvchi asosiy omil shaxsiy manfaat bo‘lib qolaveradi. Insonning bu xislati ruslarning «Baliq chuqr joyni izlaydi, inson esa yaxshi joyni» degan maqolida juda yaxshi ifodalangan. Xuddi shunga o‘xshash, insonning ruhiy-ma’naviy faoliyati hosilasi bo‘lmish san’at va adabiyot ham tabiatan kam o‘zgaradigan hodisalardandir. Albatta, san’at va adabiyot paydo bo‘lgan davrlardan beri muayyan tadrijiy yo‘lni bosib o‘tdi, lekin bu yo‘llar mazmuni qanday bo‘lmasin, san’at va adabiyotning mohiyati o‘zgargani yo‘q. Hamon uning markazida inson va uning dardlari turibdi. Hamon uning asosiy muammosi inson

kim va u qanday yashamog‘i kerak, inson hayotining mohiyati nimada degan muammolardir. Afsuski, sho‘ro mafkurasi inson tabiatidagi mana shu muqimlikni tan olishni istamadi. Va har xil vositalarni ishga solib, uni tubdan o‘zgartirishga kirishdi. «Proletar adabiyoti» degan adabiyot o‘ylab topildi. Uning birdan bir metodi sotsialistik realizm deb e’lon qilindi. Bundan bir qadar tashqariga chiqadiganlarni sinfiy dushmanaga chiqarishdi va shunga muvofiq ular jazolarga mustahiq qilindi. Ammo, tabiiyki, inson bir xil bo‘lmaganidek, uning adabiyoti faqat bir xil mazmunda yozadigan, faqat bir xil uslubni tan oladigan, yakrang adabiyot bo‘lishi mumkin emas edi.

– *O‘tgan asrning 20 – 30-yillarida modernizm oqimiga mansub deb hisoblangan asarlar G‘arbda ham, Amerikada ham tazyiqqa uchragan edi. O‘zingizga ma ’lum, sobiq Ittifoq davrida G‘arb adabiyoti bilan shug‘ullangan rus adabiyotshunoslari ham bir ovozdan modernizm adabiyotini keskin tanqid qilib chiqishgandi. Ya’ni bu adabiy oqim vakillarining asarlari G‘arbda inkor etildi, keyinchalik kommunistik g‘oya tarafдорлари tomonidan tamoman rad qilindi. Buning sabablari haqida fikrlaringizni bilmоqchi edik.*

– XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jahonda ijtimoiy hayot sohasida taraqqiyot sur’atlari mislsiz tezlashib ketdi. Bu ko‘plab yangicha qarashlar, yangicha fikrlarni vujudga keltirdi. Ular adabiyotda ham insonga yangicha munosabatda bo‘lishni taqozo eta boshladи. Boshqacha aytganda, adabiyotda ko‘p vaqtlardan beri amal qilib kelgan realizm metodi qay bir jihatdan eskirgandek, yangi mazmunlarni ifodalashga torlik qilib qolayotgandek ko‘rindi. Va ayrim san’atkorlar zamon talablariga muvofiq ravishda hayotni aks ettirishning yangi yo‘llari, shakllarini izlay boshladilar. Shu tarzda butun jahon bo‘ylab turli-tuman modernistik, ya’ni zamonaviy oqimlar paydo bo‘la boshladи. Albatta, bularning ichida samaralilari ham bor edi. Va shunchaki tajriba tariqasida o‘tkazilgan, lekin amalda katta muvaffaqiyatga erishmaganlari ham bor edi. Bu izlanishlar, tajribalar mutlaqo tabiiy va qonuniy edi. Lekin sho‘ro mafkurasi nuqtayi nazaridan har qanday modernizm yoki san’at va adabiyotdagi har qanday izlanish sotsialistik realizmdan chekinish deb qaralar, shuning uchun u qoralanishi kerak edi. Shunday

qilib, bizda «xalq dushmanlari», «burjua millatchisi», keyinroq esa «revizionist» singari «modernist» degan ayblov ham maydonga keldi. Modernizmni yoqlagan, modernistik oqimlarni ma’qul ko‘rganlar mafkuraviy dushman sifatida talqin qilindi. Faqat asr oxiriga kelgach o‘zbek adabiyotshunoslari ichida bu masalalarni qalamga olib to‘g‘ri talqin qilishga harakat boshlandi.

— «*Jahon adabiyoti*» jurnali va «*O‘zAS*»da e’lon qilingan ayrim maqolalarni aytmaganda bugungi adabiyotshunosligimiz modernizm adabiyotidan bexabar desak to ‘g‘ri bo ‘ladimi?

— Albatta, modernizm bir turdag'i jo‘n hodisa emas. Modernistik oqimlarni dabdurustdan tushunib olish ham muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Modern hodisalari hamma vaqt ham san’at va adabiyot hodisalariga biz beradigan ta’riflarga to‘g‘ri kelavermaydi. Buning ustiga, bizning san’at va adabiyotga qarashlarimizda juda katta bir nuqson bor: bizning nazariyamiz san’at va adabiyotdagi rang-baranglikni tan olmaydi. U imkon boricha san’at va adabiyotning hamma tur va hamma xillariga mushtarak bo‘lgan qonun-qoidalarni inkishof etishga harakat qiladi. Masalan, she’riyat ham, nasr ham badiiy adabiyotga kiradi. Ayni chog‘da, ularning orasida osmon bilan yerchalik farq borligini ko‘rmaslik mumkin emas. Roman, qissalar bobida o‘ylab chiqarilgan qoidalaramiz lirika va poemaga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Xuddi shunga o‘xhash, adabiyot, rassomchilik va musiqa ham «san’at» degan tushuncha doirasiga kiradi. Biroq, shunga qaramay, ular insonning ruhiy faoliyatining turlari ekanligidan boshqa hech qanday mushtarak tomonlarga ega emas. Binobarin, rassomlik talqini bilan musiqa, adabiyot talqini o‘zaro keskin farq qilishi kerak. Men bu gaplarni shu ma’noda aytyapmanki, asosiy materiali rang va bo‘yoq bo‘lmish rassomlik sohasidagi izlanishlar, albatta, adabiyot sohasida ham aynan takrorlanishi mutlaqo shart emas. Masalan, abstraksionizmni olaylik. Abstraksionizm mavhumlik degani. San’atkorlar hayotni hayot formasida aks ettirmog‘i kerak degan gapdan qochib, uni boshqacha tarzda ham aks ettirish mumkinligini isbotlash uchun mavhum tasvirlarga, ya’ni birinchi qarashda biror-bir hayotiy mazmunga ega bo‘lmagan tasvirlarga keng o‘rin bera boshladilar. Shuni aytmoq kerakki, abstraksionizm

elementlari faqat keyingi asrlardagina paydo bo‘lgani yo‘q. Uning unsurlari Sharq va G‘arbning qadimgi san’atidan istagancha topiladi. Uzoqqa bormaylik-da, bir misol keltiraylik. O‘zbeklarning atlasini juda yaxshi bilasiz. U kamida ming yillik tarixga ega. Bilmayman, atlasni san’atga yo‘yish kerakmi, yo‘qmi? Biroq, imonim komilki, u yuz foiz abstraksionizm asosiga qurilgan. Undagi bir-biriga chatishib ketgan ranglar qanday hayotiy mazmunga egaligini bilmayman, biroq jilolari, tovlanishlari haddan tashqari go‘zal. O‘zbek atlasining yal-yal yonishi ancha asrdan beri erkaklarni ham, ayollarni ham birday zavqlantirib keladi. Xuddi shuningdek, o‘zbeklarning me’morchilik san’atida ham, o‘ymakorlik va naqqoshlik san’atida ham mavhumlik unsurlari ko‘plab uchraydi. Lekin rassomlik san’atidagi abstraksionizmni, menimcha, oqizmay-tomizmay adabiyotga ko‘chirib bo‘lmaydi. Adabiyotda mavhumlik kuchayib ketgan o‘rinlarda, mazmun hisobiga shaklbozlikka berilgan joylarda, inson muammolari cheklanib qolgan joylarda katta muvaffaqiyatga erishish qiyin.

– *Bizda modernizmni tushunib (tushunmay ham) inkor etuvchilar bor. Ayni paytda, bu yo‘nalishni jahon san’ati va adabiyotidagi ilg‘or tendensiya sifatida qabul qiladiganlar ham uchraydi. Mana shu ikki xil qarashlarga munosabatingizni bilmoqchi edik.*

– Men shu kunlarda buyuk ingliz yozuvchisi Jon Golsuorsining adabiyot haqidagi ayrim maqolalarini tarjima qilyapman. Bu maqolalar 1930 – 1931-yillar, adib hayotining so‘nggi davrida yozilgan. Bu davrda adabiyotda modernistik izlanishlar ancha avj pallaga ko‘tarilgan edi, kitobxonlar o‘rtasida ularni yoqlovchilar va an’anaviy adabiyotni butkul rad etuvchilar ko‘payib qolgan edi. Boshqacha aytganda, modernistik adabiyot modaga kirgan edi. Modaga kirgan narsa to‘g‘risida tanqidiy fikr aytish juda qiyin. Tafakkurimizning ojiz tomonlaridan biri xuddi shunda ko‘rinadi. Biz ko‘pchilik maqtayotgan asarni o‘qib tushunmasak ham, bizga sira ma’qul bo‘lмаган bo‘lsa ham, hammaga ergashib maqtashga tushamiz. Bunda «qirolning yangi ko‘ylagi» sindromi amal qiladi. Asarni maqtayotgan ko‘pchilik dono bo‘lsa-yu, men uni tushuna olmaydigan aqli noqis bir odam bo‘lsam...

Golsuorsiga tan berish kerak. U bir necha maqolasida odamlarning ta’nasidan qo‘rqlayotgan modernistik asarlar haqida tanqidiy fikr aytadi. Bu asarlarni 30 yildan keyin hamma unutib yuboradi deydi. Ehtimol, Golsuorsi o‘zining bu fikrida to‘la haq emasdir. Jumladan, romanlari «oilaviy hayotning qomusidan iborat» (Golsuorsi) M. Prust bugun unutilgani yo‘q. Lekin, menimcha, Golsuorsi bir narsada haq: u adabiyotning mohiyatini inson xarakterini yaratishda deb biladi. Markazda insonning taqdiri turmagan, uning hayot yo‘llaridagi dramatik va fojiali izlanishlari aks etmagan asarlar umrboqiy asarlar bo‘la olmaydi. Faqat Golsuorsi emas, modernistik adabiyotga unchalik ro‘yxushlik bildirmagan boshqa adiblar ham ko‘p. Lekin na Golsuorsi va na boshqa G‘arb yozuvchilari modernizmni tanqid qilar ekanlar, san’atkorning shakl va uslub bobidagi izlanishlariga, tajribalar o‘tkazish bobidagi huquqlariga zarracha shubha qilgan emaslar. Umuman, faqat XX asr boshida emas, boshqa davrlarda ham yozuvchilar inson xarakterini chuqurroq va jozibaliroq qilib tasvirlash yo‘lidagi izlanishlardan to‘xtagan emaslar. Agar biz bunday izlanishlarni zamon talabi bilan qilingan modernistik izlanishlar deb tan olsak, modernizmni jahon adabiyoti tarixining istalgan davridan topish mumkin. Rablening «Gargantuya va Pantagryuel» degan mashhur romani yoki Swiftning «Gulliverning sayohatlari» haqidagi qissasi, Gogolning «Mirgorod» turkumiga kiradigan asarlari va yana o‘nlab asarlar bu fikrning dalilidir.

Sho‘ro adabiyotida ham taqiqlar har qancha kuchli bo‘lmisin, ayrim yozuvchilar yangi shakllar izlashdan to‘xtagan emas. Faqat bu yozuvchilarning ijodida modernistik izlanishlar yo fantastik elementlar orqali, yo satira va humor yordamida ifodalangan. Jumladan, mashhur M. Bulgakov «Ityurak» nomli qissasida bir professorning tajribalari tufayli itdan odamga aylanib qolgan shaxsning partiyaga kirishi va katta idoralarda ishlab, itlarga xos harakatlar qilishini juda yorqin ochgan. Yoki yozuvchi V. Voynovich 70-yillarda yaratgan «Askar Chonkin» qissasida sho‘rocha ko‘r-ko‘rona sadoqatning avra-astari ag‘darilgan. Albatta, bu asarlarning hech qaysisi hukmron mafkura darg‘alarining birortasiga yoqqan emas. Chunki sho‘rolar zamonida «dohiyalar»ga ma’ql

keladigan yozuvchilargagina keng yo‘l berilardi. Bunday yozuvchilar sha’niga tanqidiy gap aytish, ularning ijodidagi nuqsonlarni ko‘rsatish mumkin emasdi. Bunday yozuvchilar qolgan hamma yozuvchilarga o‘rnak sifatida ko‘rsatilardi va go‘yo ularning asarlariga o‘xshatib yozishga da’vat qilinardi. Masalan, Gorkiy – sho‘ro adabiyoti asoschisi, Mayakovskiy – davrning eng atoqli shoiri, binobarin, hamma ijodkorlar ulardan o‘rnak olishi kerak edi. Ko‘p vaqt o‘tmasdan bunday adabiyotning misi chiqdi. «Sho‘ro adabiyoti» deb atalgan adabiyot, ayrim mustasnolardan qat’i nazar, juda g‘arib, juda nimjon, rangsiz, quruq, beta’sir adabiyotga aylanib qoldi. Natijada millionlab odamlarning adabiyotdan ixlosi qaytdi, kitob o‘qimay qo‘yishdi.

– *Bizdagi ba’zi adabiyotshunoslarning fikricha, o‘tgan asrning boshlaridayoq o‘zbek adabiyotining iste’dodli vakillari modern adabiyotidagi shakliy izlanishlarga katta havas bilan qarashgan ekan. Keyinchalik ularning bu yo‘nalishdagi ijodiy tajribalari to‘xtab qolgan. Siz shu fikrni tasdiqlaysizmi?*

– Haqiqatan, 20 – 30-yillarda o‘zbek adabiyotida ham muayyan modernistik izlanishlar bo‘lgan. Bu, jumladan, Oybek, Mirtemir, Cho‘lpon ijodida ko‘rinadi. Oybekning dastlabki she’rlarida modernistik izlanish his-tuyg‘ularining tahliliga juda keng o‘rin berilganida ko‘rinadi. Mirtemir birinchi kitobida hayot zavqini tizginsiz pafos bilan ifodalashga intiladi. Afsuski, unda me’yor buzilgani uchun pafos ko‘p o‘rinlarda oddiy balandparvozlikka aylanib ketadi. Cho‘lpon esa «Kecha va kunduz» romanida, ayniqsa, Zebi ustidan sud epizodlari tasvirlangan o‘rinlarda o‘sha voqealarning absurdligini juda yorqin ifodalagan. Ifodalaganda ham quruq so‘zlar bilan emas, qahramonlarning xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari bilan ifodalagan. Afsuski, o‘zbek adabiyotidagi bunday izlanishlar o‘z vaqtida tanqidchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadni, natijada davom ettirilmay qolib ketdi.

– *Keyingi yillarda, asosan, yoshlar ijodida modernistik oqimga mansub asarlarga havas ancha ko‘zga tashlanib qoldi. Ayrim ijodkorlar fikricha, bu jarayon endilikda shunchaki taqlid doirasidan chiqib, muayyan bir ko‘rinish olayotir. Siz bu fikrga qanday qaraysiz?*

– Bugun adabiyotimiz yangicha sharoitda yashab ijod etmoqda. Avvalgi tazyiqlar va taqiqlar hozir yo‘q. Endi yozuvchi va shoirlar badiiy shakl va uslub borasida juda keng ko‘lamda izlanishlar olib borishlari mumkin va olib borishayotir ham. Jumladan, bugungi adabiyotimizda dramaturg Sharof Boshbekov ijodida, shoir Abdulla Oripovning ayrim asarlarida, Omon Muxtorning romanlarida, Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asarida, nisbatan yosh shoir va yozuvchilar Nazar Eshonqul, Xayrullo, Bahrom Ro‘zimuhammad, Go‘zal Begim, Olima Nabiyeva ijodida buni ko‘rish mumkin. Lekin men bir narsadan ogoh etib qo‘ymoqchiman: izlanishlar bobida ehtiyyot bo‘lmoq kerak, negaki yangi narsa hamma vaqt ham faqat yangiligi uchungina yaxshi bo‘lavermaydi, shuningdek, eski narsani ham faqat eskiligi uchun «puf, sassiq»qa chiqarish mumkin emas. Men hamma yozuvchilar askar bolalarday qaddi-qomati bir-biriga o‘xshagan olachipor forma kiyib olsin demoqchi emasman. Men faqat shuni aytmoqchimanki, biz realizm deb ba’zan kesatiq bilan, ba’zan kinoya bilan, ba’zan g‘ashlik bilan tilga oladiganimiz uslub hali uncha qarib qolgani yo‘q. Ayniqsa, bizning o‘zbek adabiyotimizda. Bizning adabiyotda realizm shakllanayotganiga endigina bir asr vaqt bo‘ldi. Ehtimol, bu vaqt ichida realizmning bor-yo‘g‘i o‘n gulidan biri ochilgandir.

Men yaqinda Ulug‘bek Hamdamovning «Muvozanat» deb nomlangan yangi romanini o‘qib chiqdim. Bu roman, bir-ikki epizodini hisobga olmaganda, tom ma’noda an’anaviy uslubda yozilgan. Ehtimol, «bir-ikki epizod» modernistik xarakterda bo‘lib, kitobxonning ko‘ngilxushligi uchun kiritilgandir. Ularda ba’zi bir personajlarning ishqiy mojarolari yalang‘ochroq ifodalangan. Lekin yaxlit olganda roman menda juda chuqur taassurot qoldirdi. Uning voqealari bizning kunlarda, bizning yurtimizda sodir bo‘ladi. Roman qahramoni oliy o‘quv yurtida tarixdan dars beradi. Lekin bozor munosabatlari bu odamni chirpirak qilib uchiradi. Uning iktiroblari, boshiga tushgan kulfatlar panjasidan qutulishga intilishlari, yo‘l izlashlari, chora qidirishlari kitobxonni befarq qoldirmaydi. Romanni o‘qib chiqar ekanman, bugungi kun odamini tasvirlashda hali realizmning ochilmagan imkoniyatlari ko‘p ekaniga imon keltirdim. Demak, gap

bu yerda realizmda yoki modernizmda emas. Gap san'atkorda, uning tafakkurida va mahoratida. Adabiy asar esa chinakam asar namunasi bo‘lmog‘i uchun realizmga mansub bo‘ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo‘ladimi, qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir, yana takror aytaman, uning markazida inson turmog‘i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiat, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin.

— *Modernizm oqimiga mansub deb qaralgan asarlarni qabul qilish yoki qabul qilmaslik mumkin. Bu har bir olim yoki kitobxonning ixtiyorida. Men Sizning bu masalaga shaxsiy munosabatingiz, xohlang olim, xohlang kitobxon sifatida, biroq xususiy munosabatingizni bilsam degandim...*

— Shaxsan men shu paytga qadar adabiyotdagি modernizmga o‘z munosabatimni aniq belgilab olgan emasman. Ba’zi bir modernistik asarlarni, ayniqsa, yumorga yo‘g‘rilgan asarlarni (Sanislav Lem, Rey Bredberi) zavq bilan yengil o‘qiyman. Folkner, Joys, Prust kabi adiblarning asarlarini esa o‘qishda qiynalaman. Hatto ba’zan ularning asarlarini yarmidan tashlab qo‘ygan hollarim ham bo‘lgan. Shunga qaramay, men bu yoki bu kabi boshqa yozuvchilarni hecham qoralamayman. Ehtimol, gap yozuvchida emas, balki mening didimda, saviyamdadir. Har holda, faqat menga yoqqani yoki yoqmaganiga qarab biror asarni rad etish yoki ulug‘lash mumkin emas.

Yana bir misol keltiraman. Men badiiy tasvir san’atini, rasmlarni yaxshi ko‘raman. Dunyoga mashhur musavvirlarning polotnolarini hamma vaqt zavq bilan tomosha qilaman. Lekin o‘zimni tasviriy san’at asariga baho beradigan hakam deb o‘ylamayman. Malevich degan rassomning asrimiz boshlarida ishlagan bir surati bor. Bu «Qora kvadrat» deb ataladi. Unda chindan-da tim qora kvadratdan boshqa hech narsa yo‘q. Xudo haqqi, men shu paytgacha bu suratning nima ma’no anglatishini tushunganim yo‘q. Lekin, buni qarangki, ana shu men tushunmagan asar san’at bozorida milliondan ko‘proq dollar turar ekan. Men, albatta, million dollarim bo‘lsa, uni nimaga sarflashni o‘zim bilardim. Shunga qaramay, o‘sha asarni xarid qilgan odamlarni qoralashim insofdan bo‘lmaydi-ku!

Xullas, modernizm munosabati bilan qilgan gurungimizdan faqat bitta xulosa chiqargim keladi: yashasin erkinlik, yo‘qolsin qoliplar!

Suhbatni Ahmad Otaboyev yozib olgan.

«O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining

2002-yil 23 – 24-sonidan olindi.

MA’NAVIYAT, MODERNIZM VA ABSURD

Gapni insonga xos ma’naviy izlanishlardan boshlaylik. Geologlar tog‘-u cho‘llarni kezib qadri past, arzimas narsalarni emas, qadri baland, qimmatbaho narsalarni izlashadi. Shunga o‘xshab, insondagi ma’naviy izlanishlar ham unga aziz tuyuladigan, ruhiy ehtiyojlarini qondiradigan ne’matlarga qaratiladi. Butun tabiat quyosh nuri bilan tirik. Ammo inson quyosh nuridan bahramand bo‘lish bilan chekolanolmaydi. Inson ruhi yaxshi odamlarning so‘zidan, siymosidan, ijodidan taraladigan ma’naviy ziyoga ham katta ehtiyoj sezadi. Chunki ham tabiiy nur, ham ma’naviy ziyo bilan yo‘g‘rilgan inson hayotigina barkamol bo‘ladi. Ma’naviyat – cheksiz bir ummon. Shu ummonning bir qatrasi shaxsan menga nasib qilgan bo‘lishi mumkin. Qatrada quyosh qanday aks etganini men o‘z hayotiy va ijodiy tajribam misolida qisqacha aytib o‘tmoqchiman.

Talabalik yillarimda men uchun eng aziz tuyulgan muddaolar ilm-u ma’rifatni egallash, odamlarga nafi tegadigan bir mutaxassis bo‘lib yetishish va mehr-u oqibatga asoslangan oila qurish edi. Shukrki, bu ma’naviy qadriyatlarga ozmi-ko‘pmi erishish va shu haqda «Uch ildiz»ni yozish nasib etdi. Navbatdagi ma’naviy izlanishlar Moskvada aspiranturada o‘qigan va Markaziy yozuvchilar uyushmasida o‘zbek adabiyoti bo‘yicha maslahatchi bo‘lib ishlagan yillarimda boshqacha shakllarda davom etdi.

Musofir bo‘lmaguncha musulmon bo‘lmaysan deganlari rost ekan. Vatandan yiroqda uni sog‘inib yashaganda boshqa joyda topilmaydigan yuz xil ne’matlarimizning qadri o‘tarkan. Moskvada menga quyoshli kunlar, oppoq o‘rik gullari, shirin milliy kuylarimiz, ona tilimizning go‘zalliklari yetishmas edi. O‘zga ellarda vatanni sog‘inib yashaydigan odamga barcha eldoshlar bir butun millat bo‘lib ko‘rinadi. Vatanda yurganingizda «farg‘onaliklar unday, toshkentliklar bunday, xorazmliklar boshqacha» degan gaplarni eshitamiz. Ammo vatandan yiroqda mahalliy farqlarning ahamiyati qolmaydi. Men, masalan, Moskvada do‘ppi

kiygan odamni ko'rsam, ko'nglim yorishib ketardi. Atlas kiygan ayollar Moskva ko'chalarida quyoshdan tushgan parilarga o'xshab ko'rinardi.

Men bilan o'n yil bir binoda mehnat qilgan rus, ukrain, gruzin, armani, latish, eston, qozoq, tojik millatiga mansub hamkasblarim har biri o'z xalqi va adabiyoti uchun jon kuydirib ishlar edi. Ularda milliy g'urur va madaniy saviya balandligini sezganim sari o'zim ham shulardan qolishmaslikka intilardim. Mana shu histuyg'ular yillar davomida o'sib, kuchayib, odamning vatanparvarlik va millatparvarlik e'tiqodini shakllantirar ekan. Bu e'tiqod inson ruhini tor xudbinlik qobig'idan el-yurt kengliklariga olib chiqadi. Bu kengliklarga o'rgangan odam ruhan faqat o'z uyida emas, balki shu uy joylashgan katta vatanda yashayotganini yurakdan his qiladi. Faqat o'z shaxsiy miqyosida emas, vatan, xalq miqyoslarida ham fikr yuritishga odatlanadi, ana shu miqyoslarga mos keladigan katta maqsadlarga intilib yashaydi. Ulug' g'ayrat ulug' maqsadlar yo'lida tug'iladi deganlari bejiz emas. Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon vatan ozodligi va mustaqillagini o'z oldilariga ulug' maqsad qilib qo'ygan edilar. Ana shu maqsadga yarasha ulkan ijodiy g'ayrat va jasorat «O'tkan kunlar», «Kecha va kunduz» kabi o'lmas asarlarni yuzaga keltirdi. Bu asarlarda millatimizning hayotiga oid teran insoniy mazmun va badiiy ma'nolar kashf etildi. Haqiqat va ozodlik kabi oliv maqsadlarga yo'naltirilgan bu romanlar oliv ma'naviy qadriyatlarga aylandi. Abdulla Qodiriy boshlab bergen o'zbek milliy romanchilik maktabi Oybek, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov, O'lmas Umarbekov, Tog'ay Murod va boshqa yozuvchilarimizning ijodida davom etib, yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Cho'lpon ijodi uzoq vaqt taqiq ostida qolgan bo'lsa ham, uning milliy dard va vatan tuyg'usi bilan sug'orilgan olovli she'riyati adabiyot maydonida paydo bo'lgan yangi she'riy iste'dodlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. O'zbek adabiyoti, mustabid tuzumning ta'qib-u tazyiqlariga qaramay, yigirmanchi asrda A. Qodiriy, A. Cho'lpon, A. Fitratlardan boshlangan va Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov va ulardan keyingi avlodlargacha davom etgan ulkan bir yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirdi. Afsuski,

bu jarayonlar hali adabiyotshunoslarimiz tomonidan yetarlicha tahlil va talqin etilgan emas, munosib bahosini ham olgani yo‘q.

Qisman shuning uchundir, istiqboldan oldin yaratilgan asarlarni «davri o‘tgan» deb hisoblaydigan, ularni nuqul «an’anaviy» degan yuzaki so‘z bilan baholaydigan, faqat modern asarlarni yangilik sifatida tan oladigan adabiyotchilar paydo bo‘ldi. Masalan, Z. Pardayevaning bultur «Yoshlik» jurnalida chop etilgan maqolasida O‘tkir Hoshimov va Tog‘ay Murodning istiqlol davrida chop etilgan yangi romanlari ham «an’anaviy» degan siyqa so‘z bilan baholanadi. Ayni vaqtida, «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasida taniqli adabiyotshunoslar tomonidan bir qator jiddiy kamchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan «Kapalaklar o‘yini» romani modern uslubda yozilgani uchun «Adabiyotning yangi romani» deb baholanadi, ushbu baho hatto maqolaning sarlavhasiga chiqariladi. To‘g‘ri, maqola gazeta tomonidan munozara tarzida e’lon qilingan. Shuni hisobga olib modernizm haqidagi bahslarga to‘xtalib o‘tish joiz ko‘rinadi.

«Kapalaklar o‘yini» yosh yozuvchi To‘xtamurod Rustamning birinchi yirik asari ekanini hisobga olib professor S. Sodiq uni suyab va ayab tahlil qiladi. Romanda hali ongi shakllanmagan yoshlarni yo‘ldan ozdiradigan va hayotdan bezdiradigan illatlar fosh etilganini, muallifning iste’dodida hajviy yo‘nalish kuchli ekanini domla to‘g‘ri ko‘rsatadi. Biroq muallif goh Jeyms Joysning ong oqimiga, goh M. Prustning ekspressiv uslubiga amal qiladi, ammo ularga xos yuksak mahoratni egallay olmagani uchun taqliddan yuqoriga ko‘tarila olmaydi. Gyote: «Uslub – bu odam», degan edi. J. Joysning modernistik uslubi ham uning tarjimayı holi va murakkab taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan. 1882-yilda Irlandiyada tug‘ilgan Joys o‘z vatanining Angliya mustamlakasiga aylanganidan, ona tilini unutib, ingliz tilida asar yozishga majbur bo‘lganidan o‘ksinadi. U vatanida yurganida o‘zini ikkinchi darajali odamdek his qiladi, «kompleks nepolnotsennosti» deb ataladigan qadrsizlik tuyg‘usi uchun o‘z tug‘ilgan yurtini va uning xalqini aybdor deb biladi. «Yosh san’atkorning portreti» deb atalgan birinchi romanida Jeyms Joys o‘z prototipi asosida yaratilgan Stivenning tilidan vatani Irlandiya haqida shunday deydi: «Bilasanmi, Irlandiya nima? Irlandiya bu – o‘z bolalarini o‘zi yeydigan

keksa cho‘chqa!» (Yosh san’atkorning portreti. – B.289) O‘z vatanini shunday haqoratomuz so‘zlar bilan ta’riflagan J. Joys 22 yoshida Irlandiyani butunlay tark etadi, Parijda va Syurixda yashay boshlaydi. Vatandan yiroqda yurganida ham Irlandiyani «shol bo‘lgan mamlakat» deb ataydi, Irlandiya poytaxti Dublinni «paralich markazi» deb masxara qiladi (O‘sha kitob. – B.9). Joysning muxlislaridan bo‘lgan amerikalik yozuvchi J. Ferrol yozadi: «Jeyms Joys dinidan, xalqidan, vatanidan voz kechadi, unga faqat so‘z san’ati muqaddas tuyuladi, shu sababli butunicha san’at san’at uchun degan g‘oyaga beriladi» (O‘sha kitob. – B.22). J. Joys chindan ham ingliz tilining ulkan so‘z san’atkori bo‘lib yetishadi, uning so‘z san’ati sohasida qilgan badiiy kashfiyotlaridan E. Xeminguey kabi mashhur yozuvchilar ham bahramand bo‘lganini tan oladilar. Biroq vatandan, xalqdan, dindan yuz o‘girish Joysni ma’naviy tushkunlikka va yolg‘izlik azobiga mahkum etadi. O‘z xalqini qadrlamagan, o‘z vatanini inkor etgan, dahriylikka berilgan odam butun tarixni, butun dunyoni va odamzodni ham qoralashga tushib ketishi mumkin ekan. «Uliss» romanida Joysning proobrazi bo‘lgan va aynan uning fikrlarini aytadigan Stiven shunday deydi: «Tarix bu – dahshatli tush, men undan uyg‘onib qutulishni istayman. Tarix – bu dunyoning kriminal xronikasi (jinoyatlar solnomasidir), chunki butun odamzod jinoyatchilar to‘dasidir. Biz dunyo deb ataydigan bu sassiq go‘ng uyumida hamma narsa omonat...» (Жойс Ж. Улисс // Интернациональная литература. 1935. №2. – С.46). Butun odamzodni jinoyatchilar to‘dasi deb ayblash va dunyoni sassiq go‘ng uyumi deb haqorat qilish insoniy odob-axloq qoidalarini qo‘pol ravishda buzish edi. Buning oqibatida J.Joys atrofida juda katta janjal ko‘tariladi. «Uliss» romani Angliya, Fransiya va AQShda taqiqlanadi. Mashhur fantast yozuvchi Gerbert Uells Joysga yozgan maktubida shunday deydi: «Siz oddiy odamlardan yuz o‘girdingiz va o‘zingizni juda katta olyapsiz. Menimcha, bu boshi berk ko‘chadir». R. Ollington degan adib «Uliss»ni «Odamzodga qarshi aytilgan yalmog‘izlarcha tuhmatdir» deb ataydi. Amerikalik adib Edvard Dalberg «Uliss» romanining voqealari bir kecha-kunduzda bo‘lib o‘tishini nazarda tutib shunday deydi: «Uliss» – bu axlatxonalar bo‘ylab bir kecha-kunduz davom etgan sayohatdir» (Унов Д.М. Джеймс Джойс и современный

модернизм. – М., 1964. – С.5). Bu endi J. Joysning butun dunyonи masxaralaganiga qarshi javob masxara edi.

Bizningcha, har ikki tomonning ham masxaralari yozuvchilik odobiga xilofdir. Shunga qaramay, J. Joysning achchiq kinoya va masxaralarini yuksak san'at va jasorat namunasi deb hisoblaydigan, bu borada undan ibrat olishga intiladigan odamlar, ayniqsa, yosh yozuvchilar hozir ham uchraydi. Yuqorida eslab о‘tilgan «Kapalaklar о‘yini» romanida Joysni eslatadigan kinoya va masxaralar, eng avvalo, oddiy odamlarga takabburona munosabatda ko‘zga tashlanadi. Hech kimga zarari tegmaydigan, eshak minib ro‘zg‘or tebratadigan kamtar bir inson Eshim butun roman davomida «Eshim eshak» deb kamsitiladi. Romanda oliftachilik bilan ichib-chakib yuradigan, biron foydali ish qilmaydigan bekorxo‘jat-kasaltanglar «Eshim deganimiz bu – eshak demakdir» degan balandparvoz she’r ham to‘qishadi. Muallif bu bilan ham qanoatlanmay, Eshim nomidan quyidagicha umumlashma qiladi: «Eshak ham xuddi odamga o‘xshaydi, faqat eshak odamdan esliroq bo‘ladi». Inson zotini eshakdan ham past qo‘yib, bu qadar ayovsiz yerga urish modernizm ta’siriga berilib insonparvarlikdan yuz o‘girishga o‘xshaydi. Bir vaqtlar Gerbert Uellsning Joysga qarata «Siz oddiy odamlardan yuz o‘girdingiz» degan tanqidini «Kapalaklar о‘yini» muallifiga ham aytishga to‘g‘ri keladi. Joysning olamdan o‘tganiga oltmis yildan oshdi. Shundan beri jahonda va adabiyotda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Nufuzli doiralarda «Yevropa vijdoni» deb tan olingen Alber Kamyu G‘arb adabiyotining gumanizm yo‘liga yana qaytib kelishiga va ma’naviyatning astoydil qadrlanishiga katta hissa qo‘shdi. Yangi tarixiy sharoitda postmodernizm tarafдорлари ham gumanizm va ma’naviyat tomonga burilish yasadilar. Shunga qaramay, «Kapalaklar о‘yinida» hamon o‘sha Joysning nigelizmiga, o‘rinsiz kinoya va masxaralariga taqlid qilish hollari ko‘p uchraydi. Muallif Toshkent vaqtini «Baqahovuz vaqt» deb o‘zgartiradi. Hatto kinoya tarzida «Baqahovuz haqiqati» degan gazeta borligi ham takror-takror qayd etiladi...

Joys o‘zini nihoyatda yolg‘iz his qiladi, o‘z san’atini hamma narsadan baland qo‘yadi. «Ulug‘lik» cho‘qqisida turib o‘z xalqi va butun odamzod sha’niga

yuqorida keltirilgan nomunosib aybnomalarni aytadi. Modernizmda Joysning an’anasiga amal qiluvchi ayrim ijodkorlar ham insonlar, hatto millatlarga nisbatan juda balanddan kelib, katta-katta ayblar qo‘yadilar. Buning bir misolini iste’dodi ko‘pchilik tomonidan tan olingan taniqli shoir Abduvali Qutbiddinning «Sharq yulduzi»da chop etilgan «Izohsiz lug‘at» nomli dostonida ko‘rish mumkin. Bu dostonda o‘tmishdagi mustamlaka zulmi ostida yashagan insonning fojiaviy xatolari quyidagicha izohlanadi:

Vataning bor edi, sotding.

Onang bor edi, otding.

Lazzatga, safoga, ishratga almashding bor-u budingni,

Cho‘chqaga xizmatga kirding,

To‘ng‘izning amrini bajarding,

Esizgina odam, qizil va sariq shoqol

Ko‘z uzmay kuzatib turibdi har bir harakatingni.

Ko‘zingdan, burningdan bitlar chiqmoqdalar amal-taql qilib.

Og‘zingdan semirib ketgan qurbaqa zo‘rg‘a tushayotir –

kekirtagingni yorib yuborar.

...Esizgina odam, achinaman, afsuslanaman...

Kechikmadikmikin Odamni qutqarmoqqa?! (Шарқ юлдузи. 1990. №10. – Б.11).

Mustamlaka zulmi ostida ezilgan, aldangan, yomon xatolar qilgan, bor-u budidan ayrilgan odamga shoir avval balanddan kelib dahshatli ayblar qo‘yadi, bit va qurbaqalar timsolda uning qiyofasiga jirkanch tus beradi. So‘ng ayb faqat odamning o‘zida emasligini, tuzum, muhit ham aybdor bo‘lganini tushungani uchun «Esizgina odam!» deb unga chin dildan achinadi. Nihoyat, «Kechikmadikmikin Odamni qutqarmoqqa?!» degan savol bilan o‘z maqsadini anglatadi. Katta harf bilan yoziladigan Odamni qutqarmoq esa ezgu maqsaddir. Shu tarzda dostoniga insonparvarlik ruhi qaytib keladi. Afsuski, dostonning biz keltirgan ayrim satrlaridan yosh olma Nargiz Mamatqulova «Modern she’riyatda yangicha talqin» degan maqolasida butunlay boshqacha xulosalar chiqaradi.

Anglashilmovchilik kelib chiqmasligi uchun N. Mamatqulova ko‘chirma olgan satrlarini bu yerda takroran keltirishga to‘g‘ri keladi: «Ko‘zingdan, burningdan bitlar chiqmoqdalar amal-taqal qilib, og‘zingdan semirib ketgan qurbaqa zo‘rg‘a tushayotir – kekirtagingni yorib yuborar». Bu xunuk va estetikadan yiroq satrlarni N. Mamatqulova modern she’riyatining yangicha talqini sifatida maqtaydi. «Bu satrlarda, – deb yozadi olima, – millatga nisbatan katta ayblov mavjud. Millatning ruhiy tarqoqligi va hasharotlar kabi maydalashuvi, qisqasi, ulkan bir fojia tasvirlanadi» (Yoshlik. 2003. №4. – Б.29).

Yuqorida biz keltirgan satrlarda gap millat haqida emas, mustamlaka zulmi ostida ezilgan, aldangan, xatolar qilgan odam haqida boradi. Shoir bu odamga achinadi, hamdard bo‘ladi, uni qutqarishni o‘ylaydi. Modern she’riyat tadqiqotchisi esa bu odamni o‘zgartirib, butun bir millatga aylantirib yuboradi. Alovida odamga taalluqli ayblovlar butun millatga taalluqli bo‘lib chiqadi. Go‘yo bu misralarda millatning tarqoqligi va hasharotlar kabi maydalashuvi, qisqasi, ulkan bir fojia tasvirlangan emish!

Mustamlaka zulmiga qarshi kurashda A.Qodiriy va Cho‘lpondan tortib Madaminbekkacha, Munavvar qori va Behbudiylardan tortib Fayzulla Xo‘jayevgacha, o‘zbek adabiyotining jallodlariga qarshi isyon qilgan Abdulla Qahhorgacha ming-minglab millatdoshlarimiz ozmuncha qahramonlik ko‘rsatdimi? Endi buning hammasini unutib, sho‘ro davrida yashagan millatdoshlarimizni «hasharotlar kabi maydalashuv»da ayplashga yosh olimaning qanday haddi sig‘di? Shoir qizil va sariq shoqol zulmi ostida ezilgan, bulg‘angan odamga achinib va hamdard bo‘lib yozgan satrlarni butun bir millatga qarshi asossiz ayblovga aylantirish milliy nigelizmning ashaddiy bir ko‘rinishidir. Har bir millat tarkibida yaxshi va yomon odamlar bor. Lekin butunicha yomon millat yo‘q. Ayniqsa, o‘z millatiga past nazar bilan qarash va ungaadolatsiz ayblovlarini ravo ko‘rish haddan ortiq katta ketish va kamtarlikni unutishdan kelib chiqadi. Jeyms Joys mana shunaqa katta ketish oqibatida o‘z xalqidan voz kechadi, butun odamzodni «jinoyatchilar to‘dasi» deb qoralashgacha borib yetadi, oxir-oqibatda

nigilizm va intihosiz tushkunlik ta'sirida ko'zi ko'r bo'ladi va 1941-yilda vafot etadi.

Ana shu davrda ijod qilgan fransuz adibi A. Kamyu tushkunlik va nigilizm to'g'risida quyidagicha fikr bildiradi: «O'ta tushkun ahvolga tushib qolganidan shon-sharaf va or-nomusni ham unutib, zamonaviy nigilizm botqog'iga botib qolganlar bilan kurashar ekanmiz, ular adashayotganini tushunishga harakat qilishimiz kerak. Biroq mening yurtimdag'i va Yevropadagi ko'pchilik nigilizmni rad etgan va tarixni oqilona davom ettirishga kirishib ketgan» (Jahon adabiyoti. 2002. №2. – B.169). A. Kamyu: «Shon-sharaf va or-nomusni unutib, zamonaviy nigilizm botqog'iga botganlar», deganda kimlarni nazarda tutganiga izoh berib o'tishimiz kerak: Sovuq urush avjiga chiqqan davrda modernizmning gumanizmga qarshi qaratilgan oqimi paydo bo'ladi. Bu oqim tarafdarlari «inson tabiatan yomon, uni ayamay fosh etish kerak» deydilar. Angliyada Golding degan adib «Nayza» nomli romanida antigumanizm g'oyasini targ'ib qiladi. Jon Ueyn degan modernist tanqidchi bu romandagi antigumanizmni qo'llab-quvvatlab yozadi: «Golding inson degan tushunchaning o'zini inkor etadi. U har yangi romani bilan «gumanizm» deb atalgan narsaga qarshi ayovsiz o'q otadi».

Avangard modernistlar o'z xalqlarining tarixidagi shon-sharaf zarvaraqlarini inkor etadilar. Ular tarixni oy nuri kabi haroratsiz narsa deb kamsitadilar va «Yo'qolsin oy nuri!» degan shior bilan chiqadilar. Bir vaqtlar sho'ro davrining proletkultchilari «Yo'qolsin eski adabiyot! Yo'qolsin Pushkin!» degan shior bilan chiqqan, lekin oradan yillar o'tib o'zлari yo'qolib ketgan edilar. «Yo'qolsin oy nuri!» degan modernistlar ham yillar o'tgandan keyin xuddi proletkultchilarning ahvoliga tushganini italyan yozuvchisi Umberto Eko «Nomi Roza» deb atalgan kitobda quyidagicha bayon qiladi: «Avangard modernizmi tarixni inkor etadi, obrazni yo'qqa chiqaradi, uni quruq abstraksiyaga aylantiradi, oxiri oq qog'ozning o'zi qoladi, surat chizganda xolstni teshik qilib «Tasvir mana shu» deyishgacha borib yetadi». Umberto Eko fikrini quyidagicha davom ettiradi: «Avangard modernizm shu tarzda tanazzulga uchrab to'xtab qoldi, modernizmga xos nigilizm tarixni inkor etdi, ammo o'tmishni yo'qotolmadi. Endi modernizm o'rniga kelgan

postmodernizm tarixni qayta idrok etib tasvirlamoqda» (Умберто Эко. Номи Роза. Роман. – М., 1989. – С.461). Umberto Eko o‘zining bu fikrini amalda isbot etadi, «Nomi Roza» deb atalgan tarixiy-detektiv roman yozadi va uni postmodernizm mahsuli deb ataydi. Bu roman qiziqarli syujet va aniq tarixiy shaxslar tasviriga bag‘ishlangan. Unda, A. Kamyu aytganidek, tarixni oqilona davom ettirish tamoyili ko‘zga yaqqol tashlanadi va shu sifatlari bilan Eko romani Joys modernizmidan keskin farq qiladi. Yaqinda o‘zbek tiliga tarjima qilingan braziliyalik yozuvchi Paulo Koeloning «Alkimyogar» romani ham postmodernizmning an’anaviy modernizmdan farqi katta ekanini ko‘rsatib turibdi. Joys romanlaridagi dindan qaytish, vatandan voz kechish, nigelizm va tushkunlikka berilish «Alkimyogar» romanida mutlaqo yo‘q. Aksincha, bu romanda zamon va makon aniq ko‘rsatiladi, syujet yorqin insoniy taqdirlar asosiga quriladi, imon-u e’tiqodli, taqdirga ishonadigan, ma’naviy hayot kechiradigan odamlar bosh qahramon qilib olinadi. Bu hammasi mumtoz realizmga xos eng yaxshi ijodiy tamoyillarni esga soladi. Postmodernizm nazariyachisi Jon Bart XIX – XX asrlardagi mumtoz realistik adiblar tajribasi bugungi postmodernizm yozuvchilari tomonidan hisobga olinayotganini maxsus ko‘rsatib o‘tadi.

Xullas, modernizmning avangard kabi turlari realizmga qarshi borib yengildi va tanazzulga uchradi. Buni amalda ko‘rgan postmodernistlar mumtoz realizmga qarshi turishdan voz kechdilar. Taraqqiyot spiral shaklida aylanma yo‘ldan borishi ma’lum. Postmodernistlar shu spiral bo‘ylab mumtoz realizm yo‘liga qaytayotganday ko‘rinadi. Faqat bu orqaga qaytish emas, balki spiral bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilish bo‘lishi mumkin.

Mana shu kelajakni A. Kamyu o‘tgan asr o‘rtalarida oldindan ko‘ra bilgani uchun ijodkorlarni tushkunlikka tushmaslikka, zamonaviy nigelizmga berilmaslikka da’vat etgan edi. Kamyuning Nobel mukofotini olishi munosabati bilan so‘zlagan nutqi o‘zbek tiliga tarjima bo‘lib, «Jahon adabiyoti» jurnalida chop etilgan. Ana shu dasturiy nutqda A.Kamyu «san’at – san’at uchun» deb faqat tor doiradagi shinavandalarga mo‘ljallab yozilgan, tushunilishi qiyin bo‘lgan asarlarga o‘z munosabatini quyidigacha bildiradi: «San’at ijodkorlarning o‘z qobig‘iga

o‘ralashib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. San’at azob-uqubatlar va quvonchlarning keng qamrovli tasvirini yaratish orqali iloji boricha ko‘proq odamlarga ta’sir qilish usulidir» (Jahon adabiyoti. 2002. №2. – B.168). Z. Pardayeva kabi adabiyotshunoslarimiz esa hamon o‘sha tushunilishi mushkul bo‘lgan boshqotirma uslubidagi «Kapalaklar o‘yini»ni «Adabiyotning yangi romani» deb reklama qilishadi.

Alloma Ozod Sharafiddinov bir suhbatida modernizmning krossvordga o‘xhash boshqotirmasini yoqtirmasligini aytgan edi. Albatta, krossvord ham o‘z o‘rnida kerak. Lekin Abdulla Qahhor adabiyotni atomdan kuchli deb ta’riflagan, faqat uning kuchini o‘tin yorishga sarflash kerak emas deb ogohlantirgan edi. Ustoz adibning shu fikrini quvvatlab, adabiyotning atomdan zo‘r kuchini krossvord yechishga ham sarflash kerak emas degimiz keladi.

«Boshqotirmasiz» ham yaxshi asar yozish mumkinligini Ulug‘bek Hamdamning yaqinda kitob bo‘lib chiqqan «Muvozanat» romanida ko‘rish mumkin. Akademik M. Qo‘shtonov romanga yozgan boshso‘zida uning katta qiziqish va qoniqish bilan o‘qilishi sabablarini ochib beradi. Asarda chinakam romanbop taqdirlar va o‘ta dramatik voqealar yangicha tafakkur asosida jur’at va mahorat bilan tasvirlanadi. Shaxsan men «Muvozanat»ni so‘nggi o‘n yilda chiqqan o‘zbek romanlarining eng yaxshilaridan biri deb hisoblayman.

Shu bilan birga, tushkunlikka tushgan va nigelizmga berilgan an’anaviy modernizmning o‘rniga kelayotgan va jahon bo‘ylab tan olinayotgan bag‘rikeng, ma’naviyati bor postmodernizmga nisbatan xayrixoh bo‘lishimiz kerak deb o‘layman. Bu fikrga isbot tarzida Xurshid Do‘stmuhhammadning «Bozor» romanini misol keltirmoqchiman. Bu romanda imon-e’tiqodli odamlar bor. Ayniqsa, bosh qahramon Fozilbekning taqdiri o‘quvchini qiziqtiradi. Yoshi yetilgan Fozilbekni ota-onha ham, opa-singillar ham «uylan» deb qistashadi. Fozilbek mol-dunyoga to‘la bozorda uzoq izlanib yuradi. Uylarida ham boylikning hisobi yo‘q. Boy oilalarning go‘zal qizlarini unga ko‘rsatishadi. Lekin taqdir taqozosi bilan yigitning ishqini ma’naviy boyliklar yig‘ilgan kitobxona xodimasi, kamxarjgina oddiy juvon Qadriyaga tushadi. «Bozor» romani «Alkimyogar»dan

oldin bosilib chiqqan bo'lsa ham, Fozilbek obrazi nimasi bilandir Santyagoni eslatadi. «Nimasidir» deganda biz har ikki romanda ham ma'naviyat oliy qadriyat sifatida ko'rsatilganini nazarda tutamiz. Demak, postmodernizm asarlari ma'naviyatni e'zozlashi va mumtoz realizmning oliy qadriyatlariga suyanishi bilan ham ko'pchilik kitobxonlar diliga yo'l topishi mumkin.

Ma'naviyat mavzusiga qaytar ekanmiz, unga nisbatan qarama-qarshi qutbda turadigan absurd tushunchasiga duch kelamiz. «Ma'naviyat» «ma'no» so'zidan kelib chiqadigan yuksak qadriyat bo'lsa, «absurd» lug'aviy jihatdan «ma'nosizlik» yoki «bema'nilik»ni bildiradi. Hayotda bema'niliklar oz emas. Ularni adabiy asarlarda haqqoniy aks ettirish zarur. Faqat hayotdagi bema'nilik adabiy asarda tasvirlanganda uning insonga behuda azob beradigan salbiy mohiyati ham ochib berilishi kerak. Bu mavzuda eng yaxshi asarlar yozgan adib yuqorida nomi aytib o'tilgan Alber Kamyudir. Uning «Sizif haqidagi rivoyat» asari absurdning qadim zamonalarga ildiz otgan hodisa ekanini ko'rsatadi. Qadimgi yunon qahramoni Sizifning mudom baland tog'ga tosh yumalatib chiqishi, tosh yana pastga yumalab tushganda uni qayta va qayta tog'ga olib chiqishi, yunon xudolari uni umr bo'yi shu besamar ish bilan shug'ullanishga mahkum etganlari absurd tushunchasining eng yorqin misolidir. Ikkinci jahon urushini boshidan kechirgan va fashizmga qarshi kurash olib borgan Kamyu xalq orasida «jigarrang vabo» nomini olgan fashizm balosini ham tarixning ulkan bir absurd hodisasidek tasavvur qiladi. Yoshligi Jazoirda o'tgan Kamyu kichik bir shaharda kalamushlar ko'payib ketib, vabo kasalligini qanday tarqatayotganini ko'rgan ekan. Shu yoshlik xotirasi ulkan bir ma'joziy obrazga aylanib, adibning shoh asari sanalgan «Vabo» romaniga asos bo'ladi. Jahon urushi davrida butun odamzodning o'lim qurollari yasash uchun qilgan intihosiz mehnatlari Sizifning azobiga o'xshab ketgani va millionlab begunoh odamlarning o'limiga sabab bo'lgani «dahshatli vabo» kabi bir absurd deb baholanadi. Kamyu hali hayot bo'lgan 1950 – 1960-yillarda odamzodni qirib tashlashga qodir bo'lgan yadro qurollari yaratilgani, sovuq urush va qurollanish

poygasi avjiga chiqarilgani ham romanda vabo tarqatuvchi jirkanch kalamushlar kirdikoriga o‘xshab ketadi. Roman qahramonlari jonlarini xavf-xatarga qo‘yib bo‘lsa ham vabo timsoli bo‘lgan yovuz kuchlarga qarshi fidoyilarcha kurashadilar. Insonni vabodan qutqarishga qaratilgan bu kurash Kamyu romanini teran bir insonparvarlik ruhi bilan sug‘oradi. Kalamushlar tarqatayotgan vabo bema’ni bir absurd bo‘lsa ham, bu vabodan inson zotini qutqarish uchun olib borilgan kurash tufayli romanda yuksak gumanistik ma’no paydo bo‘ladi. Ya’ni hayotdagi ma’nosiz absurdga yozuvchi o‘zining talanti, mahorati va gumanistik e’tiqodi yordamida yangicha bir ma’no baxsh etadi. Shu tarzda roman ma’naviyat xazinasidan o‘rin oladi. Afsuski, Kamyuning absurdga oid fikrlarini noto‘g‘ri talqin etuvchilar bor. Ular hayotda absurd bo‘lgani kabi, adabiyotda ham absurd asar, absurd ijod bo‘lishi mumkin deb hisoblaydilar. Holbuki, Kamyu hayotdagi absurdning g‘ayriinsoniy mohiyatini doim yodda tutishga undaydi. U absurd oqimiga tushib nishabga qarab oqishni emas, balki absurd oqimiga qarshi suzish zarurligini quyidagicha ta’kidlaydi: «Agar absurd tuyg‘usi bevosita harakat qoidasiga aylantirilsa, unda bu tuyg‘u qotillikka ham befarq qaraydi, uni joiz qilib qo‘yadi. Agar hech narsaga ishonch qolmasa, agar hamma narsa ma’nosiz bo‘lsayu hech narsaning qadr-qimmati bo‘lmasa, unda hamma narsa mumkin – yovuzlik ham, yaxshilik ham joiz va ahamiyatsiz bo‘lib qoladi» (Камю А. Избранное. – М., 1990. – С.18). Ana shu holatga tushmaslik uchun A.Kamyu insoniy haqiqatga suyanadi. Uning «Nemis do‘stimga maktublar» asarida insonga ishonch g‘oyasi ilgari suriladi. «Bu dunyoning ma’nosini faqat inson izlaydi, – deb yozadi u. – Bu dunyoda hech bo‘limganda bitta haqiqat bor – bu inson haqiqatidir. Shuning uchun, avvalo, insonni qutqarish kerak» (О‘sha manba. – С.18). Kamyuning ushbu satrlarida insonga mehr va uni turli azoblardan qutqarishga qaratilgan oliyjanob maqsad bor. Endi shu nuqtayi nazardan shoir Husan Karvonlining quyidagi she’riga ko‘z tashlaylik:

Men va sen, sen va u, u va men – garang.

Lohasmiz, bekasmiz, beshamol, bedil.

Hamma bir-birini yomon ko‘radi.

Nafratlar pishadi issiqda hil-hil.

(O‘zbek modern she’riyati. 2003. – B.115 – 116)

Bu satrlarda tushkunlik ruhi hukmron, «Men», «Sen», «U» – uch tomonda ham mehr-u oqibat yo‘q, ma’naviyat yo‘q, ularning o‘rnini absurd bir nafrat egallagan, shuning uchun hamma bir-birini yomon ko‘radi, hamma garang va lohas. Bu holdan chiqish yo‘lini har kim o‘zi bilganicha ko‘rsatadi. Masalan, Nazar Eshonqulning «Yoshlik» jurnalida chop etilgan badiasida shunday she’riy fikr bildirilgan:

Menga do‘st kerakmas dushmanidan boshqa,

Muhabbat kerakmas nafratdan boshqa.

(Yoshlik. 2003-y. 3-iyun. – B.7)

Demak, Karvonlining she’rida hil-hil pishgan nafratlarni badia muallifi kerak deb hisoblaydi. Hatto «Muhabbat kerakmas nafratdan boshqa» degan so‘zlar bilan nafratni muhabbatdan ham zarurroq sanaydi. Buning sababini muallif quyidagicha izohlaydi: «Odam o‘ziga do‘st ko‘zi bilan qarashi fikrning turg‘unligiga olib boradi. Dushman ko‘zi bilan qarasa-chi? Muhabbat qo‘yilgan narsalarga nafrat ko‘zi bilan qarasa-chi?» Menimcha, bu savollarda absurd fikr olg‘a surilyapti. Chunki normal odam o‘ziga dushman ko‘zi bilan qarayolmaydi. Bobur mirzo «Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim, Ko‘nglimdin o‘zga mahrami asror topmadim» degan fikrining to‘g‘riligini butun ijodi va hayoti bilan isbot etgan. Chunki odam o‘zini do‘st bilib, ichki do‘stga ishonib, suyanib yashasagina nimagadir erishadi. Aks holda, uning umri dilidagi dushman bilan olishib, doimo bir hadik va xavotir ichida besamar o‘tishi mumkin. Muhabbat qo‘yilgan narsalarga nafrat ko‘zi bilan qarash ham ma’nosi yo‘q absurdga olib boradi. Qaysi normal odam yoriga atalgan guldan nafis mehrini yoki ona vataniga atalgan iliq muhabbatini qahr-u g‘azab manbayi bo‘lgan nafratga almashtiradi? Kim uni bunga majbur qila oladi? Buning juda mushkul ekanini badia muallifi ham sezadi va:

«Muhabbatning nafratga aylanishi – fojiadir», deb tan oladi. To‘g‘ri, muhabbatning nafratga aylanishi fofija bilan tugashini, masalan, Shekspirning «Otello» asarida yaqqol ko‘ramiz. Nega shuni bila turib muhabbat qo‘ygan narsamizga nafrat bilan qarashimiz va muallif aytgan fojiaga uchrashimiz kerak? Badia muallifi bu savolga quyidagicha javob beradi: «Fofija ruhni yangilaydi, qarashlarni o‘zgartiradi, yangi voqelikni yaratadi, eskisini inkor etadi» (Yoshlik. 2003-y. 3-iyun. – B.7). Gap bu yerda teatr sahnasida ko‘rsatiladigan fofija to‘g‘risida emas, hayotda voqelikni yangilaydigan fofija to‘g‘risida borayotir. Hayotda ko‘pincha o‘lim bilan tugaydigan fofija qanday qilib ruhni yangilaydi-yu, qay tarzda yangi voqelik yaratadi? Yangi voqelik yaratilishi ulkan tarixiy jarayondir. Yangi voqelik ko‘pincha inqilobi o‘zgarishlar natijasida yaratilishi tarixdan ma’lum. Biroq odamzod inqilobi o‘zgarishlar fofiasini ko‘raverib rosa bezor bo‘lgan. Butun dunyo hozir tinch evolyutsion taraqqiyotni afzal ko‘radi. Absurd nazariyasining asoschisi hisoblangan Kamyu ham o‘sha mashhur nutqida inqilobi tanazzullarni, Xudoni yo‘qqa chiqargan mustabid mafkuralarni, ziyolilari tubanlashib, nafrat va zulm malaylariga aylantirilgan o‘tmish davrlarni qoralaydi, adabiyot odamlarni dushmanlikka emas, do‘stlikka da’vat etishi kerakligini ta’kidlaydi: «Yozuvchining iste’dodi odamlarni birlashtirishga, ularning orasida totuvlik ko‘pragini qurishga xizmat qiladi. Yozuvchi o‘z kasbining ulug‘vorligini belgilaydigan ikki narsani imkon qadar bajarishga rozi bo‘lishi kerak. Bular haqiqat uchun va ozodlik uchun xizmat qilishdir» (Jahon adabiyoti. 2002. №2. – B.169-bet).

Qarangki, A.Qodiriy va Cho‘lponlar o‘tgan asrda haqiqat uchun va ozodlik uchun kurashga o‘z jonlarini fido qilgan bo‘lsalar, ular bilan bir asrda yashab ijod etgan Kamyu ham haqiqat va ozodlik uchun xizmat qilishni yozuvchilik kasbining ulug‘vor vazifasi deb hisoblaydi. O‘ylaymanki, bizning hozirgi davrimizda ham nigelizmga berilmasdan, ma’nosiz absurd oqimlariga tushib oqmasdan, A.Kamyu kabi inson zotini absurd azoblaridan xalos qiladigan ma’nosi zo‘r asarlar yozish va shu yo‘l bilan ham odamlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish yozuvchilik kasbining eng ulug‘vor vazifasi bo‘lib qoladi. Tirik jonzotlar orasida faqat inson

kitob o‘qiydi. Kitobdan ma’naviy oziq olib yashash ehtiyoji inson zotini hayvonot dunyosidan ajratib turadigan ulkan chegaradir. Shu chegara buzilsa va inson ma’naviyatdan butunlay mahrum bo‘lsa, yana orqaga – hayvoniy hirslar olamiga qaytib ketadi.

Mamlakatimizda ma’naviyatga juda katta e’tibor berilyapti. Ma’naviyat markazlari barcha hududlarda ishlab turganligi, hamma ta’lim muassasalarida ma’naviyat darslari o‘tilayotgani xalqimizning ma’naviy sog‘lom hayot kechirishiga yordam beradi, yoshlarimizni chetdan keladigan hayosizlik, ma’nisizlik va shafqatsizliklardan ogoh qiladi, ularni insoniy mehr-u oqibat ruhida tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi. Ayniqsa, xalq dardiga darmon bo‘ladigan va inson kamolotiga xizmat qiladigan milliy adabiyotimizda eng samarali ijodiy izlanishlar ma’naviy izlanishlar jarayoniga qo‘shilib boradi. Shaxsan menga biron yangi narsa yozish nasib etsa, bu yo‘lda kitobxonning ma’rifiy va ma’naviy ehtiyojini ozgina bo‘lsa ham qondirish, unga mushkul tuyulgan muammoni tahlil va talqin etishda ko‘maklashish uchun o‘zimni burchli sezaman. Ushbu badia ham ana shu burchni baholi qudrat bajarishga qaratilgan.

«O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2004-yil 12-sonidan olindi.

SO‘ZLIK

Modernizm (fr. moderne – yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan atama, san’at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi.

Avangard (fr. avant-garde – ilg‘or bo‘linma), avangardizm – XIX va XX asrlar oralig‘ida dunyo (avvalo, Yevropa) san’atida paydo bo‘lgan san’at oqimlarining umumiy nomi. Ba’zan modernizm ma’nosida ham ishlatiladi.

Surrealizm (ing.-fr. ortiq darajadagi realizm yoki o‘tarealizm) – Freyd nazariyasi ta’siri ostida paydo bo‘lgan, reallik va uyquning qo‘shiluviga tayangan holda irreallikka, ongostiga tushib borishni maqsad qilgan oqim. Uning maqsadi ruhning moddadidan ayrilib, tamomila ozod bo‘lishiga erishishdir. Gipnoz, ochlik, kayf beruvchi vositalar yordamida inson ongostiga tushish ko‘zlanadi. San’at esa ozodlikni qo‘lga kiritish tomon olib boradi deb qaraladi.

Postmodernizm (fr. postmodernisme –modernizmdan keyingi) – XX asrning ikkinchi yarmida adabiyot va san’atda paydo bo‘lgan oqim, ijodiy metod.

Metamodernizm – potsmodernizmdan keyin modernizm va postmodernizm qo‘shilvidan paydo bo‘lgan adabiy oqim. Atama 1990-yildan to bugungi kungacha bo‘lgan holatni aks ettiradi. Uni termin sifatida golland faylasufi Robin van der Akker va norverg media nazariyotchisi Timoteus Vermyulen iste’molga kiritgan.

Metarealizm (metafizik yoki metaforik realizm) – rus she’riyatida 1970 – 1990-yillardan keyin paydo bo‘lgan oqim. Realizm reallikning bitta ko‘rinishini aks ettirsa, metarealizm voqelikning bir-biriga zanjirdek bog‘lanib, qorishib ketgan ko‘plab «yuzi»ni ko‘rsatadi. Shu ma’noni beruvchi «metametaforizm» terminini rus shoiri Konstantin Kedrov iste’molga kiritgan. Metarealizm termini esa Mixail Epshteyn tomonidan taklif qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Модернизм. Сборник. – М.: Искусство, 1987.
2. Гассет Х.О. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991.
3. Борев. Эстетика. – М.: Политическая литература, 1981.
4. Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.
6. Йўлдош Ў., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016.
7. Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
8. Норматов У., Ҳамдам У. Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи. Суҳбат // Жаҳон адабиёти. 2001.
9. Фрейд З. Психоанализ ҳақида бешта маъруза. – Тошкент: Мұхаррир, 2019.
10. Internet materiallari: Modernizm. Postmodernizm. Jumladan, <http://iEssay.ru> <[http://iessay.ru/ru/writers/other/literatura-konca-xx-nachala-xxi-veka/iz-literatury-tretego-tysyacheletiya-ob-osnovnyh-tendenciyah-razvitiya-mirovoj-literatury-v-konce-hh](http://iessay.ru/ru/writers/other/literatura-konca-xx-nachala-xxi-veka/stati/mirovaya-literatura-konca-xx-nachala-xxi-veka/iz-literatury-tretego-tysyacheletiya-ob-osnovnyh-tendenciyah-razvitiya-mirovoj-literatury-v-konce-hh)>, «Vikipediya», «Все поэты в Контакте», «МУ стихи» сайтлари.
11. Долгов К.М. От Киркегора до Камю. – М.: Искусство, 1990.
12. Самосознание Европейской культуры XX века. Сборник. – М.: Политическая литература, 1991.
13. Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992.
14. Ницше Ф. и др. Сумерки богов. – М.: Политическая литература, 1990.
15. Эшонқул Н. «Мен»дан менгача. – Тошкент: Академнашр, 2014.
16. Мир без границ. Литературная беседа с австралийской писательницей Н.Крофтс // Звезда Востока. – Ташкент, 2014. №1.
17. Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2013-y. may.
18. Sharq yulduzi. – Toshkent, 2015-y. aprel.

19. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2004. №12.
20. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002. №23 – 24.
21. Литературная газета. 2014 г. 17 – 23 сент.

MUNDARIJA

KIRISH.....
ASOSIY QISM.....
Modernizm.....
Modernizm va o‘zbek adabiyoti.....
Postmodernizm.....
Hozirgi zamon jahon adabiyoti muammolari.....
ILOVA
Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji. Professor U. Normatov bilan suhbat.....
Ijodiy erkinlikning totli mevalari. Munaqqid R. Rahmat bilan suhbat.....
Qiyofalar mazmuni. Munaqqid S. Nazar bilan suhbat.
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti A. Allambergenov bilan suhbat.....
Мир без границ. Avstralaliyalik yozuvchi Natalya Krofts bilan suhbat.....
O. Sharafiddinov: «Modernizm jo‘n hodisa emas».....
P.Qodirov. Ma’naviyat, modernizm va absurd.....
SO‘ZLIK.....
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....